

ALLAMJONOV
— AYBDOR —

Komil Allamjonov



UO'K 366.636:82-312.6

KBK 76r

A45

Barcha huquqlar himoyalangan. Ushbu kitobning hech bir qismidan mualliflik huquqlari egasining yozma ruxsatisiz hech qanday shakl hamda usulda, jumladan, Internet va korporativ tarmoqlarga joylash orqali tijorat maqsadida foydalanish mumkin emas.

© K. I. Allamjonov, 2021

ISBN 978-9943-7207-0-1

© OOO «Novda Edutainment», 2021

ALLAMJONOV AYBDOR

[REDACTED]

Muallifning tabirini


KOMIL ALLAMJONOV

SO'ZBOSHI

Bu kitob nega kerak?

Kitob yozishdan maqsad uchta bo'lishi mumkin. Bundan ikkisi menga taalluqli emas.

Birinchisi — pul ishlash. Menda bunday zarurat yo'q.

Ikkinchisi — qanchalik zo'r ekanimni butun dunyoga namoyish etish. Lekin o'zimizda ham, chet elda ham ko'pchilik meni taniydi, borimcha biladi. Shunday ekan, hech kimni alday olmayman.


Va nihoyat, uchinchi sabab — o'zim istagan insonlarga — o'n beshdan o'ttiz yoshgacha bo'lgan, atrof-olamga qarab turib: «Bu yog'iga nima qilsam ekan? Kun sayin o'zgarib borayotgan jamiyatda qanday yashab ketaman? Orqamda turib beradigan, qo'laydigan odamim bo'lmasa ham yuzaga chiqa olarmikinman, kimga kerakman o'zi? Orzularim ushalmikini?» deb o'ylanayotgan yoshlarga muhim fikrlarni yetkazish.

Sizga o'zim haqimda, qanday qilib oyoqqa turganim, hozirgi darajaga yetishimga nimalar turtki bo'lgani haqida gapirib bermoqchiman. Hech narsani nazardan qochirmaslikka harakat qilaman.

Bu kitobni yozishga kirishguncha o'zimni juda omadli deb hisoblardim. Butun umr omad kulib boqqandek tuyulardi. Mana hozir ham, shinamgina uyimda, oilam davrasida o'tirib zozyapman. Muvaffaqiyatli biznesim, qiziqarli loyihalarim bor. Peshonaning yarqiragani shu emasmi?!

Lekin boshimdan o'tgan voqealarni birma-bir eslab, omadim chopgan paytdan ko'ra ishim yurishmagan vaqtlar ko'proq bo'lganini tushundim. Bitta muvaffaqiyatga erishish uchun shunchalik ko'p muammoga duch kelgan ekanmanki, buni yuz foiz omad deb ham bo'lmaydi.

Bilasizmi, onam — doya-hamshira. Doyalarga alohida imtiyozlar berilmagan. Bittagina kafolatlangan qulaylik — farzandlarini o'zi ishlaydigan tug'ruqxonada, ishonchli shifokorlar qo'lida, hamkasb do'stlari orasida dunyoga keltirish. Xullas, men tug'iladigan paytim shuyam o'xshamagan, onamning ishxonasi sanitariya-dezinfeksiya ishlariga — «moyka»ga yopilib qolgan.



— • I • —

VAZIR KELDI

Go'dakligimda kattalarning oyog'i ostida o'ralashib, injiqlik yoki sho'xlik qilsam, buvim doim: «Uni tinch qo'yinglar, urishmanglar. Bu bolam ministr bo'ladi», — derdilar.

U vazir bo'ladi.

Nega unday deganlarini bilmayman. Buvimning fikricha, oilamizda mendan boshqa hech kim ministr bo'lolmasdi. Avtoslesar bilan hamshiraning o'g'li bir kun kelib obro'-e'tiborli, katta odam bo'lishini xayolga ham keltirish qiyin edi.

Oyimni savolga tutaman. Ular ham buvim nega bunday deganlarini bilmaydilar.

Mana endi, oradan oʻttiz yildan koʻproq vaqt oʻtib, OʻzMAA¹ binosining xolida turibman. Ministr boʻlib. Oʻzbekiston Matbuot va axborot agentligining direktori maqomiga koʻra vazir hisoblanadi. Kattagina binoning birinchi qavati. Devor, shiftlari toʻkilay deydi, pollari chirib yotibdi, hamma yoq vayrona, chiqindi. Hatto vazirning, yaʼni mening xonamdan kanalizatsiyaning badboʻy hidi anqiydi. Stalin davridan qolgan bu eski imorat oxirgi marta qachon taʼmirlanganini biron eslolmaydi.

Binodagi besh yuzdan ortiq xonaning deyarli hammasini ijarachilar egallab olgan. Xotin-qizlar qoʻmitasi, qaysidir partiyalar, qandaydir nashriyotlar, tadbirkorlar va yana kimlardir. Ichki hovlida mashinalar tiqilib ketgan. Hech kim menga ahamiyat bermaydi, odamlarning unisi u yoqqa, bunisi bu yoqqa oʻtib yuribdi. Ikkinchi qavatning chap qanotidagi kaftdek joy — mana shu OʻzMAA.

Meni jamoaga tanishtirish uchun Bosh vazir oʻrinbosari, Moliya vaziri Jamshid Qoʻchqorov keldi. Tanishtirdi-yu joʻnab ketdi. Majlislar zaliga tipografiyalarning yoshi oʻtib qolgan direktorlari, boshqarma boshliqlari yigʻilgan. Har biri bu tizimda salkam yarim asr — Sovet Ittifoqi davridan beri ishlab keladi. Oʻsha lahzada menga boʻlgan munosabatni aniq his qildim: goʻyo xonaga yosh bola adashib kirib qolgan-u, buvisi mehr bilan: «Bolamni urishmanglar, u vazir boʻladi», deyayotgandek. Xonadagilar menga parvo qilmay, oʻzaro gaplashib oʻtirishibdi. Eshikdan kirib kelgan yoshgina koʻzoynakli yigitchaga eʼtibor qaratgan-

dan ko'ra, yonidagi obro'li hamkasbining suhbatini muhimroq ular uchun.

Maosh tarqatish vaqti kelib qolgan, O'zMAA hisob raqamida esa 18 million so'm pul bor edi. Bosh buxgalterni chaqirtirdim. Nima qilamiz? Pul qani? Qanday ishlar-dinglar o'zi?

— Xavotir olmang, Komil Ismoilovich, tipografiyalar bizga oborotidan 2% o'tkazsa, maoshni yopamiz.

Bu haqda to'liqroq ma'lumot berishni so'rab, o'zim uchun qiziq narsalarni bilib oldim. To'g'ri, tizimdagi hamma tashkilotlar O'zMAAga bo'ysunadi. Ya'ni mantiqan olganda, ular bosh idoraga gap-so'zsiz mablag' o'tkazishi shart. Ammo hech qachon bunday bo'lmagan. Bosh hisobchi har oy xodimlarga maosh to'lash vaqti kelganda: «Iltimos, bizga mablag' o'tkazib bering», — deb yalinishga tushadi. Va har gal: «Imkon tug'ilsa, beramiz. Bo'lganda olasizlar», — degan kibrli javobni eshitadi.

— Komil Ismoilovich, ularni ko'ndiraman, shu paytgacha amallab kelganmiz, — dedi hisobchi meni «yupatib».

Demak, beshta nashriyot: «O'zbekiston», «O'qituvchi», «G'afur G'ulom», «Cho'lpon» va «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» oldin o'zini taroziga soladi. Oxiri rahbariyatning iltimosini bajargan bo'lib, pul o'tkazadi, xuddi ehson qilgandek.

— Unaqasi ketmaydi, — dedim.

— Iya, Komil Ismoilovich, sohaning kitlari-ku ular!
Qo'ying, aralashmang, o'zim hal qilaman.

Bosh hisobchi yillar davomida quyi tashkilotlardan tilanib pul undirishni oddiy hol deb kelgan. U o'zicha meni bu yoqimsiz jarayondan asramoqchi bo'ldi.

Men O'zMAAga bo'ysunadigan barcha tashkilotlar rahbarlarini katta umumiy majlisga chaqirtirdim. Navoiy nomidagi Milliy kutubxona direktori o'sha zahoti ishi ko'pligi, kelishga vaqti yo'qligini aytdi. «Qarshi bo'lmasangiz, keyin o'zingizga alohida uchrarman, maylimi, Komiljon?»

Men belgilangan vaqtda keldim. Vazir kursisiga o'tirdim. Odamlar xonaga kirib chiqib, u yoqdan bu yoqqa yurishibdi. Meni bir tiyinga olishmayapti, xuddi bu yerda umuman yo'qdekman. Indamay, sabr qilib turdim. Oxiri chidolmadim:

— Marhamat qilib o'tirib olinglar. Boshlaymiz. Bir-birimizni ozgina hurmat qilaylik.

Hamma joylashib oldi. Menga yov qarash qilib o'tirishibdi, suhbatning beliga tepdim-da! Eng gigant nashriyot — «O'zbekiston»ning direktorini turg'izdim.

- Qani, gapirib bering-chi, ishlar qanday ketyapti?
— Agar men gap boshlasam, bu yerda ertalabgacha o'tiramiz, — javob berdi u mensimaygina.
— Kerak bo'lsa, o'tiramiz, — dedim men. — Boshlang.

Bu haqda hozir gapirish oson, lekin tartib o'rnatishning o'zi bo'lmadi. Ishni O'zMAA direktori nomidan binoda o'tirgan barcha ijarachilarga xat yozishdan boshladim: «Tez kunda egallab turgan xonangizni bo'shatishingizni so'rayman».

Ijara to'lovining sharti oddiy ekan: Agentlik hisob raqamiga arzimagan mablag' o'tkaziladi, qolgan pul naqd beriladi. Xomcho't qilib ko'rdim. Oyiga ellik ming dollardan ko'proq pul kelib turgan. Shuncha pul qayoqqa ketgan, bilmayman. Bosh ofisga pul tushadimi, yo'qmi, hech kimni qiziqtirmagan. Bino esa xarobaga aylanib bo'lgan.

Menga bu pulning keragi yo'q edi. Qo'l ostimdagilar sal hayron bo'lishdi. To'g'ri, biznes bilan shug'ullanishimni, o'zimga yarasha daromadim borligini hamma biladi, lekin pul hech qachon ortiqchalik qilmaydi-ku!

Tabiiyki, «Ijarachilarga tegmang», degan iltimoslar yog'ila boshladi. Hech kim issiq o'rnini yo'qotgisi kelmasdi. Yuqoridan, vazirlik va idoralardan qo'ng'iroq qildirib, yangi direktorga bosim o'tkazishga harakat qilishdi. Faqat Xotin-qizlar qo'mitasining o'sha paytdagi raisi Tanzila

Kamolovna², ular uchun ajratilgan yangi binoning qurilishi hali oxiriga yetmagani, ozgina vaqt berilsa, bir yo'la ko'chib chiqib ketishlarini tushuntirdi. Ularning so'zini ikki qilolmadim. Qolganlarga qattiq turdim. Bino — bizniki, xodimlarimga sharoit yaratib berishim kerak. Ichki hovli yopildi, uyum-uyum axlat chiqarib tashlandi, xonalar, xoll, yo'laklar ta'mirlandi. Bularning hammasi kimning hisobidan bo'lganini gapirishga hojat yo'qdir-a?! Bino ta'miri oilaviy biznesimga qimmatga tushdi, oldinda esa hali ish ko'p edi.

Esimda, tadbirlardan birida Bosh vazirning birinchi o'rinbosari Ochilboy Jumaniyozovich Ramatov³ bilan uchrashib qoldik. Hozir nima ishlar bilan bandligimni so'radi. O'zMAAni boshqarayotganimni aytdim.

— Nima tashkilot edi u, eslatib yuboring? — so'radi Ramatov.

O'zMAA shu darajada bor-yo'qligi bilinmaydigan, mudroq tashkilot bo'lganki, hatto Bosh vazirning birinchi o'rinbosari bu Agentlikni birdaniga eslolmadi. Tashkilot rahbarlari Vazirlar Mahkamasi yig'ilishlariga deyarli chaqirilmagan. Direktorini faqat «baxt maktubi» olib turgan gazetalarning muharrirlarigina tanigan — uni olib tashla, buni tahrir qil... Faqat bir marta, janob Tangriyev⁴ «ma'naviyatga zarar yetkazganlar»ga (uning nazarida, albatta) qarshi O'zA orqali ayovsiz kurash e'lon qilganida, uning dongi hamma yoqqa tarqaldi.

Ammo mening oldimda turgan eng asosiy masala binoni ta'mirlash emas, Agentlik direktorining nufuzini ko'tarish edi, albatta. Xo'p, buning uchun nima qilish kerak? Mansab guvohnomasini pesh qilib, atrofdan izzat-hurmat kutish befoyda. Yaxshisi, jang san'ati qoidalarini qo'llagan ma'qul. Birinchi navbatda asosiy raqibni, kim boshqalarga ta'siri, so'zini o'tkazishini aniqlab, zararsizlantirish shart.

Xodimlarni attestatsiyadan o'tkazib, bir kun ichida bir necha kishini ishdan bo'shatdim. Keyin butun jamoa oldida Monitoring markazi direktori Xurshid Mamatovni lavozimidan oldim. Aynan uning guruhi [REDACTED]
[REDACTED]
[REDACTED] Yaxshiyamki, ishdan ketganing achingan oddiy jurnalist va blogerlar himoya qilishgani, bo'lmasa bular meni yanchib tashlashga tayyor edi.

Monitoring markazi O'zMAA ichidagi eng yopiq tuzilma bo'lib, hech qaysi direktor uning ostonasidan hatlab o'tmagan. Bir kuni xonamdan chiqarkanman, begona kishining kotibimga surbetlarcha o'shqirayotganini eshitib qoldim. Kotibiyatdagi yigitlar esa indamay turishibdi.

— Siz kimsiz? — so'radim men.

— Men Monitoring markazidanman! — mensimay javob berdi u.

Ulardan hamma cho'chirdi, chunki o'zlarini salkam butun olam xo'jayinlaridek tutishardi.

— Chiqib keting bu yerdan! — aslida bundan qo‘polroq gapirdim. — Kim bo‘libsiz, xodimlarimga do‘q uradigan?

Ko‘rinishidan ziyoli va og‘ir-bosiq rahbardan bunaqa muomala kutmagan haligi kishi dovdirab qoldi. Indamay chiqdi-ketdi. Men o‘sha zahoti Monitoring markazidagilarni yig‘ilishga chaqirdim.

Kirib borganimda, hammaning ko‘zi menda, birov qiziqib, birov xavfsirab qarab turardi.

— Hozir sizlarga qiladigan yaxshiligim shuki, — dedim Markazning direktori va yana bir necha xodimga, — o‘z arizangizga ko‘ra ishdan bo‘shataman va sizlarni xotiramdan o‘chirib tashlayman!

Monitoring markaziga shu paytgacha amalda hamma ishni yuritgan Dilnoza Ziyomammedova⁵ direktor bo‘ldi. Hozir u Prezident Administratsiyasi rahbarining o‘rinbosari. Fahm-farosatli, harakatchan oddiy xodimlarni direktor o‘rinbosarlari lavozimigacha ko‘tardim. Muddat qo‘ydim, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, hammani ishga solib yubordim.

Endi eng ulkan va bo‘ysunmas kit — «O‘zbekiston» nashriyoti qoldi. O‘sha, direktori «gapirsam, ertalabgacha o‘tiramiz», — degan nashriyot. Rostdan ham yangi vazirga aytadigan gaplari ko‘p ekan — tipografiyadagi qo‘shib yozishlar, talon-taroj, mulkni o‘zlashtirish holatlarining

tarixi juda uzun, Ittifoq davriga borib taqalarkan. Hukumatning barcha doiralari bilan aloqalari zoʻr yoʻlga qoʻyilgan. Hatto qoʻshni davlatlar miqyosida ham. Oʻz-oʻzidan maʼlumki, hamma hujjatlari joyida.

«Oʻzbekiston» respublikaga vagonlab qogʻoz olib kiritilgan nashriyot edi.

Ayrim faktlarni tahlil qilgan holda, katta ehtimol bilan davlat kursida olingan qogʻoz mamlakat ichida bozor narxida sotilganini taxmin qilish mumkin. Oʻrtada juda katta pul aylanardi. Shuning uchun nashriyot direktori meni rahbar sifatida tan olmadi, topshiriqlarimni bajarishni xayoliga ham keltirmadi. «Seriý kardinal» Mahmudjon Zaytayev⁶ boʻlib chiqdi. Lavozimida ellik yildan beri oʻtirgan mansabparast, amaldor bu otaxon hech nimadan tap tortmasdi.

Tipografiya doim davlatdan katta buyurtmalar olib, darslik, kundalik va daftarlar chop etsa ham, davlatga foyda keltirmas, aksincha, zararga ishlardi. Aslida daromad kimlarningdir choʻntagiga tushar, tizimda mehnat qilayotgan 650 nafarga yaqin ishchi esa arzimagan maoshini ham vaqtida ololmasdi.

Ularning daromad topish yoʻllarini oʻrganib, «Qoyill» deb yubordim. Qogʻoz salftetka-sochiqchalar va hojatxonana qogʻozi ishlab chiqaruvchilarga oʻram-oʻram chiqindini ham pullashar ekan, shovvozar! Tabiiyki, undan ham

«otkat» — ulush olishgan. Xullas, hamma narsadan pul qilingan. Almisoqdan qolgan nashriyot uskunalari esa tez-tez ishdan chiqar, ularni yangilash va zamonaviy texnikani ishga tushirish zarur edi. Lekin ehtiyot qismlardan ham «otkat» olmasa bo'lmaydi.

Mening hisob-kitobimga ko'ra, kimlarningdir cho'ntagiga har yili millionlab dollar tushgan. Mamlakatdagi eng yirik nashriyot esa talon-taroj qilingan, vayron bo'lgan. Lekin bu mening shaxsiy kuzatuv va xulosalarim. Men tergov olib boradigan, kimgadir ayblov qo'yib, dalil qidiradigan prokuratura emasman. Ammo o'z fikrimni aytishga haqqim bor, buni menga hech kim taqiqlay olmaydi.

Mayli.

Yangi yil arafasi. Ishchilarga mukofot puli tarqatilsin, deb topshiriq berdim. Korxonaning o'zida katta sahna qurdik. Sherali Jo'rayev, Yulduz Usmonova kabi san'at yulduzlari, taniqli qo'shiqchilarni taklif qildik.

O'ziam rosa qizdirishdi!

Konsertdan keyin, ziyofat oxirida so'zga chiqdim.

— Kayfiyatlar qalay? — so'radim yig'ilganlardan. — Nimaga ba'zilarning yuzida xursandchilik ko'rmayapman? Yangi yil bayram-ku? Mana, mukofot puli olgan bo'lishingiz kerak...

O'tirganlar orasida g'ala-g'ovur boshlandi. Qanaqa mukofot? Hech kim hech nima olgani yo'q...

Rahbariyatning rangi o'chib ketdi.

— Men O'zMAA direktori sifatida o'z majburiyatimni bajardim, xodimlarni mukofotlash haqida buyruq berdim. Lekin rahbarlaringiz buyruqni bajarmagan.

— Kechirasiz, hali ulgurmadik... — degan mujmal javoblar eshitildi.

— Agar berilgan topshiriqni bajarmasangiz, sizlarni ishdan olishga majbur bo'laman, — bu gapni hammaning oldida, mikrofon orqali aytdim.

Ertasigayoq shoshilinch ravishda mukofot puli tarqatildi. Hech qanday protokol-u rasmiyatchilikka qarab o'tirmasligimni bilib, hayiqishdi, shekilli. Hammaning oldida nimani o'ylasam, o'shani gapiraman, ishdan shartta bo'shatishim mumkin, arizaga «o'z xohishiga binoan...» degan yozuvni tirkab, imi-jimida choponni yelkaga tashlab ketish yo'q.

Mukofotni vaqtida berish arzimagan masaladek ko'rinishi mumkin, lekin bu yangi rahbarning bir so'zli ekani ni isbotladi. Shundan keyin ishchilarning muammolarini o'rgana boshladim. O'ziga xos ochiq eshiklar marafoni-

ni e'lon qildim. Istagan xodim kelib, dardini aytishi, savol yoki taklifini berishi mumkin edi. Ertalabdan boshlangan kirdi-chiqdi yarim kechagacha davom etardi. To'ylar, maoshlar, ta'tillar, davolanish, ijtimoiy imtiyozlar, xat-hujjat — ko'rmagan masalamiz qolmadi.

Odamlarni rag'batlantirish uchun «O'zbekiston» nashriyotida ishlaydigan hamma xodimlarning maoshini yaxshigina ko'tardim.

Tipografiya xodimlarini esa ogohlantirdim: kim o'g'ri-lik qilsa, javobgarlikka tortiladi. To'g'ri, «otkat»lar bilan solishtirganda bu pul xamir uchidan patirdek edi. Kimlardir baribir eski hunarini qo'ymadi va ishdan bo'shatildi.

Darvoqe, direktorning ham oyligini oshirdim. Undan oldin xususiy bozorda eng zo'r mutaxassislarning mehnati qanchaga baholanishini surishtirdim. Natijada, direktorning maoshi 2,5 milliondan deyarli 25 millionga chiqdi.

Oyligi rasman qancha ekanini aniqlaganimda, o'rtamizda noxushroq suhbat bo'lib o'tdi:

— Milliardlab pul aylanadigan, 650 kishilik jamoaga bosh-qosh rahbar bunaqa arzimagan oylikka ishlashi uchun yo ahmoq bo'lishi kerak, yoki o'g'ri. Siz qaysi biringiz? — so'radim kinoya bilan. — Shaxsan men qo'l ostimda ikkala toifa ham ishlashini istamayman.

Rahbarlar istalgan paytda lavozimidan ayrilishi mumkinligini tushunishdi. Topshiriqni bajarmasa, ishdan olaman. Qattiq va ayovsiz bosim o'tkazishga to'g'ri keldi.

Ma'lum vaqtdan keyin direktor qabulimga kelib, «o'z xohishiga ko'ra» lavozimidan ozod etishimni so'radi. Yo'q! Aniq bir sabab bo'lsa, bo'shataman, o'z ixtiyori bilan ketish yo'q!

Tipografiyalardan biridagi sexda ishchilar yerto'lada ishlashar ekan. Bino taxminan ellik yildan beri ta'mirlanmagan. Hamma yoqda namgarchilik, zax bosib yotibdi, xonalar nimqorong'i. Binoni epaqaga keltirish uchun bir hafta muddat berdim. Roppa-rosa bir hafta! Direktorertasidan ishga chiqmay qo'ydi. Hamma ishni tashlab, yo'qolib qo'ya qoldi.

Nashriyotlarning rahbarlari qaltis vaziyatda edi. Meni na pora berib, na kimlargadir qo'ng'iroq qildirib o'zlariga og'dira olishdi. Bunday yuqori lavozim egasiga uncha-muncha odam haddi sig'ib iltimos bilan chiqa olmaydi. Shuning uchun yillar davomida nashriyotlar mablag'ini o'zlashtirib kelganlar sekingina juftakni rostdashdi.

Yo'limizga to'g'anoq bo'layotganlarning ildizini quritish kerak edi. Aks holda, ular ishlashga xalaqit berishlari, ustimdan yumaloq xatlar yozib, oyog'imdan chalishga harakat qilishlari aniq. Lavozimida qolganlarga har qanday qoidabuzarlik va sabotaj uchun albatta javobgarlikka tor-

tishimni tushuntirib qo'ydim. Yoshi yoki ko'rsatgan xizmatlariga qaramay, hech kimni ayab o'tirmaymiz, aybdor jazosini oladi.

Moliyaviy tekshiruv O'zMAAga qarashli «O'zbekiston» nashriyoti zararga ishlayotganini ko'rsatdi. Vaholanki, davlat buyurtmalaridan hisob raqamiga milliardlab so'm tushib turardi. Vaziyatni o'rganib, tashkilot balansida sohaga aloqasi bo'lmagan qandaydir aktivlar, binolar borligi va ulardan foydalanish uchun juda katta mablag' sarflanishini aniqladik.

Eng ko'pxarj bino «O'zbekiston» nashriyoti qoshidagi yotoqxona ekan. Xodimlar u yerda o'n yillab, avlod-avlodi bilan yashaydi. Bino nashriyot balansida. Lekin ular doim ijara haqi to'lab kelgan.

Yuristlarga masalani o'rganib, qonuniy yechimini topish bo'yicha topshiriq berdim. Har bir oila ijara xonadonini o'z nomiga rasmiylashtirsin, yotoqxonada emas, shaxsiy uyida yashasin, dedim. Yechim topildi. Shuncha yil ijarada turgan ellikta oila boshpanali bo'ldi.

Har bir xonadonga birma-bir kirib, bir piyola choy ustida mezbonlarni gapga soldim. «Uyni o'z nomingizga rasmiylashtirishda muammo tug'ilmadimi? Hech kim hech narsa tama qilmadimi? Uyli bo'lish uchun kimningdir cho'ntagiga pul solish kerak, degan gaplar bo'lmadimi?» Hammadan bir xil javob eshitdim: «Yo'q, unaqasi bo'lmadi».

Bu bizning g'alabamiz edi! Uy taqsimoti uchun javobgarlar, agar ortiqcha gap chiqsa, albatta qulog'imga yetib kelishini bilib, bir tiyin ham undirishga harakat qilishmagan. Binoni ta'mirlab berishni bo'ynimizga olgandik, va'damizning ustidan chiqdik. Ishchilar hovlida katta dasturxon yozib, xudoyi qilishdi. Meniyam taklif etishdi. So'zga chiqib, bu uylar yurtimiz Prezidenti hamda Agentlik tomonidan taqdim etilayotgani, hujjatlar qonuniy rasmiylashtirilgani va mendan keyin ham ishchilardan uyni hech kim tortib ololmasligini aytdim. Kimdir xursandchiligini ichiga sig'dirolmay yig'lagan, kimdir kulgan, hammaning ko'zi chaq nab turibdi, xullas, esdan chiqmaydigan kun bo'ldi.

Prezident siyosatining asosi ham odamlar turmushini yaxshilashdir. Men esa komandaning bir a'zosi sifatida shu ishga ozgina bo'lsa ham hissam qo'shilganidan mamnun edim.

Shuncha yil omonat uyda hayot kechirish, omonat uyda farzand ko'rib, to'y-tomoshalar qilish, istalgan paytda ko'chada qolishi mumkinligini o'ylab, qo'rqib yashash... Hozir o'z uylarida tinch-xotirjam yashayotgan o'sha odamlar duolarida meni ham eslab qo'yishadi, degan umiddaman.

Yana balansimizda respublikadagi yagona matbaa-no-shirlik kasb-hunar kolleji ham bo'lib, yopilish arafasida turgan ekan.

Qabulimga direktori keldi.

— Binoni bo'shatib berishimiz kerak, — dedi.

— Xo'p, yaxshi. Matbaachilarni qayerda tayyorlaymiz unda?

— Kollejning o'zi bo'lmaydi! — xo'mrayib javob berdi direktor.

— Mamlakatda 1600ta matbaa korxonasi ishlab turibdiyu, matbaachi tayyorlaydigan birorta o'quv dargohi bo'lmaydimi?! Bunaqasi ketmaydi!

Kollejni saqlab qoldik. Vazirlar Mahkamasining bu boradagi Qaroriga o'zgartirish kiritilishiga erishdik. Kollejning yopilishiga yo'l qo'yib bo'lmasdi. Chunki kitob, darslik, o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali tashviqot vositalari o'rnini hech nima bosa olmaydi — internet ham, boshqasiyam.


Endi oldimizda turgan eng muhim masala SO'Z ERKINLIGI edi. Biz Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunamiz. VM esa vazirlik va idoralar degani. Tanqid asosan shularga qaratilgan bo'lsa, qanday qilib so'z erkinligiga erishish mumkin? Demak, Agentlik vazirliklar bilan teng maqomda bo'la olmaydi.

Prezidentga bildirish xati kiritdik. Agentlik bevosita Prezident Administratsiyasiga bo'ysunsagina OAVni himoya qilishi mumkin. Masalani shu nuqtayi nazardan asosladik. Bizga qo'ng'iroq qilib, og'zimizni yopadiganlar

bo'lmasligi kerak. Rahbariyat bu taklifni qo'llab-quvvatladi.

Agentlik xodimlari maoshini bir necha barobar oshirdik. Arzimagan pul to'lab, odamlardan vijdonan ishlashni talab qilib bo'lmaydi. Oyliklar qay darajada o'zgarganini tasavvur qilishingiz uchun misol keltiraman: bir yarim million oladiganlarning maoshi o'n sakkiz millionga chiqdi. Sohani yaxshi biladigan mutaxassis o'z qadrini ham biladi, halol ishlaydigan bo'lsa, o'sha arzimas pulga ko'nmaydi.

«Botir Parpiyevning jiyani» bo'lmaganimda, bu ishlarini eplay olmasdim, albatta. Men shafqatsiz soliq idorasi maktabida juda samarali saboq olganman.



PARPIYEVNING JIYANI

2001-yil

San'at institutining birinchi kursida o'qiyotganimda qarindoshimiz Baxtiyor aka hozirgi MTRKning⁷ o't o'chirish xizmatida ishlaydigan og'aynisi Abdusattor aka bilan kelishib, meni televideniyeга amaliyotga joylab qo'ydi. Ota-onam «Darsdan keyin laqillab yurmasin, ishlasin, pul topmasayam, tajriba orttirsin», — derdi. O'zim ham tele-rejissorlik kasbiga qiziqib, haqiqiy televideniyechi bo'lishga tayyor edim.

MTRKga kirish oson emas, bu nihoyatda yopiq tashkilot. Biror lavozimni egallash u yoqda tursin, eng oddiy ishga joylashish uchun ham tanish-bilish kerak edi. Abdusattor akaga rahmat, oddiy bir talabani praktikaga olishga «Davr»⁸ dasturi tahririyatini ko'ndirdi.

Ishga ketayotganimda onam qattiq tayinladilar:

— Komiljon, jon bolam, hech kim bilan urishib-talashib yurma, iltimos, birovga gap qaytarma, «xo‘p-xo‘p» degin, nima ish buyurishsa, darrov aytganlarini qilgin, hammaga foydang tegsin, hammaga yordam bergin, o‘g‘lim...

Xuddi shunday qildim. «Rejissor yordamchisi assistentining yordamchisi» degan sharaflı lavozimda hammaga foydali bo‘lay, dedim.

— Hoy, bola, somsaga chiqib ke!

— Xo‘p.

— O‘v, kassetalarni olib chiq.

— Xo‘p.

— Taym-kodini yozib ber.

— Xo‘p bo‘ladi...

Sekin-sekin ish o‘rgandim, bilim, tajriba orttirdim.

O‘sha paytda «Davr»ga Furqat Zokirov rahbarlik qilardi. Men uning uchun keraksiz bir matohdek edim. Shuncha ishlab, menga na bir og‘iz yaxshi gapirgani, na maqtaganini eslayman. Faqat tanbehini, «Ishdan haydayman!» degan po‘pisasini eshitganman. U meni qanchalik yoqtir-masa, men ham o‘sha paytda uni shunchalik yomon ko‘rardim. Hammaning oldida meni haqorat qilishi yoki arzimagan xatoyim uchun studiyadan haydab solishi mumkin

edi. Hech qachon salomimga alik olmasdi, xuddi bu bilan biror joyi kamayib qoladigandek. Eshlasam, haliyam tushunmayman, nahotki bir og'iz so'rashish shunchalik malol kelgan bo'lsa?!

«Davr tongi»ga Sevara Nazarxon sevishganlar kunida konsert bergani haqida kichkina lavha tayyorlab, rosmanna baloga qoldim.

— Qanaqa sevishganlar? — chinqirdi u. — Jinnimisan? Sevishganlaring nimasi?! Menga nimani tiqishtiryapsan?

Baqir-chaqiri butun MTRKga eshitildi. Shundan keyin iloji boricha uning ko'ziga ko'rinmaslikka harakat qildim. Hech kim tahririyatning qoidalari, siyosatini, umuman, televideniyaning yozilmagan qonunlarini o'rgatmasdi. Lekin ishni xuddi tajribali odamdan so'ragandek talab qilishardi. Alam qiladigani shu edi. Ishimni qoyil qilib bajarishga harakat qilganim sari so'kish eshitardim. Men o'zinga boshqacha bir munosabat talab qilmayman. Lekin do'q-po'pisa, haqoratni umuman ko'tara olmayman. Gap eshitmaslik uchun hamma ishni astoydil, o'z vaqtida bajaraman.

Hozirgacha nima ish qilsam, xuddi tepamda Furqat Zokirov aftini burishtirib, «Tahririyatdan haydayman!» deb o'dag'aylayotgandek tuyulaveradi. Hamma loyihalarim pishiq-puxta chiqishi shundan bo'lsa kerak.



Furqat Zokirov meni haydab yuborgan «Davriy» studiyasining montaj ko'rikxonasi hamda «Davriy tongi» dasturi ijodiy guruhi.

Lavhalarni hammadan yashirincha, eng asosiysi, direktorga ko'rsatmasdan tayyorlashga to'g'ri kelardi. Kamera-ni yalinib olib, kechalari montaj qilardim. Shundayam televideniya bemaol ko'rsatsa bo'ladigan yaxshi material chiqardi. Masalan, «Qutqaruv-050» xizmatiga bag'ishlangan qisqagina lavhamdan hatto Furqat Zokirov ham kamchilik topolmay, efirga qo'yg'an.

Keyin FVV⁹ haqida ko'rsatuv tayyorladim. Binoyidek material bo'ldi, shunchalik o'zimga yoqqanidan FVV ofisiga borib, o'zlariga ko'rsatishga qaror qildim.

Peshona deb shuni aytsalar kerak: men «qaydasan FVV» deb yo'lga chiqqanimda matbuot xizmati boshlig'i kapi-

tan Begmatov yangi tayinlangan vazir Botir Parpiyevning qabulida o'tirib, dakki eshitayotgan bo'lgan. Axborot xizmati ishlamayapti, vazifasini bajarmaydi, yangiliklar e'lon qilmaydi, televizorda ko'rinmaydi... Kapitan Begmatov peshonasidan duv-duv oqayotgan terni ro'molchasi bilan artganча, boshi qotib o'tiravergan. Vazir haq edi.

Qabulxonadan chiqqan Begmatovga FVV binosida axborot xizmatini qidirib yurgan yosh yigitcha, ya'ni men ro'para kelib qoldim. Kapitan rosa xursand bo'lib ketdi.

— Menga xuddi shu kerak edi! — dedi u, tayyorlagan ko'rsatuvimni ko'rib. Keyin ust-boshimga g'alatiroq qaradi-da (kalta ishton — shortikda edim): «Ertaga tuzukroq kiyinib kel. Shim, ko'ylak... Ministrning oldiga kiramiz», — dedi.

Ertalab FVV eshigiga yetib kelganimda ish kuni boshlanishiga hali o'n besh daqiqa bor edi. Vazirning xonasiga kirdim. Forma kiygan Botir Rahmatovich kattakon stol ortida nimadir o'qib o'tirardi. O'ziyam qoyadek salobatli. Menga bir qarab qo'ydi.

— Assalomu alaykum... — ikkilanib, sekingina stol tomon yurdim. Shu payt kutilmagan voqea bo'ldi. Men Furqat akaning salomimga alik olmasligiga o'rganib qolgan ekanman. Vazir o'rnidan turdi. Stolni aylanib o'tib, menga qo'lini uzatdi.

— Vaalaykum. Yaxshimisiz? — u shunday deb, o'tirishga ishora qildi.

Nimaga kelganim ham esimdand chiqib ketdi. O'zimni yo'qotib qo'ydim. Kimsan vazir men — oddiy bir talaba bilan so'rashish uchun o'rnidan turdi-ya! Bu odamni o'sha kundan hurmat qila boshladim. Haligacha ko'nglimda ana shu minnatdorlik hissi bor.

Botir Rahmatovich materialni ko'rib, juda mamnun bo'ldi. Ishim unga yoqdi.

— Yashang! Endi qog'oz-qalam olib, yozing. Mana bu joyida galstuk sal qiyshayib qopti, bunisida furajkani to'g'rilash kerak. Manavi yerga bunaqa kirib borilmaydi, bu tomondan emas, narigi tarafdand...

Vazirning gaplarini yoza turib, kayfiyatim tusha boshladi. Video gazeta uchun yozilgan reportajmas-ku, besh daqiqada o'zgartirib tashlasam. Qiyshaygan bo'yinbog'ni to'g'rilash uchun o'sha lavhani boshqatdan tasvirga olish kerak. U paytlari MTRKda hech kim o'zicha kamera ololmas, texnika jurnalistlarga jadval bo'yicha, navbati bilan berilardi. Olasan, qo'l qo'lasan, joyiga borib, tasvirga tushirib kelasan, xullas, o'ziga yarasha tartib-qoidasi bor. Keyin hamma materialni montajda yig'ib, render qilish kerak.

— Yozib oldingmi? Senga ertagacha muhlat.

Qanday ulguranimni bilmayman-u, lekin epladim. Kechasi bilan uxlamadim. Ertalab tayyor qilib bordim.

— Barakalla! Faqat kecha manavi joyi esdan chiqibdi-da, shuniyam qoʻshib qoʻy, kechqurun koʻrsatasan.

Vaqt kechagidan ham kam. Oʻshanda hayotimda birinchi marta umuman iloji boʻlmagan ishni qilib, kechgacha topshiriqni bajardim.

— Ana endi hammasi joyida, — dedi vazir. — Efirga beraver!

Kulib yuboray dedim.

— Botir Rahmatovich, men televideniya kichkina odamman. MTRK raisi u yoqda tursin, muharrir ham gaplashib oʻtirmaydi men bilan. Uni hatto koʻrmayman ham. Lavha efirda ketishi uchun uning imzosi kerak.

— Yoʻgʻ-e? — astoydil hayron boʻldi vazir. — Mayli, shuniyam muammomi?..

U telefonda Koʻchimovning¹⁰ raqamini terdi..

— Abdusaid aka, bizni qoʻllab turganingiz uchun rahmat, yigitlaringiz zoʻr ekan, juda yaxshi koʻrsatuv tayyorlashibdi...

Ishxonada Furqat Zokirov meni qilich yalang'ochlab kutib turgan ekan. Bu safar u butun Toshkentni boshiga ko'tarib baqirdi. Men uni bir tiyinga olmay, ruxsatsiz, navbatsiz kamera olib chiqib ketibman. «Tirrancha, dumbul, ahmoq, eshshak... Menga yuqoridan bosim o'tkazaman, deb o'ylama!»

O'sha kundan boshlab ikki o't orasida qoldim. FVV-dagilar aytsa, lavha tayyorlab beraman, keyin direktor menga zahrini sochadi: har safar vazirlikdan qo'ng'iroq qildirib, texnika jadvalini buzarmishman.

Ish ko'p, MTRKdan yarim kechasi qaytardim. «Navoiy» metro bekatidan oxirgi poyezd tungi 12:03 da jo'nar, nima qilib bo'lsayam, ulgurishim kerak edi. Bunaqa paytda metroda deyarli odam bo'lmaydi, faqat farrosh xola kattakon shvabrasini perronning u boshidan bu boshiga sudrab yuradi, yana ikki militsioner mudrab o'tiradi. Bekat bo'm-bo'sh, nimqorong'i, ovozlar aks-sado beradi, o'ziga xos hidi bor... Metroning hidini shunaqa yaxshi ko'rardim-ki... Bu uyga qaytish hidi edi. Tonneldan keladigan shamol va yaqinlashayotgan poyezd chiroqlarini ayt-maysizmi! U meni yana bir og'ir ish kundan ozod qilib, erkinlikka olib chiqadigandek tuyulardi. Hammasidan ko'ra shu yoqimli edi.

Mening bekatim — eng oxirgisi. Shuning uchun ba'zan yo'lda uxlab qolsam ham, kerakli bekatdan o'tib ketmasdim. «Beruniy¹¹ — oxirgi bekat. Vagondan chiqayotganda

buyumlaringizni unutmang». Shu so'zlarni eshitib, uyg'olib ketardim.

Beruniyda soat tungi o'n ikkidan keyin jamoat transporti qatnamas, Qoraqamishga¹² yetib olish uchun taksichilar turgan «pitak»ka kelardim. Oxirgi manzil — Tansiqboyev ko'chasi, to'rt yo'lovchi yig'ilmaguncha, mashina yurmaydi. Men oldingi o'rindiqqa joylashib, sovuq kunlari pechkani yoqishni so'rardim va ryukzagimni quchoqlagancha boshqalarni kutib, uxlab qolardim. Taksi birpasda to'lardi.

Ko'pincha oxirida men qolardim. Haydovchilar har safar: «Tansiqboyevgacha deganding-ku, tush endi!» deb men bilan tortishar, men esa yana ikki yuz metr yurishim kerak edi. Qattiq charchaganimdan «Sal nariroqqa tashlab qo'ying, aka» — deb yalinardim.

Uxlashdan ham ko'ra tezroq ovqatlansam, derdim. O'n ikki yo'lakli uyimiz uzoqdan ko'zimga kattakon bo'lka non bo'lib ko'rinardi. Xayolan ustiga ikki parrak Yusupov pamildoridan qo'yib, tuz separdim.

Ishdan ertaroq chiqsam, trolleybusda ketib, keyin yana ikki bekat piyoda yurardim. Maktabning yonidan shoshmasdan o'tardim, lekin panjara tugab, qabriston devori boshlanganda yugurishga tushardim — atrof vahimali, qop-qorong'i, salgina shitirlagan tovushdan yuragim yori-lay deydi. Yuguranim yaxshi.

Oyim qornimni to'ydirish uchun ishdan kelishimni albatta poylab o'tirardilar. Ikki xonali uyda olti kishi — adam, oyim, buvim, ikki singlim va men yashardik.

Biz — bolalar buvim bilan bitta xonada, yerga ko'rpacha to'shab uxlar edik. Buvim menga duo qilishni o'rgatganlar. Har kuni uxlashdan oldin qiladigan duolari xotiramga qattiq o'rnashib qolgan. Ma'nosini tushunmasdim-u, baribir qandaydir xotirjam bo'lib qolardim. Keyin esa o'z bilganimcha, derazaga, yulduzlarga qarab duo qilardim. Xudo eng yorug' yulduz tomonda, u meni aniq ko'rib turibdi, menga yordam beryapti, yaqinda boy, mashhur va baxtli bo'lib ketaman, deb qattiq ishonardim...

Lekin hozircha har kuni ertalab MTRK eshigida sarg'ayib, kimdir meni o'zi bilan olib kirib ketishini poylardim. Menga hatto ichkariga kirish uchun ruxsatnoma ham berilmagan, shuning uchun doim kimningdir etagiga osilib olardim. Sabrim chidamay, ichkariga qo'ng'iroq qilsam, «Davr»ning mas'ul kotibi Dilshod aka menga bobillab berardi: «Qo'ng'iroq qilaverma! Hammaning joniga tegib ketding! O'shatta kutib o'tir!» Mayli, umri uzoq bo'lsin. Lekin shu gaplarni o'qisin, bir paytlar meni hatto ruxsatnomagayam loyiq ko'rmagan edi. Haligacha alam qiladi. Undanam yomoni, maosh beriladigan kuni «Davr»ning hamma xodimlari yetmish ming, yuz ming so'mlab olib, cho'ntagini to'ldirib ketishar, menga esa bir yarim-ikki ming so'm tegardi. Direktorimiz, agar iloji bo'l-

ganida, telestudiyaning tabarruk polini oyoqosti qilganim uchun yonimdan to‘lattirarmidi, deb o‘ylab qolaman.

Keyin meni FVV matbuot xizmatiga ishga chaqirishdi. Bu hayotimdagi birinchi haqiqiy omad edi. FVV binosi shaharning qoq markazida, hozirgi Senatning o‘rnida joylashgandi. Bu vazirlikka kirish ham xuddi MTRK binosiga kirishdek qiyin bo‘lgan. Ochig‘i, men «Davr»dan hecham ikkilanmay, jon deb ketdim. FVVdan guvohnoma, forma berishdi, bosh mutaxassis lavozimiga tayinlashdi. Qanchalik omadim kelganini xayolga ham keltirish qiyin — men o‘sha paytda o‘zboshimchalik bilan «zachyotka»ga baho qo‘yganim uchun institutdan haydalgandim.



MTRK apparat studiyasida «Soliq xizmati» ko‘rsatuvini yozib olish jarayoni.

Men o‘qimoqchi bo‘lgan O‘zMU jurnalistika fakultetiga kirish qiyin, konkurs katta edi. Kirishimga ko‘zim yet-

madi, tinchgina San'at institutining rejissorlik fakultetiga hujjat topshira qoldim. Rejam oddiy edi — bir yil o'qib, keyin jurfakka «perevod» qilaman. O'qishga kirishdan ko'ra ko'chirish osonroq. Rektorning menga munosabati juda yaxshi edi, ammo ikkita fandan kuzga qoldim. Bittasini-ku, kursdoshim Dilmurod bilan amalladik — baho qo'yib berishga domlani ko'ndirdik. Buyam lekin oson bo'lmadi, chunki xuddi shu odam meni deb dekan o'rinbosari lavozimidan olib tashlangan va oddiy o'qituvchi qilib qo'yilgan edi. Men uning ichib yurishini rektorga chaqib berganman. Shunda ham domla menga yordam berdi. Sahnada nutqi fanini esa «yopolmay» qoldim. O'qituvchi opaxon dam olishga ketibdi. Shu fandan baho olmasam, o'qishni ko'chirib bo'lmamas ekan.

Somsaxonada o'rtog'im bilan «zachyotka»larimizga birpas qarab o'tirdik. Men somsadan bir tishlab, daftarchaga «uch» bahoni o'xshatib chizdim. Somsaga qo'shib insofniyam yevorganim yo'q, «besh» emas, «uch» qo'ydim, xolos. Keyin o'rtog'imga ham boplab chizib berdim. O'zimizcha, bu ayolning ham bolalari bordir, bizni to'g'ri tushunsa kerak, taqdirimiz hal bo'lyapti-ku, kelganida hammasini ochiq aytib beramiz, u bizni kechiradi, debmiz. Hujjatlarni topshirdik. Buyog'iga buyruqni kutish qoldi.

Ikkinchi sentabr kuni opaning oldiga bordik. Gapni uzoqdan boshladim: oilada yolg'iz o'g'illigim, otanomam meni odam bo'lsin deb, ToshDUga¹³ kirishimni bir umr orzu qilgani...

— Nima demoqchisan? — soʻradi Xatira opa.

— Biz oʻqishni koʻchirmoqchi edik. Siz dam olishga ketgan ekansiz. Shunga, nomingizdan oʻzimizga «uch» baho qoʻyib... UZR endi, opa...

Toʻgʻrisini aytsam, Xatira opaning bunchalik jahli chiqishini kutmagandim. Xuddi men «zachyotka»ga baho emas, vasiyatnomasiga qalbaki imzo qoʻygandek, birdaniga portlab ketdi.

— Bu nimasi, Komiljon? Axir bu jinoyat-ku! Noqonuniy ish qilgansiz!

Xatira opa gapirgani sayin nima ish qilib qoʻyganimni, qalbaki «uch» arzimagan narsa emasligini tushunib yeta boshladim. U bizni rektorning yoniga sudrab bordi: «Agar bu ikkovini hoziroq institutdan haydamasangiz, men ketaman!» — deb shart qoʻydi. Qattiq turib oldi. Chunki talabaning, ustiga ustak kelajakda mafkurani belgilaydigan talabalarning yolgʻonini kechirib boʻlmaydi. Shuncha yalinsak ham, opa koʻnmadidi. Ikki oyogʻini bir etikka tiqvoldi. Pul ham, tanish-bilish ham yordam bermadi.

Onamni chaqirtirib, shartta: «Oʻgʻlingiz institutdan haydaldi», — deb eʼlon qilishdi. Oʻsha yerning oʻzida hushlaridan ketib qolmasinlar ishqilib, deb qoʻrqib turdim.

Oyim bilan Kosmonavtlar xiyobonidan jimgina yurib ketyapmiz. Kayfiyat rasvo. Sekin gap boshladilar:

— Mayli, Komiljon. Bildim, sendan katta odam chiqmas ekan. O'zi rabochiyning bolasi rabochiy bo'lar ekan-da. Hechqisi yo'q, hozir adangning ishxonalariga boramiz, seni o'zlariga yordamchi qilib oladilar. Hunarli bo'lish ham yaxshi narsa. Moshina tuzatib non topasan.

Undan ko'ra, tarsaki tushirganlari ming marta yaxshi edi. Onamning bor umidlari mendan, menga ishonardilar. Men bo'lsam shuni bilib turib, pand berdim.

Mana endi chalamulla talabani vazirlikka ishga olishyapti. Xatira opadan ko'pam xafa bo'lmadim. Bu voqeadan katta saboq oldim, qaysidir ma'noda o'sishimga ham shu sabab bo'ldi. Eng asosiysi, yolg'on ertami-kechmi fosh bo'lishini vaqtida tushunib yetdim. Yolg'onni ichingda saqlab, qachondir oshkor bo'lishidan qo'rqib yashagandan ko'ra, qilmishingga yarasha o'sha zahoti jazo olgan yaxshiroq ekan. Boshida FVV formasida, guvohnomamni ko'tarib Xatira opaning oldiga bormoqchi bo'lib yurdim. «Mana, kim bo'lganimni bir ko'rib qo'ying...», — degim kelardi. Vaqt o'tib, mening kelajagimga aynan Xatira opa turtki berganini tan oldim. U ustozning oldiga anchadan keyin bordim. Nimalarga erishganimni gapirib berdim. Lekin suhbatimiz umuman boshqa ohangda bo'ldi.

U vaqtda esa mendan baxtli odam yo‘q edi. Hamma orzularim ushala boshlagan, oldinda meni omadli parvoz kutayotgandek edi.

Bu shiddatli parvoz to‘qqiz yil davom etdi. Shuncha yil har bitta ikir-chikirga e‘tibor beradigan, talabchan perfeksionistning qo‘l ostida jonimni berib, bayram, dam olish nimaligini bilmay ishladim. Yo hammasini qoyil qilib qo‘yasan, yoki umuman keraging yo‘q. O‘shanda bir narsani sezganman — o‘zimga dushman orttirishga usta ekanman. Bu «fazilatim»dan umr bo‘yi qutulolmadim.



FVV matbuot xizmatida. «Qamchiq» maxsus qidiruv-qutqaruv boshqarmasi faoliyati haqida reportaj tasvirga olinyapti.

Bir yil ichida FVVning axborot tizimini yaxshigina o'zlashtirib oldim. Mendan doim yangi g'oyalar qaynab chiqar va ular Parpiyevga ma'qul kelardi. Muhimi, men bu g'oyalarni ro'yobga chiqara olardim. Lekin kimdir ishingga aralashsa chidolmasdim, vazir o'rinbosarlari bilan tengma-teng gaplashar edim. Bir yilda ishini qoyil qilib bajaradigan mutaxassis deb hisoblay boshladim o'zimni. Qizig'i, mening hech kim bilan ishim bo'lmasa ham, atrof-dagilar nimagadir nuqul mening ishingga aralashar edi. Bu xuddi osh pishirish uchun oshpaz chaqirib qo'yib, keyin uning tepasida turib, «guruchini kam sopsan, yog'ni ko'p quyvoribsan», degandek gap. Indamay, o'ziga qo'yib ber, oldin oshni damlasin, o'xshata olmasa, ana undan keyin tanqid qil! Yo'q, men bir ish qilsam, hamma burnini suqishi shart! Bunga chidolmasdim, shuning uchun Komil Allamjonovni betgachopar, o'jar deb bilishardi. Bir ahmoq yoki tantiq bo'lsam ham mayli ekan, ammo men ishimni qoyillatib bajarardim! Hamma mening «surbetligim» sababini qidira boshladi.

Hatto hukumatdagilar ham o'ylashib gaplashadigan, uncha-munchani yaqiniga yo'latmaydigan, kamgap, odamovi Parpiyev nima uchun bolasi tengi bu yigitchani yetaklab yurganini hech kim tushunmasdi. Oldiniga FVVga ishga oldi, keyin Bojxona qo'mitasiga, undan keyin Soliq xizmatiga. Bu bolaning nimasiga ishonadi? Qarindoshi ekani aniq! Qarabsizki, bu bola generalning jiyani ekan, shuning uchun uni ko'tar-ko'tar qilyapti, degan mish-mishlar tarqaldi. Bu gaplarga mixday dalil ham to-

pildi, Parpiyev — andijonlik, otasi Marg'ilondan. Mening bobom ham asli farg'onalik. Demak, amaki-jiyanmiz! Vodiya hamma bir-biriga qarindosh, begonasi yo'q.

Aslida generalning ishonchiga kirganimning sababi oddiy. U juda qattiqqo'l edi. Yolg'onni, xatoni kechirishi qiyin, soxtalikni yomon ko'rardi. Mening adashishga haqqim yo'q edi. U na shaxsiy hayotim, na bo'sh vaqtim bo'lishini tan olar, o'zi ham tinimsiz ishlar, boshqalarni ham tindirmasdi. Men ham xuddi shunday ishlardim. Qila olmayman, qo'limdan kelmaydi, charchadim, uyga, oyimning oldiga borгим kelyapti, deyishim mumkin emasdi. Uning ishonchini oqlashim shart edi. Buyruqlarini so'zsiz bajarardim, e'tiroz bildirmasdim, erinchoqlik qilmasdim. Botir Rahmatovich professional xodimlarning qadriga yetardi. Shunday ishlaganim, doim unga yoqadigan natijani bera olganim uchun ham meni bir tashkilotdan ikkinchisiga o'zi bilan olib yurar edi. Unga «jiyan» ekanimni keyinroq, «Uzmetronom»dagi¹⁴ maqoladan bildi.

Ishonch mehnatning orqasidan, sadoqat esa yaxshi va adolatli munosabat tufayli keladi. Lekin buni ko'pchilik tushunmaydi. Odamlar faqat qarindoshlarga orqa qilish mumkin deb o'ylashadi.

Parpiyev FVVdan ketganidan keyin men ham u yerda uzoq ishlamadim. Lekin bu tashkilotning axborot xizmati saviyasini aynan men yangi bosqichga ko'tardim, deb o'ylayman.

[REDACTED]

[REDACTED]

[REDACTED]

[REDACTED]

[REDACTED]

[REDACTED]

[REDACTED]

[REDACTED]

[REDACTED]

U paytda odamlar FVV haqida hech nima bilmasdi, umuman, qutqaruvchilar borligidan ham bexabar edi.

Boshqarma boshlig'i polkovnik Ergash Ikromov tozalikka katta e'tibor berardi. U boshqarmaga kirib kelganida hovli chinniday bo'lishi, kabinetida isiriq tutatilishi shart edi. Idora hovlisiga har kuni suv sepib, supurib qo'yilar, qutqaruv mashinalari yaraqlab, biror marta ishlatilmagan texnika yap-yangiligicha turardi.

Boshida ishimiz ko'zga ko'rinishi uchun oldin bo'lib o'tgan voqealarni sahnalashtirib, tasvirga oldik. Xuddi kinolardagidek, «jarohatlangan» haydovchilarning yuziga qon o'rniga ketchup surtilardi. Suv toshqinlari, yong'inlarni o'quv mashqlariga o'xshatib uyushtirdik. FVV qanday ishlayotganini ko'rsatish uchun bu qahramonliklarni efirga berdik. Keyinchalik joylarga kamera bilan borib, favqulodda vaziyatlarni jonli tarzda suratga oladigan bo'ldik.

Ko'rsatuv ommalashib, odamlar Qutqaruv xizmatining 050 raqamiga qo'ng'iroq qila boshladi. Qutqaruvchilarning qo'li qo'liga tegmasdi: liftda qamalib qolganlar bormi, quduqqa tushib ketgan mushuk bormi...

Esimda, bir kishi «Jemchug»¹⁵ do'koni tepasidagi uyning to'qqizinchi qavatidan o'zini tashlamoqchi bo'libdi. Turli xizmat vakillari yetib keldi, qutqaruvchilar uni zo'rg'a to'xtatib qolishdi. «Odam hayotga bir marta keladi, hali hammasi zo'r bo'ladi», — deb yaxshi gapirib, xuddi

Amerika kinolaridagidek rosa to'rt soat nasihat qilishdi. Oxiri amallab ko'ndirishdi. Pastga tushganida esa ketiga boplab tepib, so'kib-so'kib, o'z joniga qasd qilgani uchun jinnixonaga yuborishdi. U shuncha odamning to'rt soat vaqtini o'g'irladi!

Ko'pincha qutqaruvchilarni avariya bo'lgan joylarga, mashina ichida qolib ketgan odamlarni chiqarib olish uchun chaqirtirishar edi. Biz bu vaziyatlarni efirda ko'rsata boshladik. Orada DAN xodimlarining kamchiliklarini ham gapirib o'tadigan bo'ldik. U paytda FVVga vazir qilib Baxtiyor Subanov tayinlangan edi. Oldin Ichki Ishlar vaziri o'rinbosari lavozimida DAN sohasini nazorat qilgan Subanov xuddi sobiq hamkasblaridan o'ch olayotgandek bo'lib qoldi.

Vazir Matbuot xizmati boshlig'i lavozimiga o'zining odamini qo'ydi. Yangi rahbarim menga efirda o'lim holatlarini ko'rsatishni va IIVni tanqid qilishni taqiqladi.

Men esa «xo'p» deb, baribir o'z bilganimdan qolmadim. Nimani lozim topsam, efirga beraverdim. Bu IIV vaziri Almatovga tegib ketibdi. «Sening ko'rsatuvlaringni deb, IIVning boshida kaltak sindi, Prezident apparatidan gap eshitishdi», — deyishardi menga. Toshkent shahar IIBga Allamjonovning ovozi o'chirish buyurildi. «IIBdagi-lar cho'ntagingga nasha tashlab qo'yib, qamatmoqchi», — degan gap qulog'imga yetib keldi. Odatda yaxshilikcha ko'nmaydiganlarni shunday jazolashardi.

Bir kuni ertalab ishga kelsam, atrof to'la militsiya, Al-lamjonovni qidirishyapti. Yana janjalning uyasiga tushib qoldim. O'shanda meni polkovnik Ikromov himoya qilib, qutqarib qoldi, shu bolaning hayoti barbod bo'lmasin, dedi. Shundan keyin bir oy uydan chiqmay qo'rqib o'tirdim. DAN xodimlari har kuni haydovchimni to'xtatib, mayda-chuyda ayb topib, boshini qotirishardi.

FVVda olgan birinchi maoshimni hamkasb akaxonlarim bilan «yuvib» yo'q qilganmiz. Uyga oborib, oyimga ko'rsataman deb shuncha kutgan pulimni hamtovoqlarimga ichirib yuborganman. «Sharq»ning¹⁶ pastidagi kafeda joy aytib qo'yishgan ekan, birinchi oyligim ziyofatga ketgan. Uyga arzimagan uch-to'rt so'mni ko'tarib kelganman.

Ikkinchi oyligim ham xuddi shunaqa qilib havoga sovurildi. Yoshi katta, azamat ikki harbiyga nima ham deya olardim?

Keyingi gal ayyorlik qildim. Pulimni eng oxirida, hammadan keyin berasiz, deb kassir opa bilan kelishib qo'ydim. Oyligimni oldim-u g'aroyib boshliqlarim, og'aynilarim meni tutib olmasidan uyga qarab qochdim.

Parpiyev Davlat soliq qo'mitasi raisi lavozimini egallaganida uning birinchi o'rinbosari Erkin Fayziyevich Gadoyev edi. Islom Abdug'aniyevich «bo'lib tashla va hukmronlik qil» degan siyosatni olib borar, vazir o'rinbosarlari rahbariga nisbatan doim kishi bilmas oppozitsiyada bo'

lardi. Karimov shu yo'l bilan o'ziga kerakli ma'lumotni yig'gan bo'lishi mumkin, lekin bu narsa jamoaviy ishni o'ldirar, faqat ichki fitnalarni keltirib chiqarardi. Tizim iyerarxiyasi bo'yicha har bir xodim kimningdir odami edi: Parpiyevning odami, Gadoyevning odami, Azimovning odami... Bunaqa sharoitda ishni boshqarish uchun rahbar o'z taktikasiga ega bo'lishi kerak. Parpiyev soliq qo'mitasiga o'tganida hammaga ishdan bo'shash haqida ariza yozishni taklif qildi. Yangi jamoa tuzishini aytdi. Hamma ariza yozdi. Keyin Botir Rahmatovich xotirjam o'tirib, bo'layotgan qo'ng'iroqlarni, kim kim uchun iltimos qilib chiqqanini yozib oldi va kuchlar taqsimotining to'liq jadvaliga ega bo'ldi. Qoyilmisiz?

Parpiyev bergan hamma topshiriqlarni uning o'rinbosari o'sha zahoti yo'qqa chiqarishi meni doim hayron qoldirardi. Men — «Parpiyevning odami» bu paytda DSQ matbuot xizmatida ishlardim.

— Nimaga oldimga kiraverasan? Nima keragi bor shuni? — biror taklif, qandaydir zarur ish bilan xonasiga kirsam, Gadoyev har safar norozi bo'lib kutib olardi. Yordam berishni xayoliga keltirmasdi.

Mustaqillikning o'n olti yilligiga bag'ishlab maxsus albom chiqaradigan bo'ldik. Soliq sohasida erishilgan hamma yutuqlarni, yangilik va o'zgarishlarni ko'rsatmoqchi edik. Ishchi guruh tuzildi. Bosh javobgar menman, lekin hech qanday vakolatim yo'q. Ya'ni, yugur-yugur

qilasan, axborot to'playsan, odamlardan statistika ma'lumotlarini yig'ishga harakat qilasan, ammo hamma senga eshikni ko'rsatib yuboradi, birov gapingga quloq solmaydi, mabodo ma'lumot berishsa ham, bir tiyinga qimmat bo'ladi.

Parpiyevning oldiga kirdim. Kitob deyarli tayyor, ba'zi ma'lumotlar yetishmayotgan edi, xolos.

— Kitobni tezroq chiqaringlar! Yaqin kunlarda Prezidentga ko'rsataman, — dedi u. Keyin Gadoyevga qo'ng'iroq qilib, unga yordam berishni topshirdi. Telefonda o'rinbosarning «Xo'p!» degani eshitildi.

Gadoyevning oldiga kirdim.



DSQning navbatdagi kollegiya yig'ilishida.

— Qayerdan olding bu gapni? To‘rt kunda kitob tayyor bo‘larmish! Kim to‘rt kunda kitob chiqararkan?!

— Erkin Fayziyevich, kitob deyarli tayyor, menga faqat...

Menga nima kerakligini Gadoyev eshitib ham o‘tirma-di, har doimgiday javrab-javrab nasihatini boshladi. Xul-las, ma‘lumot ololmadim.

Ikki o‘t orasida qoldim. Rahbarlar-ku keyin bir-biri bilan kelishib ham ketar, o‘rtada aybsiz aybdor men bo‘laman.

Ochig‘i, qo‘rqib ketdim. O‘zimni ikki kattakon kitning o‘rtasida majaqlanib, ovozi chiqmaydigan mayda baliq-chadek his qildim. Parpiyevning bir xislati bor edi, hech qachon hech nimani esidan chiqarmasdi. Aytgan ishi qilinyaptimi, yo‘qmi — har soatda tekshirib turardi. Har so‘raganida «Ishlayapmiz», deyman, lekin aslida hech narsa qilinmayotgan edi.

Yana qabuliga kirishga majbur bo‘ldim.

— Botir Rahmatovich, kitobni vaqtida topshira olmay-man. Erkin Fayziyevich urishib, kabinetidan haydab soldi. Bekorchi ish bilan shug‘ullanma, dedi. Nima qilay?

Generalning yomon jahli chiqqani ko‘rinib turardi. Lekin menga indamadi, gapni cho‘zmadi, «Boraver» — deb qo‘ydi.

Dushanba kuni majlis. O'zi shundoq ham har dushanba bo'ladigan majlislarni ko'rgani ko'zim yo'q, bu safargisi ayniqsa ortiqchalik qilayotgan edi. Kamiga o'sha kuni kechasi deyarli uxlamaganman, zo'rg'a ko'zimni ochib, ishga uchib yetib keldim, apil-tapil formamni kiydim. Majlis aniq belgilangan vaqtda boshlanadi, kechikish mumkin emas.

Lanj bo'lib o'tiribman, ko'zlar kirtaygan, qovoqlarim shishib ketgan. Qo'mita raisining gaplari qulog'imga bir kirib, bir kirmaydi. Qarasam, har gapida o'rinbosariga murojaat qilyapti. U-bu taklif berib, keyin Gadoyevning fikrini so'raydi. Gadoyev odob bilan, chiroyli qilib g'oyani puchga chiqaradi.

Shu payt kutilmaganda Parpiyev stolga bir musht tushirdi. Choynak-piyolalar uchib ketdi, hammaning ko'zi moshday ochildi.

— Erkin Fayziyevich, siz meni ahmoq deb o'ylayapsizmi? Nima topshirsam, «yo'q» deysiz! Takliflarimni yo'qqa chiqaryapsiz, barcha islohotlarimga to'sqinlik qilyapsiz!

Rais jahl bilan o'rnidan turgan edi, stuli bir chekka-ga uchib ketdi. Qo'lidagi qalam chirsillab sindi, uniyam uloqtirib yubordi. Hammaning o'takasi yorilib, zal jim-jit bo'lib qoldi.

— Mana, Allamjonovni olaylik! — vazir zalga qarab,

meni topdi. O'tirgan joyimga yopishib qoldim, birdan hojatga borgim keppoldi. — Men unga kitob chiqarishni topshirgandim, siz esa haydab solibsiz. Nega bu kitob kerakmas, dedingiz?

— Men unaqa demadim, unaqa deganim yo'q... — o'zini oqlamoqchi bo'ldi Gadoyev. Uning qattiq qo'rqib ketgani bilinib turardi.

Parpiyev ko'zoynagini yechib, stolning ustiga otib yubordi-da, zaldan chiqishda eshikni shunaqa qarsillatib yopdiki, devorda yoriq paydo bo'ldi.

Men esa stulga yopishganча ichkarida qolib ketdim. Gadoyev hammaga bir-bir ko'z tashlab, sekingina: «Majlis tugadi», — dedi. Yig'ilganlar jimgina tarqala boshladi.

Keyin u mening yonimga keldi.

— Bir daqiqaga mumkinmi? Kabineting qayerda edi?

Ikkovimiz xonamga kirdik. U savollari bilan meni burchakka tiradi:

— Senga nima yomonligim tegdi? Nega ustimdan shikoyat qilding?

Men jonimni qutqarish uchun, joyida og'zimga kelgan bahonani to'qidim:

— Erkin Fayziyevich, Botir Rahmatovich soʻraganiga aytdim-da... Sizni «Kitob toʻrt kunda oʻxshamasa-chi», — deb kuyib-pishyaptilar, dedim... Falon gapiga piston deb javob berdim... Meni boshqacha tushunibdi...

Tabiiyki, Gadoyev aytganlarimga ishonmadi.

Uni qanchalik yomon ahvolga solganim bir necha daqiqadan keyin maʼlum boʻldi. «Hamma oʻz joyida oʻtirsin, hech kim hech qayoqqa chiqmasin» degan buyruq keldi. Oʻsha kuni yarim kechagacha hamma xonasidan chiqmay oʻtirdi. Rais esa qayoqqadir ketdi. Keyin bil-sam, hech qayerga xabar chiqib ketmasligi uchun koʻrilgan chora ekan bu. Gadoyev oʻzining odamlarini, tanklari va artilleriyasini tortib kelishga ulgurmasin deb shunday qilinibdi.

Ertasiga majlisga Bosh vazir Shavkat Miromonovich Mirziyoyev¹⁷ keldi. Gadoyev lavozimidan olindi. Lekin u ham shuncha yildan beri bekorga birinchi oʻrinbosar boʻlmagan ekan, baribir tanklarini ishga solibdi. Oʻrinbosar boʻlib qoldi, faqat Akademiyaning¹⁸ rektori sifatida. Qoʻmitadan ketib, ichki ishlarga aralashmaydigan boʻldi.

Uning oʻrniga hozirgi Bosh vazir oʻrinbosari Behzod Anvarovich Musayev keldi. Siyosatimizning liberal qanoti. U bilan ishlash ancha oson edi.

Keyin DSQ va umuman davlat xizmatidan ketish navbati menga yetdi. Men bu qarorga kalta o'ylab yoki to'satdan kelmadim. Boshqa ilojim qolmagandi.

Botir Rahmatovich rahbarlik qilgan hamma idoralarda haftalik majlislarning kun tartibini o'zi tuzardi. Bu odatdagidek kimdir zerikarli hisobot beradigan, hamma «qachon tugarkin shu», — deb tezroq uyga ketgisi keladigan majlislar emasdi. Har safar katta sinovdan o'tgandek bo'lardik. Rais yordamchilari bo'limlar uchun alohida savollar tayyorlab qo'yishardi. Bu bo'lim rahbarlarini boshi berk ko'chaga kiritib qo'yadigan savollar edi. Parpiyevga majlisda ko'tariladigan masalalar bo'yicha oldindan ma'lumot to'plab berilar, minbarga chiqqan xodim ko'pincha qaltis ahvolga tushar edi. Bo'lim boshliqlari kaltak tagida qolmaslik uchun zo'r yo'lni o'ylab topishdi. Dilshod To'raxonovdan «Bizning xizmatni kun tartibiga qo'ymang», — deb iltimos qiladigan bo'lishdi. Bilmadim, balki quruq iltimos bilan ish bitmagandir. Xullas, ko'pincha hamma qolib, minbarga bitta men chiqadigan bo'ldim. General meni ayab o'tirmas edi. Kotibiyat boshlig'i Dilshod To'raxonov meni o'lguday yomon ko'rib qolgan, har safar yog'imdan chalishga harakat qilardi.

Oxiri bu ahvol jonimga tegdi. Nima, Soliq qo'mitasida mendan boshqa masala qurib qolganmi? Men jadval tuzib, unga hamma bo'limlarni, hatto kanselya-riyani ham kiritdim. Ro'yxatga qo'shilmagan faqat qorovul qoldi. Bu

hujjatni Parpiyevga olib kirib, oxirgi paytlari majlislar bir qolipda o'tayotganini aytdim. «Hamma nav-bati bilan hisobot bersin, har bir bo'lim o'zining ishini matbuotda yoritсин», — dedim. U rozi bo'lib, jadvalni imzoladi.

Endi meni minbarga chiqarishsa, topshiriqlarni kimlar bajarmayotganini shartta aytadigan bo'ldim. Muhtaram hamkasblarim og'zimni yopish uchun meni ham «To'raxonovning ro'yxati»ga kiritib qo'yishibdi. O'rtaga pul tashlashgan bo'lishsa kerak.

Qisqasi, qilgan ishim uchun ta'zirimni yedim, meni kechirishmadi. Ustimdan nimalardir to'qib, tuhmat qilishdi. Shunchalik bema'ni bahona o'ylab topishdiki, hozir aniq nima gap bo'lganini eslolmayman ham. To'qqiz yil deganda Parpiyev majlisda birinchi marta hammaning oldida rosmiyaning qo'ldan chiqqanini qoqdi. Men esa o'zimni oqlay olmadim. Hammasini miq etmay eshitib turdim. Endi bu yerda ishlolmasligim aniq edi.

Chiroyli ketmoqchi bo'ldim. Oradan to'qqiz yil o'tgan bo'lsa ham, bu inson salomimga «vaaleykum» deb alik olganini, menga bir yugurdak emas, odam deb muomala qilganini esimdan chiqarmagandim. [REDACTED] oldiga kelib, gaplashib olmoqchi ekanimni bildirdim.

— Mayli, kelsin, — debdi Botir Rahmatovich.

Ertasi kuni Parpiyevning oldiga kirib, o'zinning biznesimni boshlash uchun ketmoqchiligimni aytdim.

— Xafa bo'ldingmi?

— Yo'g'-e, nega unaqa deysiz? Nimaga xafa bo'lishim kerak?


— Xafa bo'libsan... — dedi general. — Ko'rib turibman-ku. Mayli, arizangni yoz. Omadingni bersin.

Men ketdim, lekin intizomga o'rgatgani, bergan saboqlari uchun Botir Rahmatovichdan haligacha minnatdorman. U menga doim zarbaga tayyor bo'lib, uni qaytarishni, eng asosiysi, iloji yo'q narsaning o'zi yo'qligini o'rgatdi. Xohlasak, hamma narsaga erisha olarkanmiz. Bunday olganda, u meni rostdan ham o'z jiyanidek tarbiyaladi.

Shunday odamning «jiyani» degan yuksak nomga dog' tushirmadim, deb o'ylayman.

Men o'z biznesimni boshlab, birinchi millionimni ishlab topdim. Bolaligimdan pul topishga harakat qilardim. Afsus, rejalarim doim ham o'xshayvermasdi.





SHAKAR, VANNA, PRESS, BAKLAJKA

To'qsoninchi yillar oilamiz boy bo'lmagan, lekin och ham qolmaganmiz. Onam doya, otam avtoslesar edi. Bolalar tug'ilavergan, mashinalar buzilavergan, ota-onam ishsiz qolmagan. Ularning eng katta orzusi farzandlariga yaxshi ta'lim berish bo'lgan. Shuning uchun oyim o'qishimni oltinchi sinfdan ToshDU qoshidagi gimnaziya-ga (keyinchalik akademik litseyga aylantirildi) o'tkazgan. Hech kimga pul-mul bermagan. Oyim pora berish kerakligini bilmasdi ham.

Pul — ajoyib narsa! U menga doim zavq bergan. O'zi oldindan boshqalarga o'xshab faqat oylikka ko'nib yashash niyatim yo'q edi. Katta bo'lganimda ko'p pul topishimga, xohlagan narsamni sotib olishimga aniq ishonganman. Lekin bu kunlarni uzoq kutishga sabrim chidamasdi. Hoziroq boyib ketib, mahallamiz yoshlari havas qiladigan yangi «qahramonlarimiz» — magazinchilar, choyxona va makaron fabrikalarining xo'jayinlari, popkorn sotuvchilarga o'xshab yurgim kelardi. Hammasining tagida yangi

mashina, oyog'ida krossovka, egnida zamonaviy sport kiyimi, jinsi shim — xullas, butun dunyoda ulardan zo'ri yo'q.

Kommunistik mafkura puchga chiqqan paytlar. Qo'niqo'shni orasida faqat biznes rejalar, tez va osongina boyib ketish yo'llari haqida gap-so'zlar yurardi. Biz o'n uch yashar o'smirlar ham cho'ntagimizda doim pul bo'lishini xohlardik. Ko'p tengdoshlarim o'zi ishlab daromad topar, kimdir oilasiga yordam bersa, yana kimdir kichik orzulariga pul yig'ardi.

Mendan yollanma ishchi chiqmadi. Ammavachchamning jo'xori qalamchalari chiqaradigan sexida bir kun ishlab ko'rdim. Arzimagan pul uchun ertalabdan kechgacha ter to'kib mehnat qilish menga emas ekan.

Vazifam nimadan iborat edi? Jo'xorini oldin «drobilka»ga, keyin maxsus apparatga solamiz. Jo'xori doni issiq havo bosimi ostida paqillab yorilib, qalamchaga aylanadi. Ish haqi tayyor mahsulotning kilosiga to'lanadi. Bir uyum jo'xori qalamchasini chiqarib, kamida o'n kilogramm bo'ldi, deb o'ylaysan. Tortib ko'rsang, zo'rg'a yarim kilo chiqadi. Ish kuni oxirida ammavachcham pul o'rniga qo'limga o'zim tayyorlagan jo'xoridan tutqazdi. Uyg'a kelib, «ish haqim»ni stolga qo'ydim-u yechinmasdan, o'zimni krovatga tappa tashladim. Ertalabgacha qotib uxlabman. Uyg'onganimda aniq bir qarorga keldim — men hech qachon yollanma ishchi bo'lmayman!

Gap og'ir mehnatdan qochishda emas. Menga birovning cho'ntagini to'ldirish uchun belni bukib, evaziga arzimagan chaqa topish yoqmadi. Bunaqa kapitalizmni hazm qila olmasdim. Biz litseyda o'zimiz popkorn tayyorlab sotardik. O'zimiz uchun ishlardik, shunga mehnati malol kelmagan. Ko'pi kuygan, bemaza popkornimiz uncha yaxshi ketmasdi. Bu tadbirkorlik faoliyatimda birinchi saboq bo'lgan — mahsuloting sotilishini xohlasang, ishni sifatli qil!

O'n uch yoshimda qand qiroli bo'lishga qaror qildim. O'zinga velik olishim kerak edi. Velosipedi bor o'rtoqlarim uchishga bermay qo'yishdi. Ota-onam esa: «Komiljon, veliksiz ham doim qayoqlardadir sang'ib yurasan, velosiped minsang, seni umuman topolmay qolamiz!» — deb gapni qisqa qilishdi.

Biznes-reja bunday edi: bir qop shakar sotib olinadi, uni qandga aylantirib, ustiga pul qo'yib sotiladi. Shakar bilan qandning narxi orasidagi farq — sof foyda.

Tayyor shakar sexini ijaraga oldim. «Sex» deganda ko'z oldingizga nima keldi bilmadim-u, ammo bu hech kim yashamaydigan tashlandiq bir uy edi. Undagi bor uskunna — tegirmon, press, fanera, vanna, isitkichli fen va bir yarim litrlik baklajka, xolos. Oldin shakar kukunga aylantiriladi. Keyin vannaga solib, ustidan bir yarim litr sovuq suv quyiladi. Kukun nam tortib, qorga o'xshab g'irchillab qolganda, pressdan chiqarilib, faner ustiga yoyiladi. Qand

shakliga solinib, fenda quritiladi. Bir kecha-kunduzda bir qop shakar oldi-berdiga ishlatiladigan, to'y-hashamda das-turxonga qo'yiladigan shirinlikka aylanadi.

Otam ko'p magazinchilarning mashinasini tuzatardilar. Shu tanishlaridan mahsulotimni sotib berishni iltimos qildilar.

Bu sexda ishchi ham, farrosh ham, mol yetkazib beruvchi ham, direktor ham o'zim edim. Sexni ijaraga olishdan oldin do'stlarimga sherikchilikni taklif qildim, ular ko'nishmadi. Balki to'g'ri qilishgandir. Ikki hafta o'tgach, do'konlarda shakar ko'rinmay qoldi, keyin birdan narxi oshib ketdi. Qanddan tushadigan ozgina foyda ham yo'q bo'ldi. Shunday qilib, birinchi biznesim sindi. Qizig'i shundaki, do'stlarim moliyaviy krizisni oldindan ko'ra bilgani uchun emas, ishyoqmasligi, harakatsizligi tufayli hamkorlikdan bosh tortishdi. Biz birga o'sib katta bo'ldik, lekin hozir jamiyatdagi o'rnimiz orasida osmon bilan yercha farq bor.

Hamma ham boy-badavlat bo'lishi shart, demoqchi emasman. Ba'zilarga bu narsa kerak emas, ularning o'z orzulari bor. Kimdir vrach, kimdir alpinist, uchuvchi, sayohatchi, jurnalist yoki yozuvchi bo'lishni orzu qilib, shu maqsadi bilan yashaydi. Hozirgi yoshlar orasida bundaylar borgan sari ko'paymoqda. Pul ular uchun ortiqcha daxmaza. Lekin boyib ketaman degan odamga faqat orzu va bilimning o'zi kamlik qiladi. Bunda ishchanlik, mehnatsevarlik judayam

muhim. Agar ishga o'zingni to'liq bag'ishlay olmasang, yaxshisi boshlama. Biznes — dangasalar uchun emas!

Men erinchoq emasdim. Shunchaki, o'sha vaqtdagi iqtisodiy vaziyatni deb omadim chopmadi va qand qiroli bo'lolmadim. Lekin pul topish yo'lida harakat qilishdan hech qachon to'xtamadim. Menga ishni yo'lga qo'yish, pulni nazorat qilish jarayonining o'zi qiziq edi. Mabodo ishim yurishmay qolsa, g'ayratim yanayam oshib ketardi.



Sinfdoxim bilan madaniyat saroyi binosida, konsertdan keyin.

90-yillarni koʻrganlar fikrimga qoʻshiladi, deb oʻylayman. Mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy vaziyat juda qiziq boʻlgan. Foyda koʻrishga intilganlarni chayqovchi emas, tadbirkor deb atay boshlashgan, katta pul topish imkonini tugʻilgan edi. Dorixona, bilyardxonona, sauna, tijorat doʻkonlari yomgʻirdan keyingi qoʻziqorindek urchib ketdi. Ana senga erkinlik!

Kommunistik mafkuraning oyogʻi osmondan boʻlib ketgandan keyin xalqni ergashtiradigan gʻoyaning oʻzi qolmadi. Ayni paytda diniy ekstremizmning taʼsiri kuchayib bordi. Soqol qoʻyganlar koʻpaydi, Karimov ularga qarshi tinimsiz kurashardi. Teraktlar, portlashlar avj olgan tahlikali davr edi. «Musaffo osmon» gʻoyasi davlat mafkurasiga aylandi. Urushsiz, tinch yashasak boʻldi, olam guliston! Ammo bu gʻoya juda boʻsh edi. Unda super boylarning paydo boʻlishi koʻzda tutilmagandi. Davlat rahbariyati boyvachchalar jamiyat osoyishtaligini buzishidan qoʻrqardi. Mayli, foyda koʻrsang koʻr, faqat ikki quloch tijorat doʻkonidan nariga oʻtma! Mashina ol, uy sol, topgan tillangni uch litrli bankada saqla, lekin oligarx boʻlaman deb xayolingga ham keltirma.

Shuning uchun korxonona tashkil etish juda qiyin masala boʻlib, kerakli eshiklar kerakli odamlargagina ochilardi. Koʻpchilikni hoziroq, joyida daromad topish yoʻllari qiziqtirardi. Bugun pul tikasan, ertaga foyda koʻrasan. Bemalol bir ishni tashlab, osongina boshqasini yurgiza olishing kerak. Ildizi baquvvat, avloddan avlodga oʻtadigan

biznes-imperiyalarni qurish uncha-muncha odamning rejasiga kirmagan. Yurtimizda egalarini super boy qilgan, uzoq muddatli, rosmana muvaffaqiyatli ishlab chiqarish obyektlari deyarli yoʻqligining sababi shunda.

Gimnaziyada prokurorlar, deputatlarning bolalari bilan oʻqiganman. Doim atrofda qilarga birovdan kam emasligimni isbotlashga majbur edim. Toʻgʻri, men u yerga porasiz, hech qanday qoʻngʻiroqsiz, oʻz bilimim bilan kirganman. Toʻgʻri, ota-onam oddiy odamlar. Lekin menga past nazar bilan qarashlariga yoʻl qoʻymasdim. Gimnaziya direktorining: «Allamjonov, yaxshi oʻqi. Seni «kontrakt»da oʻqitishga ota-onangning baribir qurbi yetmaydi», — degan gapini ayniqsa yomon tegib ketgan. Hammaning oldida kamsitgani uchun yap-yangi «Moskvich»ining gʻildiragini teshib, oʻchimni olganman.



«Fun boys» guruhi konsertidan soʻng sinfdoshlarim davrasida.

Sinfdoshlarimning menga munosabati yomon emas edi. Ayniqsa, «Fun boys» guruhini tashkil qilib, konsert qoʻya boshlaganimizdan keyin yana ham yaqin boʻlib qoldik. Men loyiha rejissori edim. Tomoshalarimizda ustozlarning ustidan ham kulardik. Hammasining emas, albatta. Bizningcha, yaxshi oʻqita olmaydigan, zolim va poraxoʻr oʻqituvchilarni masxara qilardik.

«Ikki yarim» laqabli oʻqituvchimizni yaxshi eslayman. Uy vazifasini qanchalik yaxshi tayyorlab kelmaylik, ikki yarim baho qoʻyardi. Bunaqa bahoning oʻzi yoʻq-ku, oʻquvchilarni yerga urish uchun shuni oʻylab topgan. Konsertimizda «u» sahnaga chiqib olib: «Men fizika oʻqituvchisiman, ismim Muxtazar, mana qirq yildan beri erga tegolmayapman», — derdi.

Shunaqa. Hech kimni ayamas edik. Konsertdan keyin direktor meni xonasiga chaqirtirib, bunday «ssenariylar» uchun poʻstagimni qoqardi. Indamay boshimni egib turar, lekin konsertlarni toʻxtatmasdim.

Boshida chiptalar tekin edi. Keyin oʻylab qoldim. Biz dastur, har bitta sahna, musiqa ustida yotvolib ishlayotgan boʻlsak, tomoshabinlarga yoqayotgan boʻlsa, nima uchun konsert tekin boʻlishi kerak?

Tashkiliy ishlarga, chipta, afishalar tayyorlashga pul tikish kerak. Oyimning oldilariga keldim. Ular: «Adangdan soʻrab koʻr», — dedilar. Ammo men otamdan choʻchirdim,

ayniqsa, bu pulni nimaga ishlatmoqchi ekanimni aytishga qo'rqdim. Onam menga har doim ishonganlar. Yig'ib-tergan o'n ming so'mlarini qo'limga berdilar.

Chipta sotib o'tirishni o'rtoqlarimga topshirdim. Hech qaysisi pul so'rab ota-onasini bezovta qilmadi. Bu tashkilotchining, ya'ni mening bosh og'rig'im edi. Ota-onam meni qo'llab-quvvatladi.

Homiylar bilan ham o'zim kelishdim. «Aylin» turk pechenyesi maktabimiz hisob raqamiga 25 ming o'tkazdi. Maktab direktori shundan bir yarim ming so'mni ovoz kuchaytirgich — usilitelga deb berdi. Qolgan pulni ko'rmadim. Direktor bizni chuv tushirdi.

Yana bir hamkorimiz «Radio-peydj»¹⁹ bo'ldi. Konser-timiz haqida tekinga e'lon berishdi. «Nestle» kompaniyasi esa o'zini zontlarini o'rnatib, stakanda kofe tarqatdi. Yana uch-to'rtta homiyni ko'ndirish uchun tijorat taklifi bilan butun shaharni aylanib chiqdim. Boshqa hech kim rozi bo'lmadi.

Ravshan Sobirov, Guli Tolipovanning menejerlariga, boshqa artistlarga ham qo'ng'iroq qilib, konsertda chiqib berishlarini so'radim. «Tomsuvoq»qa ko'ndirdim.

Tabiiyki, mingta chipta sotolmadik, ikki yuztasi ketdi, xolos. Homiylarning oldida sharmanda bo'lmaslik uchun bo'sh joylarni mehmonlar bilan to'ldirdik. Mehribonlik

uyi direktoriga iltimos qilib, tarbiyalanuvchilarini opkeltirdim.

Hamma yig'ildi. Ammo... birorta artist yo'q. Qo'ng'iroq qilaman, hech qaysisi javob bermaydi. Odamlar qar-sak chala boshladi, oradan bir soat o'tdi, bittasiyam kela qolmaydi.

Bir balo qilib, endigina tanilayotgan Davron Ergashev-ni topdik, konsertni shu boshlab berdi. Omadim chopib, tadbirni olib borishga professional boshlovchi ham chiqib qoldi. Keyin Otabek Madrahimovga o'xshab ketadigan bir yigitni ko'rsatishdi. Chiroqlar o'chirildi, maxsus effektlar yoqildi, yigitchani sahnaga chiqarib yubordik, fonogram-ma ostida «kuyladi».

Viktorina o'tkazildi, «Nestle» kofelari tarqatildi. Xul-las, prodyuser degan nomimni oqladim.


Faqat kimdir «Nestle» zontigini o'marib ketibdi. Oyim-ga qo'ng'iroq qilib, shuniyam yetkazishdi. O'rniga o'zlari-ning soyabonlarini ko'tarib kelibdilar. Yo'qolgan zont ega-lari matohlari qanchayam dollar turishini aytishdi. Onam dollarda oldi-berdi qilib yurgan bo'lsalar ham mayli ekan.

Men «Nestle» direktoridan qarzimizdan kechishini ya-linib so'radim. O'shanda nega bizni kechirganini bilmay-man. Ko'ziga judayam ayancli va rostgo'y ko'ringan bo'l-sam kerak-da. Konsertdan tushgan foydani o'rtog'im va

sherigim Sardor bilan sovurib yubordik. Eng zo'r ko'zoynak, krossovkalar sotib olib, o'zimizni xuddi ommaviy tadbirlar direktorlaridek tuta boshladik. Oyimga bo'lsa olgan o'n mingimdan ming so'mgina qaytardim, orttirganim shu bo'ldi.

Baribir konsert chiroyli o'tdi. Shu sakkiz yuz kishilik tadbirni o'tkaza olganimiz ham bir omad, deb o'ylayman. Yaratganning qo'llagani bu. Agar qo'shiqchilar kelmaganida, bilmadim nima bo'lardi, sahnaga o'zim chiqib ketaridim...

Bizning yoshligimizda biznes qilish bir avantyura, g'irt tavakkalchilik edi. Hozir bo'lajak tadbirkorlarga aniq, har tomonlama puxta biznes-reja tuzishni, pul bilan imkoniyatlarni chamalashni, bozor va raqobatchilar ishini tahlil qilishni o'rgatishadi. U paytda esa biz ishni oldi-orqamizga qaramay boshlab yuborardik. Tayinli bir rejaning o'zi bo'lmasdi. Xuddi eshkaksiz qayiqqa o'tirib olib, oqim qaysi tomonga olib ketsa, manzilimiz shu ekan, deb ketayotgan sayohatchilarga o'xshardik. Pul topish uchun nima qilish kerakligini keyinroq tushuna boshladim. «Soliq-info» loyihasi ana shunday paydo bo'ldi.



SOLIQ-INFO

Karimov davrida hamma muharririni taniydigan, ismini biladigan yagona mustaqil sayt «Uzmetronom» edi. Biz har kuni proksi serverlar orqali kirib, Sergey Yejkovning «Tahririyatga xatlar» deb taqdim etadigan insayder yangiliklarini o'qirdik. Ammo men o'shandayoq bu maqolalarning so'z erkinligiga umuman aloqasi yo'qligi, shunchaki o'ch olish quroli ekanligini tushunganman.

Karimovning qabuliga kirmoqchi bo'lganlarga arziqli sabab kerak edi. Shuning uchun «Uzmetronom» xabarlarini qog'ozga chiqarib, «Matbuotda mana nimalar berilyapti...» degan bahona bilan kirishardi. «Matbuot» esa kimga buyurtma tushsa, o'shaning ustidan mag'zava ag'darardi. Mening familiyam bu saytning doimiy «bezagi» bo'lgan. Sergey Aleksandrovich qo'ygan har bir qadamim haqida ma'lumot berardi va xabarni chiroyli badiiy to'qimalar bilan qorishtirishni boplardi. Maqolalarini qoyilmaqom qilib yozardi-yu, lekin faktlari ancha bo'sh bo'lardi. Gapi ishonarli chiqishi uchun oz-moz haqiqat ham aralashtirib qo'yardi, albatta.

Meni «Parpiyevning jiyani»ga chiqargan va bor yutuqlarimni (buni ko'proq muvaffaqiyatsizlik degan bo'lar-dim) qarindosh-urug'chilikka yo'ygan aynan shu odam bo'ladi.

U «Soliq-info»ga majburiy obuna uyushtirilganini qoralab maqola yozgan va tagida shunday izoh qoldir-gan edi: «Yurtimizda «Soliq va bojxona xabarlari» gazeta-si bor-ku, yana bitta gazetaga nima hojat?» Muallif faqat bir masalaga aniqlik kiritishni unutgandi. «SBX» — xususiy nashr. Bu gazeta ham u paytga kelib, xo'jalik hiso-biga o'tgan «Pravda Vostoka», «Xalq so'zi», «Postda» va boshqa barcha davlat nashrlari kabi majburiy obuna hi-sobiga kun ko'rardi. Respublikaning deyarli 99% nash-ri majburiy obuna orqali tarqatilardi. «Soliq-info» ular-dan biri edi, xolos. Lekin hamma «olqishlar» faqat mening boshimga yog'ildi. Vaholanki, men qonunni buzmagan-dim. Qolgan nashrlarning egalari bir chekkada muloyim-gina bo'lib turishdi. O'sha davrda holat bunday edi: sen-zura kuchli, so'z erkinligi yo'q, gazetalar o'qishli emas, hech kim sotib olmaydi. Lekin barcha nashrlarning yo-pilib ketishiga ham yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shuning uchun davlat o'zi bosh-qosh bo'lib, deyarli barcha gazetalarga obunani tashkil qilib berardi.

Shaxsan men buni noto'g'ri deb hisoblayman. Admi-nistratsiya rahbari o'rinbosari qilib tayinlanishim bilan majburiy obunaga chek qo'yish haqida buyruq berdim. Gazetalarga raqamli texnologiyalardan foydalanib, dijital

marketingga o'tishni va bozor iqtisodiyotiga moslashishni taklif etdim. «Soliq-info»ni ham yopdim.

«Soliq-info» o'zi qanday paydo bo'ldi? Parpiyev bir necha marta «SBX» gazetasining muassisi Mixail Markovich Perperga gazetani tuzukroq chiqarish, sifatli qog'ozda, ranglarini tiniq qilib chop etish kerakligini gapirgan. Haqiqatan, gazetaning qog'oz o'ta arzon, ko'rinishi talabga javob bermasdi. Mixail Markovich har safar «xo'p», deb, yana o'z bilganini qilardi. DSQ raisiga yoqmagani uchungina gazetaning tannarxini oshirishdan ma'no yo'q, deb hisoblar edi.

Perper raisning aytganini qilavermagach, Parpiyev navbatdagi xizmat yig'ilishida hammaning ichida mendan: «Gazeta chiqarish qo'lingdan keladimi? — deb so'radi. — Qog'oz ham, bosmasi ham sifatli bo'lishi, foydali ma'lumotlar bilan boyitilishi kerak.»

Albatta qo'limdan keladi! Soliq qo'mitasida bir dunyo ma'lumot bo'lsa! Buxgalterlardan doimiy savollar kelib turar, soliq inspektorlari ularning har bittasiga alohida yozma javob berishardi. Bu javoblar esa hamma uchun foydali edi.

Ammo bitta muammo chiqib qoldi. «SBX»ni barcha davlat tashkilotlari buxgalterlari olishlari shart edi. Bizning gazeta ham o'zini qoplashi uchun obunani yo'lga qo'yishimizga to'g'ri kelar ekan.

— Hal qilamiz, — dedi rais. — Asosiysi, gazetani yaxshi, foydali, sifatli tayyorlang! DSQning rasmiy bosma nashri bo'ladi.

Shu joyida bir gap aytay. «Soliq-info»ning ixtiyoriy xaridorlari ham ko'p edi. Gazeta buxgalterlarga ma'qul keldi, ularning doimiy ish quroliga aylandi. Ular, ya'ni «Soliq-info»ga o'z xohishi bilan obuna bo'lganlar haqida hech kim bilmaydi. Lekin DSIning²⁰ «obuna bo'lish shart» degan qo'ng'iroqlaridan norozilar hamma yoqqa shov-shuv ko'tardi.

Eng birinchi ofisimiz yerto'lada joylashgandi. Gazeta chiqarish — murakkab jarayon. Qiziqarli material to'plashning o'zi yetarli emas. Gazetani sahifalash, chop etishning sir-asrorini ham bilish kerak.

Biz Rossiyaning shu yo'nalishdagi hamma nashrlarini o'rganib chiqdik. Gazetani rosmana qo'llanmaga aylantirsa bo'lar ekan, unda interaktiv — buxgalterlar bilan mu loqot, savol-javoblar berib borishimiz shart, degan xulosa-ga keldik.

«Soliq-info»ni har tomonlama «SBX»dan yaxshiroq qilib chiqarishga harakat qildik. Seminarlar o'tkazib, muammoli masalalarni ko'tarardik. Viloyatlarga ham borganmiz. Soliq sohasidagi mutaxassislar bilan butun mam-lakatni aylanib chiqqanmiz. Tadbirkorlarni yig'ardik, ular

savollariga professional ekspertlardan to'la-to'kis javob olishardi. Qisqasi, shu ishga jon-jahdimiz bilan kirishib ketdik.

Biz uchun gazetaning jonli bo'lishi muhim edi. Har bir ruknni davomli yuritishga erishdik va bu o'zini oqladi. Mavzular sonidan songa kengroq yoritib berilar, natijada, o'quvchilar davomini kutardi.

So'rovnomalar o'tkazib, u yoki bu muammo bo'yicha tadbirkor va buxgalterlarning fikrlarini o'rganib chiqqanmiz. Ijtimoiy tarmoqlar paydo bo'lganida, biz ulardan birinchilardan bo'lib foydalana boshladik.

Maqolalarni o'zimizda ishlaydigan soliq maslahatchilaridan tashqari Moliya vazirligi va Soliq qo'mitasi mutaxassislari tayyorlar, gazetada jurnalistlar deyarli yo'q edi. Dolzarb mavzularni ko'tarishga, tezkor ma'lumotlar berishga harakat qilardik. Bugungi kun tili bilan aytganda, biz yangiliklarni yaratayotgan edik.

Dadil ayta olamanki, «Soliq-info» tufayli buxgalterlarning tushunchasi o'zgarib boshladi, kasbiy malakasi oshdi. Gazeta DSQning rasmiy nashri bo'lgani uchun buxgalterlar juda katta mablag'larni tejashga, soliq sohasida huquqbuzarlikning oldini olishga, umuman, soliq tizimini optimallashtirishga yordam beradigan eksklyuziv axborotlardan foydalanish imkoniga ega bo'ldilar. Ayni pay-

tda mutaxassis konsultant yollashga hojat qolmadi, chunki gazetaning o'zi eng yaxshi maslahatchiga aylandi.

Boshida gazeta faqat rus tilida nashr etilardi, keyinroq o'zbek tilida ham chiqara boshladik. Shtat 40 nafar xodimgacha kattalashdi. Ofisni Soliq qo'mitasi qoshidagi sport majmuasiga ko'chirdik. Tahririyatimiz ancha oyoqqa turib oldi.



«Soliq-info» gazetasi majlislar zalida.

G'oya va takliflar berib, jamoani yo'naltiradigan asosiy tashkilotchi men edim. Xodimlarning qornini to'ydirish, ularni munosib maosh bilan ta'minlash ham mening vazifamga kirardi. Juda ahil jamoa yig'ildi. Bayramlar, timbilinglar uyushtirar, hatto basseynga birga borardik. Rosmana bir oilaga aylanib qolgan edik.

Men yaxshi rahbar edim va bu menga qimmatga tushdi. Meni bir me'yorda, xotirjam yashashga qo'ymaydigan omad cho'qqisining navbatdagi pog'onasi bo'ldi bu.

Xodimlar shefning tug'ilgan kuniga syurpriz tayyorlashibdi. «Soliq-info» gazetasining maxsus menga atalgan sonini bittagina nusxada, lekin xuddi rostakam gazetaga o'xshatib, maxsus qog'ozda chiqarmoqchi bo'lishibdi. Tipografiyadan: «Ofsetni bir nusxada bosmadan chiqarib bo'lmaydi, kamida ming nusxa bo'lishi kerak», — degan javob kelgan. Mingta bo'lsa, mingta-da. Qolganini o'zimiznikilarga tarqatamiz, esdalik bo'lib qoladi, undanam ortsa, omborda joy ko'p... Qo'l ostimdagilar o'rtaga pul tashlab, maxsus sonni chop etishgan. Birinchi betda kattakon suratim, tagida sarlavha: «2017-yil: Komil Al-alamjonov hayotida nimalar sodir bo'ldi?» Gazeta sahifalari boshidan oxirigacha o'ttiz uch yoshimgacha erishgan yutuqlarim bilan to'ldirilgan.

Xodimlarim bir narsani inobatga olishmagan ekan. Bosmaxonadan chiqqan har bir nashrning nusxasi Vazirlar Mahkamasi, arxiv, kutubxona va yana boshqa qator idoralarga tarqatilishi shart. «Adadi 32 million nusxa» deb yozilgan gazetaning maxsus soni ham tegishli joylarga yetib bordi.

O'shanda yomon portladim. «Syurpriz»ni xodimlarning ko'z o'ngida g'ijimlab yuzlariga uloqtirganimda, qay ahvolga tushishganini tasavvur qilyapman. Allaqaysi

tashkilotdagi «mehribonlarim» gazetani darrov Sergey Yejkovga yetkazishibdi (ko'chadan sotib olgan yoki tasodifan ko'rib qolgan bo'lishi mumkin emas). O'sha kuniyoq «Uzmetronom»da maqola chiqdi. Unda Mustaqillik bayrami sharafiga materiallar chop etgan «tartib-intizomli» gazetalar ro'yxati keltirilgandi. O'z boshlig'ini ko'kka ko'targan «Soliq-info» esa alohida «tahsin»ga loyiq ko'rilibdi. Xodimlarim Yejkovga chiqib, gazetamiz haqidagi gaplarni olib tashlashni iltimos qilishibdi. Bu shunchaki hazil ekanini, menga syurpriz qilmoqchi bo'lishganini tushuntirishibdi. Ammo Sergey Aleksandrovich yana vaziyatdan foydalandi. Bo'lgan voqealarga munosabatimni sharhlab, yana bir maqola chiqardi. Lekin aslida voqea qanday bo'lgani haqida og'iz ochmadi.

Sergey Aleksandrovich butun bir abzasni mening Garvardda ta'lim olganimga bag'ishlabdi. Uning yozishicha, oddiy til o'rgatadigan kurslarda o'qib kelib, Garvardni bitirganman, deb hammaga maqtanarmishman. Balki maqtangandirman, eslolmayman. O'zimni baxtli his qilib ketib, faxrlangandirman. Bo'lsa bordir. Ta'lim bilan bog'liq hamma narsa men uchun doim katta ahamiyatga ega bo'lgan.





GARVARD REJADA YO‘Q EDI

2013-yil

Ha, bu rostdan ham xohlagan odam pulini to‘lab qo‘yib, kirishi mumkin bo‘lgan kurslar edi. Faqat bitta shart bilan — agar yaxshi o‘qimasang, ko‘rsatgan natijalaring qoniqarsiz bo‘lsa, o‘qishdan haydalasan, mamlakatdan chiqib ketasan, adashmasam, deport qilishadi. Puling ham qaytarilmaydi.

Uy vazifalari juda murakkab. Bu siyosatshunoslik kurslari bo‘lgani uchun tinglovchilardan doim qiyosiy tahlil talab qilinardi. Maqsad shunchaki til o‘rgatish emas, ingliz tilida qiyin mavzularni o‘qitish edi. Oramizda ingliz tilida bemalol sayraydigan yigitlar bor, lekin vaqti kelsa, ular ham oqsardi.

Toshkentda ingliz tili o‘qitadigan o‘quv kurslarini ochib qo‘ygandim. Ikki mamlakatning soatlari o‘rtasidagi tafovut menga juda qo‘l keldi. Uyga berilgan topshiriqlar-

ni Toshkentga jo'natardim. Bu yerda vazifalarimni bajara-digan guruh tuzdik. To'rt kishi hafsala bilan ingliz tilida esse yozar, keyin gap nima haqida ekanini sal bo'lsayam tushunishim uchun, uning tarjimasini ham yuborishardi. Darsda beriladigan savollarga javoblarni ham tayyor yozib jo'natishar, yaxshilab yodlab olsam bo'lgani.

Hamma yotvolib o'qirdi-yu, men kursning eng a'lochi talabalari qatorida edim. Kamiga kursdoshlarimga steyk tayyorlab turardim. Yana ularni Niagara sharsharasiga borib kelishga ko'ndirdim. Avtomobilda o'n soatlik yo'l ekan. Men mashina haydayman, sizlar yo'l bo'yi dars tayyorlaysiz, — dedim.

Manzilga yetib borganimizda o'qiyverib ko'zlari tinib ketgan sheriklarim sharsharani birpas tomosha qilgan bo'lishdi-yu yana kitobga sho'ng'ib ketishdi. Men esa bemalol sayr qilishim mumkin, o'zimga shunday imkoniyat yaratib olgan edim.

O'sha mening «Studentlik — oltin davrim» bo'lgan. Undan oldin atigi bir yil kunduzgi bo'limda o'qib, keyin o'qishni San'at instituti sirtqi bo'limida davom ettirganman. O'zMUning iqtisodiyot fakultetida ham sirtidan o'qiganman. Biz universitetning ishlab turib o'qiydiganlar uchun ochilgan sirtqi bo'limining oxirgi bitiruvchilari bo'lganmiz. Garvardga boribgina o'zimni haqiqiy talabadek his qildim. Kampuslar, beyjiklar, yorug' auditoriyalar, talabchan o'qituvchilar...

«Ha endi-i...» deb ichida ensasi qotganlarga aytib qo'ya qolay, men o'n sakkiz yoshimdan tinimsiz ishlaganman. O'zimni bag'ishlab, bor vaqtimni ishga berib, bir dunyo majburiyat va ulkan mas'uliyatni bo'ynimga olib, dam olish nimeligini bilmay mehnat qilganman. Arzimagan xatoga ham haqqim yo'q edi. Bekorchilikni hech qanaqasiga oqlab bo'lmaydigan rosmana harbiy intizom sharoitida shuncha yil yashab... Va nihoyat! Mana senga Amerika! Ana ozodlik! Jahonning eng qadimiy universitetlaridan biri, shahar ichida shaharcha. Men baxtli edim...

Shtatma-shtat kezib, borgan joylarimni o'zim uchun belgilab qo'yardim. «Bellajio» oteli — «Vegasdagi yigit bazmi» filmi suratga olingan xona — done ✓, Nyu-Yorkdagi Ozodlik haykali tepasida vertolyotda uchish — done ✓, Mayami — done ✓.



Nyu-York. Ozodlik haykali tepasida parvoz qilish oldidan.

Hatto o'zimga hamrohlar «sotib oldim». Ya'ni, guruhdoshlarim sherik bo'lish sharti bilan mening hisobimdan sayohat qilishardi.

DSQda ishlagan vaqtim chet elga chiqish imkoni bo'lmagan. Bu ummon ortiga birinchi safarim edi. Biz haftasiga 7 kun 24 soatdan ishlardik. Ozib-to'zib ketgandim. Doimiy uyqusizlikdan ko'zlarimning tagi ko'karib qolaradi. Xuddi bosh chanog'imning ichida ko'zim tinmay lo'qillab og'riyotgandek tuyulaverardi.

Soliq qo'mitasi davrida hayotimda yuzaga kelgan bo'shliqni to'ldirayotgandek, tahririyatning to'rt devoridan chiqolmagan kunlarimning alamini olayotgandek edim. Vaqtni o'n yil orqaga, o'n sakkiz yoshligimga qaytargim keldi. Shuncha ishlab topgan pulimning bir qismini o'zimga sarflashni xohladim. Bebosh talabalik davrini o'zimga o'zim sotib oldim.

Bir gapni ta'kidlamoqchiman: bilim — cho'qqiga ko'tarilishda eng kuchli turtki. Agar ota-onangiz o'zlari uchun hamma narsadan voz kechib, sizning bilim olishingizga sharoit yaratib bergan bo'lsa, o'qishdan bo'yin tovlash g'irt nonko'rlikdir. O'z hayotini qadrlamaslik degani bu. Ammo sharoit ko'tarmagani, orzularning ushalingiga tayyor imkon yo'qligi uchungina, kelajak maqsadlardan voz kechish katta xato bo'ladi. «Diplomsiz, ma'lumotsiz hech kimsan», deydi-ganlarga umuman quloq solmang! Niyatga yetish uchun birinchi o'rinda qat'iyat, sabr-bardosh va o'zingizga ishonch

bo'lishi kerak. «O'zingga ishon» iborasi siyqasi chiqqan-dek, yasama tuyulishi mumkin. Lekin busiz orzuga erishib bo'lmaydi. Har safar tushkunlikka tushganingizda ikkinchi kursda o'qishdan haydalgan, institut va universitetda sirtidan o'qigan, shunchaki sohasi bo'yicha ishlab bilimini oshirgan Komil Allamjonovni eslab qo'ying. Eng ishonchli va tekin universitet mustaqil ta'lim bilan amaliyotdir.

Albatta, Garvardda o'tgan kunlarim faqat o'yin-kulgidan iborat bo'lmagan. Toshkentdagi jamoam o'rnimga uy vazifalarni bajarayotgan paytda, men universitet ta'lim tizimini o'rganib, o'zim uchun ko'p narsa kashf qildim. Nima uchun Garvardda, kim dars o'tishidan qat'i nazar, bitiruvchilarning bilimi kuchli? Chunki bu dargohning o'quv metodikasi juda yuqori saviyada. U yerda o'qigan talaba savodsiz bo'lib qolishi mumkin emas. Biz bir paytlar mutlaqo eshitmagan o'yin vositasida bilim berish usulini ham qo'shing bunga. Darsni ko'r-ko'rona, faqat baho uchun yodlab olmasdan, mag'zini chaqishga ham yordam beradigan «emotsional idrok» degan tushuncha ham bor ekan, biz esa bundan mutlaqo bexabar edik.

Mohiyatni tushunish — eng muhim masala. G'ildirak qanday aylanishini bilsang, uni o'zing ixtiro qila olasan. Shunchaki halqa va simlaridan nusxa ko'chirmasdan, bu mexanizm qanday qilib va nima uchun harakatlanayotganini o'rganasan. O'z «g'ildiraging»ni mukammallash-tirish yo'lida yana ko'p sirlarni bilib olasan. «Keyin uni

yaxshiroq pullash uchun» degan gapni qo'shib qo'ymasam, Komil Allamjonovligim qayerda qoladi?!

U davrda bizdagi o'quv metodikalarida bunaqa narsa qo'llanilmagan. Darslikda nima yozilgan bo'lsa, shuni to'tiga o'xshab takrorlab, yodlab olinsa bo'ldi — butun ta'lim tizimimiz shu poydevorga qurilgandi. Mustaqil fikrlash, tahlil qilish yo'q. To'g'ri, yaxshi mutaxassislar yetishib chiqqan, lekin haqiqiy iste'dodlarni barmoq bilan sanasa bo'lardi. Garvarddagi ta'lim esa har bir talabani mustaqil fikrlovchi daho darajasiga ko'tarishga qaratilgan.

Bolani analitik fikrlashga o'rgatmasak, faqat birovning topshirig'ini yaxshi bajarishga yaraydigan o'rtamiyona xodim bo'lib voyaga yetadi. Yoki darslikning yarmini esidan chiqarib yuborgani uchun, shuni ham eplolmaydi. Bu haqiqatni endi-endi tushunib yetyapmiz. O'yin, takrorlash, qiyoslash orqali bilim berish, mavzu doirasidan chiqib, kengroq mulohaza qilishni o'rgatish qanchalik zarur ekanini ko'ryapmiz. Ammo bu uslub hozir faqat xususiy, pullik muassasalarda qo'llaniladi. Davlat ta'lim tizimida esa ahvol haliyam o'sha-o'sha — mazmun emas, shakl muhim: davomat, bir xil tashqi ko'rinish, namunali xulq, uy vazifalarni vaqtida bajarish...

O'ziga, ertangi kuniga ishongan odamlar bo'lmasa, butun mamlakatning taraqqiyoti to'xtaydi. O'n, yigirma yildan keyin nima bo'lishini o'ylamaydigan, faqat qorin g'amida, buguni bilan yashayotgan jamiyatga aylanib qol-

yapmiz. Avvalgidek faqat och qolmaslik uchun ishlayveramizmi? Tilla idishga qimmatbaho qizil ikra solib yeyilsa ham, u baribir bir yegulik, xolos.

Mamlakatdagi tadbirkorlarning hech bo'lmasa bir qismi o'z oldiga ulkan maqsadlarni qo'yishi, eng baland cho'qqilarga intilishi kerak. Menga «pul ishlab olish» takliflari ko'p tushadi. U yoqdan olib, bu yoqqa sotib, o'rtadagi foydani cho'ntakka urasan, deyishadi. Bu ham o'sha «yeb-ichish» darajasidagi fikrlash. Bunaqa ishlar meni qiziqirtirmay qo'yg'an. Qachondir qiziqqanimni eslolmayman ham. Shu joyida muhtaram Sergey Yejkov: «Rasvo ishlaridan toymaydigan bu bolakay o'zini butun insoniyatning xaloskori deb xayol qiladi», — degan bo'lardi.

Miyamda Katta G'oya bor. Ba'zan eski odatga ko'ra «Uzmetronom» sahifalarini ocha turib, umridan baraka topkur Yejkov shu haqda ham yozib qolarmikin, deb o'ylayman. O'zimcha original, tortadigan sarlavhayam o'ylab topaman. O'zi Sergey Aleksandrovich bunaqa narsaga juda usta. Uning maqolalari doim o'qishli bo'lgan. Ayniqsa, men haqimda yozmaganida.

To'g'ri, endi meni «bolakay» deb atay olmaydi, katta bo'lib qoldim. «Parpiyevning jiyani» mavzusi ham eskirgan. «Soliq-info» yopildi. «Turon-24»²¹ ham. «Avtotest report» loyihasi harakatdan to'xtatildi, mudroq holatda hozir. Lekin Sergey Aleksandrovich baribir shov-shuvli sarlavhaga bahona topadi, bunga ishonaman. Mayli, ham-

mamizni o'sha kunlarga yetkazsin. Darvoqe, men o'zimni haliyam butun «insoniyatning xaloskori» deb hisoblayman.





AVTOTEST REPORT

«Avtotest» loyihasidan maqsad aynan odamlar hayotini asrash bo'lgan. Undan yaxshigina daromad ham topishim kerak edi. Bu ikki maqsad bir-biriga zid deb o'ylamayman. Katta daromad olinmadi, to'g'rirog'i, hamma topganim karyera loyihamga sarflanib ketdi, u yerda esa pul ikkinchi darajali bo'lib qoldi.

2011-2012-yillar

O'zi bu g'oya to'satdan paydo bo'ldi. O'sha paytlari 2009-yildan «BEM» loyihasiga rahbarlik qilgan Nodira Vohidova bilan birga ishlardik. Bir kuni oldimga kelib: «Bir loyihaga ortiqcha ellik million topilmaydimi?» — deb so'rab qoldi.

Taklif yo'l harakati qoidalarini o'rganishga va eslab qolishga yordam beruvchi animatsiya bilan bog'liq ekan. Mablag' ajratish haqida topshiriq berdim-u shu bo'yi esimdand chiqib ketdi. Keyinroq, xarajatlarni tekshira turib, bu

masalaga yana duch kelganimda, Nodira ishdan bo'shagan, loyiha amalga oshmay qolib ketgan ekan. Lekin g'oya menga juda yoqdi. Ayniqsa, Garvardda o'qib kelganimdan keyin. Odamlarga jiddiy narsani o'yin tarzida o'rgatishning zo'r imkoniyati edi bu.

Vaziyatni o'rganishga kirishdik. Avtomaktablarda yo'l harakati qoidalarini haliyam daftarga yozdirisharkan. Ellik yildan beri birorta o'zgarish kiritilmagan eski usul — darsga daftar ko'tarib kelib, qo'llanmadan qoidani ko'chirib olasan, ichki yonuv dvigateling rasmni chizasan...

Biz ko'pgina test savollaridan tuzilgan rang-barang animatsion dastur ishlab chiqdik. Uni «GAI»ga olib borib, tugmachali apparatlarning o'rniga kompyuterga shuni o'rnataylik, degan taklif berdim. Chunki bu usul imtihon topshiruvchining Yo'l harakati qoidalarini qay darajada bilishini aniq ko'rsatib berardi. Dasturni tekinga taklif qilganim uchun «GAI»dagilar rozi bo'lishdi. O'zi tugmachali tizim ham ma'nan, ham texnik jihatdan azbaroyi eskirganidan, uni ishlatish uyat ham bo'lib qolgandi. Xullas, «GAI»dagilar kompyuterlar sotib olib, biz ishlab chiqqan dasturni o'rnatishdi. Dasturni «Avtotest» deb nomladik. Guvohnoma berish uchun butun respublikada imtihonlar shu bo'yicha olinadigan bo'ldi.

Men esa avtomaktablarga borib, disklarimizni tavsiya qila boshladim. Hammasi aniq va tushunarli. «GAI» endi mana shu dastur bo'yicha imtihon oladi. Uning kaliti esa

bizda. O'quvchilar imtihondan muammosiz o'tsin desangiz, diskларimizni sotib oling — marketing jihatidan hammasi puxta o'ylangan edi.

Lekin rejam o'xshamadi. Ishonasizmi, avtomaktablar diskларimizni olishmadi. Men bilan hech kim gaplashib ham o'tirmadi. Sababi, O'zbekistondagi avtomaktablarning maqsadi o'quvchilarga avtomobilni to'g'ri va yaxshi haydashni o'rgatish emas, pul ishlash ekan, xolos. Guvohnoma faqat pul berib olinardi. Mashinani zo'r haydaydiganni ham, qoidani suv qilib ichib yuborganni ham bari-bir imtihonda yiqitishardi.

Pul topishning turli yo'llarini bilganim, pulni yaxshi ko'rganim bilan, shu qadar jiddiy masalaga bunaqa munosabatdan xafa bo'lib ketdim. Millionlab odamlarning xavfsizligi-ku bu axir! Mening ham idealistligim tutib ketdi.

Kimligimni bilishmaydi-da hali. Men avtomaktablarning kalkulyatsiyasini o'rganib chiqdim. Qarasam, har bitta avtomaktabda xarajatlarning 20 foizi tarqatma materialga sarflanishi kerak ekan. Tarqatma materialning esa o'zi yo'q. Arzimagan pul turadigan «Yo'l harakati qoidalari» kitobchasi va o'quvchi o'zi bilan ko'tarib keladigan daftardan foydalaniladi, xolos. 1989-yildan beri birorta o'quv qo'llanmasi tayyorlanmagan, hech qaysi maktab yangi metodika ishlab chiqmagan, o'quvchilar darsda qatnashmasayam bo'laveradi. Mashina haydash uchun 52 so-

atlik mashg'ulot belgilangan bo'lsa-da, amalda nari borsa, shuning uchdan biricha vaqt ajratiladi. Yana benzin puliniyam o'quvchilar o'zlari to'lashadi. Oxirida butun guruh «GAI»ga pul yig'ib berib, hamma guvoohnoma oladi.

O'zim sobiq soliqchi emasmanmi, hamma ma'lumotlarni tahlil qilib, avtomaktablar davlatga juda katta miqdorda soliq to'lamay kelayotganini aniqladim. Qo'limdagi hujjat-dalil bilan ikkinchi hujumga o'tdim.

Avtomaktablarni tashkil qilib, ularning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi vakolatli organ Vazirlar Mahkamasi bo'lgani uchun, oldin o'sha vaqtdagi Bosh vazir o'rinbosari Adham Ilhomovich Ikromov bilan uchrashishga erishdim.

Biz dasturimizni taqdim qilib, maqsadimizni tushuntirdik. Loyiha Ikromovga ma'qul keldi. Ayniqsa, o'zimizda qilingani, yo'llardagi falokatlarni keskin kamaytirishga yordam beradigan milliy mahsulot ekanligi yoqdi. Muammo bilan birga uning yechimini ham keltirsang, g'oyaga hamma qiziqadi.

Ikromov shu masalada majlis o'tkazdi va Vazirlar Mahkamasi respublikadagi barcha avtomaktablar «Avtotest» dasturi bo'yicha o'qitishi kerak, degan qarorga keldi.

Demak, har bitta diskimiz uchun pul to'lanadigan bo'ldi. Men uchun bu tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada katta pul edi.

Bundan ortiq yana nima kerak? Biz bu g'oyaning orqasidan yaxshigina pul topdik, bundan buyon ham tinchgina, hech qanday boshog'riqsiz o'sha diskklarimizni sotib yuraversak bo'lardi. Lekin men bir ishkal chiqarmasdan o'tira olarmidim?! Xullas, innovatsion avtomaktab ochishni o'ylab qoldim. Haqiqiy avtomaktab qanaqa bo'lishini bir ko'rsatib qo'yay debman-da. Ishlab topgan «tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada katta» pulimizni ana shu loyihaga tikdik.

Avtomaktab ochish fikri Sirdaryoga baliq oviga borganimizda kelib qolgandi. Yarim kechasi, gulxan atrofiga maiza qilib suhbatlashib o'tirgandik. «Avtotest» haqida gap ochilib qoldi.

— Qaniydi avtomaktab ham ochsak. Hech kimning xayoliga kelmagan zo'r maktab bo'lsa, — dedim o'zimcha orzuga berilib.

— E, kim ham ruxsat berardi bunga... — dedi Husan Ibragimovich²² meni shashtimdan qaytarib.

Gap shundaki, Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 31-dekabrda qaroriga ko'ra, 2011-yil 1-yanvardan xususiy avtomaktablar faoliyati taqiqlab qo'yilgan edi. Husan aka-ning ishonchsizlik bildirgani menga biroz tegib ketdi va... ichimga olov yoqdi. O'zim xohlagandek, orzumda- gi avtomaktabni tezroq ochgim kelib ketdi. Ishga kirishishga qat'iy qaror qildim.

Haydovchilar tayyorlash bozorida vaziyatni o'rgana boshladik. Ko'pchilik qonun bo'yicha bu bilan faqat davlat tashkilotlari shug'ullana oladi deb hisoblaydi. Vaholanki, qarorda ushbu huquq mudofaaga yordam beruvchi «Vatanparvar», shuningdek, «Toshshahartransxizmat», «TransKASB» va O'zbekiston avtohavaskorlari ko'ngilli jamiyatiga ham berilgan ekan. Qarorda hamma xususiy maktablar yopilishi belgilangan, ammo aslida unday bo'lmadi. Ular rasman shu tashkilotlarning «qanoti ostiga» kirib ishlayvergan va ta'limga umuman sarf-xarajat qilmasdan, mo'maygina daromadni olishda davom etgan.

«Avtotest»ni ochish haqidagi Vazirlar Mahkamasi qarorini chiqartirishga bir necha oy ketdi. Lekin loyiha bunga arzirdi, rostdan zo'r avtomaktab bo'ldi. Tizim to'liq avtomatlashtirildi, eng tajribali mutaxassislar jalb qilindi, har bitta sinfda tasvir va ovozni yozib oladigan kameralar o'rnatildi. O'quvchilarimiz xuddi mashina haydashga emas, raketada uchishga shaylanayotgandek maxsus simulyatorlarda shug'ullanardi. O'qituvchilarni tayyorlaydigan, monitoringdan o'tkazib turadigan alohida guruh ham tashkil qildik.

Maktabimizga avtomobil haydashni o'rganishga ham, o'rgatishga ham xotin-qizlar oqib kela boshladi. Chunki bu yer ular uchun qulay va xavfsiz, muhimi, hech kim erkak-ayolga ajratmaydi. Instruktor ayollar esa rasman ishlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Yana qulay sharoitda, za-

monaviy mashinalarda, aniq kelishuv bilan, hech qanday aldam-qaldamsiz.

Maktab bizga deyarli foyda keltirmasdi, xarajati daromadidan oshardi. Chiqim bilan kirim tenglashsa, shunga ham xursand bo'lardik. Lekin bu mening karyeramga xizmat qiladigan loyiha edi. Shuning uchun disklardan tushgan bor pul mana shu maktabga ketganiga umuman achinmadim. «Avtotest» misolida yurtimizda yuqori sa-viyada ta'lim beriladigan har qanday maktabni tashkil qilish mumkinligini ko'rsatdik. Ana shunday modelni sinovdan o'tkazdik.

«Biz guvohnomani porasiz olamiz» degan norasmiy shiorimiz ham paydo bo'ldi. Maktabimizni «O'quvchilari darslarni 99 foiz o'zlashtiradigan, bitiruvchilari guvohnomani hech qanday muammosiz oladigan», deb ovoza qila boshladik. Bu hammaqayam yoqmaganini aytmasam ham bo'lar-a?..

Lekin loyihaning orqasidan imkon qadar ko'proq pul topish niyatidan baribir voz kechmadik. Qonunchilikda avtomaktablar har yili yuridik shaxslarning malakasini oshirishi kerakligi haqida modda bor ekan. Biz buni aniqladik. Lekin Vazirlar Mahkamasining ushbu qarorini bajarish mexanizmi ishlab chiqilmagan. Bu moddaga hech kim hech qachon amal qilmagan. To'g'ri-da, hamma haydovchilarimiz o'zini «as» deb biladi-ku. Unda yo'llarda-

gi shuncha avtofalokatlar qayerdan kelib chiqyapti, degan tabiiy savol tug'iladi...

U paytda [REDACTED]

[REDACTED] Bir amallab uning qabuliga kirdim.

— Butun respublikada biznikiga o'xshash innovatsion avtomaktablar tarmog'ini tashkil qilsak, yaxshi bo'lardi. Mashina haydashning nazariyasini ham, amaliyotini ham qoyil qilib o'qitadigan va har yili haydovchilar malakasini oshirishni zimmasiga oladigan eksklyuziv maktab bo'ladi.

[REDACTED] ni ishontirishga, ko'ndirishga harakat qildim. Men shunchaki o'zimga kart-blansh so'ramayapman-ku, infratuzilmaga pul tikiyapman, demak, haydovchilik sifatini oshirishni yo'lga qo'yishda davlatga yordam bermoqchiman. Haydovchilarning ko'pi mashinani to'g'ri boshqarishni bilmaydi, chunki guvohnomani pulga sotib olgan. Bizda yo'l harakatining hamma ishtirokchilari — intizomli haydovchilarning ham, piyodalarning ham joni xatar ostida. Men bu vaziyatni qanday qilib tartibga solishni bilaman, bu sohada tajribam, dasturim, strategiyam bor, davlatga yordam berishga tayyorman. Shu loyihaga bor pulimni tikkandan keyin foyda ham ko'rsam, buning nimasi yomon?

Biror chet mamlakatda bo'lganida, davlat bilan xususiy tadbirkor hamkorligini hamma ma'qullagan bo'lardi, deb o'ylayman. Lekin bizda unday emas. Birdan hamma bosh

ko'tarib qoldi: Nega «Avtotest»ga mumkin-u, qolganlarga mumkin emas ekan?! Malaka oshirishga ikki yilda naq bir hafta ajratishning nima keragi bor?!

Eng qizig'i, hammayam norozi bo'lmadi. Ko'pchilik haydovchilar bir haftalik kurslarga jon deb qatnadi. Bu talabalik davriga qaytishdek gap edi. Ba'zilar o'qishni o'ziga xos ta'til deb qabul qildi. O'yin, tanlov-viktorinalarga har qanday yoshdagi odam qiziqadi. Simulyatorda mashina haydab ko'rish, kompyuterning tugmachalarini chiqilatib bosib, o'zini sinab ko'rishning ham gashti bor. To'lovi ham uncha qimmat emas. Asosiysi, o'sha paytda ham, hozirgacha ham maktabimizda beriladigan bilimga hech kim e'tiroz bildira olmadi, ta'lim sifati haqiqatan yuqori darajada. Metodikamiz noyob, o'quv qo'llanmalarimiz zamonaviy. Lekin ko'pchilik meni «monopolist» deb e'lon qilib, bosim o'tkazgani tufayli bu ishni yig'ishtirib qo'ya qoldim. Xo'p, natijada nima bo'ldi? Yo'llarda o'lim holatlari nihoyatda ko'p, korrupsiya gurkirab yotibdi, avtomaktabda yolchitib o'qimagan bitiruvchi ham guvohnomani bemalol sotib olishi mumkin.

YHXBB ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilning o'zida 8 588 ta avariya sodir bo'lgan, bunda 2 096 nafar odam o'lgan, 7 943 kishi jarohat olgan. Vafot etganlarning 193 nafari, jarohatlanganlarning 1047 nafari yosh bolalar. Yo'llarimizda kuniga besh nafar odam halok bo'ladi. Bu — o'rtacha bir oila yo'q degani. To'g'ri, yo'llardagi xavfsizlik ko'p sabablarga — yo'lning tekisligi, yo'l chiziqla-


ri, infratuzilmaga, mashina haydash madaniyatiga bog'liq. Lekin haydovchilikka o'qitishning sifati birinchi o'rinda turadi. YHXBB tahlili yo'llardagi falokatlarining 80 foizi odamlar yo'l harakati qoidasini bilmasligidan sodir bo'lishini ko'rsatadi.

Xo'sh, oxir-oqibatda kim yutdi? Butun jamiyat yutqizgani aniq. Bu sohada ko'zlangan progressga nuqta qo'yildi. Shunisi achinarli.

Shu loyihani deb men yomonotliq bo'ldim, gap-so'zlar sha'nimga jiddiy ta'sir qildi. Nega bu ahvolga tushganimni ko'p o'yladim. Yaxshilik qilaman desang-u, seni hech kim tushunmasa. Xatti-harakatlaringni shunaqa oyog'ini osmondan qilib ko'rsatishadiki, yovuzligingga o'zing ham ishonib ketasan. «Vatanga foydang tegsin, ammo o'zing foyda ko'rishni xayolingga keltirma», — degan nuqtayi nazar judayam noto'g'ri. Bunaqada davlat bilan xususiy sektor hech qachon hamkorlikda ishlay olmaydi.

Boshimga tushgan voqealardan kelib chiqsak, O'zbekistonda so'z erkinligiga qarshi chiqadiganlardan birinchisi men bo'lishim kerak edi. Lekin so'z erkinligi e'lon qilinganida amalda aynan biz Saida Mirziyoyeva bilan Prezident demokratik islohotlarining bosh ijrochilari qatorida bo'ldik.





AOKA. OAVDAGI O'ZGARISHLAR

2018-2019-yillar

O'zMAA hech qachon jurnalistlarni himoya qilmagan. U jazolovchi organ edi. U yerga faqat: «Litsenziyangizni olib qo'yamiz» — deb po'pisa qilish uchungina chaqirtirishardi. Bahaybat ustunli bu imoratdan ko'pchilik nariroq yurar, u yerda hech qanday tadbir o'tkazilmas, bino ichida bo'lishning o'zi yoqimsiz edi.

Binoni ta'mirlatganimdan keyin jurnalist va bloggerlarni birinchi uchrashuvga taklif qildim. Rosa hayajon bosdi, men yig'ilganlarga muhim yangilikni — O'zMAA o'zgariganini, endi hammasi boshqacha bo'lishini aytib qo'yishim kerak edi.

Ishonisharmikin?

Uchrashuv ikkinchi qavatdagi kichikroq majlislar zalida bo'lib o'tdi.

— Jurnalistlarning Agentlik hal qilishi mumkin boʻlgan qanday muammolari bor? — deb dangal soʻradim. Boshida xuddi hammasi joyida, degandek indamay oʻtirishdi. Toʻgʻrirogʻi, ular muammolarni baribir hech kim hal qilib berolmaydi, deb hisoblashgani uchun mening gapim nomiga aytilgandek tuyuldi, shekilli.

Lekin keyin gap ochilib ketdi.

Ali Qahhorov²³ oʻzini qanday tanishtirgani esimda qolgan: «Mening ismim Ali. Men inflyuenseraman...» Ancha kulishgandik.

Vaqt oʻtib, jurnalistlar mening amaldor emasligimni, xoʻjakoʻrsinga ishlamayotganimni tushunib yetishdi. Lekin boshidan ishonch bildirishdi deya olmayman. Karimov davridagi biroz yengillik berilgan kunlar koʻpchilikning esida edi. Toʻrt yilgina davom etgan bu davrdan keyin matbuot oldingidan ham battar siquvga olingan.

Biz oʻsha siquvni yumshata boshladik.

Juda koʻp saytlarni blokdan chiqarishga erishdik, jumladan, «Uzmetronom»ni ham. «Ozodlik»dan boshqa hammasi bimalol ochiladigan boʻldi. «Ozodlik Radiosi»ning vitse-prezidenti va bosh muharriri Nenad Pejich Toshkentga kelganda uchrashib, gaplashib oldik. Men oʻz pozitsiyamni ochiq-oydin aytdim: «Biz bilan ishlamoqchi boʻlsangiz, odob doirasidan chiqmang va davlatimiz qo-

nunlariga rioya qiling. Balki boshqa mamlakatlarda sizning ish uslubingizga e'tiroz bildirishmas, ularning qonunlari shunga yo'l qo'yar, lekin bizda unday emas».

«Ozodlik Radiosi» ham «Uzmetronom»ga o'xshab, qasdma-qasdiga ishlaydi. Ya'ni jurnalistlari material to'p-lab, ma'lumot-dalil qanday bo'lishidan qat'i nazar, o'zlariga o'sha vaqtda kerak bo'lgan ohangda taqdim qilishadi.

Biz ularning material yig'ish usullaridan ham norozi edik: ko'pincha o'zlarini hokimiyat va huquq idoralari va-killari deb tanishtirishardi. Odamlar ham ularga ishonib, Ittifoq davridan qolgan eski odatga ko'ra hisobot berish-ga tushardi. «Ozodlik» xodimlari telefonda duch kelgan tashkilot nomidan chiqishlari, aytilgan gapning ma'nosini boshqa tarafga burishlari, javoblarni umuman o'zgartirib yuborishlari ham mumkin.

Men buni ochiqdan ochiq buzg'unchilik deb hisoblay-man. «Yolg'onning umri qisqa», — deb bekorga aytish-maydi. To'g'ri, negativ xabarga qiziqish doim kuchli bo'lgan, bu usul odamlarni ko'proq jalb qiladi. Lekin shuning uchun ham ular hamkasblarining ishonchini yo'qotishdi. «Ozodlik»ni yoqlaganlar qattiq pand yeb, kulgiga qolishi mumkin edi.

Ko'pchilik «Ozodlik» bergan ma'lumotlardan foyda-lansa ham, qayta tekshirib olardi. Muharrirlarning ayti-sicha, vaziyatni o'zlari o'rganganlarida butunlay boshqa

narsa kelib chiqar ekan. Ko'pincha yozishga arziydigan gapning o'zi yo'qligi ma'lum bo'lardi.

«Ozodlik» O'zbekistonda muxbirlik punktini ochib berishimizni so'radi. «Bo'pti. Jurnalistingizni akkreditatsiyadan o'tkazamiz, lekin bir shart bilan: material tayyorlashda xuddi o'zimizning nashrlarga o'xshab, ma'lumotni albatta qayta tekshirishadi», — degan javobni berdik. Biz ularni hokimiyatdan tortib, vazirliklargacha istalgan idora bilan bog'lashga tayyor edik.

Ular rozi bo'lishdi. Ammo... keyin yo'qolib qolishdi, shu bilan muzokaralar ham to'xtadi. «Ozodlik» radiosi esa yana o'sha-o'sha oldingidek, akkreditatsiyasiz, axborotni oshirib-toshirib, qo'shib-chatib ishlayverdi.

Men Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT)ning OAV erkinligi masalalari bo'yicha vakili Arlem Dezirga²⁴ xat yozdim. Xatga ilova qilingan 60 betlik ro'yxatda «Ozodlik» tomonidan qonunlarimiz buzilgan holatlar ko'rsatildi. Quyidagi savollarni ko'ndalang qo'ydim: «Faoliyat olib borilayotgan davlatning qonunlari va etikasiga rioya qilish kerak, — degan fikrga qo'shilasizmi? Davlat o'zining manfaatlarini, jumladan, axborot maydonida ham himoya qilishga haqli, — deb hisoblaysizmi? O'zbekistonda barcha OAV huquqiy me'yor chegarasidan chiqmay ishlasa-yu, «Ozodlik» qonunga bo'ysunmasligi adolatdanmi? Har qanday davlat fahsh, zo'ravonlik, narkotiklar, terrorismni targ'ib qiluvchi va yolg'on-feyk

xabarlarini cheklashi, ularni noqonuniy deb qabul qilishi zarur, — deb hisoblaysizmi?»

Soʻz erkinligi deganda koʻngilga kelgan ishni qilishni, ogʻizga nima kelsa gapirishni tushunsak, axborotga taalluqli qonunchilikning nima keragi bor?

U fikrlaringa qoʻshildi. Vaholanki, oldin: «Bular «Ozodlik»ning ovozini boʻgʻyapti» — deb hisoblardi. Lekin men axborot sohasiga kecha kirib kelganim yoʻq. Qayerda Soʻz erkinligi tugab, shaxsiy manfaatlar boshlanishini juda yaxshi bilaman.

Siquvni yumshatish oson boʻlmadi.

Yuqorida AOKA²⁵ Vazirlar Mahkamasi tasarrufidan chiqarilib, Prezident Administratsiyasiga boʻysundirilganini aytdim. [REDACTED]

[REDACTED]

[REDACTED]

[REDACTED]

[REDACTED]

[REDACTED]

[REDACTED]

Qandayligini bilmadim-u, lekin Prezident cheklov bilan bogʻliq bu oʻyinlarni sezibdilar, shekilli. Chunki bitta qaror bilan fitnalardan himoya qilib qoʻydilar. AOKA direktorining oʻrinbosari etib qizlari Saidani tayinladilar. Oʻshanda bu qaror menga qanot berdi.

Saida Shavkatovnani o'zi tushunmaydigan sohaga to'satdan tushib qoldi, deb o'ylash noto'g'ri. U oldindan Prezidentning OAV masalalari bo'yicha norasmiy maslahatchisi bo'lib kelgan, O'zbekistonning imijiga oid jahon matbuotidagi hamma materiallarni kuzatib, tahlil qilardi. Saidaning xotirasi o'ta kuchli, ingliz tilini mukammal biladi.

Ikki kun uxlamadim. Bu juda og'ir mas'uliyat edi. Lekin, shu bilan birga: «Albatta omadim keladi, Xudo menga yordam beradi», — deb doim ishongan ichimdagi o'sha bebosh Komil Allamjonov xursandligidan yettinchi osmonda uchdi.

Saida bilan matbuot kotibi bo'lib ishlab yurgan vaqtimdan beri do'st edik, munosabatimiz juda yaxshi, bir-birimizning ishonchimizni qozongandik. Prezidentning yangi Matbuot xizmati ochiq ish yurita boshlaganini, ancha xalqchil bo'lib qolganini ko'pchilik sezdi. Bunda Saidaning ham katta hissasi bor. O'rinbosar qilib tayinlanishidan oldin ham AOKA bo'yicha shunchaki, do'stona yordam berib turardi. U juda samimiy, rahmdil inson, ajoyib ona va rafiq, ota-onasining so'zini ikki qilmaydigan qiz. Bir so'z bilan aytganda, otasining munosib farzandi.

O'sha kunlari hamma nashrlarda Bosh vazir o'rinbosari Zoir Mirzayevning buyrug'i bilan ariqda tizzasigacha suvda turganlar surati tarqab ketdi.

O'zbekistonda hokim yoki vazir bo'lish juda qiyin. Viloyat yoki biror soha u yoqda tursin, kichik bir tuman-ni boshqarish ham oson emas. Bir paytlar bu vazifalarda mehnat qilgan Prezident holatni ichidan biladi. Mirzayev ishdan olinib, chekka bir tumanga hokim qilib qo'yildi. Uning qo'l ostida ishlab yurganlar endi unga rahbar bo'lib qoldi. Bu juda og'ir, ammo adolatli saboq edi.

Qizig'i shundaki, ko'pchilik hokimlarning fikrlashida o'zgarish ro'y berdi. Ular har bir qadamlari matbuot nishoni ostidaligini, jurnalistlarga bosim o'tkazish xavfli ekanini asta-sekin tushuna boshladilar. Undan ko'ra hamkorlik qilish ma'qulligini tan oldilar. Zoir Mirzayev bir yil ichida yana Prezidentning ishonchini qozonib, viloyatga hokim bo'lib qaytdi. Bilishimcha, endi u qashqadaryolik jurnalistlarning eng yaqin do'sti bo'lib qolgan. Intervyu berganda ham, kameraga ham kerakli va progressiv gaplarni aytyapti. Har qalay, Qashqadaryo bo'yicha OAVdan shikoyatlar tushmay qo'ydi.

AOKA bir yilda O'zMAA butun faoliyati davomida qilmagan ishlarni amalga oshirdi. Ayni paytda xalqaro jamoatchilikning O'zbekiston haqidagi mulohazalarini diqqat bilan kuzatib bordik, «...gacha» va «...dan keyin»-gi raqamlarni taqqosladik. Xorijiy nashrlarda respublikamizga nisbatan negativ fikrlar salkam ikki baravar kamayib, borgan sari ko'proq ijobiy munosabat ko'zga tashlana boshladi. Biz har bitta shunday sharhni kichik bir g'alabadek nishonlardik. Axborot qamrovi juda keng edi, ikki

yuz mingdan ortiq materialni tahlil qildik. Yurtimiz haqida hatto Nigeriya va JARda yozishdi. Butun Yevropada, Avstraliya, Yaponiya, kutilmaganda, Vyetnamda ham O'zbekistonga bag'ishlangan juda ko'p maqolalar chop etildi. Lekin tabiiyki, biz haqimizda eng ko'p yozadigan davlat Rossiya edi. Yangi yo'nalishimiz, ochiqligimiz, muloqotga va tanqidga tayyorligimiz ko'pchilikda qiziqish uyg'otdi. Har qanday qarashni og'rinmay qabul qilishga tayyor bo'lsang, salbiy fikrlar ancha kamayar ekan.

Muhimi, bu o'zgarishlarga mamlakat ichidagi odamlar qanday munosabat bildirayotgani edi. Aholiga islohotlar haqida to'liq axborot yetkazish uchun birinchi navbatda vazirlik va boshqa muassasalarda matbuot kotiblari institutini yangitdan tashkil qilish zarurati tug'ildi. Ilgari ahvol qanday edi?

Matbuot xizmati eng keraksiz bo'lim hisoblanardi. Uning vazifasi o'rtamiyona yuritilayotgan saytga hisobot uchun ora-chora qandaydir yangiliklar qo'yib turish edi, xolos. Odatda matbuot xizmatining shtati boshqa bo'limlarda ortiqchalik qilgan xodimlar hisobiga to'ldirilardi. Tashkilotda matbuot kotibining hech qanday haq-huquqi yo'q edi.

Vaziyatni o'rganganimizda, matbuot xizmati xodimlarining qo'lidan tayinli ish kelmasligi, ular jamoatchilik bilan dolzarb va jiddiy mavzularda muloqot qila olmasli-

gi ma'lum bo'ldi. Ularga buni hech kim o'rgatmagan, qolaversa, o'rgatadigan va o'rganadigan tayinli odamning o'zi yo'q ekan. Rahbarlar ba'zan ijtimoiy tarmoqlardagi materiallar va postlarga o'zlari javob berishga urinardi. Lekin buni hamma ham eplolmaydi. Natijada obro'-e'tibor battar tushib ketadi. Katta-kichik rahbarlar umr bo'yi bir chekkada, panada bo'lishga moslashib qolgan. Islom Karimov amaldorlarni OAVda o'zlari haqida ortiqcha ma'lumot bermaslikka o'rgatib qo'ygan edi. Jamoatchilik hech qaysi siyosatchini, biror vazirni tanimasdi, siyosiy makonda axborot vakuumi — bo'shliq hukmronlik qilgan. Shuning uchun samarali ishlaydigan matbuot xizmatlari va OAVga ehtiyoj ham yo'q edi.

Matbuot kotiblari institutini qayta tashkil qilish oson bo'lmadi. Negaligini tushuntiraman. Tizim xuddi ariqqa ag'darilib, hamma g'ildiragi sinib ketgan aravaga o'xshar, biz esa uni tortib chiqarishga harakat qilardik. Bu juda qiyin ish edi. Boshida hafsalamiz pir bo'lib, tushkunlikka tushgan paytimiz ham bo'ldi. Hamma harakatimiz befoydadek ko'rinar, tashkilot rahbarlari esa bizning tiri-shib-tirmashayotganimizni beparvo kuzatishardi. Ijtimoiy tarmoqlarda va blogosferada boplab po'staklari qoqilmaguncha, ular jamoatchilik bilan aloqani yo'lga qo'yish qanchalik muhimligini tushunib yetishmadi. Jurnalistlar amaldorlarning lavozimidan qo'rqmay, savollariga javob talab qila boshladi, oldinlari ovoza qilish xavfli deb hisoblangan xabarlar efirga uzatiladigan bo'ldi.

Biz matbuot xizmatlariga oid Prezident farmoni loyihasini tayyorladik. Unga ko'ra matbuot kotibi tashkilot rahbarining o'rinbosariga tenglashtirildi. Ya'ni vazirlikning matbuot kotibi — vazir o'rinbosari, hokimiyatniki hokim o'rinbosari bilan teng maqomda bo'ldi. Bosh vazirning matbuot kotibi — Bosh vazir o'rinbosari darajasida. Bu hujjat qabul qilingach, AOKA barcha vazirlik va idoralar uchun 400 nafar matbuot kotiblarini tanlab olib, attestatsiyadan o'tkazdi.

Mamlakatda o'zining so'ziga, o'rniga ega professional matbuot kotiblarini yuzaga chiqarish yo'lida qo'yilgan birinchi qadam edi bu. Albatta, ular osmondan tushib qolgani yo'q. Saidaning zimmasiga ishning eng qiyin qismi tushdi: matbuot kotiblari malakasini oshirish bo'yicha alohida loyiha ishlab chiqish kerak edi. Matbuot kotibi kim o'zi, axborot qanday tahlil qilinadi, qanday taqdim etiladi, ijtimoiy tarmoqlarda ishni qanday olib borish kerak? Shu kabi savollarga javob beradigan, hammasini noldan boshlab o'rgatadigan maktab tashkil etildi. Ba'zilar hatto kompyuterdan foydalanishni ham bilmas ekan. Soliq qo'mitasida ishlagan paytimda matbuot xizmatlari uchun tayyorlagan strategiyam rosa foyda berdi. Bu hujjatlar o'shandan beri vaqti-soatini kutib yotgan edi.

Natijada ko'p tashkilotlar ijtimoiy tarmoqlarda o'zining sahifalarini ochdi, matbuot kotiblarining ism-sharifini bilib oldik, ko'rganda taniydigan bo'ldik. Matbuot

kotiblari jamoatchilik bilan ishlaydigan shaxslarga aylandi, bu lavozimning nufuzi ancha oshdi.

U yoki bu materialni olib tashlash haqidagi talablarga ham aynan o'sha paytda nuqta qo'yildi. Muharrirlar «Falon xabarni o'chirib tashla!» degan dag'dag'alarga qat'iy «Yo'q!» javobini bera boshlagach, har xil vazirlik va idoralardan qo'ng'iroqlar sekin-asta kamayib, oxiri tinchidi. Mabodo maqolani olib tashlashga majbur qilishsa ham, o'rniga chiqib keladigan «404»²⁶, belgisi undan batar shov-shuvga, muhokamaga sabab bo'lardi. Jonli efirdagi muloqotga amaldorlarning ko'nikishi oson bo'lmadi. Asosiysi, eski uslubda ishlaydigan rahbarlarning obro'yi tusha boshladi.

Bizda shu paytgacha qanday bo'lgan?

Ko'pchilik amaldorlar xuddi mansabini narigi dunyoga olib ketadigandek tutadi o'zini. Bunday takabburlik Prezident tomonidan doimiy tanqid qilinadi.

Rahbarlar qo'l ostidagilarning so'zsiz itoat qilishiga, boshida yong'oq chaqilsa ham, miq etmay chidashiga o'rganib qolgan. Endi ularning boshidan tojlari ucha boshladi. Manaman degan amaldorlar ham oddiy odam ekan, ijtimoiy tarmoqlarda yuz-xotir qilib o'tirmay ularni tanqid qilish, OAVda ular haqida maqola yozish mumkin ekan. Otasining ismini qo'shmay, ya'ni ortiqcha mulozamat-siz quruq ism-familiyasi bilan tilga olinsa ham, osmon

uzilib yerga tushmas ekan. Jiddiy aytyapman, ko'pchilik bundan shokka tushib qoldi. Bir umr chiranib yuqoriga intilganlar erishgan hurmat-e'tiborlari, hukmronliklarining juda mo'rt, omonatligiga ishonch hosil qilishdi. OAVdagi tanqidiy maqolani deb, istalgan paytda amaldan ayirilishi, lavozimi pasaytirilishi yoki boshqa ishga o'tkazib yuborilishi hech gap emasligini tushunishdi.

Shuningdek, respublika tarixida birinchi marta AOKAda muhim ijtimoiy voqea-hodisalarga bag'ishlangan doimiy matbuot anjumanlari o'tkazish formatini ishlab chiqdik. Ularga mas'ul shaxslar taklif qilinardi, yig'ilgan jurnalistlar savollarini berishardi. Har safar o'rtaga kutilmagan, noqulay savollar tashlanardi. Jurnalistlar o'zlarining to'rtinchi hokimiyat ekaniga juda tez ko'nikdi. Ustiga ustak, Agentlik ularning haq-huquqlari va professional faoliyatlari himoyalanihiga kafolat bergandi.

Lekin AOKA ham hamma narsaga qodir tashkilot emas. Jurnalistlarga buni doim eslatib turardim. Menga nisbatan juda qattiq bosim o'tkazishga harakatlar bo'lar, tanqid kimga qaratilmasin, hamma buning tepasida Allamjonov turibdi, deb o'ylardi.

Bolaligimda ko'chada birov yig'lab qolsa, oyim: «Kooomiiii!!!» deb butun mahallani boshlariga ko'tarardilar, chunki zumrasha o'g'illari yana nimadir ishkal chiqarganini yoki kimnidir xafa qilganini aniq bilardilar.





AYBDOR — ALLAMJONOV

2018-yilda «Turon-24» axborot agentligi loyahasiga kirishdim. Bu ishga shaxsiy mablagʻ tikildi. Undan oldin OʻzA bilan hamkorlik qilishga urinib koʻrdim, lekin oʻxshamadi. Almisoqdan qolgan besoʻnaqay targʻibot mashinasini epaqaga keltirgandan koʻra yangisini yaratish osonroq ekan.

Men «Turon-24»ga jurnalistika yulduzlarini yigʻdim. Dilshod Saidjonov bosh muharrir boʻldi. Har bir xodim sohaning professional edi. Qoʻshimcha ravishda yana oʻqitdik. Vazifalarni aniq taqsimladik. Biror jurnalist qoʻshimcha daromad haqida oʻylamasligi uchun kattagina maosh tayinladik.

Prezidentning matbuot kotibi boʻlib ishlayotgan paytim edi. Tan olish kerak, loyihadan asosiy maqsad davlat rahbarining siyosati va islohotlarini ilgari surish boʻldi. Gʻoyalarni amalga oshirish uchun choʻntakda olib yurila-

digan oddiy OAV emas, rosmana kuchli resursga zarurat tug'ildi. Bu butun Markaziy Osiyo bo'yicha yangiliklarni, ya'ni informatsion «xomashyo»ni sotib, daromad ishlaydigan to'laqonli axborot agentligi loyihasi edi.

Qo'shni davlatlarda ham «Turon-24»ning muxbirlik punktlarini ochmoqchi bo'ldik. Yangiliklar kecha-yu kunduz, haftasiga yetti kun, uzluksiz oqib kelishi rejalashtirilgandi. Bunga obdon tayyorgarlik ko'rildi. Markaziy Osiyodagi barcha yirik vazirliklarning matbuot xizmatlari bilan aloqalar o'rnatdik. Nima ham derdim, haqiqatda yirik loyiha edi. «Turon» nomining o'zi ham bir paytlar qator sharq xalqlarini birlashtirib turgan Turonzaminning qadimgi sarhadlariga ishora. Yana bir tarafdin, shu loyiha bilan aslida qanday ishlash kerakligini ko'rsatmoqchi bo'ldim.

Haqiqat yo'q

[REDACTED]

[REDACTED]

[REDACTED]

[REDACTED]

[REDACTED]

[REDACTED]

*Bu voqealarni gapirib
berishning mavridi kelmadi hali...*

Xullas, «Turon-24» uch oygina ishladi. Tuhmatga, [REDACTED]
[REDACTED] tayyor emasdim. Shuning uchun loyihani vaqt-soati kelguncha to'xtatib turadigan bo'ldik. Agar ishlab turganida, hozir Markaziy Osiyo davlatlaridagi yetakchi axborot agentliklaridan biri bo'lardi.

Birdaniga qandaydir tuturiqsiz bahona bilan O'zbekistonda Facebook bloklab qo'yildi. Jamoatchilikka muammo ijtimoiy tarmoqning o'zida, degan bema'ni vaj ko'rsatildi. Lekin ko'pchilik foydalanuvchilar o'zimizning tomon bloklaganini yaxshi tushunib turardi. Butun dunyoda Facebookka kirish bemalol-u, bizda va Xitoyda ishlamasmish. Har holda, Xitoy Facebokka qarshiligini yashirmaydi.

O'zlaricha, ijtimoiy tarmoqlardagi tanqidlarni shu tarzda yo'q qilmoqchi bo'ldilar. Odamlar o'z fikrini ochiq bildiradigan maydonni eskicha usulda yopib qo'ysak, hammayoq avvalgidek tinchib qoladi deb o'ylashdi, shekilli. Fuqarolarning o'sib borayotgan faolligi, oshkora shikoyatlari, videolavhalar, fotosuratlar, jamiyatdagi holatlarga befarq bo'lmagan guruh va jamoalar ko'payayotganidan xavotirga tushishdi. Vaholanki, dunyo o'zgardi, har tarafi oynavand xonaning eshigini yopib qo'yishdan ma'no yo'q.

Eng yomoni shuki, oldinlari VPN degan narsaning nominiyam eshitmaganlar endi u orqali internetga kiradigan bo'lishdi. Hatto mening oyim ham VPN ishlatishni o'rganib oldilar. Ilgari ancha tajribali foydalanuvchilargina anonimayzerlar orqali yopiq saytlarga kirardi, endi esa butun mamlakat VPN o'rnatib olib, baribir Facebookda o'tiradigan bo'ldi. Qarabsizki, biz axborot maydonimizni buzadi, deb bloklab qo'ygani pornosaytlarga, narkotik sotadigan, terrorizmni targ'ib qiluvchi saytlarga ham bemalol yo'l ochildi.

meni qoralashda davom etaverdi. Meni kimlarningdir «karmoni», «Soliq-info»ning orqasidan trillionlab pul ishlab oldi, degan gaplarni ham olib kira boshladi. Rahbariyat isbot talab qilar, isbot esa yo'q edi. Ular o'zlari yozgan ma'lumotdagi raqamlarga «adashib» ikkita nol qo'shib qo'yishibdi. Tekshiruvlar mening biznes faoliyatim to'liq hujjatlashtirilgani, nazoratchilar uchun ochiqligi va ishonchli arxivda saqlanishini ko'rsatdi. Mavridi kelganda, davlat idoralarida ishlagan vaqtim orttirgan ajoyib sabog'imni eslab o'tmoqchiman.

Bir kuni DSQ topshirig'i bilan tayyorlangan lavhada ma'lum korxonani ko'rsatmasligimni so'rab, evaziga yaxshigina pora — «Neksiya» taklif qilishdi. U paytda hali yigirmagayam kirmagandim, holatimni tasavvur qilavering. Yaxshiyam miyam ishlab, raisning oldiga kirib, hammasini aytib beribman. Hozir eslasam, g'irt bolalik qilgan ekanman. Pora olsammikin, deb generalga maslahat solibman-a!

— Olaver, Komil, — dedi u. — Bemalol olaver. Maza qilib yangi moshina minasan. Lekin qamoqda o'tirishga ham tayyor bo'l.

— Hech kim bilmaydi-ku!

— Albatta, senga pora bergan odam to'g'ri organiga yoki televideniye ga borib, bu gapni aytmaydi. Lekin kechqurun uyida o'tirib, xotiniga gapiradi. «Soliq qo'mitasining matbuot xizmatida maraz odamlar ishlar ekan, kamchiliklarimni ko'rsatmasliklari uchun pora berishga to'g'ri keldi», — deydi. Xotini ertalab qo'sh-

nisiga dardini dasturxon qiladi. Qo'shnisi yana kimgadir aytadi. Bir hafta deganda pora olganingni butun mahalla biladi. Orasida bu xabarni yon daftarchasiga yozib qo'yadigan odam albatta chiqadi. Shu bilan biror kuni tutilasan. O'zingni hurmat qilsang, hech qachon noqonuniy ishga qo'l urma.

Shu-shu hamma moliyaviy ishlarni doim hujjatlashtiradigan bo'lganman, har bir tiyinning qayerdan kelgani haqida bir parcha qog'oz turadi. Bu odatimga doim amal qilaman. Sobiq soliqchi sifatida sizga ham shuni tavsiya qilaman. Ertaga nima bo'lishini hech kim bilmaydi.

Nega? Nima uchun? Shunday obro'-e'tiborli odamlar birovga ziyoni tegmayotgan matbuot kotibining tagiga suv quyib nima qilishadi? O'zimga bu savolni ko'p berdim. Mening vazifam — Prezident qilayotgan ishlarning solnomasini yuritish edi. Ishimni professional darajada, vijdonan bajarayotgan edim. Matbuot xizmati o'zining yangi qiyofasiga ega bo'ldi. Odamlar birinchi marta Prezidentning qanday ishlayotganini, uzoq-yaqin davlatlar bilan aloqalarni qay tarzda yo'lga qo'yayotganini kuzata boshlashdi, o'zgarishlarni xursandchilik bilan qabul qilishdi.

Men ham omma oldida chiqishlar qilib, o'z nomimdan postlar yoza boshladim. Matbuot kotiblari hamma joyda shunday faoliyat olib boradi, davlat rahbarining u yoki bu masaladagi qarashlarini jamoatchilikka yetkazadi. Mening atrofimdagilar esa o'z-o'zini piar qilyapti, deb ayb qo'yishdi.

Bu lavozimga o'zi qanday kelib qolganimni eslab o'tish lozim deb o'ylayman.

U paytga kelib, anchagina katta biznesmen bo'lib qolgan, endi hech qachon davlat ishida ishlamayman deb, o'z-o'zimga so'z bergandim. «Avtotest» mojarosi ham o'sha kunlari avj ola boshlagan, men yana internet «qahramoni»ga aylanishni hecham istamasdim.

Toqqa chiqqandik. Birdan qo'ng'iroq bo'lib qoldi.

— Assalomu alaykum, qayerdasiz?

— Tog'da...

— Mayli, buguncha dam oling, ertadan ishga chiqasiz. Tabriklaymiz, siz Prezidentning matbuot kotibi bo'ldingiz.

Aytib o'tish kerak, Asadjon Xodjayev lavozimidan ketganidan keyin matbuot xizmati bir necha oy davomida rahbarsiz ishlagan edi.

Shokka tushib qoldim.

Undan oldin bo'lgan bir voqeani qisqacha aytib beray. 2000-yillarning boshi, FVVda ishlardim. Tasodifan Sherzod Qudratxo'ja bilan uchrashib qoldik. Qanday tanishganimiz esimda yo'q. U meni o'zi o'tiradigan Prezident matbuot xizmati xonasiga taklif qildi.

Bu binoga kirishingiz bilan hayajon bosadi. Ruqsatnoma olib, avtomatchilar yonida iti bilan qo'riqlab turgan uchta postdan o'tib, «oliy dargoh»ga kirdim.

U kabinetida savlat to'kib o'tirardi. Ko'zim tushgan birinchi narsa stol ustidagi Robert Grinning «Hokimiyatning 48 qonuni» kitobi bo'ldi. «Rosa krutoy ekanmi!» — degan xayol o'tdi.

Sherzod aka o'zining guvohnomasini ko'rsatib, shunday dedi:

— Qara, shaxsan Islom Abdug'aniyevich qo'l qo'ygan. Men Prezident apparati tarixida eng yosh bosh konsultantman. Tushunyapsanmi o'zi? Manavi telefonga qara, bu PG²⁷! Eng yuqori lavozimdagilarning telefoni, undan faqat birinchi rahbarlar foydalanadi. Qolganlar «vertushka»da gaplashadi.

U go'shakni ko'tarib, mening oldimda Konstitutsion Sud raisi Bo'ritosh Mustafoyev bilan bog'landi. Si-polik bilan Mustafoyevga nimalarnidir gapirib, qandaydir masalani muhokama qildi. Keyin go'shakni qo'yib, bo'yinbog'ining yorliqchasini ko'rsatdi. Adashmasam, qandaydir italyancha brendning nomi yozilgandi. Keyin so'radi:

— Sening galstuging qanaqa?

Meniki Ippodromdan²⁸ sotib olingandi. Xitoycha aji-buji yozuvli bu bo'yinbog'ni onam olib bergan.

Sherzod Quadratxo'ja rostdan ham Prezident apparatining eng yosh xodimi, u paytda unda hali o'ttizgayam kirmagandi. O'sha kungi voqealar menda juda katta taassurot qoldirdi. O'z oldimga: «Uning rekordini yangilayman, Prezident apparatining eng yosh bosh konsultanti bo'laman», — degan maqsadni qo'ydim.

Niyatimga yetolmadim. U vaqtga kelib, bu tizimda tanish-bilishi yoki homiysi yo'qlar (xuddi menga o'xshab) ko'tarila olmasligini tushunib, davlat ishidan umuman ko'nglim qolgandi.

Hozir hammasini tushuntirib beraman. «Uzmetronom»ni deb, odamlarda meni kimdir «ko'taryapti» degan noto'g'ri fikr shakllanib qolgandi. Aslida meni hech kim, hech qachon va hech qayoqqa ko'tarmagan, menda karyera degan narsaning o'zi bo'lmagan. Men bir umr v.b. — «vazifasini bajaruvchi» maqomida ishlaganman, rasmiy lavozimga tayinlangan emasman. Birinchi marta «v.b.» degan qo'shimchasiz egalagan katta lavozimim — Prezidentning matbuot kotibligi bo'ldi. Hamma atrofimdagilar idoralarning katta-katta mansablariga loyiq ko'rilardi, men esa — yo'q. Nuqul kimningdir «vazifasini bajaruvchi» bo'lardim, ya'ni besh kishining o'rniga ishlab, shunda ham ba'zan mehnatimga rahmat eshitmas edim.

Karyera haqida gapirmasa ham bo'ladi!

23 yoshimda yigirma kun ichida bir o'zim, birorta yordamchisiz, noldan «Soliqlar tarixi muzeyi»ni ochdim. O'zbekiston tashkil qilingan paytdan boshlab soliq-fiskal idoralarining ko'p yillik tarixiga aloqador hamma eksponatlarni, hujjatlarni to'pladim. Uxlamay, yemay-ichmay, yolg'iz o'zim hammasini puxta qilib, qisqa muddatda tayyorlashga harakat qildim. Muzeyning ochilishiga yuqori mansabli amaldorlar, kattakonlar keldi, ancha tomosha qilishdi, hammaga yoqdi.

O'zimizning DSQ rahbariyatidan ayrimlar esa tirnoq ostidan kir qidirib, mayda-chuyda kamchilik topib, tanqid qila boshlashdi: «U yerini to'g'rilab qo'y, bu yerini tuzatib ol...» To'g'rilaydigan tayinli narsaning o'zi yo'q edi-yu, gapni ko'paytirmadim: «Xo'p, tuzatib qo'yaman». Lekin bitta gapni beshinchi marta qaytarishganidan keyin: «To'g'rilab qo'yaman dedim-ku!» — deb keskinroq javob berdim.

Bularga tegib ketganini ko'rsangiz... Xuddi men yuziga tarsaki tortib yuborgandek. Qarabsizki, MXX kursorlari Soliq qo'mitasi raisidan ruxsat olib, men bilan «tarbiyaviy suhbat» o'tkazishdi, alohida xonaga opkirvolib, do'q-po'pisa qilib, ancha po'stagimni qoqishdi.

O'shanda generalning oldiga kirib: «Men nima yomon ish qildim? Nega menga bunday muomala qi-

lishadi? Shu tizim uchun bir o'zim butun boshli muzey tashkil qildim, bir dunyo arxivlarni titib chiqdim, chiroyli qilib taqdimotini o'tkazdim. Bular bo'lsa rahmat aytish o'rniga boshimni qotirishyapti», — dedim. Qo'rqadigan joyim yo'qligini, hammasi hiqildog'imga kelganini aytdim. To'g'risiyam-da, yo'q joydan hayotimni barbod qilish kimga kerak o'zi?

Shunda Rais ularga meni tinch qo'yish haqida komanda berdi. Bor-yo'q karyeram shu — «ishqilib meni tinch qo'yishsa bo'ldi».

... Prezident Administratsiyasi rahbari shaxsan o'zi qo'ng'iroq qilgandi. «Tabriklaymiz, siz Prezidentning matbuot kotibi bo'ldingiz!»

Fantastikaning o'zi-ya?! O'zbekistonda katta lavozimga odatda aynan shunday — kutilmaganda tayinlashadi. Amaldan ketishing esa o'zingga bog'liq emas — faqat ishdan olishsa, lavozimingni tushirishsa yoki ko'tarishsagina ketishning mumkin. Yo vafot etsang, yoki qamalsang, tavba qildingim, Xudo saqlasin!

Shubhasiz, bu men uchun katta sharaf edi, lekin atrof-dagilar uchun bu lavozimga tayinlanishim kutilmagan voqea bo'ldi. Chunki hamma meni biznesmen deb bilar, sakkiz yil davomida uchta jiddiy tashkilotning matbuot xizmatida ishlaganim hech kimning esida yo'q edi.

Tayinlangan kunimning ertasiga, 2017-yilning 2-dekabrida Sergey Yejkovning saytida «Qancha torta olarkin?» sarlavhasi ostida zaharxandali maqola chiqdi. Men kuzgacha ishladim. Vazifamni vijdonan bajardim deb o'ylayman. Muhimi, Prezident tomonidan aytilgan — inson qadr-qimmatini haqidagi, protokoldan tushib qoladigan, lekin jonli, samimiy va odamlar ko'ngliga yaqin gaplarni xalqqa yetkazdik.

Men juda sadoqatli odamman. Menga xolis munosabatda bo'lganlarning yonida oxirigacha turib beraman. Xolis — yaxshi degan ma'noda emas. Qanday munosabatlarga loyiq bo'lsam, shunday degani. Harakatim, professional salohiyatim, qobiliyatimga beriladigan baho haqida gapiryapman. O'zim ham har doim atrofimdagi maqtovgaga loyiq insonlarni e'tirof qilishga, ruhini ko'tarishga harakat qilaman. Hurmat va ishonch senga shunaqa qanot beradi-ki, tog'ni talqon qilishga tayyor bo'lasan. Buni o'zimning boshimdan ko'p o'tkazganman. Aksincha, salomingga hatto alik olinmasligi seni yer bilan yakson qilib yuborishi mumkin.

To'g'ri, kimdir o'zini yuzaga chiqarish va shaxsiy manfaati yo'lida uzoq vaqt fitnalar uyushtirishi, birovlariga choh qazishi mumkin. Lekin bir umr emas. Buni qaytar dunyo deydilar.

[REDACTED]

[REDACTED] Facebook yana ochildi. AOKA yengil nafas ola boshladi.

«Adolat!» — AOKAning yangi shiori shu bo'ldi. Yaqin-yaqingacha jurnalistlarning haq-huquqlari qog'ozdagi quruq gap edi. «Jurnalistning faoliyatiga to'sqinlik qilish haqida» modda borligi hech kimning esiga ham kelmasdi. Lekin tuhmat haqidagi moddani hamma bilar, salga shuni ro'kach qiladigan bo'lishdi. Biz vaziyatni o'zgartira boshladik.

Jurnalist va blogerlar o'z-o'zini cheklash — ichki senzura, qo'rquv va ahvol doim shundayligicha qoladi, degan fikrdan zo'rg'a qutulishdi. Hali yangi sharoitda yashashga moslashmay turib, xatolarga ham yo'l qo'yishdi. Ammo biz tanqidga qarshi kurashning konstitusiyaga zid usullari va tahdidni eskilik sarqiti sifatida yo'q qilamiz, degan fikrda qat'iy turdik.

Maqoladan norozimisan? Marhamat, sudga ber.

Islom Karimov davrida OAVga taalluqli zaruriy qonunlar ishlab chiqilgan, ammo jurnalistlarning har bir qadamini qattiq nazorat ostida edi. O'zbekistonda jurnalistlar hech qachon Yevropa yoki Amerikadagi kabi erkin ijod qilmagan. Sudyalar o'zlari hukm chiqarayotgan masalalarni yaxshi o'rganmaganligi, tushunmasligi vaziyatni yana ham chigallashtirar edi. OAV nima, blog, Facebookdagi

akkaunt, Telegram-kanal nima? Maqola tagida qoldirilgan izohlar uchun kim javob beradi?

Jurnalistlar uchun eng og'ir jazo ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan «Tuhmat» va «Haqorat» moddalari edi.

Har qanday xabarni tuhmatga chiqarish mumkin. Shuning uchun biz: «Ehtiyot bo'ling, shunday yozingki, aniq fakt emas, shaxsiy mulohazangiz qilib ko'rsating, hamma hujjatlarni, shikoyatlarni tekshiring, isbot toping, yuridik tomondan sizga e'tiroz bildirib bo'lmaydigan qilib yozing» — deb blogger va jurnalistlarni doim ogohlantirdik.

Albatta, jurnalistlar qonunni buzsa, tilimiz qisqich bo'lib qolardi. Haqorat yoki mish-mishni aniq ma'lumot sifatida tarqatishsa, nima ham qila olamiz? Bunday harakat uchun ma'muriy javobgarlik bor edi, agar holat takrorlansa, jinoyiy ish ochilardi.

To'g'ri, hech qaysi OAV bir kun baribir fosh bo'ladigan yolg'onni qasddan tarqatmaydi. Bunaqa ish uslubi faqat «Ozodlik»ka xos. Jurnalistlar ham xato qiladi, ba-zan o'zlarini aldanib qolishadi yoki shoshilinchda oxirigacha tekshirilmagan xabarni ommaga chiqarib yuborishlari mumkin. Buning uchun Jinoyat kodeksining 139 va 140²⁹ — moddalari (tuhmat va haqorat uchun) bo'yicha uch yilgacha qamoq jazosi ko'zda tutilgan. Qonun-

chiligimizdagi bunday moddalarning hech qanday foydasi yo'q, bizni xalqaro maydonda sharmanda qiladi, xolos. Asosiysi, amalda ularni haqiqiy qonunbuzarlarga nisbatan qo'llash qiyin, chunki davlatimizga tuhmat-bo'hton toshlarini otayotganlarning aksariyati chegara ortida panoh topib, yaxshilab o'rnashib olgan.

Biz O'zbekiston Parlamentiga JKning ushbu moddalaridan ozodlikdan mahrum etish jazosini olib tashlash haqidagi taklifni kiritdik.

Jarima solish bo'lsa — bemalol, lekin ozodlikdan mahrum etish bilan tahdid qilish noto'g'ri. Qonunchilikdagi shu bandlarni qayta ko'rib chiqish to'g'risida Prezident Qarori e'lon qilindi. 2020-yil dekabr oyida tegishli Qonun qabul qilindi. Buni butun dunyo olqishladi.

Hamma narsa shaffof va ochiq bo'lishi kerak, bizga OAV va ijtimoiy tarmoqlar tizimini yaxshi tushunadigan malakali sudyalar zarur. Shunda jurnalistlar ham qonunni kamroq buzadi, tekshirilmagan ma'lumotni chiqarishdan oldin yaxshilab o'ylab ko'radi.

Muammoning dolzarbligini tushungan holda, AOKA-da birinchi marta sudyalar bilan yig'ilish o'tkazdik. Ko'p masalalarni muhokama qildik. Oliy sud raisi ham sudyalar bugungi voqelikni to'g'ri tushunishidan manfaatdor edi. Lekin qonunlar ham shunga muvofiq yangilanishi,

ulardagi tushuncha va terminlar batafsil izohlangan bo'lishi kerak.

Ayni paytda, blogger va jurnalistga nisbatan qilingan har bir xatti-harakatni jahon hamjamiyati juda sinchkovlik bilan kuzatib borishini esdan chiqarmaslik kerak. Jurnalistga aloqador har qanday vaziyatni birinchi navbatda so'z erkinligiga bog'lashadi. Nafosat Olloshukurova voqeasida xuddi shunday holat bo'ldi.

2019-yilning sentabrida Shabnam taxallusi ostida yozadigan blogger Nafosat Olloshukurova mayda bezorilikda va ruxsat etilmagan ko'cha yurishlarini uyushtirganlikda ayblanib, qamoqqa olindi. Keyinroq o'z joniga qasd qilishga moyil, degan gumon bilan ruhiy kasalliklar klinikasiga joylashtirildi. Ha, qonunchiligimizda sovet davridan qolgan, o'z joniga qasd qilishga moyil odamni majburiy davolatish bilan bog'liq modda haliyam bor ekan. Men buning yaxshi-yomonligini baholamay qo'ya qolay, buni mutaxassislar hal qilishi kerak. Ba'zan bu modda o'smirlarning, keksalarning hayotini saqlab qoladi.

O'shanda xorazmlik amaldorlarni «jazolovchi psixiatriya» usullarini qo'llaganlikda ayblashdi. Rostdan ham, yaqin o'tmishimizda hukumatga ma'qul kelmay qolgan odamni bemalol jinnixonaga tiqib qo'yish mumkin edi, asosan dissidentlarni shunday qilishardi. Lekin Nafosatning vaziyati boshqacha edi.

Voqea bunday bo'lgan: jurnalist Mahmud Rajabov taqiqlangan adabiyotlar kontrabandasida ayblandi, ishi sudga oshirildi. U shov-shuv ko'tarib, huquqni himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlarning e'tiborini tortish bilan vaziyatdan chiqmoqchi bo'lgan. Shunda Nafosat ikkalasi Xorazmdan Toshkentga «yurish» qilish rejasini tuzgan va IIV vaziri qabuliga piyoda yo'lga tushishgan.

Bu ahvolda ular uzoqqa bormasligi aniq edi. Oyog'iga shippak, egniga futbolka kiygan bir necha kishilik guruhning maqsadi faqat o'ziga e'tibor qaratish bo'lgan. Yo'l harakatiga xalaqit bermay ketishayotganda, biron to'xtatmagan. Huquqni himoya qilish idoralari tomonidan ham ularga nisbatan hech qanday harakat bo'lmayotganini ko'rib, yo'lni butunlay enlab, mashinalar o'tishiga xalaqit berishgan. Vaziyatni Nafosatning o'zi videoga olgan.

Shunda viloyat IIB boshlig'i kelib, norozilik bildirayotganlarni yurishdan qaytarishga ko'ndirmoqchi bo'lgan. Lekin ularga aynan shov-shuv kerak edi. Natijada, ularni ma'muriy qamoqqa olishgan. Nafosat bilan Mahmudga qo'shilib ketayotganlar qo'yib yuborilgan, bu ikkovi esa mayda bezorilik va xizmat burchini bajarayotgan huquq idoralari vakillariga qarshilik ko'rsatgani uchun bo'linmaga olib ketilgan.

Mahmud Rajabov o'n kunlik ma'muriy qamoq muddatini tinchgina o'tab, ozodlikka chiqdi. Nafosat esa kamerada jazavaga tushib, o'zini o'ldirish bilan tahdid qilgan.

Shunga o'xshash holatni oldin ham Toshkentda, Facebookdagi jonli efirda shisha bo'lagi bilan tomirini kesishga urinib namoyish qilgan.

Viloyat IIB xodimlari uni qamoqxonada ushlab turish xavfli deb hisoblab, sanitarlarni chaqirtirishadi. Nafosat ana shunday qilib psixiatriya klinikasiga tushib qolgan.

Hozir bu haqda yozish oson, lekin u paytda vaziyatni tushuntirish juda qiyin edi. Nafosat rostdan ham davolanishi kerakmi, yo'qmi yoki blogerning ovozini o'chirish uchun atayin uyushtirilganmikin bu, uni aqldan ozganga chiqarishyaptimikin, deb ancha surishtirdim.

Huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar bizni siquvga ola boshladi. Ular uchun bloger bilan uchrashuv tashkil qilindi. Komissiya tarkibiga mutaxassislar kiritildi. Ular doktorlarning xatti-harakatida jinoyat alomatlarini topmadilar. Mana o'sha vaqtdagi materiallardan parcha: «Tibbiyot xodimlari tomonidan Nafosat Olloshukurovaning kasallik tarixi o'rganilishi natijasida «qo'yilgan diagnoz kasalliklarning xalqaro klassifikatsiyasi KXK-10 mezonlariga to'g'ri kelishi va davolash klinik simptomatikaga muvofiq tayinlanganligi» aniqlandi».

Nafosat klinikadan chiqib, qilgan ishidan afsusda ekani kameraga qarab gapirganida hammasi o'z o'rniga tushdi. Ikki farzandning onasi bo'lgan bu ayol ingliz tili o'qituvchisi bo'lishidan tashqari, huquq himoyachisi sifati-

da grantlar bo'yicha ishlar ekan. U har bir qadamini oldindan o'ylab qo'ygani aniq. Ko'pchilik hamkasblardan farqli o'laroq, men uni aqldan ozgan deb hisoblamayman. O'shandayoq uning niyati «tazyiqqa uchrab», chet eldan siyosiy boshpana so'rash bo'lsa kerak, degan fikr xayolimdan o'tgandi. Shunday bo'ldi ham. Nafosat «siyosiy sabablar tufayli» mamlakatdan chiqib ketdi.

Afsuski, halol, vijdonli jurnalistlarga rosmana bosim o'tkazish holatlari ham ko'p uchrardi. Ayniqsa, viloyatlarda ahvol chatoq edi. «Bu sizga Toshkent emas, — deyishardi viloyatlik jurnalistlar, — bu yerdagi amaldorlar hech kimdan va hech nimadan qo'rqmaydi». Jurnalistlarga tahdid qilib, kaltaklashar, sudga berishar, sudlar nihoyatda qisqa muddatda ishni ko'rib, nohaq hukm chiqarar edi. Sho'rlik jurnalistlarning bo'yniga aqlga sig'maydigan darajada katta jarimalar ilib qo'yilardi. Har safar shunaqa vaziyat bo'lib qolganda, kechasi bilan uxlamay chiqardik.

Mansabdorlar jurnalistlar bilan apoq-chapoq bo'lib ketmasa ham, hech bo'lmasa ularni hurmat qilishi kerak. Ammo amal kursisida o'tirganlarga shu oddiy haqiqatning yetib borishi juda qiyin edi. Qalamkash vatanparvar bo'ladi, u hech qachon yozishdan to'xtamaydi. Jadidlarni eslang, boshiga qilich kelib turgan paytda ham yozavergan. Tarix esa hamma narsani joy-joyiga qo'yadi.

Yozadigan odamni hech qanday to'siq to'xtatib qololmaydi. Ismini yashirib, har xil taxalluslar ostida akkaunt,

Telegram-kanallar ochib, baribir fikrini ommaga tarqatadi. Buni internet deb qo'yibdi. Gazetaga o'xshab har bitta sahifani yuqoridan tasdiqlatish yo'q, bu yerda hamma o'ziga o'zi mediamagnat. Xo'p, oqibatda nimaga erishamiz? Yozadiganlarni tutib ham, jazolab ham bo'lmaydi. Javobgarlik bo'lmagandan keyin o'ch olish, fitna chiqarishlar ko'payib ketishi mumkin.

Haqiqiy jurnalist yoki bloger anonim niqob ostida yashirinishni xohlamaydi. Hamma ham o'zining nomi ommalashtirishga, imijini ko'tarishga intiladi. Odamlarga obro'larini oshirishga imkon berib, ular bilan xotirjam hamkorlik qilish kerak. Jurnalist xatoga yo'l qo'ysa, dalil-faktlar keltirib, adashganini isbotlash, yozganlarini izohlab, ikkinchi tomon fikrini berish lozim. Lekin buning uchun odamning o'zi halol, rostgo'y bo'lishi kerak. Shundagina natija chiqadi. Bizda esa o'g'rilik qilayotgan, qonunni buzayotgan, pora olayotganlar qolib, shu muam-molarni ovoza qilgan, yoritgan, muhokama qilgan OAV aybdor bo'lib qolardi.

Tabiiyki, amaldorlar aynan meni eng katta aybdorga chiqarib qo'yishdi. «Bu mahmadona o'zini piar qilyap-ti», — deyishdi. Kimlar uchundir jurnalist va blogerlarga o'zini yaxshi ko'rsatib, ularni yashirincha boshqaradigan, dushmanlaridan o'ch olish uchun foydalanadigan populist ham bo'ldim. Fe'l-atvori butunlay boshqa-boshqa bu odamlarni bo'ysundirishning umuman iloji yo'qligini esa

hech kim tushunmasdi. U-bu iltimos qilsangiz, bajarishadi deb yuz foiz ishonch bilan aytolmaysiz. Biror tadbir yoki voqeani yoritib ber, desangiz, agar o'zlariga qiziq bo'lmasa, umuman javob bermay qo'ya qolishadi. Qaysidir muammoni ko'tarma, deb majbur qilish haqida-ku gap-so'z bo'lishi mumkin emas.

Muassis sifatida hatto bitta OAVni boshqarish ham qiyin. Jurnalist — ijod odami. Shuning uchun o'zingiz ochgan nashrda ham ba'zan gapingizni o'tkazishingiz qiyin bo'ladi, qonun bo'yicha muassis nashriyot siyosatiga aralashmasligi kerak-da. To'g'ri, bu qonunga oldin ham rioya qilinmagan, hozir ham deyarli hech kim rioya qilmaydi, nashriyot ishiga hamma aralashadi. Faqat bizda emas, boshqa joyda ham ahvol shu. Lekin juda ko'p narsa, eng asosiysi, nashrning yopilish ketmasligi aynan muassissga bog'liq.

Masalan, Sherzod Shermatov AKT vaziri bo'lgan paytda uning rahbarligi ostida «Xabar.uz» yangiliklari chiqib turgan. Maorif vazirligiga o'tgach, «Minbar.uz» degan yana bitta yangiliklar saytini ochmoqchi bo'ldi. Ta'lim vazirligining yangiliklar portalini yuritishi g'alati, aslida. Shermatov o'quvchilarning ota-onalari bilan muloqotda bo'lish uchun unga ikki tomonlama aloqa kerakligini aytdi. Muloqot-ku tushunarli, lekin yangiliklarning bunga nima daxli bor? Xullas, vazirlik bunday formatni tortib ketolmadi, sayt haligacha «ta'mirda». Umuman olganda, bu saytning kuni bitdi.

Keyin da'vosi juda baland «Faqat to'g'ri yangiliklar!» shiori bilan «To'g'ri.uz» sayti paydo bo'ldi. Uning yorqin va qisqagina tarixi hammaning esida qolgan bo'lsa kerak. Toshkent hokimi Jahongir Artikxodjayev tashabbusi bilan ochilgan bu saytga katta pul tikildi, Turkiyadan mutaxassislar olib kelindi, ko'pgina jurnalistlar ishga olindi. O'shanda men Jahongir Obidovichdan o'z nashrini nima maqsadda ochganini dangal so'radim.

— Men o'zimni himoyalashim kerak! — dedi u.

—Butun boshli yangiliklar saytidan ko'ra, to'laqonli matbuot xizmatini tashkil qilganingiz ma'qul, — deb maslahat berdim o'shanda.

Qanday qilib o'zini himoyalamoqchi bo'lganini haligacha tushunmayman. Bunday mavqedagi amaldorning qo'l ostida OAV bo'lmasligi kerak, odamlar unga ishonmaydi. Shahar bilan bog'liq har qanday negativ xabarning uchi hokimga borib taqaladi. Agar sayt tanqidga ko'z yumsa, uni kim o'qiydi? O'zini hurmat qilgan jurnalist shaharda shuncha muammo turib, hokimni maqtayvermaydi. Bu loyihaning uzoqqa bormasligi aniq edi.

Saytning kimga qarashli ekanini yashirishning iloji yo'q, shuni hisobga olib, fikrlarimni Artikxodjayevga ochiq aytdim. Sayt ishga tushgach, ana shu ziddiyatlarning hammasiga duch keldi. Bir dunyo pul sarflangan loyiha uch oy deganda tugatildi. Hokim bitta qaror bilan saytni yopgani ba'zi jurnalistlar uchun kutilmagan ish bo'ldi. Ko'pchilik

bunga siyosiy o'yinlar sabab degan xayolga bordi. Aslida sabab juda oddiy — har kim qo'lidan keladigan ish bilan shug'ullangani ma'qul. Nimani qoyilmaqom qilsa, kuchini, vaqtini, mablag'ini shunga qaratishi kerak.


Lekin hozir shahar hokimining matbuot guruhi respublikadagi eng kuchli matbuot xizmatlaridan bo'lib qoldi. Shahar yangiliklarini hokim istagandek taqdim etish uchun shuning o'zi yetarli. Matbuot xizmati yutuqlarni yoritib borsa, bunga hech kim e'tiroz bildirmaydi. Uning xodimlari ish uslubini to'g'ri belgilab olishgan, savollarga, tanqidga tezkorlik bilan javob berishyapti.

Men siyosiy piarga umuman qarshi emasman, faqat u bironing hisobiga bo'lmasligi kerak. Odamlar shuncha yil deganda nihoyat amaldorlarni yuz-ko'zidan, ismi sharifidan taniydigan bo'lib qolishdi, bundan xursandman. O'z o'rnida amaldorlar ba'zi chiqishlarga izoh yozib, intervyular bera boshlagani ham quvonarli hol. Bizda ham siyosat ommaviy, ochiq-oshkora shaklga o'tyapti. Vaholanki, uzoq yillar siyosatchi va biznesmenlar mahalliy jurnalistlarning ham, begonalarining ham ko'ziga ko'rinmaslikka harakat qilardi.

2014-yilda «Forbs»ga intervyu berganimda atrofimdakilarning ko'pchiligi boshini changallab qolgandi. Nega? Nima uchun? Yo'q joydan balo orttirmoqchimisan?

Bu narsa mening xayolimga ham kelmagan edi.

Forbes



MEN FORBS RO'YXATIGA QANDAY KIRDIM?

Pul bilan.

2014-yil

Yigirma to'rtga kirganimda men qirq yoshgacha nomim uchun ishlashim kerak, keyin esa nomim men uchun ishlaydi, degan maqsad bilan yashay boshladim.

«Forbs» jurnali sahifalarida chiqish orzum edi. Shu fikr miyamga o'rnashib qoldi. «Forbs»ning ruscha nashri bilan yozishmalarni boshladik. Unchalik qiyin ham, qimmat ham emas, veb-versiyasiga besh ming dollar atrofida ketarkan. Menga ma'qul keldi.

Intervyu berdim. Loyihalarim haqida gapirdim. «So-liq-info» respublikada bu formatdagi birinchi gazeta ekanligini qayta-qayta takrorladim.

Oradan bir necha kun o'tib, men bergan intervyuli sahifa ochilmay qoldi. Uning o'rniga 404 belgisi chiqdi.

«Forbs»ning ruscha nashriga yolgʻon gapirganim, bu soliqchilar uchun chiqqan birinchi gazeta emasligi haqida shikoyatlar tushibdi, shunga maqola olib tashlanibdi. Pulim qulogʻini ushlab ketdi. Lekin negadir hayron boʻlmadim. Oʻzi menga omad doim shunaqa qilib keladi.

Mayli, dedim. Unda «Forbs»ning bosma versiyasiga kirishamiz, shunda hech kim hech nimani oʻchirib tashlay olmaydi. Amerikadagi tahririyat bilan gaplashamiz. Jurnal millionlab tirajda chiqadi, uni butun dunyo oʻqiydi. Yaltiroq qogʻozda uch sahifa... Lekin narxiyam shunga yarasha, otning kallasi ekan.

Shu pulni boshqa foydaliroq narsaga sarflasam ham boʻlardi oʻzi. Lekin u paytda «Forbs»da chiqsam, men uchun hamma eshiklar ochiladi, deb oʻylar ekanman. Xayolimda goʻyoki hamma meni tanib qoladi, hamkorlik qilaylik desam, quchoq ochib rozi boʻladi. Axir men duch kelgan odam emasman, naq «Forbs»da chiqqanman! «Forbs»da chiqish uchun bekorga harakat qilishmaydi-ku, bu naq baxt kalitining oʻzi deb oʻylabman.

Hech bir asossiz, dalilsiz shunday xulosaga kelganman. «Avtotest»ni piar qilaylik, kim bilsin, balki, shu bahona xalqaro bozorga chiqib ketarmiz, debman.

Endi oʻylab qarasam, hammasini toʻgʻri qilgan ekanman. Hozir bu kommunikativ imkoniyatlarni kengaytirish deb nomlanadi. Oldin sen oʻzing haqingda gapirasan, keyin

odamlar sen haqingda gapira boshlaydi, senga ishonch bilan qarashadi, chunki ularga yetkazmoqchi bo'lgan gaplaringni o'qigan bo'lishadi. Bu voqealar ijtimoiy tarmoq paydo bo'lishidan oldin yuz berdi. Bugun esa o'z-o'zini tanitish imkoniyati yuz baravar oson bo'lib qolgan.

U paytda esa qo'limizda faqat «Forbs» bor edi. Maqola chiqdi, pulim sovurildi-ketdi. Pulni qimmatbaho «inomarka» olish, dang'illama uyning tepasiga uchinchi qavatni ko'tarish o'rniga qandaydir bir maqolani, qog'ozni sotib olishga sarflash o'zbekchilikka umuman to'g'ri kelmaydigan ish edi. «Men «Forbs»da chiqdim! Qoyilmi?», — deb o'ylardim do'ppi kiyib tushgan rasmimga qarab.

Do'stim bilan Emirates Airlines kompaniyasining ikki qavatli A-380 samolyotida, biznes-klassda dabdaba bilan AQSHga uchib keldik. Eng qimmat Mercedesni ijaraga oldik, eng qimmat mehmonxonaga joylashdik. Qimmatbaho kostyum-shim, soat, tuflilarda oligarxmisan oligarx bo'lib oldik.

- Sardor, ko'rinishim qalay?
- Gap yo'q!
- Senikigayam gap yo'q. Kettu!

Nashriyotga dadil kirib borib, savlat to'kib kursilarga yaslanib oldik. Intervyu beryapmiz. Bularning hammasini tashqaridan kuzatayotgandekman. «Hayotda o'madim keldi» degan filmni tomosha qilyapman go'yo, bosh

rolda — o'zim. Erishib bo'lmas dovon zabt etildi. Men «Forbs»daman!

Nashriyotning binosi eskigina ekan. Atrofdan nuroniy qariyalar, hamma xotirjam ishini qilib yuribdi, hech qanday dabdaba, ortiqcha yugur-yugur yo'q. Kibr-havo bilan kelganimizni ko'rib, biz haqimizda qanday istehzo bilan o'ylaganlarini tasavvur qilyapman. Keyin bizni tushlikka taklif qilishdi.

Jurnalni ikki kun qo'limdan qo'ymay yurdim, maqolamga qarab, o'zim mazza qilaman. Bu men uchun haqiqiy baxt edi.

Ko'pchilik tanishlarim jurnalni ko'rib, faqat bir gapni aytishdi: «Endi ehtiyot bo'l». Chunki «Mercedes» olishga puli borlar ham imi-jimida «Neksiya» minib yuradigan zamon edi. Do'stlarim intervyuni o'qib, jim bo'lib ketishdi. Deyarli qo'ng'iroq bo'lmadi. Biz hamkorlik takliflari bunchalik kam bo'lishini kutmagandik. Faqat startapga pul so'rab kelishdi.

Lekin baribir, «Forbs»dagi maqola imkoniyatlar eshigini salgina ochdi. Amerikadan to'g'ri Arab Amirliklariga uchdik. Maqsadimiz obro'-e'tiborli odamlar bilan tanishish edi. Iltimos qilib uchrashuv belgilaysan, ancha kutasan, oldiga borasan, u odam telefonda gaplashib bo'lishini yana kutasan — u sening o'zbekistonlik ekaningni biladi, shuning uchun uning e'tiborini tortishing qiyin. Sen

esa loyihalaringni taqdim eta boshlaysan, gap orasida bir og'iz: «Mana, «Forbs»da ham bu haqda yozishgan» — deb qistirib qo'yan.

Shu payt birdaniga munosabat keskin o'zgaradi. Chunki jurnal muqovasida «Dunyoning eng badavlat ikki yuz odami» degan yozuv bor. Ichida sen haqingda maqola chiqqan. Mana bu boshqa gap! Ko'p do'stlar orttirdik. Orasida o'zbekistonliklar ham bor edi, ba'zilari bizni «uxlatib» ketdi.

O'shanda birinchi marta qanday qilib odamning ko'zini shamg'alat qilib chuv tushirish mumkinligini ko'rdim. «Hamkoring»ning bilagida yuz ming dollarlik soat, hashamatli uyi, mashinalari bor, yarim million dollarlik kabinetda o'tiradi. Bir oy o'tmay shartta qamalib ketadi. Sen esa omadi chopmagan investor bo'lib, tikkan investitsiyalaring bilan xayrlashib qolaverasan. Bu men uchun zo'r saboq bo'ldi.

Saida Shavkatovna ham meni «Forbs» orqali tanigan. U Karimov davrida O'zbekiston fuqarosi bo'la turib, butun dunyoga salkam oligarxman deb jar solishga jur'at qilgan o'zbek yigiti haqidagi maqolani qiziqish bilan o'qiganda biz hali tanish emas edik. Vaholanki, u paytlari hamma boylar ortiqcha ko'zga tashlanmaslikka, hukumat tepasidagilarning jig'iga tegmaslikka harakat qilardi. «Buni qaranglar, oligarxmish-a...», — dedi Saida tanishganimizda.

Maqolaning tepasida kichkina qilib, «promo» deb yozib qo'yilganiga hech kim e'tibor bermaydi-da.

Lekin o'shanda endi qaysi yo'ldan ketishimni o'zim uchun aniq belgilab olgandim. Kim bo'lmoqchiman — amaldormi yoki tadbirkormi? Hisobimda yetarlicha pul bo'la turib, o'zimni qashshoq ko'rsatishni xohlarmidim? Yo'q, xohlamas ekanman.

DSQda Abbos Hamidovich Latipov bilan yaqin bo'lib qoldik. U meni shogirdi deb hisoblar, menga o'zi to'g'ri deb bilgan hayot qonuniyatlarini o'rgatardi. Yaxshi tinglovchi bo'lganman, shekilli. Latipovning hayot qonunlari oddiy edi —hamma narsa sotiladi va sotib olinadi, hammani sotib olish mumkin, cho'ntagingda puling bo'lsa, har qanday ayol orqangdan ergashib ketadi; hamma aldoqchi, hammaga o'zining joni shirin, hech kimga ishonma. Siyosatga tupur, bu dunyoda faqat pul muhim. U mengayam ishonmasdi, vaqti-vaqti bilan tekshirib turardi.

Men uning gaplarini bir umrga eslab qoldim. To'g'rirog'i, juda muhim bir haqiqatni tushunib yetdim: o'zing nimani yozsang va qabul qilsang, sen uchun hayot qonuniyati shu ekan. Universal qoida yo'q, o'zingga ma'qulini yozasan va shu qoida ishlaydi. Agar men: «Hammaniyam sotib olib bo'lmaydi, hamma ayollar ham pul uchun orqamdan ergashib ketavermaydi, buni aniq bilaman», — desam, demak, har qanday odamning pulga sotilishini me-

ning o'zim xohlamayman. Boylikka, pulga uchmaydigan, samimiy munosabatni birinchi o'ringa qo'yadigan ayollar bor bo'lsin, deyman. Odamlarga ishongim keladi, shuning uchun mening hayotiy qonuniyatimda «hech kimga ishonma» degan gap yo'q. To'g'ri, bu bilan adashishdan himoyalaniq qolmayman, ba'zan xato qilishim mumkin. Lekin hech kimga ishonmasang, hamma alday boshlaydi.

Abbos Hamidovich yaxshi odam edi, rosa qiziqchi kishi edi. Majlislarda hamma yon daftarchasini olib, rahbariyatning og'zidan chiqqanini yozib olishga harakat qilardi. Abbas Hamidovich ham jiddiy qiyofada, hafসা bilan yozib o'tirardi. Keyin meni kabinetiga chaqirib olib, yozganlarini o'qib berar edi.

«Xo'sh... Gadoyev boplab Musayevni «podstava» qildi. O'zi suvdan quruq chiqib ketmoqchi ... Hamma ayb manavi ...larning o'zlarida. Parpiyev buni tushunib, enasini ko'rsatdi. Voy yaramas ...lar! Baqrayib turib aldashini qara, iflos ...! Shartta turib, hammasi yolg'on, gapni opqochyapti, siz ...lar bo'lsa unga ishonib o'tiribsiz, desang-da, e mayli ...»

Parpiyev gap orasida unga ham tashlab qolardi: «Hoy, Latipov!» Abbas Hamidovich o'rnidan turib, mutlaqo jiddiy qiyofada «Xo'p bo'ladi, xo'p bo'ladi, Botir Rahmatovich...» der, keyin joyiga o'tirib, yana daftariga yozishda davom etardi: «Baribir meni turg'izdi-ya ...! Nima deb

javob berishni bilmadim...» Shu joyida nuqtalar o'rniga o'zingiz bilgan har qanday so'kish iborasini qo'ysangiz, uning nima deb yozganini tushunasiz. Abbos Hamidovichning uch soatlik majlis davomida yozgan kulgili, uyat so'zlarga to'la konspektini o'qiganimda, kulaverib, dumalab qolardim. Asosiysi, yozganlarida hamma narsa aniq-tiniq ko'rinardi, xuddi rasmiy shaxsning egnidan formasini yechib, qip-yalang'och turg'izib qo'ysangiz, oddiy fikrlaydigan oddiy odamga aylanib qoladigandek.

Keyin oramizga sovuqchilik tushdi. U bir jiyani tashnirib: «Shuni odam qilib ber, u-bu narsa o'rgatar-san», — deb menga qo'shib qo'ydi. Xursand bo'ldim, o'zimni ustozdek his qilib, yigitchani yonimda olib yurdim. Men kunimni o'zim ko'rardim, hech kimdan hech nima so'ramas, undirmas edim. Jiyani esa tog'asiga qayerga borishimni-yu nima yeb, nima kiyishimni, kimlar bilan qayerda o'tirishimni — hamma gapni yetkazib turar ekan, kamiga qo'shib-chatib ham qo'yarkan. Negadir Abbos Hamidovichning menga munosabati yomon tomonga o'z-gara boshladi. Oxiri bir kuni portladi. «Men senga shunchalik sharoit yaratib berdim, otang qilmagan yaxshiliklarni qilganman!», — deb do'q urib ketdi. Yana so'kinib, ham o'zimning, ham ota-onamning sha'niga ancha xunuk gaplarni aytdi. O'sha paytda qo'limda to'pponcha bo'lganida, menimcha, uni otib tashlagan bo'lardim. Chunki men uchun muqaddas bo'lgan ota-onamga til tekkizdi, izzat-nafsimni oyoqosti qildi. Lekin bu haqoratlarni ichimga yutdim, javobini keyinga qoldirdim.

Shundan keyin mening BMW X6 mashinamni olib qo'ymoqchi bo'ldi. U paytda hali davlat tashkilotida ishlardim, shuning uchun bu mashinamni minmas edim. X6 olishni bir umr orzu qilganman, surati kompyuterimning monitorida turardi, ko'chada duch kelsam, orqasidan havas bilan qarab qolardim. Xullas, o'sha orzum ro'yobga chiqib, xuddi shunaqasini sotib olgandim.

Janjaldan keyin oradan bir muncha vaqt o'tib, menga GAIdan qo'ng'iroq qilishdi. Mashinamning raqami va familiyamni aytib, jarima maydonchasiga olib kelishimni talab qilishdi. Qayerdadir tezlikni oshirganmishman.

— Adashmayapsizmi? Mashinam garajda turibdi-ku, — dedim.


Ular esa aqllilik qilmasdan BMWni maydonchaga olib borib qo'yishni qo'pol ohangda buyurishdi. Mayli, ko'ndim. Mashinam nega hibsga olinganini aniqlash uchun o'ziyam bir oy yugurdim. U kabinetdan bu kabinetga rosa sarson qilishdi. Bir amallab mashinamni olib chiqdim — tanishlarni ishga solishga to'g'ri keldi. Bunaqa zo'ravonlikni ko'rib, ular ham hayron bo'lishdi. Bu ishning orqasida kim turganini o'shanda bildim. Abbos Hamidovich o'zicha reja tuzgan ekan: «Allamjonovning mashinasini jarima maydonchasiga qo'yib qo'yamiz, keyin davlat xizmatchisining bunchalik qimmat mashinasi bo'lishi mumkin emas, deb qo'rqitamiz. Qarabsizki, mashinasini nomimizga o'tkazib beradi».

U paytda hamma shunaqa vaziyatda edi. Oylikka tuzukroq kun ko'rib bo'lmasdi. Yo pora olishga, yo birovning nomiga biznes ochishga to'g'ri kelardi. Hozir u, amaldorlarga katta oylik to'lashadi, o'ynab-kulib yashasa bo'ladi.

Bu ham men uchun yana bitta saboq bo'ldi: odam ajratishni o'rgandim. Yoningda yurib, do'stingman deydi-ganlarning aslida kimligini ko'ra bilish kerak ekan. Bu voqea sabr kosamni to'ldirdi. Davlat xizmatchisi bo'lishni, BMWni garajda chang bostirib, o'zim ko'zbo'yamachilikka «Neksiya»da yurishni xohlamas ekanman, bunga ishonchim komil bo'ldi. Baribir pora olmayman. O'sha paytdagi siyosiy tizimda esa davlat xizmatida yurib, umringni sarflagan ishing ertami-kechmi hech kimga kerak bo'lmay qolardi. Shunday ekan, bu omonat kursining menga nima keragi bor? Axiyri bir kun eng yuksak cho'qqiga — davlat beradigan uy bilan mashinaga erishish uchunmi?! O'sha yuni ham, mashinani ham hoziroq, o'zimning pulimga olishga qurbim yetsa, buning nima zarurati bor?

Hayotimda burilish yasagan qarorga turtki bo'lgani uchun Abbas Hamidovichga rahmat.





MILLIY TV

Men doim «shaxsiy MTRK» egasi bo'lishni xohlardim. O'zimning telekanalim bo'lsa-yu, hech kim meni ruxsat-nomasiz eshik oldida sarg'ayib turishga majbur qilmasa, somsaga yugurtirmasa, deb orzu qilardim. Ammo Gulnora Karimovaning davrida buning iloji bo'lmagan, xususiy telekanalni faqat yuqoriga o'ta yaqin odamlargina ochishi mumkin edi. O'zimning matbuot xizmatim doirasida Soliq qo'mitasi uchun alohida kanal ochishga harakat qilganman, lekin o'xshamagan. Vaholanki, soliq xizmati aholiga doimiy ravishda axborot yetkazib turish uchun o'z resursiga ega bo'lishi mumkin edi. To'g'ri, soliq shunchaki bahona edi, aslida men o'zimning telekanalim bo'lishini xohlardim-u, rejam amalga oshmadi.

Gulnora o'z mavqeyi bilan birga Markaz TV telekanalidan ham ayrildi. Mamlakatda yuzaga kelgan siyosiy vaziyat rahbariyatni media sohasiga yangicha yondashishga

majbur qildi. Xalqimiz ekranda o'zimizning televideniye-
yedan boshqa hamma narsani tomosha qilardi. Odamlar
Rossiya va Turkiya seriallari bilan yashar edi. Eng yomo-
ni — boshqa davlatlarning yangiliklarini kuzatardi.
O'zimiznikini ko'rish befoyda bo'lganidan keyin shu-da.
Xullas, bir necha televideniyechi: Firdavs Abduxoliqov,
Shuhrat Ahmedov, Ravshan Jo'rayev va meni chaqirtirib,
xususiy telekanallar uchun konsept tayyorlashni taklif qi-
lishdi.

Milliy TVning nomi «Pomidor» bo'lishi mumkin edi.
Telekanalni shu nom bilan judayam ro'yxatdan o'tkazgim
kelgandi. G'ayrioddiy «Pomidor» qulog'imiz o'rgangan
odatiy nomlardan mutlaqo ajralib turishi aniq edi. Lekin
menga: «E, qanaqa pomidor? Tuzukroq nom topsang-
chi!» — deyishdi. Shunday qilib, Milliy TV paydo bo'l-
di, uning konsepti milliylikni targ'ib qilishga qaratil-
di. Maqomlar, milliy musiqa, pazandalik, do'ppilar, urf-
odatlar, an'analarimiz — O'zbekistondagi bor yaxshi nar-
salarni, unutilayozgan qadriyatlarni jamlashga qaror qil-
dik. Lekin oldimga qo'ygan eng asosiy maqsadim hozir
uyida emas, musofirlikda yurgan uch million yurtdoshi-
miz — mehnat migrantlarining yo'qolib ketishiga yo'l
qo'ymaslik, ularni o'zimizga tortish edi.

Qor malikasi haqidagi ertak esingizdami?

*U Kayni o'z yurtiga olib ketganida, bola hamma narsa-
ni unutib, begona odamga aylanib qoladi, yuragi muzlaydi.*

Lekin opasi Gerda uni topib, qalbini eritadi, oilaga qaytaradi. Milliy TV ko'pchilik vatandoshlarimiz uchun ana shu «Gerda» bo'ldi, O'zbekiston degan Vatanning bor, oilang, bolachaqaqang bor, yo'lingga ko'z tikkan ona-yurting bor, bizni unutmang, deb eslatib turadigan hamsuhbat, jon-jigar bo'ldi.

Litsenziya olindi. Lekin kadrlar yig'ishga juda qiynal-dik. Markaz TVdan keyin hech kim xususiy telekanalda ishlashni xohlamas edi. O'z vaqtida ular MTRKdagi eng zo'r mutaxassislarni tanlab olishgandi. Kanal yopilgandan keyin yana davlat televideniyesiga qaytganlar endi issiq o'rnini yo'qotgilari kelmasdi. Men ularni: «Hech bo'lmasa yarim stavkada ishlab turing» — deb ko'ndirishga harakat qilganman. Rozi bo'lganlar: «Bu yerda ishlayotganimni hech kim bilmasin» — deb iltimos qilishdi. MTRK tizimida yozilmagan bir qonun bo'lardi: boshqa yoqqa o'tib ketganlar ishga qaytib olinmaydi. Qatag'on qo'rquvi pul topish istagidan ham kuchli edi.

Kanalni rasman 1-sentabrda ochishni mo'ljal qildik. Avgust oyidan sinov rejimida ishga tushib, efirga maqomlar va mumtoz musiqani qo'yib turdik. Menga bu samoviy musiqa judayam yoqadi. Ayni o'sha paytda, kutilmagan-da Karimov vafot etib qoldi. Biz rasmiy efirni motam musiqasidan boshladik. Ko'nglim sal xijil bo'ldi.

Ancha vaqt taqiqda bo'lgan Yulduz Usmonova³⁰ Milliy TV tufayli efirga qaytdi. Ko'p yillik taqiqlardan keyin Obid Asomov³¹ ekranga chiqarildi. Juda uzoq yillardan

beri televideniya ko'rinmayotgan Sherali Jo'rayev³² va o'n besh yil davomida efirda ismi ham tilga olinmagan Ozoda Nursaidova³³ ekranga qaytdilar.

Yangi Prezident bilan taqiqlar davri ham tugadi. «Bo'ldi, yetar shuncha taqiq. Hamma yoq taqiq bo'lib ketdi», — degan gaplarini yaxshi eslayman.

Bu gap amalda tasdig'ini topdi. Prezidentning yangi siyosati hayotimizning har bir jabhasida demokratik o'zgarishlar davrini boshlab berdi. Taqiqlar ko'p hollarda mutlaqo asossiz bo'lib, u yoki bu sababga ko'ra kimgadir ma'qul kelmaganlarga qarshi qurol vazifasini o'tar edi. Bunday holatlarga chek qo'yildi. Fikrlar xilma-xilligi yuzaga keldi, odamlar o'z qarashlarini erkin namoyon qilishi mumkin bo'lib qoldi. Eng asosiysi, ijodiy rivojlantirish maydoni paydo bo'ldi. Jumladan, senzura haqida gap ketar ekan, Prezident cheklov va taqiqlar bilan muammo ni hal qilib bo'lmasligini ta'kidladi.

Shavkat Miromonovich madaniyat vakillari bilan uchrashuvlarda xalq ongining shakllanishida ijodkor ziyolilarning o'rniga har safar alohida e'tibor qaratadi.

Obid Asomovning «aybi» «Krivoye zerkalo»da³⁴ chiqib, avvalgi rahbariyatning fikricha, o'zbeklarning ustidan kulgani edi. U televideniya o'n yil ko'rinmadi. Mening oldimga kelganida ham hali taqiq ostida edi.

— Hechqisi yo‘q, hozircha kadr ortida ishlab turing. Televideniya chiqishingiz uchun litsenziya olishga harakat qilamiz, — dedim.

Eshitishimcha, Yulduz Usmonova Turkmanistondagi konsertida bir og‘iz: «Qaniydi, bizda ham sizdek rahbar bo‘lsa» — degan gapi uchun «cho‘qqidan uchirib yuborilgan» emish. Bu gap qanchalik rostligini bilmayman. Aytgan bo‘lsa ham, Turkmanboshiga diplomatik mulozamat qilgani tushunarli. Lekin u zamonda bundan yumshoqroq gap uchun ham baloga qolib ketish mumkin edi.

Har bir artistga efir kerak. Efir ular uchun havodek zarur, shu orqali tanilishadi, xalqning e‘tirofini qozonishadi. Efirsiz ular hech kim bo‘lmay qoladi, xalqqa ko‘rinmaydigan, faqat to‘yma-to‘y yuradigan otarchiga aylanib qolishadi. Efirga chiqishni taqiqlab qo‘yish — ular uchun og‘ir jazo. Obid A‘zamovich qaysi dahshatli aybi uchun bunchalik qattiq jazolanganini aqlimga sig‘dirolmayman. Mabodo haqiqiy jinoyatga qo‘l urganida ham, allaqachon qamoqdan chiqqan bo‘lard.

Bu taqiq Obid akaga juda og‘ir botgan. U hech qachon millatini haqorat qilmaganini o‘zi bilardi, shuning uchun ham bunday ayblov unga yomon zarba bo‘lgan. Axir bu an’anaviy askiya bo‘lsa, odam o‘zining kamchiliklari ustidan kulishi azaldan bor-ku, buning uchun litsenziyadan mahrum qilib bo‘larkanmi?!

Artistlar xuddi yosh boladek, ko'ngli nozik bo'ladi, har qanday nohaqlikni yurakka yaqin oladi. Ayniqsa, boshqa hamkasblarini tantanalarga chaqirib turishsa, mukofotlar berishsa-yu, ularni unutib yuborishsa, tushkunlikka tushib qolishadi. San'atkorlar shunaqa ta'sirchan. Biz Obid Asomov bilan tez-tez uchrashib, shunchaki gaplashib o'tirardik. Bu odamning suhbatini olib, mazza qilardim, dunyoqarashi keng, aqlli inson edi, rahmatli.

O'zlariga alohida kabinet qilib berdim. Biz Obid Asomovga efir uchun litsenziya berilishi kerakligini isbotlay oldik. Obid aka teleekranlarga Milliy TV efiri orqali qaytdi. O'sha kuni haqiqiy bayram bo'lib ketdi! Shundan keyin uni qolgan telekanallarga ham taklif qila boshlashdi. Mabodo boshqa joyda eksklyuziv chiqish qilib qolsa, biroz xafa ham bo'lardim, boshida. Keyin: «Mayli, ko'ngli nimanani istasa, shuni qilsin, bu buyuk komik shunday e'tirofga loyiq», — deb qo'ydim.

Bu inson vafot etganida qattiq kuyundim. Taskin beradigani shuki, hayotining oxirgi yillari oqlanib qoldi, efirga qaytdi, hazil-mutoyiba qilib, yana millionlab tomoshabinlarning kayfiyatini ko'tardi. Rozi-rizolik bilan ketdi, ruhi shod deb umid qilaman.

Artist — baribir artist-da, ularga oddiy xodimdek qarab bo'lmaydi. Yulduz Usmonova ham birinchi marta Milliy TV orqali efirga qaytdi, keyin esa men uning uchun yomonga chiqdim, orqamdan har xil bo'lmag'ur gaplarni ga-

pirib tashladi. Haligacha kechirim soʻraydi. Sababi Ozoda Nursaidovada, uni yomon koʻrganida ekan.

Lekin hammadan koʻra Sherali Joʻrayevning taqiqdan chiqishini xohlagandim. Uning qoʻshiqlarini juda yaxshi koʻraman. Bir safar Samarqanddan Toshkentga kelguncha «Oʻzbekim»³⁵ qoʻshigʻini oʻn besh martacha eshitib kelganman. «Oʻzbekim» kitobiga shu turtki boʻlgan. Sherali Joʻrayev hech qanaqa ayb qilmagan, hech qayerda xatoga yoʻl qoʻymagan, hech kimni xafa qilmagan. Faqat juda mashhur edi va shunisi bilan rejim uchun xavfli boʻlib qolgan. U konsertlarida tomoshabin bilan muloqot qilar, jiddiy, azaliy mavzularni koʻtarar, odamlarning unga mehr-muhabbati juda kuchli edi. Qishloqlarga toʻyga borsa, odamlar mashinasini bir necha metrgacha koʻtarib ketardi, shunchalik yaxshi koʻrishardi. Bir safar uzoq qishloqda konsert berganida tomoshabinlar sahna oldidagi maydonga sigʻmay, oʻsha atrofdagi uylarning tomalarigacha chiqib ketishgan. Uylardan birining tomi ogʻirlikni koʻtarolmay, bosib qolgan ekan. Sherali Joʻrayev oʻshanda topgan hamma puolini tomni tuzatib olsin deb, uyning egasiga bergan.

Aytmoqchimanki, yarq etgan siyosatchilari yoʻq, borlari ham panada yurib, siyosiy qarashini bildirmaydigan, hamma birgina shaxsning soyasida yuradigan (aks holda unga raqobatchi boʻlib qolish mumkin) davlatda ahvol shunday boʻlishi tabiiy — sanʼatkorlar ham siyosiy kuchga aylanib, muxlislaridan iborat ulkan armiyaga ega boʻla oladi.

Sherali Jo'rayevdan shuning uchun cho'chishgan va sekina efirdan uzoqlashtirishgan.

Uning qaytishi esda qolarli voqea bo'ldi. O'ylaymanki, bu ishimizni yurtimizdagi millionlab muxlislar katta sovg'a sifatida qabul qilishdi.

Lekin Prezidentimizning xorijga qilgan rasmiy safari birinchi marta Milliy TV jamoasi tomonidan jonli efirga uzatilgani Telekanal tarixidagi eng katta yutuqlardandir.

Men boshqa davlatlardagi Prezident matbuot xizmatlarining ishini doim kuzatib boraman. Ko'p joyda kameraga soxta tabassum qilib turgan prezidentlar qiyofa-niqoblaridan allaqachon voz kechishgan. Rasmiy protokolda ham insoniylikka, samimiylikka doim joy topilgan. Karimov davrida biz buni yilda bir marta — Navro'zda, Prezident tabassum bilan bayram tomoshalariga chapak chalib o'tirganida ko'rardik. Qolgan hamma tadbirlar rasmiyatchilik bilan, sovuqqina o'tardi.

Men matbuot xizmatimiz Prezidentni boricha ko'rsatishini xohlardim. Shavkat Miromonovich juda istarali, odamgarchiligi kuchli inson, yuzma-yuz ko'rishsangiz, darrov yoqtirib qolasiz. Suhbatdoshni diqqat bilan tinglab, kutilmagan savollar beradilar. Bu insondan sun'iy obraz yasashning hojati yo'q, boricha ko'rsatishning o'zi yetarli. Bo'rttirish ham, nimanidir yashirish ham kerak

emas. Davrning o'zi buni talab etayotgandi: siyosat odamlarga tushunarli, yaqin bo'lishi kerak.

Bilishimcha, u paytda Prezidentning matbuot kotibi lavozimiga Sherzod Qudratxo'ja nomzodi ko'rilyotgan ekan. Eshitib, xursand bo'ldim. Sherzod aka juda tajribali jurnalist. O'zbekiston hamda yaqin va uzoq xorij davlatlari o'rtasida do'stona aloqalar o'rnatilayotgan payt, o'sha kunlari ham Prezident rasmiy safar bilan Janubiy Koreyaga borishi rejalashtirilgandi. Xususiy telekanalga va bu sohada tajribaga ega bo'lganim uchun tashrifni yoritishda yordam berishimni so'rashdi. Men jon deb rozi bo'ldim.

Butun jamoamni to'pladim, Shuhrat Jalilov, Husan Salihovni jalb qildim, kerakli texnik uskunalar, montaj stollarini, salkam butun telekanalni olib, Seulga uchdik. Ish uchun alohida xonani band qilib, koreyalik televideniyechilar bilan muzokaraga kirishdik. Efirni Toshkentga to'g'ridan to'g'ri uzatib turish uchun sun'iy yo'ldoshni ijaraga oldik. Koreyaning oliy darajadagi davlat tadbirlarini translyatsiya qilish huquqiga ega eng zo'r telekanalidan ijaraga PTS³⁶ olib turdik. Unga qo'shib, butun jamoasini yolladik.

Bu biz uchun shunchaki topshiriq emas, haqiqiy drayv — hissiyotlarni junbushga keltiradigan voqea bo'ldi! Shu paytgacha OAVga rasmiy uchrashuvlardan tuzukroq surat ham berilmas, biz esa birinchi marta xorijga tashrifni to'g'ridan to'g'ri efirga uzatmoqchimiz!

Saida Shavkatovna ham Koreyaga keldi. Men Saida bilan Sherzod akaga jonli efirga chiqmoqchi ekanimizni aytdim. Shu payt Sherzod akaga Toshkentdan qo'ng'iroq bo'ldi: «Yo'q! Hech qanday jonli efirga ruxsat yo'q!» — bu gap e'tirozga o'rin qoldirilmaydigan ohangda aytili.

Boshimdan bir chelak muzdek suv ag'darilgandek his qildim o'zimni. Nima uchun jonli efirni taqiqlashdi ekan deb, o'tirib o'ylay boshladim. Hoynahoy, butun dunyoga sharmanda bo'lmaylik, deb cho'chishgan. Bunday ishlarda tajribamiz yo'q-ku, nimadir o'xshamay qolishidan xavotir olishyapti. Saidaga uchrashdim:

— Bizni eplay olmaydi bular, deb o'ylashyapti, shuning uchun ruxsat tegmagan. Bunaqa yuqori darajadagi xalqaro translyatsiya birinchi marta bo'ladi-da. Lekin buni qilishimiz shart, ishoning! Xo'p, nima muammo chiqishi mumkin? Efir koreyalik superprofessionallar qo'lida bo'lsa, mendan boshqa birorta o'zbek yo'q u yerda, qiladigan ishim ham faqat komanda berish, xolos. Agar shu ishni hozir qilmasak, hech qachon qilolmaymiz, tushunyapsizmi? Zarurat tug'ilsa ham! Chunki hech qaysimizning tajribamiz bo'lmaydi. Urinib ko'rishimiz shart! Qo'limizdan nimalar kelishini ko'rsatishimiz kerak!

— Bilib bo'lmaydi-da... — ikkilanib qoldi Saida. Ungayam osonmas edi. Lekin davlat rahbari matbuot xizmati-

ning yangi pog'onaga chiqishi uchun qulay fursat kelgani-
ni tushunib turardi.

— Keling, harakat qilib ko'raylik, — dedim men. —
Agar eplolmasam, meni Mustaqillik maydoniga olib
chiqib, otib tashlashsa ham mayli. Qamalib ketishga ham
roziman. Menga baribir.

Jonli efir g'oyasi miyamda tinimsiz aylanar, uni udda-
lashimizga azbaroyi ishonchim komilligidan Saidani ham
ko'ndirdim. Bu haqiqiy avantyura edi, chunki hech kimni
ogohlantirmadik. Bir qarorga keldik: jonli efirga chiqa-
miz, u yog'i nima bo'lsa bo'ldi. Men nima qilayotganim-
ni juda yaxshi tushunib turardim — Toshkentdan bo'lgan
buyruqqa qarshi borayotgan edim. Yana qaysi bir tuman
miqyosidagi Navro'z tadbirida emas, hukumatlararo uch-
rashuvda! Xalqaro protokolga qay darajada qat'iy rioya
qilinishi, eng mayda narsa ham muhim ekanini hisobga
olsak, bu hazilakam qaror emas edi.

Jonli efir taqiqlanganidan hech kimning xabari yo'q,
shuning uchun MTRKdagilar tayyor turgandi.

Balki bilishgandir ham, ammo sharmandam chiqishi-
ni tomosha qiladigan vaqt keldi, deb o'ylagan bo'lishlari
mumkin. O'zi meni hech qachon yoqtirishmasdi, shuning
uchun: «Bu o'zboshimcha Allamjonovning rasvosi chiqsa,
o'zidan ko'rsin, aralashib nima qilamiz?» — deyishgandir.

Xullas, tantanali marosim boshlandi. Hammasi shunaqa chiroyli oʻtdiki... Otlar tuyoqlarini qarsillatib gijinglagan, bayroqlar hilpiragan, tantanali musiqa yangragan... Manzaramisan manzara! Delegatsiyamiz aʼzolari savlat toʻkib turibdi, hammalarini yaqqol koʻrsatdik. Ikki davlat Prezidentlari qoʻl berib salomlashdilar. Bu voqea oʻsha zahoti Oʻzbekistonda ham namoyish etildi. Men ham suratga tushib qolgan ekanman: boshimga kapyushonimni ilib, asbob-uskunalar orasida bukchayib olib oʻtiribman — kun sovuq edi. Qoʻlimda telefonli planshet, kadrni kuzatayapman. Aniq esimda, oʻtirgan joyimda: «E Xudoyim, ish qilib hammasi yaxshi oʻtsin, Oʻzing yordam ber, sharmanda qilma...» — deb tinmay duo qilganman.

Hammasi zoʻr boʻldi! Jonli efir boshlaganimizni koʻrib, koreyaliklar ham marosimni toʻgʻridan toʻgʻri koʻrsatishdi. Hammasi kutganimizdan ham silliq oʻtdi: birorta kamera bir marta ham oʻynab ketmadi, oʻz ishiga talabchan koreyaliklar shunaqa rakurslarni tanlashibdi-ki, tasvirlar qoyilmaqom chiqdi oʻziyam. Koreya bilan Oʻzbekiston bu tashrifni bir paytda, birgalikda tomosha qildi. Oʻzbekiston tarixida hali bunaqasi boʻlmagandi.

Tabiiyki, Prezident qarorgohga qaytgach, shu zahoti oila aʼzolari, yaqinlari qoʻngʻiroq qilib, hammasi juda zoʻr oʻtganini aytib, tabriklashibdi.

Prezident ham materialni koʻrib: «Yashanglar! Juda yaxshi ishlabsizlar! Uddasidan chiqibsiz!» — dedilar.

Men haq bo'lib chiqdim.

Ertasiga tadbirkorlar uchrashuvini ham jonli efirda ko'rsatdik. Xullas, hammasi yaxshi ketdi.

Safardan qaytdik. Kutilmaganda matbuot kotibi qilib meni tayinlashmoqchi ekanligini eshitib qoldim. Yo'g'-e, bo'lishi mumkin emas! Allaqachon davlat xizmatidan ketgan odamman, menga buning keragi yo'q, yuribman erkin qush bo'lib, nima qilaman buni? Men hattoopershtabning majlislariga ham kirmasdim. Sherzod aka bor-ku, zarur nimadir gap bo'lsa, o'zi aytardi. Mening ishim yordam berish, xolos. Hazillashyapsizmi? DSQdan keyin boshqa hech qachon davlat ishida ishlamayman, deb o'z-o'zimga so'z berganman va shu qarorimda qat'iy turishga ahd qilganman. Koreyada ham kerakli tasvirlarni olib bo'lib, rasmiyatchilikka aloqasi yo'q erkin odamlarday, shahar aylanib yurdik. Xohlasam ishga kelaman, xohlamasam — kelmayman. Birov g'ing demaydi. Menga yana nima kerak?!

Qolaversa, Sherzod akaning oldida ham noqulay edi, xuddi hammasini ataylab uyushtirganday bo'lib qolaman-ku. Balki, Sherzod aka haliyam shunaqa deb o'ylab yurgandir.

Uch marta rad javobini berdim, kadr ortida yordamlashib turishimni aytdim. Lekin hadeb yo'q deyaverish ham noto'g'ri edi. Bu yog'iga nima ishlar bo'lgani o'zingizga ma'lum. Tog'da yotibman, ko'rada kabob pishirib.

Bir mahal Zaynilobiddin Nizomiddinov qo'ng'iroq qilyapti: «Tabriklayman, endi siz Prezidentning matbuot kotibisiz...»


Xuddi o'sha kunlari «Avtotest» bilan «Anhor.uz» onlayn OAV o'rtasida jang bo'layotgan edi. Lola Islomovaning chiqargan maqolasi menga qattiq tegib ketgandi. Men firibgar ekanman, monopolist ekanman, davlatni o'maribman, Vazirlar Mahkamasini ham «sotib olgan» emishman. Vaholanki, Vazirlar Mahkamasi birorta loyihani osonlikcha qabul qilmaydi. Yigirmadan ortiq vazirlik bor, loyihani har bittasiga yuborib, tasdiqlatish kerak, hamma vazirlarning «og'zini moylash» u yoqda tursin, bittalab oldiga kirib chiqishning iloji yo'q. Bu diplom himoyasidan ham qiyin. Har bitta idora loyiha qanchalik maqsadga muvofiqligi, qay darajada foyda keltirishini o'zining yo'nalishi bo'yicha sinchiklab o'rganib chiqadi. Chunki ertaga bir gap bo'lsa, ular javob berishadi. Xohlagan vazirlik shartta rad qilishi mumkin. O'sha paytda men «Anhor» bilan kurashga astoydil bel bog'lagandim. Yuristlarim maqolani tahlil qilib, fuqarolik kodeksining bir necha moddasi buzilganini aniqladilar. Lolani idoralarga chaqirtira boshlashdi.

Xullas, matbuot kotibi etib tayinlandim. Prezidentning matbuot kotibi oldinlari OAVga ham norasmiy kuratorlik qilardi. Chunki O'zMAAdan amalda hech qanday foyda yo'q edi. Men matbuot kotibi sifatida mustaqil xususiy nashrni yo'qotishga urinayotgandek bo'lib qoldim. Shun-

doq ham ko'pchilik go'ringa g'isht qalab yurgan vaqtlar. Lekin biznes bilan shug'ullangan paytlarim birovlarining men haqimda nima deb o'ylashiga, gap-so'ziga umuman parvo qilmasdim. Ammo Prezidentning imijiga javob beradigan, bunchalik mas'uliyatli lavozimda o'tirgan mansabdor har bir qadamini o'ylab bosishi kerak. Kamiga Sergey Yejkov yangi matbuot kotibi so'z erkinligini bo'g'ayotgani haqida birpasda maqola chiqarib yubordi.

«Anhor» bilan bog'liq hamma rejalarimga nuqta qo'ydim. O'rtamizdagi dushmanlik keyinchalik do'stona munosabatlarga aylanishini, Lola Islomova bir kun kelib Mass-media fondi huzuridagi Jamoatchilik kengashining raisi bo'lishini kim ham o'ylabdi deysiz?!





MATBUOT KOTIBI

2017-yil

Prezident Matbuot xizmatiga kelganimda, u yerdagi hammani bo'shatib, jamoani yangidan tuzishni maslahat berishdi. Lekin men unday qilmadim. Bor xodimlarni to'plab, har biriga razm soldim.

To'g'ri, bu tizimga yana odamlar qo'shildi, lekin ular yangi lavozimlarni egalladilar. Matbuot xizmatining asosiy xodimlari joyida qoldi.

O'shanda bir narsani tushunib yetdim — ish siljimatgan bo'lsa, bunda oddiy xodimlarning deyarli aybi yo'q. Ularni xira tortgan yulduzga o'xshatish mumkin. Xodimlar ongini qo'rquv-xavotirdan, «mening g'oyalarim hech kimga kerakmas», «siz — xo'jayin, men nodonman», «fikrim baribir hech kimni qiziqirtirmaydi» degan qarashlardan tozalash lozim.

Odamlarimiz juda iste'dodli. Kadrlar yetishmasligi esa o'tirgan o'rnini yo'qotishdan qo'rqib, eng aqlli va ijodkor xodimlarni so'ndiradigan rahbarlarning nuqsoni. Vaholanki, odamlarga ko'p narsa kerak emas, ishini keng qamrovda ko'ra olish imkonini berib, qo'llab-quvvatlab tursangiz, himoya qilsangiz bo'lgani. Kim qanday vazifani bajarishini, nimaga javobgarligini aniq belgilab qo'ying, takliflarini muhokama qiling. Tamom.

Prezident matbuot xizmatida hozir ham bizning jamoamiz yo'lga qo'ygani model inersiyasi bo'yicha ish ketayapti. Hamma o'sha paytdagidek ishlayapti, faqat men ketdim, xolos.

Lavozimdan ketishimga Samarqandda yuz bergan shov-shuvli fojia turtki bo'ldi. Yosh o'qituvchi Diana Yenikejevani yuk mashinasi urib ketdi. U Prezidentning kelishiga yo'lning chekkasini supurib tozalayotgan o'qituvchilardan biri edi. Eski kasalimiz — katta rahbarning kelishiga xo'jako'rsinga harakat qilish jamoatchilikni portlatib yubordi. Prezident joylardagi vaziyatga yasama hashamatlarga qarab baho bermasligini shuncha gapirsa ham, ko'pchilik amaldorlar oldingi odati bo'yicha rahbariyatning kelishiga, hududlarni tozalash, gul ekish, mehmonlar ko'zi tushadigan devorlarni bo'yashda davom etardi. Ular buni oddiy hol deb hisoblashar, axir mehmon kelsa, uyimizni ham tozalab qo'yamiz-ku, deyishardi. Lekin Prezident mehmon emas, nomiga bo'yalgan devor bilan aldab bo'lmaydi uni.

Eng himoyasiz qatlam — byudjetdan oylik oladigan xodimlarni hasharga haydash odatini yoʻqotish kerak edi. Oʻsha zahoti bu fojida Prezidentni ayblagan «jonkuyarlar» paydo boʻldi. Men murojaat bilan chiqishga qaror qildim. Odamlarni koʻcha tozalashga haydab olib chiqish oʻtgan zamondan qolgan sarqitligi, buni toʻxtatish kerakligi haqida gapirib, video tayyorladim. Matbuot kotibi sifatida davlat rahbarining nuqtayi nazarini ifodalash mening vazifam-ku.

Bu voqeadan keyin Vazirlar Mahkamasida yigʻilish oʻtkazildi. Aynan shu masalalar koʻtarilib, hamma boʻgʻindagi rahbarlar orasida muhokama qilindi. Ayrim viloyat va tumanlarda haqiqatni bejab koʻrsatishga qarshi kurash boshlandi. Maxsus qaror qabul qilinib, koʻchalarni obo-donlashtirish ishlariga odamlarni jalb qilish taqiqlab qoʻyildi.

Vaziyatga jahon hamjamiyati alohida munosabat bildirdi. Ular buni Oʻzbekiston Prezidentining gʻarb uslubida ishlay boshlagan matbuot xizmati faoliyatida yangi davr deb baholashdi. Tabiiyki, bu meni yana ham ilhomlantirib yubordi. Biz baʼzi voqealar haqida hatto oldindan xabar berib, Prezidentning qayerga, nima uchun borayotgani, qaysi masalalar muhokama qilinishini gapiradigan boʻldik. Toʻgʻri, xalqaro miqyosda bu oddiy holat boʻlishi mumkin. Lekin bizda oldinlari bunday ishlanmas, bu biz uchun yangilik edi.

Biz davlat rahbarining faoliyatini, har bir qadamini haqqoniy ko'rsatishni yo'lga qo'ydik. Prezident nima ishlar bilan shug'ullanishi haqida odamlarda tasavvur paydo bo'ldi. Xalq uning hashamatli kabinetga kirib olib, buyruq berib o'tiradigan inson emasligini bildi. Tinimsiz butun mamlakatni aylanib, yig'ilishlar o'tkazadigan, chet ellarga safar qilib, oliy darajadagi muzokaralar olib boradigan, muhim bitimlar imzolaydigan yurt rahbarini ko'rdi. O'zbekiston qisqa muddat ichida hamma qo'shnilar bilan munosabatlarni yaxshilab oldi, to'xtab qolgan ko'pgina loyihalarni qayta ishga tushirdi. Yo'llar, chegaralar ochildi, biznes aloqalar tiklandi. Bularning hammasi — haqiqiy diplomatiya. Biz esa barchasini xalqqa ko'rsatib borardik.

Prezident kecha-yu kunduz tinim bilmay ishlardi. Bunday tezkor hayotni hatto tasavvur qilish qiyin. Uyg'a birrov borib kelishga ham vaqtimiz yo'q, hali u viloyatga, hali bu viloyatga safarga chiqib ketamiz, materiallarni ham yo'l-yo'lakay montaj qilamiz. Mashinadan samolyotga, samolyotdan mashinaga o'tirib, butun respublikani aylanib chiqamiz. Zafarga erishish yo'lida yurish emas, yugurish kerak, deyishadi. Aks holda, bir joyda turib qolasan. Bizning vaziyatda esa mamlakatimiz jarlikka og'ib ketmasligi uchun Prezident yeldek uchishiga to'g'ri kelardi.

Ta'limdan tortib, qishloq xo'jaligigacha, barcha sohalarda muammolar yetarli, hammasini boshqatdan tiklab chiqish kerak edi.

[REDACTED]

Prezidentimizga qolgan «meros»ning yuki og'ir edi. Shunga qaramay, Rahbarimiz hech bir ikkilanishsiz siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotdagi barcha ijobiy o'zgarishlarga keng yo'l ochdi. Mamlakat taraqqiyotining harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Qaysi yo'ldan ketishimiz, nimalarga erishishimiz kerakligi aniq belgilandi.

Ba'zi hollarda qayta tiklash ham emas, butunlay buzib tashlab, yangidan qurishga to'g'ri keladi. Jamiyatda korrupsiya o'ta chuqur ildiz otib ketgan va biz bundan xijolat ham qilmay qo'ygandik. Xalqaro reytinglarning eng pastki qatorlariga tushib ketganimiz ham bor gap. Pora deganda qandaydir uyatli ish, majburlikdan qo'l uriladigan jinoyatni emas, uddaburonlikni, oson yashash yo'lini tushunadigan bo'lib qoldik. «Hamma yoqni sotib olganman, hamma joyda tanish-bilishim bor», — deydiganlar omadi chopgan odamlarga aylandi. Mana endi jamiyatimiz korrupsiyaning qanchalik dahshatli narsa ekanini tushunib yetyapti. Korrupsiya aynan kimlargadir taalluqli bo'lmaydi, u butun jamiyatni yemiradi.

Konvertatsiyaga qachon ruxsat berilarkin, deb kutganlarimiz, uning ochilishiga umuman ishonmay qoʻygan paytlarimizni eslayman. Hatto binoyidek obroʻ-eʼtiborli odamlar iqtisodiyotning tanazzuli yaqinligi haqida gapirar, bizning mamlakatda erkin konvertatsiyaga ruxsat berib boʻlmaydi, degan xulosaga kelgandi. Qaniydi hozir oʻshalarning koʻziga bir qarasam, deyman. Konvertatsiya xuddi zambarakdan otilgan oʻqdek bizni oldinga surib yubordi. Tadbirkorlar uchun litsenziyalar kamaytirildi, byurokratik chigʻiriqlar uzila boshladi, soliq islohotlariga kirishildi. «Konvertatsiyani ochinglar, tinchgina ishlashga qoʻyib berishsin, xalaqit qilishmasin» — koʻpchilik tadbirkorlardan shu gapni eshitardik. Tekshiruvlar taqiqlab qoʻyildi. Nazoratchi organlarning bitmas-tuganmas reydlari toʻxtatilib, korrupsiya oʻpqonining ogʻzi yopildi.

Korrupsiya eng urchib ketgan soha — pasport va fuqarolik tizimida ham islohotlar boshlandi. Oʻzbekistonga 1995-yilgacha koʻchib kelgan, soliq toʻlasa-da, omonat haq-huquqlar asosida yashab kelayotgan insonlarga fuqarolik berila boshlandi. Mamlakatdan tashqariga chiqish uchun olinadigan bemaʼni stikerlar yoʻq qilindi. Kap-katta ayollar eri yoki ota-onasining roziligi bilangina chetga chiqishi mumkin boʻlgani-chi, esingizdami? Ayol kishi oʻttiz besh yoshga toʻlmagunicha istalgan joyga borish huquqiga ega emas edi!

Odamlar orziqib kutgan muhim oʻzgarish — pensiya tizimining islohotiga ham navbat keldi. Butun umr meh-

nat qilib, pensiya badalini to'lab kelgan odamning pensiya yoshida ham ishlashga imkoni yoki ehtiyoji bo'lsa-yu, buning uchun pensiyasining yarmi ushlab qolinsa?! Qaysi mantiqqa to'g'ri keladi bu? Adolat qaror topdi, ishdan uzilmagan pensionerlar endi pulini to'liq oladigan bo'ldi.

Majburiy va bolalar mehnatiga qarshi kampaniya boshlandi. Bir asrlilik «an'ana»miz — darslarning noyabr oyigacha to'xtab qolishiga chek qo'yildi. Avval maktab o'quvchilari, keyinroq talabalar paxtaga yuborilmaydigan bo'ldi. Vaqt o'tib, har yili majburan paxta terimiga chiqariladigan boshqalar ham bu tashvishdan qutuldi. To'g'ri, jarayon qiyin kechdi, orqaga ketishlar, janjal-to'polonlar bo'ldi, lekin shu ish oxiriga yetkazildi. Ochig'i, Paxta Janobi oliylari hukmronligini hech qachon yenga olmasak kerak, deb o'ylardim.

Siyosiy sabablar bilan qamalganlar ozod qilina boshlandi. Nihoyat, Jasliqdagi³⁷ qamoqxona yopiladigan bo'ldi. Vijdon erkinligi endi deklaratsiyadagi quruq gap emas edi. Aholisining 90 foizi musulmonlardan iborat yurtimizda Islom dini norasmiy ravishda taqiqlab kelinganligi — aqlga sig'maydigan holat! Davlat asta-sekin, lekin izchillik bilan dindorlarni tinch qo'ya boshladi. Hozir poytaxtda Islom sivilizatsiyasi markazi qurilyapti. Chet ellik «da'vat»chilar din niqobi ostida internet sarhadlarini murosasiz chiqishlarga to'ldirgan bir davrda O'rta Osiyoda keng tarqalgan, boshqa din va aqidalarga bag'rikeng Islomni himoyalash yo'lida katta qadam qo'yildi.

Aytaman desa, gap ko'p... Har bir sohada hayot o'zgara boshladi, ba'zan biroz keskin, kutilmagan tarzda. Ammo, eng asosiysi — har bir insonga o'ylash, fikrlash, so'zlash, baralla xitob qilish ozodligini berish edi. Odamlar o'z-lari ko'nikib, moslashib ketgan ojizlik botqog'idan, umidsizlik sirtmog'idan qutulib, O'zbekistonni chirmab olayotgan boshboshdoqlikka qarshi kurashishi zarur edi. Biz o'zining o'tmishidan, muammolaridan qo'rqmaydigan kuchli jamiyatga aylana boshladik.

O'sha paytda mamlakatimiz oldida turgan vazifalar juda ko'p edi, hozir ham shunday.


[REDACTED]

Mana endi ancha diydam qotib, hissiyotlarimni boshqara oladigan bo'lib qoldim. Depressiyaga tushmasdan, samarali ishlashning yo'lini bilib oldim — vazifangni puxta, to'g'ri, halol va sifatli qilib bajar, bo'ldi. U yog'iga natijaga qarab, xulosa chiqariladi. Xato qilishdan qo'rqmaydigan bo'ldim. Hamma ham adashadi, muhimi, xatolarni vaq-tida tuzata bilish.

U paytda esa, kuchim yetmay qolayotganini sezdim — bu biz uchun mutlaqo yangi tajriba edi. Judayam uyqum kelar, lekin umuman uxlay olmasdim. Avval ruhiyatim, keyin butun organizm to'kilib tusha boshladi. «Yosh bo'la turib, o'zimdan salkam ikki baravar katta insonning ortidan yetolmasam-a?» — degan fikrgina meni harakatga undardi. Keyin bu ham yordam bermay qo'ydi. Chunki «saroy»ning boshqa o'ziga yarasha ko'z ilg'amas qiyinchiliklari va nozik muammolari ham bor edi, albatta.

Tanaffus qilmasam bo'lmasdi.

Ishdan bo'shash haqida ikki marta ariza yozdim. Ikkinchisiga — ishdan sog'lig'im tufayli ketayotganim ko'rsatilgan arizaga qo'l qo'yishdi. Esimda, o'shanda Milliy TVdagi ofisimga kelib, bir yarim oy hech qayoqqa chiqmay, Prezidentga va'da qilingan kitob — «Maqom»ni yozib tugatdim.

Maqom oddiy kuy-qo'shiq emas. Bu Allohga munojot, U Zotga she'riy, musiqiy roz aytishdir. Men maqomni judayam yaxshi ko'raman. Maqom — qalbmning ohang. Qarangki, o'sha kunlari kitob ustida ishlar ekanman, tinmay Xudoga munojot qildim. 

Ayni paytda «Hayotdan nima xohlayman, o'zi?» degan savolga javob topishga urindim. Tinchgina, imkon qadar

to'qchilikda, o'zimni o'ylab yashashnimi yoki yurtim uchun qo'ldan kelgancha nimadir qilishnimi? Bu men uchun juda muhim masala edi. Bu — hamma uchun muhim masala. Har kim o'z yo'lini o'zi tanlaydi.

Kitob tayyor bo'lgach: «Bu Sizning topshirig'ingiz edi, iltimos, qabul qiling», — deb Prezidentga yubordim. Nihoyatda hurmat qiladigan insonlarim jonini fido qilib ishlayotganini bir chekkadan shunchaki tomosha qilib turolmasligimni o'sha paytda tushunib yetdim.

Ofisda «chilla» o'tirgan kunlarimning birida hovlida kabob pishiradigan bo'ldik. Sixlangan kaboblarni ko'raga terib, tepasida qarab tursam, bir parcha go'sht cho'g' ustiga tushib ketdi. Rasmga olib, «Olovlar ichida yonayotgan yagona kabob» yozuvi bilan Facebookka qo'ydim, shu go'shtga o'xshab, jizg'anak bo'lib ketmaslikka harakat qil-yapman, degan ma'noda. O'sha postim rosa mashhur bo'lib ketdi, juda ko'p layk va kommentlar yig'di. Odamlar nima demoqchi ekanimni tushunmagan bo'lishi mumkin, lekin ko'pchilik yaxshi gaplar yozib, ko'nglimni ko'tardi.

Keyin O'zMAAga rahbarlik qilishni taklif etishdi. Shu yerda bir muhim narsaga e'tiboringizni qaratmoqchi-man — O'zbekiston Prezidenti tomonidan So'z Erkinligi-ning e'lon qilinishi demokratik davlatlarning ko'zi uchun o'ylangan quruq rasmiyatchilik emas. Bu ongli ravishda qo'yilgan muhim strategik qadam bo'lib, uning yordami-da korrupsiyani yenga boshlash mumkin edi. Xalq atrofi-mizni o'rab turgan g'ij-g'ij muammolar haqida oshxonada

pichirlashib o'tirmay, baralla gapirishni o'rganishi kerak edi. Bunday shaffoflik imi-jimida davlatni o'marib, rahbarning tashrifi oldidan «hammasi joyida, olam — guliston» tarzida ish yuritishga o'rganganlarning oyog'iga bolta urdi va mamlakatni olg'a harakatlantirib yubordi. Konvertatsiya yurt iqtisodiyoti uchun qanchalik inqilobiy qaror bo'lsa, bu ham muhimlikda undan qolishmaydigan qadam edi. Prezident sutkasiga 25 soat ishlagan taqdirda ham, hamma mansabdorlarni shaxsan nazorat qilishning iloji yo'qligini juda yaxshi bilgan, deb o'ylayman. Shuning uchun So'z Erkinligi Prezident oldiga maqsad qilib qo'ygan barcha islohotlarni amalga oshirishda ulkan «projektor» bo'ldi.

So'z erkinligi bilan birga uning nojo'ya oqibatlari — feyklar, yolg'onlar va axborot hujumlari paydo bo'ldi. Lekin bular ham kerak edi — shu bahona biz har xil nayranglarga qarshi immunitet hosil qila boshladik. Haqiqat bilan kimlarningdir shaxsiy manfaatlarini farqlashni o'rgandik. Haliyam o'rganyapmiz.

Xullas, O'zMAAga rahbar etib tayinlandim. U yerga borganimda menga qarshi yozilgan uydirma buyurtma postlarni aynan shu idoraning bir necha xodimi o'tirib to'qiganidan xabar topdim. Endi ular mening qo'l ostimda edi! Assalomu alaykum!



YANGICHA DEMOKRATIYA

Prezident Karimov hukmronligi davrining oxirlarida mamlakat mafkuraviy xizmatlari o'ta muhim bir narsani — burgaga qo'shib ko'rpani ham kuydirib yuborganini tushunib yetdi. Ular Respublikada so'z erkinligini cheklayverib, o'zlari bilmagan holda, jamiyatimizning boshqa davlatlar siyosiy jarayonlari bilan yashashiga sharoit yaratib qo'ygandi. O'zimizda haqqoniy yangiliklar berilmasligining oqibati edi bu.

AOKAni boshqarishga kirishar ekanman, agentlik qanday ishlashi kerakligi haqida aniq tasavvurim bor edi.

Aslida Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi mohiyatiga ko'ra mamlakatda Tashqi ishlar vazirligi, Senat va Parlamentdan keyingi eng asosiy mafkuraviy organ bo'lishi kerak. Chunki bularning hammasi — katta siyosat, AOKA esa axborot va mafkuraviy masalalar bo'yicha bosh javobgardir.

Bu targ'ibot mashinasi ham, jazolovchi organ ham emas, balki aniq tashxislar qo'yadigan klinika, shuningdek, mamlakatni tashqi axborot hujumlaridan himoyalovchi bosh organ sanaladi. Axborot xavfsizligini ta'minlash uchun to'laqonli axborot muhitini yaratish kerak. Bu muhitni esa mahalliy OAV va blogerlar tashkil qilishi lozim. Ularni qo'llab-quvvatlabgina, mamlakat ichida xorijdan qaratilgan fikrlarning ta'sirini kamaytirishga erishardik. O'zimiznikilar ichki vaziyatni yaxshiroq biladi, muammolarni ko'zi bilan ko'radi, surishtiruvlar o'tkazadi, shu hududda yashaydi, xalq bilan bitta tilda gaplashadi. Bir qarashda ular xuddi vahima tarqatayotgandek, vaziyatni keskinlashtirayotgandek ko'rinar, lekin aslida unday emas. Ularning ovozi shu paytgacha odamlarga axborot tarqatgan hamma nashrlardan balandroq jaranglamoqda. Ular haqqoniyroq, qiziqarliroq, tezkor ma'lumot tarqatadi, voqelikni tanib bo'lmaydigan darajada o'zgartirmaydi, bejab tashlamaydi. Ular bilan bahslashish, raddiya berish, munozara qilish ham mumkin. «Ozodlik Radiosi» yoki boshqa anonim kanallar bilan bahslashib ko'ring-chi?

Eng qizigi, Mass-media fondiga yaqindagina «ob-havoni belgilab» yurganlar yordam so'rab murojaat qilishibdi — auditoriyani yo'qotishayotganmish. Biz bir paytlar oldimizga aynan shuni maqsad qilib qo'ygandik. Endi haqqoniy yangiliklar poygasida sportchilar ko'payib qoldi, marhamat, eplasangiz, raqobatlashing.

AOKA ichida tahliliy, ekspertlar va monitoring bo'limlari tashkil qilindi. Monitoring markazi odamlarning fikrini o'rganib, ularni tashvishlantirayotgan eng og'riqli nuqtalarni aniqlar edi. Aholining kayfiyatini, islohotlardan rozilik darajasini tahlil qilardi.

OAV — bu signalizatsiya. Signalizatsiyaga qarshi kurashish — xato, yong'inni o'chirish kerak.

Xabarlarda qaysi vazirlik yoki idora tilga olinsa, tegishli tashkilotga darhol ma'lumot yuborilardi. Bizning vazifamiz barcha rahbarlar uchun shaffof axborot muhitini ta'minlash edi. Monitoring vaziyatni o'rganib, tahliliy bo'lim bunga qanday munosabat bildirish bo'yicha taklif berardi. Har bir organ bir dunyo ma'lumot yig'ar, ulardan jamiyatga manfaatli qarorlar qabul qilishda foydalanilardi. Aniq tashxis qo'yish — muammoning yarmi hal qilindi degani.

Ayni paytda, matbuot kotiblari jamoasini shakllantirish ustida ham ish ketayotgandi. Matbuot kotiblari ko'p narsani — u yoki bu mavzuni qanday yoritishni, nimani aytsa bo'ladi-yu nima haqida gapirish mumkin emasligini, rahbarning fikrini tushunmovchilik yoki mujmalliksiz qanday yetkazishni bilishi, tushunishi va bajara olishi kerak edi. Biz oldimizga ularni haqiqiy spichrayterlariga aylantirish vazifasini qo'ydik.

Rahbariyat konsepsiyasiga ko'ra, barcha qarorlar aholining istak-xohishini inobatga olib qabul qilinishi ko'z-

da tutilgandi. Agar odamlar biror qarorni qabul qilishga tayyor bo'lmasa-yu, lekin u kelgusida manfaat keltirishi aniq bo'lsa, ekspertlar nuqtayi nazaridan kelib chiqib, shuni xalqqa tushunarli qilib yetkaza bilish kerak edi.

Masalan, maktab formasi haqidagi masala shunday hal qilindi. Biz vaziyatni tahlil qilib, Xalq ta'limi vazirligiga taqdim etdik. Tahlillar formani joriy qilishga ko'pchilik uzil-kesil qarshi ekanini ko'rsatdi. Vazirlik qarorini qayta ko'rib chiqdi. Shuningdek, ijtimoiy, kommunal masalalar, narx-navo bo'yicha ham ma'lumot to'plab borar edik. Joiz bo'lsa, biz idoralar uchun qo'shimcha ko'z vazifasini bajardik. Bizga ishonsa bo'lardi, chunki biz haqqoniy va to'liq ma'lumot yig'ardik. Na ko'pirtirardik va na yashirardik.

Jamiyatning umumiy kayfiyatiga ta'sir qiladigan har qanday qaror oldin bizning qo'limizga kelib tushishi nihoyatda muhim edi. Ushbu qarorlarni ishlab chiqayotgan mutaxassislar natijada nimaga duch kelishi mumkinligini tushunishi va xatolarning oldini olishi uchun ham shunday tizim zarur edi.

Chet ellarda bu kabi tashkilotlar maxsus xizmatlarga tenglashtiriladi. Keng ko'lamdagi ma'lumotlarni tahlil qilish har qanday davlatning eng muhim vazifalaridan biriga aylanyapti. Zamon va xavfsizlik talabi bu.

Mana shu haqiqiy demokratiya — odamlar nima xohlayotganini koʻrib, bilib, shunga qarab reja tuzish, mamlakat harakatlanishi kerak boʻlgan yoʻnalishni belgilash, quloqqa yoqadigan xabarlar bilan oʻz-oʻzimizni aldamasdan, haqiqatning koʻziga tik qarash.

Aynan matbuot erkinligi tashxisning aniq boʻlishini taʼminlar va bu konsepsiyaning ajralmas qismi edi. Toʻgʻri, amaldorlarga oson boʻlmadi, chunki oʻzlarini majburlab oʻzgartirishlariga, yangicha ish uslubiga moslashishlariga toʻgʻri keldi, lekin bahonada yangi voqelikda yashash uchun immunitet hosil qilib olishdi.

Busiz mamlakatning gullab-yashnashiga va jahon miqyosida ijobiy mavqeni egallashiga umid qilish foydasizligini hayotning oʻzi koʻrsatdi.

Afsuski, fikrimni davlat miqyosida qaror qabul qiluvchi hamma mansabdorlarga ham yetkaza olmadim. Men haqimda «Barcha vazirlar va amaldorlar ustidan xoʻjayinchilik qilish uchun mutlaq hokimiyatga intilyapti», — degan taʼnalar eshitilib qoldi. Aslida men yurtimiz uchun zaruriy bir masalaga shart-sharoit yaratmoqchi edim, xolos. AOKAning oldiga qoʻyilgan eng muhim vazifa hali oʻzini tiklab olmagan Soʻz erkinligini rivojlantirish va himoya qilish edi. Shu ishni samarali bajaradigan maʼmuriy resursni shakllantirmoqchi boʻldim. Soʻz erkinligining asl mohiyatini tushunish kerak, masʼuliyatsizlik orqasidan yuzaga keladigan informatsion tartibsizlikni emas.

Buning zarurligini ikkala tomonga — hukumat vakillariga ham, jurnalistlarga ham tushuntirib borishimizga to'g'ri keldi. So'z erkinligini tandirdan yangi uzilgan, qo'lingni kuydiradigan, lekin ishtahaochar issiq nonga o'xshataman. Shartta ushlab kuyib qolganlar ham ancha bo'ldi.

Biz hali bu erkinlikka moslashmagandik. Bir qarasa, soyamizdan ham qo'rqib, ichimizdagi senzurani yoqib olsak, bir qarasa, haddimizdan oshib ketardik. To'g'ri, hammasi odamning fe'l-atvoriga bog'liq: kimdir eshikni tepib kirib-chiqadi, kimdir o'zini chetga olib, panada jimgina kuzatib turadi.

Jurnalistlar ham huquq va majburiyatlarini yaxshi bilishi, ham kasb etikasiga rioya etishi, ham yuqori saviyali bo'lishi zarur. Me'yorni ushlab bir deganda bo'lib ketadigan ish emasligini hamma tushunib turardi.

O'zimning ham ichimda qo'rquv bor edi. Chunki men jurnalistlarni tokdan uzilgan simni ushlab ko'rishga chaqirayotgandim-u, lekin rostdan uzilganmi-yo'qmi — aniq bilmasdim. Xudo ko'rsatmasin, birortasiga nima-dir bo'lsa, aybdor men bo'lardim. Chunki: «Siyosat o'zgardi, jurnalistlar o'ldirib yuboriladigan, mayib-majruh qilinadigan paytlar o'tib ketdi. Endi orqaga yo'l yo'q» — deb qayta-qayta gapirib, ularni ishontirayotgan o'zim edim.

Hammasi qonun doirasida bo'lishini xohlardim. Lekin jurnalistlarni deb ba'zi amaldorlarning tinchi buzilgan va unday kimsalardan hamma narsani kutish mumkin edi.

Olmazor tumani hokimi Abdurasul Vahobov uni ko'chada tasvirga tushirishni boshlagan Kun.uz muxbirining kamerasini sindirdi. Jurnalistlar ham anoyi emas. Mojaroni tezgina hal qilish mumkin bo'lsa-da, tahririyat hokimni ishdan bo'shatishni talab qilib turib oldi. «Kun.uz»chilar singan kamerasi uchun ham, so'kish eshitgani uchun ham rosmana xafa bo'lishdi. Umuman olganda, hokim mutlaqo nohaq edi, u mansabdor shaxslarga tegishli tartib-qoidalarni qo'pol ravishda buzib, huquqbuzarlik sodir etdi. Agar ishdan bo'shatilganida, hammasi tinchib ketardi.

Lekin kutilmaganda shahar hokimi Vahobovning yonini olib, jurnalistlarni «suhbat»ga chaqirtirib qoldi. Ularning kim ekanini, joyi qayerdaligini «erkakchasiga tushuntirib qo'ydi». Shunda internetga audioyozuv chiqib ketdi. Unda ovozi Jahongir Artixodjayevga o'xshagan odam jurnalistlarni haqoratlab, yo'q qilib yuborishga tahdid qilgandi. Audio birpasda hamma yoqqa tarqalib, ancha istehzoli va masxaraomuz gap-so'zlarning mavzusiga aylandi, dazmol yoqsangiz ham o'sha «mem» chiqib keladigan bo'ldi.

Biz AOKAdagilar uch kun davomida bu mojaroni hal qilishga urindik. Tahririyat uzr so'ralishini talab qilar,

hokim esa aniq bir shaxsga tahdid qilmaganini, gaplari shunchaki faraz qilib aytilganini ta'kidlar edi. Xullas, har doimgidek 90-yillarga xos muomalasini qilib turaverdi.

Vaziyat keskinlashdi, uzrlar qabul qilinmaydigan chegaraga borib qoldi. Mamlakat tashqarisiga ham gap tarqala boshladi. Elchilar-u xorijiy nashrlar biz tarafga qarab, bu yog'i nima bo'larkin, deb diqqat bilan kuzatishga kirishdi. Biz-ku hokimni taniymiz, gaplari qanchalik jiddiy, tahdidlari rostmi yoki shunchaki po'pisami — bilamiz. Lekin jahon hamjamiyati: «O'zbekiston poytaxtining meri jurnalistlarga haqiqatda jismoniy ziyon yetkazishi mumkin ekan» — degan fikrga bordi. Hokimning siymosi qo'rqinchli tus ola boshladi. Vaziyat jiddiylashdi.

Bu voqea reytingimiz haqida avji muzokaralar olib borilayotgan, mamlakatimizda so'z erkinligi tantana qilganiga, hech kim jurnalistlarga zulm yetkazmayotganiga chet davlatlarni ishontiramiz, deb bor kuchimiz bilan harakat qilayotgan paytimiz bo'lib o'tdi. Hokim juda bemahal o'zidan «Brigada» yasab oldi-da!

Shaxsan men tahdidlar shunchaki Jahongir Obidovichning gaplashish uslubi ekaniga 99,9% ishonaman. Odamlaridan biri ishdan ketganiga jahli chiqqan, xolos. Jurnalistlar uning hiqildog'iga kelgan edi. «Shessekundda» hech kimni hezalaklar bilan bitta taksiga o'tqizmasa ham, o'zini tutolmay, og'zidan ortiqcha gaplar chiqib ketgani shunga.

Lekin baribir, ko'nglimda ozgina bo'lsa ham ishonchsizlik uchquni tutab yotdi. Men doim jurnalistlardan xavotirda edim. Mafiya oshkora aytilgan so'z yoki reportaj uchun odamni qanday qilib yo'q qilib yuborishi mumkinligini boshimdan o'tkazganman.

Bu hodisa 2006-yili Xorazmda ro'y bergan. Haligacha o'shanda jonimga qasd qilishgan, deb o'ylayman. Keyinroq voqeaning tagiga yetmoqchi ham bo'ldim, lekin nima-niyam isbotlay olardim, deb qo'l siltab qo'ya qolganman.

DSQ matbuot xizmatida ishlardim.

Soliqchilar bilan alkogol qirollari o'rtasida doimiy jang borardi. Soliq qo'mitasi yashirincha aroq ishlab chiqaruvchilarni aniqlab, birin-ketin qamata boshladi. Xorazm Soliq boshqarmasi boshlig'i Odil Bakiyevich Rustamovdan qo'ng'iroq bo'ldi:

— Komil, bir necha tonna aroqni musodara qildik. Kelib, bir reportaj qilmaysizmi?

U paytda biror hodisa efirga chiqib ketsa, tamom, siyosiy masalaga aylanar, endi uni hech kim bosti-bosti qila olmas edi. Men rahbarning oldiga kirdim.

- Botir Rahmatovich, Xorazmga borib kelmoqchiman.
- Nega? Sabab?
- Aroq.

— Aroq? — boshliq hayron bo'lib, menga g'alati qarab qo'ydi.

Keyin nima uchun bormoqchiligimni qayta-qayta surishtirib, istamaygina ruxsat berdi. O'shanda nega bunaqa g'alati qaraganini haligacha tushunmayman.

Yo'lim hech ochilmayotgandek edi. Chipta qolmagan ekan. Tashkiliy masalalarda ham muammo chiqaverdi, safarga tayyorgarlik cho'zilib ketdi. Ijodiy guruh a'zolaridan hech kim Xorazmga borgisi kelmasdi. Asqar degan tasvirchi yigitni zo'rg'a ko'ndirdim, bir amallab samolyotga chipta topdik. Urganchga qo'nganimizda qarasam, sumkamning ichi atirga bo'kib ketibdi. Narsalar orasida turgan shisha idish qanday singaniga aql bovar qilmaydi.

Lavhani bir nechta joyga borib, tasvirga oldik. Oxirgi mo'ljal Hazorasp edi. «Tiko»da ketyapmiz, to'g'ri yo'l, atrofimiz dala, tezlik bir yuz yigirma. Asqar old o'rindiqda, qo'lida kamera, haydovchi — xorazmlik xodimimiz Alisher. Men orqada o'tirib, telefonda SMS yozyapman. Oldinda pritsepiga sement ortilgan traktor ketayotgan ekan. To'satdan o'sha traktor yo'lning qoq o'rtasida shartta orqaga burilsa bo'ladimi! Haydovchi vajohat bilan tormozni bosdi, lekin mashina to'xtashga ulgurmedi. «Tiko» uchib borib, men o'tirgan tarafi bilan traktorga urildi, pachog'i chiqib, xuddi konserva bankasidek bo'lib qoldi.

Og'riqqa chidab bo'lmasdi. Nimadir qilib eshikni ochdim, amallab mashinadan sudralib chiqdim. Yaxshiyam viloyat soliqchilari orqamizdan kelishayotgan ekan. Hech qancha o'tmay, «Neksiya»da yetib kelishdi. Qarasha, asfaltda chilparchin bo'lib yotibman, hamma yog'im ko'karib ketgan, yuzim yorilgan, og'riqdan butun dalani boshimga ko'tarib dod solyapman. Haydovchi bilan tasvирichining ahvoli nisbatan yaxshiroq bo'lsa-da, ular ham shokka tushib qolishgandi. Asqarni zarbadan kamera to'sib qolibdi, Alisherning ko'krak qafasini rul ezib qo'yibdi. Xudoga shukr, uncha jiddiy jarohat olishmabdi. Meni bir balo qilib ko'tarib, mashinaga tiqib, Hazoraspdagi eng yaqin kasalxonaga olib borishdi.

Kasalxona deganimiz omborga o'xshash joy, palatada to'r-sim karavotlar, reanimatsiya xonasining shiftida bittagina chiroq osilib turibdi. Doktor kelganda dodlayverib, holdan toyib qolgandim. Keyin bilsam, Qadam aka degan ochiqqina, istarasi issiq bu kishi viloyatning bosh travmatologi ekan.

— Son suyaging sinibdi, uka. Oyog'ingni osib qo'yamiz, uch kun yotasan, keyin uyingga javob beramiz.

Ukol qilishdi, og'riq bosildi. Bir mahal doktor ko'k izolenta bilan o'rab tashlangan oddiy qurilish drelini ko'tarib kirdi. Nima qilarkin, deb qarab yotibman. Ukoldan keyin oyog'im hech nimani sezmay qolgandi. Bir vaqt doktor drelni yoqib, oyog'imni tesha boshlasa deng! Keyin te-

shikdan arqon o'tkazib, qayoqqadir chiqib ketdi. Saldan keyin ko'chadan kattaroq tosh topib kelib, ro'molga o'radi-da shiftga ildi. O'sha tosh yordamida oyog'imni osiltirib qo'ydi. Bunaqasini dahshat kinolardayam ko'rmagansiz.

Shu qo'rqinchli «kino» tufayli suyagim ertasiga joyiga tushdi. Ammo doktor yana drelini ko'tarib kirdi. Qo'rquvdan ko'zlarim ola-kula bo'lib ketganini ko'rib, shart ikkita ukol urdi. U yog'ini eslolmayman. Urganch markaziy kasalxonasida hushimga keldim. Hamma yog'im qon, yarmi gipslab tashlangan badanimdan tarvaqaylab simlar chiqib yotibdi.

Jiqqa ho'lman, muzlab qolganman, doktorlar gipsni fen bilan quritishyapti. Ko'nglim aynib, o'zimni juda yomon his qilganim esimda. Xullas, to'rt kun reanimatsiyada yotdim. Ammo uydagilarga bildirmadim, sal ushlanib qolyapman, deb SMS yozib turdim. Telefonimda Sherali Jo'rayevning «Birinchi muhabbatim» qo'shig'i bor edi. O'shani qayta-qayta eshitib, yig'lab yotaverdim.

Keyin doktorlar Toshkentga meni qanday jo'natishni maslahat qilishdi. Mashinada yurishning umuman iloji yo'q, shuning uchun samolyotga chiqaradigan bo'lishdi. Samolyot ham kichkina ekan, zambil o'rtadagi yo'lakka tiqilib qoldi. Yonboshlatib, zo'rg'a olib kirishdi meni, uzunasiga uchta o'rindiqqa yotqizib, o'zlari tushib ketishdi: — Oq yo'l, og'ayni! Hech bo'lmasa yonimga kimnidir qo'shib yuborishmabdiyam.

Samolyot qo'ngach, hamma chiqib ketdi. Men esa yotgan joyimda: «Hoy, odamlar! Yordam bering! Meni bu yerdan opchiqinglar!» — deb baqirib yotibman. Na o'tira olaman, na tura olaman.

Bir mahal ichkariga soldatlar kirdi. Meni ko'tarib, tashqariga olib chiqishdi, trapdan tushirib, tez yordam mashinasiga solib yuborishdi. Xuddi kontrabanda tashiladigan mashinadek tuyuldi menga. Shunaqa qilib, kontrabanda va benzin solingan kanistrlar hamrohligida aeroportdan chiqib oldim. Tashqarida MDS mashinasi bilan soliqchi do'stlarim kutib olishdi.

Mahallaga yaqinlashganimizda «Tez yordam» sirenasini o'chirib qo'yishlarini so'radim, uyimdagilar qo'rqib ketmasin, dedim. Yaxshiyam onam o'sha kuni navbatchi ekanlar. Otamga qo'ng'iroq qildim:

— Ada, faqat vahima qilmang, oyog'im sinib qoldi. Menga ozgina yordamingiz kerak bo'lyapti.

Otam meni gipslab tashlangan, hamma yog'im momataloq bo'lib, shishib ketgan ahvolda ko'rganlarida yuzlari qanaqa o'zgarib ketgani hozirgacha ko'z oldimda.

— Ada, qo'rqmang, yaxshiman. Xavotir olmang!

Oyim ertalab navbatchilikdan kelib, meni ko'rganlarida qay ahvolga tushganlarini gapirmay qo'ya qolay...

Xorazmdan javob keldi. Go'yoki voqea yuzasidan tergov o'tkazilibdi-yu bu baxtsiz hodisaligi aniqlanganmish. Traktor dalaga burilmoqchi bo'lgan ekan. Sement ortilgan traktorga dalada nima bor? Nima uchun yo'lning qoq o'rtasida birdan burilib yuborgan? Yo'lda bizdan boshqa hech kim yo'q edi, nahotki ko'rmagan bo'lsa? Kasalxonada yotganimda: «Bizni o'sha reportaj uchun yo'q qilmoqchi bo'lishdi, endi kelib, birato'la o'ldirib ketishadi» — degan fikr har kuni miyamda aylanardi.

Olti oy yotdim. Suyaklarim ham, yaralarim ham bitib ketdi. Xorazmlik travmatologlar respublikada birinchilardan ekanini, Qadam og'a esa travmatologiya bo'yicha eng kuchli mutaxassisligini keyin bildim. Mana, oradan 14 yil o'tdi, hech nima bezovta qilmaydi, doktorning qo'rqinchli dreolidan hech qanday asorat qolmagan, shukr.

Aytganday, o'shanda birinchi marta katta pul ishlagan edim.



2005-yil 28-yanvarda Karimov yangitdan tashkil etilgan ikki palatali Parlament — Qonunchilik palatasi va Senatning birinchi qo'shma majlisida so'zga chiqdi. Prezident nutqining mohiyatini soliq to'lovchilarga tushuntirib beradigan kitob tayyorlash kerak, deyildi. Yonimga kompyuter qo'yib berishdi, men kitobni yozib tugatdim.

Kitob Karimovga ma'qul kelibdi, hamma sotib olsin, deb buyuribdi. Barcha byudjet tashkilotlari shu kitobdan olishdi.

Kitob muallifi — Komil Allamjonov. Nashr sotilganda mualliflik gonorarini uyimga paketlarda, qoplarda tashlab ketishardi. Pul oqib kela boshladi. Paketlar yirtilib, pullar sochilib yotardi. Onamni vahima bosardi:



Mamlakatimiz mustaqilligining 16 yilligiga atab nashr etilgan «O'zbekiston davlat soliq tizimi islohotlar va rivojlanish yo'lida» kitob-albomi.

— Bolam, sen nima ishlar qilyapsan o‘zi? Qayerdan kelyapti bu pul? Shuncha pulni nima qilaman, qayoqqa qo‘yaman? Nima balo boshlading?

— Pul topyapman, oyi!





PUL

Bolaligimdan orzum milliarder bo'lish edi. Buni hozir ham orzu qilaman.

Lekin yoshim ulg'ayganda pulning hayotimdagi o'rnini aniq belgilab oldim: mening maqsadim hisob raqamimdagi «0»larni ko'paytirib, topganimni darvozasiga tilla suvi yuritilgan uyga sarflash emas. Pulning ajoyib xususiyati bor ekan — u g'oyalarni ro'yobga chiqara oladi. Pul bo'lsa, hamma ishlar tezroq bitadi, unumliroq bo'ladi.

Qizig'i, boyib ketsang, kimlarningdir tinchi buzilar ekan. Hammaga baravar, bir xilda yoqadigan boyvachchani bilmayman. Nima qilsang ham, o'zingni qanday tutsang ham, albatta seni yoqtirmaydiganlar, ko'rolmaydiganlar topilishi aniq. Shuning uchun boyib ketishdan oldin nima muhimroq ekanini o'zing uchun hal qilib olishing kerak — umr bo'yi o'rtahol bo'lib, dushman orttirmasdan

kun kechirishmi yoki umuman aqlga sig'maydigan, ba'zan tushunib bo'lmaydigan nafrat, adovatga chidab, ko'nikib yashashmi? Qaysi yo'lni tanlasang ko'ngling xotirjam bo'ladi? Keyin afsuslanib, «e bor-e» deb hammasiga qo'l siltab ketmasliging uchun tanlovni oldindan belgilab olishing shart. Hamma narsaning to'lovi bor.

2020-yilning oktabr oyida «Open Democracy»da taniqli jamoat arbobi, yozuvchi va jurnalist Kristian Lassletning «O'zbek bahori» degan maqolasi chiqdi. Kirish qismida «Ushbu maqola mamlakatning bosh «liberalizatori» Allamjonovning shubhali o'tmishiga bag'ishlanadi» ma'nosidagi balandparvoz da'vo keltirilgan, ammo davomida britancha ehtiyotkorlik bilan «lekin isbotimiz yo'q», — deb qistirib qo'yilgandi.

Maqola ochiq manbalarni titkilab o'tirmaydigan, ma'lumot qidirib o'zini ovora qilmaydigan keng omma uchun qiziqarli edi. Uning uslubi surishtiruv hisobotiga o'xshardi va ko'pchilik buni yashirin dalillarning fosh etilishi, deb qabul qildi. Lekin bu fikr xato. Yozilgan hamma gaplar internetda bor, sir tutilmaydi, berkitilmaydi, istagan odam qidirib topishi mumkin. Mening hamma yirik loyihalarimni bitta maqolaga joylagani uchun professordan minnatdorman, hatto. Faqat bir narsa — ishlab topgan pulimga bo'lgan munosabati menga yoqmadi. «Ochiq Demokratiya»ga juda osonlik bilan, tanish-bilishchilik qilib, kimgadir bosim o'tkazib pul topgan bo'lib ko'rinibman.

Tabiiyki, «Soliq Info» bo'yicha asosiy e'tiroz uning majburiy obunasi edi. Maqola muallifi tadbirkorlar «Soliq inspeksiyasi BEM³⁸ va «Soliq Info» gazetasini bizga majburan oldiryapti», deb shikoyat qilgan forumlarni erinmay o'qib chiqibdi. Lasslet o'zining Twitterida majburlash mexanizmlari haqida gapirib bera oladigan kamida ikki guvohi borligini ham ovoza qilibdi.

Men esa obuna bo'lishdan bosh tortgan odamlarni ko'rgan yuzlab guvohlarni bilaman. Inspektor ularni majbur qilgan bo'lsa, DSQga shikoyat qilamiz, deyishgan. Shunchaki, obuna bo'lishmagan, hech nimani sotib ham olishmagan.

Ish qanday yo'lga qo'yilganini tushuntiray. DSQning doimiy va eng ustuvor vazifalaridan biri korxonalar hisobchilarining huquqiy jihatdan va buxgalteriya sohasidagi savodxonligi bo'lib kelgan. U paytda soliq va buxgalteriya sohasida qonunlar tez-tez o'zgarib turar, soliq islohotlari avjiga chiqqan edi. Hisob-kitoblar va stavkalar har yili o'zgarib turardi. Buxgalterlar o'zgarishlardan o'z vaqtida xabardor bo'lishi o'ta muhim edi, chunki ularni bilmaslik qonun buzilishiga olib kelar, oqibatda jinoiy ish ochilishi mumkin edi. Moliyaviy zararlarni gapirmayapman hali. Hammasini u paytda internet orqali tushuntirib bo'lmas, resurslar yetarli emas, televizorda o'rgatishning ham iloji yo'q edi. Albatta, buxgalterlar bilan ishlash inspektorlarning zimmasida edi. Shu jumladan, ularning vazifasiga «Soliq info» (DSQning rasmiy nashri)

va BEMning targ'iboti kirardi. Avval «Soliq va bojxona xabarlarini» bilan shug'ullanishgan bo'lsa, keyin «Soliq info»ga o'tildi. Yuqoridan targ'ibot ishlarini olib borish bo'yicha topshiriq berilar, biroq ayni paytda, «Obunaga majbur qilishga va tadbirkorlar huquqlarini buzishga yo'l qo'ymaslik» haqida alohida ta'kidlanardi. Kamiga har safar obuna davrida DSQ yozma ogohlantirish yuborardi. Bu hujjatlar haligacha turibdi, istalgan vaqt taqdim qilish mumkin.

Butun respublika bo'yicha o'n to'rt ming inspektor ishlasa, ularning hammasi ham tadbirkorlarga gazetaning foydali tomonlarini tushuntirib bera olmas, muammo shunda edi. Kimlardir majburiy bosim bilan ish osonroq bitadi, deb hisoblardi. Bunday holatlar aniqlansa, DSQ xodimlarini jazoga tortardi. Nima bo'lganda ham, o'zim o'n to'rt ming holatning har birini tabiiyki, nazorat qila olmasdim.

Lekin soliqchilar obunadan bosh tortganlarni jazolagani, ularga muammo tug'dirgani haqida Lasslet birorta tasdiqlangan dalil keltirolmaydi. Chunki bunday holatlarining o'zi bo'lmagan! Har bir tadbirkor bosim o'tkazgan inspektorni sudga berish huquqiga ega edi. «Ishlagani qo'yishmasdi» degan gap-so'zlar internetdagi quruq safsata, xolos.

Buxgalteriyasini to'g'ri yuritganlar soliqchilardan haqiqat va obunadan bema'lol bosh torta olardi. O'zining

aybini bilib, shunga soliq inspeksiyasi bilan kelisholmay qolishdan choʻchiganlargina istar-istamas obunaga koʻnardi. Hujjatlarida ishkali borlar inspektorlar bilan til biriktirar yoki qogʻozlarini tartibga solishda yordam soʻrar edi. Evaziga «Soliq info»ga obuna boʻlishardi. Bor-yoʻq sir shu, xolos.

Tadbirkorlar inspektor bilan ortiqcha toʻqnashuvdan, tekshiruvlardan qoʻrqqan, degan fikrga kelsak, soliqchilar xohlagan taqdirda ham oʻzicha tekshiruv oʻtkaza olmas, buning iloji yoʻq edi. Oʻsha yillari faqat ikki xil tekshiruv boʻlardi — qisqa muddatli va rejali. Rejali tekshiruv toʻrt yilda bir marta oʻtkaziladi, uning sanasi bir yil oldin belgilanib, hukumat tomonidan tasdiqlanadi. Qisqa muddatli tekshiruvlar faqat savdo shoxobchalarida, kassa apparatidan foydalanilmagan, bankka naqd pul topshirilmagan va shundan kelib chiqqan holda, daromad soligʻi toʻlanmagan holatlar aniqlansagina oʻtkazilardi.

Gazetaning reytingi haqiqatda baland edi. Koʻpchilik soliqchilardan qoʻrqqani uchun emas, balki eksklyuziv maʼlumotlar olib turish uchun obuna boʻlgani aniq.

Har bir gazetaga shartnoma asosida obuna qilinadi, shartnomaning asosiy qoidasi esa tomonlarning ixtiyoriy, koʻngilli ravishda kelishuvidir. Shartnomaga qoʻl qoʻydingmi, demak rozisan. Pulini toʻladingmi, demak rozisan. Mahsulotni oldingmi, demak rozisan. Shartnomani

bekor qilmadingmi, demak e'tirozing yo'q. Shikoyat qilmadingmi, demak senga hammasi ma'qul, sudga murojaat qilmadingmi, demak huquqing poymol etilgan deb hisoblamaysan.

Birovning yuragidagi qo'rquvni esa men boshqara olmayman. To'g'ri, odamlar umuman har qanday davlat vakilidan, katta-yu kichigidan hayiqishardi, ularning qo'polligini ham, haqorat-u so'kishini ham indamay ko'tarishardi. Mamlakatdagi umumiy ahvol shunday edi. O'zim ham shunday yoppasiga qo'rquv muhitida yashardim. Shu sababli qonunni hecham buzmaslikka harakat qilardim, hatto mayda-chuyda ishlarda ham.

Tadbirkorlarimizning aksariyati o'sha vaqtda ham, hozir ham iloji boricha qonunni aylanib o'tishi hech kimga sir emas. Oxirgi to'rt yilda ularning o'zi buni ochiq-oydin gapirib, DSQdan samarali qarorlarni talab qilishyapti. Hukumatning vazifalaridan biri — yashirincha faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni bu holatdan olib chiqish. Lekin ortiqcha tekshiruvdan qo'rqib gazetaga obuna bo'lish — g'irt nodonlik, foydasi ham yo'q. Nahotki gazetaga obuna kimnidir soliqchilarning tekshiruvidan ozod qilgan, deb o'ylash mumkin bo'lsa?! Lassletning maqolasidagi eng zaif nuqtalardan biri — mana shu.

Uning o'sha ikki guvohiga: «Faqat obuna bo'lish emas, gazetani o'qish ham kerak edi» — degim keladi.

Oson topilgan pul nima o'zi? Masalan, qo'ygan bitta imzong uchun bir necha yuz dollar pora olsang, mana shuni oson pul topish desa bo'ladi. Har hafta 32 sahifalik, ikki tilda chiqadigan gazetani tahrir qilish — juda og'ir mehnat. Mamlakatda haydovchilik madaniyatini oshirishga, yo'llardagi falokatlarni kamaytirishga urinish (buning uchun davlatdan faqat ushbu faoliyat turi bilan shug'ullanishga ruxsat olibgina) va ter to'kib, pul topish davlat bilan xususiy sheriklikdir.

Lasslet o'z maqolasida nima uchun hukumat aynan menga, aynan Allamjonovga «yashirincha imtiyozlar berib, qo'llayapti», degan savolni bir necha marta o'rtaga tashlagan.

Nega aynan «Avtotest»? Chunki Allamjonovdan boshqa hech kim bunday loyiha taqdim qilmagan. Agar loyihalar ko'proq bo'lsa, tender o'tkazilib, orasidan eng yaxshisi tanlanardi, lekin tanlovga da'vogarlarning o'zi yo'q. Chunki hech kim hukumatga «butun respublika bo'ylab innovatsion avtomaktablar ochmoqchiman, bir necha million dollar pul tikaman» deb, chopqillab kelgani yo'q, loyihalar taklif qilmadi, dasturlar tayyorlab, biznes rejalar ko'tarib kelmadi. Kelajagi mavhum loyihaga tavakkal qilib pul tikishga hech kimning yuragi dov bermadi.

Nimanidir taklif qilish uchun ozmi-ko'pmi moddiy mablag' va intellektual mulk sarflash kerak-da. Afsuski, bizda kamdan-kam odam bu tarzda biznes qiladi. Olib-

sotarlik orqasidan pul topib, tinchgina uxlagan yaxshi. Bu yoʻnalishda mualliflariga rosmana katta pul olib keladigan gʻoyalar endi-endi paydo boʻlyapti. Lekin poydevorini qurish uchun ancha vaqt va sabr-matонат kerak. Sanoqli tadbirkorlargina uddalaydigan ish bu. Intellektual salohiyatimizni oshirishga imkon berilsin, birinchilardan boʻlib, jon deb teng sharoitda tenderlarda kurashaman.

2009-yil

BEM masalasi-ku, rosmana zamonaga yarasha boʻldi. 2005-yil iyunda Prezidentning tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish toʻgʻrisida qarori chiqdi. Tez-tez uchrab turadigan vaziyat — topshiriq berilgan-u, ijrosidan darak yoʻq. Sababi, qanday va kimning hisobidan moliyalashtirilishi belgilanmagan. Odatda bunaqa paytda kaltak Soliq qoʻmitasi boshida sinardi. Shu tarzda, 2008-yilda buxgalterlar Elektron hujjat aylanishi toʻgʻrisidagi qonunga asosan soliq hujjatlarini qogʻoz shaklida emas, elektron variantda topshirishlari koʻrsatilgan DSQ qarori chiqdi.

Respublikada uch yuz mingdan ortiq tashkilot boʻlib, hammasini avtomatlashgan hisob tizimiga oʻtkazish kerak edi, aks holda hisobot topshirolmay qolishardi. Ammo buni qanday qilib amalga oshirish kerak, degan savolga u vaqtda javob yoʻq edi.

Biz analitiklar, ekspert va dasturchilarni jalb qilib, milliy innovatsion dasturiy mahsulotni ishlab chiq-

dik. Loyihaning aqliy markazi Odil Turdiqulov³⁹ va uning hamkorlari, direktori esa Nodira Vohidova⁴⁰ edi. BEM ana shu insonlarning mehnati evaziga dunyoga keldi.

Boshida ular buxgalterlik hisob-kitobiga oid dastur loyihasini Savdo-sanoat palatasi bilan hamkorlikda, Alisher Erkinovich Shayxov rahbarligi ostida ishlay boshlashgan.

Yigitlarning aytishicha, SSP ulardan qarz bo'lib qolgan. Shunda men ularni DSQ bilan ishlashga og'irib oldim. Biz dasturni takomillashtirib, BEM deb atadik.

Takomillashtirilgan mahsulot konseptining muallifi sifatida o'zimga tegishli haqimni oldim. BEM — buxgalterlar uchun shunchaki navbatdagi dastur emas edi. Mamlakatda, ta'kidlab aytaman, milliy dasturiy mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan burilish davri bo'ldi. Respublikada ommaviy buxgalteriya hisob-kitobini avtomatlashtirish va soliq hisobotini elektron shaklda topshirish jarayoni shundan boshlandi.

Men doim katta, rosmi katta pul ishlab topishni xohlardim. Lekin oldi-sotdi biznesiga hech qachon qiziqmaganman. Qandaydir keng qamrovli, intellektual, murakkab loyihalar qilgim kelardi. Siyosiy yoki iqtisodiy vaziyatdan qat'i nazar, butun umr daromad keltirib turadigan loyiha bo'lishi kerak. Odatda bu ilmiy ishlanma-

lar bilan bog'liq bo'ladi. Tamoyillar, mexanika, g'oyalar... BEM juda ko'p o'zgaruvchilar hisobga olingan funktsiyalardan iborat loyiha bo'ldi. Avtotest esa 274 soatlik animatsion darslar, ikki mingga yaqin topshiriq va vaziyatlar, yuzdan ortiq test savollaridan iborat. Testlarda o'ntadan savol-javob va yigirmatadan variant bor. Bularning barchasi — programmist mehnati mahsuli.

Ixtisoslashgan gazeta ham xuddi shunday. Skanvord va krossvordlar yoki shou-biznes yangiliklari bilan to'ldirilgan ko'ngil ochar gazeta ham, shaxsiy o'y-fikrlar bitilgan maqola va esselar ham emas bu. Unday tahririyatga oddiy jurnalistlarni jalb qilish befoyda. Faqat mutaxassislar, soliq sohasini ipidan ignasigacha biladigan, katta maosh oladigan maslahatchilar ishlay oladi. Bu buxgalteriya hisobini yuritishni o'rgatadigan darslikning o'zi edi. Xudo saqlasin, birorta xato o'tib ketsa, yoppasiga qonunbuzilishlar, moliyaviy zararlar yuz berardi.

Men janob Lassletni hurmat qilardim, uni vijdonli jurnalist deb bilar edim. Lekin menga bitta o'y tinchlik bermasdi — o'n yil oldingi ishlarni ko'tarish nima uchun kerak bo'ldi ekan unga? Buning ustiga, Lasslet sanab o'tgan kompaniyalar allaqachon yopilib ketgan bo'lsa! Mening «biznes-imperiyam»ni o'rganishga kirishganlar hech qanday mafiya boshlig'i emasligimni, men ham boshqalardek tez-tez sinib turishimni, ba'zi loyihalarim o'xshamay, yopilib ketishini darrov tushunishadi. Mening qo'limda real hokimiyat yo'q. Oldin ham bo'lmagan. Bugungi sharo-

itdan kelib chiqsak, bundan keyin ham bo'lmaydi, chunki dunyo o'zgardi. Hozir hokimiyatning o'zi, kursi yoki mansab emas, insonning sha'ni va obro'-e'tibori ahamiyatliroq.

Allamjonovning ustidan bemalol mag'zava ag'darsa bo'ladi. Men har qanday jurnalist uchun lahm go'shtman, men haqimdagi hamma ma'lumotlar internetda ochiq turibdi. Lasslet o'zining maqolasida faoliyatimni to'liq va ochiq-oshkora audit qilibdi, qonunchilik buzilgan holatlarni topmabdi, quruq taxmin va gumonlardan nariga o'tmabdi. Endi Lassletdan keyin kimdir nimadir yozsa ham, hammasi undan ko'chirgan bo'ladi, yangilik topolmaydi. Shuning uchun qaysidir ma'noda undan minnatdorman.

Eng qizig'i, janob Lasslet Inson huquqlari bo'yicha o'zbek-german forumi rahbari Umida Niyozova va «Ozodlik Radiosi»ga ishlaydigan aka-uka Bobojonovlar bilan bitta bo'lib olibdi. Negadir menga Umida Niyozova Sorosdan huquqni muhofaza qilish sohasida grantlar undirayotgandek, aka-ukalar bilan Lasslet esa o'sha grantlardan olgan pullarini oqlashayotgandek tuyulyapti. Ularga doim nishon kerak, iloji boricha mo'ljalga olish oson bo'lgan, ommaviy nishon kerak. Chunki shov-shuv, trafik va gonorar shuning orqasidan keladi.

«Ozodlik»ni-ku tushunsa bo'ladi. Ochiq bayonotimdan va AQSHning Global media bo'yicha agentligiga va YXHTga (Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti) bu radioning o'zbek xizmati yo'l qo'ygan qoi-

dabuzarliklarni oltmish betlik ariza qilib yozib topshirganimdan keyin ularning faoliyati to'liq tekshiruvdan o'tkazildi. Endi mendan o'ch olishyapti.

Lekin Lassletga bundan nima foyda ekan, mana shu savol men uchun jumboqligicha qoldi. Internetda ochiq turgan ma'lumotlarni olib, buni go'yoki korrupsiyaga qarshi surishtiruvdek qilib ko'rsatish faxrlanishga arziydigan ish emas. Korrupsiyaga qarshi kurash ham, kurashchilar ham bunaqa bo'lmaydi.

«Allamjonov xalqaro korrupsion mojaro markazida». Tavba... O'zicha komissar Kattanini⁴¹ yoqib olganini.

Men haqidagi «olamshumul» maqola uchun «Open Democracy»dan xafayam bo'lganim yo'q. «Uzmetronom» bilan «Ozodlik» tufayli tanqidiy maqolalarga allaqachon immunitetim paydo bo'lgan edi. Shuning uchun El Tuz menga atab to'qigan ashuladan hatto kayfiyatim ko'tarildi.

El Tuz, ya'ni Ozodlikka ishlaydigan aka-uka Bobojonovlar internetga Allamjonov qay yo'llar bilan pul topayotganini haqidagi, «Ay jan-alamjan» naqoratli rolikni tarqatib yuborishdi. Ularning maqsadi ustimdan kulish, haqorat qilib, kamsitish edi.

Animatsiya va musiqaga ketgan mehnatga prodyuser sifatida tan berdim. To'g'ri, qo'shiq umuman nishonga teg-

magan, foydasiz bittagina kupletdan iborat, lekin naqorati zo'r chiqibdi. Biz ashulaning ohangi va animatsiyasini boricha qoldirib, matnini to'ldiradigan bo'ldik. So'zlari ni o'zim yozdim. Professional aranjirovka qildirdik. Mualliflar xohlagan g'oyani chiqardik: Ketdik Allamjonovning oldiga, u bizga soqqa qilishni o'rgatadi. Hammasi to'g'ri. Chunki pul topish jinoyat emas. Boy bo'lish jinoyat emas. Jinoyat deb qotillik, o'g'rilik, talonchilik, poraxo'rlik va soliqdan bo'yin tovlashga aytiladi. Men esa umrimda bunday ishlar qilmaganman, bunga hech qanday «Open Democracy» isbot keltira olmaydi.

Atigi ikki kunda rolik bir yarim million marta ko'rilibdi. El Tuzning ketmoni hali biror marta bunaqa uchmagan. Men uchun esa bunday omadli loyihalar odatiy hol. Shu ketishda ularning ijodi orqasidan yaxshigina pul ishlayman, chunki Yutub millionlab odam tomosha qilgan video uchun katta pul to'laydi. Unga reklama integratsiyalarini ham qo'shing. Mana shuni soqqa qilish deyiladi, ukalar! Imkoniyatni ko'ra bilib, undan foydalana olish bu.

Davlat xizmatchisi sifatida, hech qanday biznes bilan shug'ullanmay, faqat gonorar yoki patent ko'rinishida pul ishlashim mumkin edi. Men bu imkoniyatdan 2012-yilgacha foydalanib keldim. Karimov nutqining sharhidan iborat kitobim uchun 2006-yilning «bozor kursi» bo'yicha hisoblasak, hamma soliqlarni ayirib tashlaganda, salkam yuz ming dollar qalam haqi ishlaganman. Bu pulga mashina sotib olganman, keyin shahar markazida uy ko-

tara boshlaganmiz. To'g'ri, o'sha uyning qurilishida meni bir necha marta chuv tushirishgan. Yana alam qiladigani, begona odamlar emas, o'zimmikilar. Lekin bu ham hayot maktabimda bir saboq bo'ldi.

«Soliq info»gacha ikki marta gazeta chiqarishga uringanman, ikkalasida ham o'xshamagan. Eslataman, davlat xizmatchisi shaxsiy biznesiga ega bo'lish mumkin emas edi, shuning uchun ko'p ishbilarmon amaldorlar o'z biznesini hamkorlari yoki qarindoshlarining nomiga ochar edi. Agar o'zim mana shu kitobning o'quvchisi bo'lsam u hozir «lekin men hech qachon bunday yo'l tutmaganman» degan gapga duch kelsam, shartta yopib, otib yuborgan bo'lardim.

Amaldorlarga biznes qilishni taqiqlash juda to'g'ri, aks holda shu zahoti manfaatlar ziddiyati kelib chiqadi. Biror sohada vakolatga ega bo'lgan odam shaxsiy biznesini ma'muriy darajada qo'llab-quvvatlashdan o'zini tiya olmaydi baribir. Bir tomondan, agar amaldor biznesmen bo'lsa, poraga muhtoj bo'lmaydi, lekin ikkinchi tomondan, davlat buyurtmalarini egallab olib, o'ziga tegishli sohada imtiyozlar chiqartirib, pul qilishga kirishadi. Men bilan bog'liq voqealarda vaziyatni to'liq o'rganmay turib, aynan mana shu masalaga ortiqcha urg'u berib yuborishadi.

Aslida voqea bunday bo'lgan. Katta idoralarning matbuot xizmatlarida ishlaydigan yigirma yashar yigit o'z biznesini ma'muriy resurslar bilan hech qanaqasiga himoya qila ol-

masdi. Men hamkorlarimga o'z g'oyalarimni sotardim, ular biznesga egalik qilishar edi. Biz erkakchasiga lafz qilib kelishib olardik. To'g'ri, bunday kelishuvga hech qanday kafolat yo'q, lekin boshqa yo'lim ham yo'q edi.

2004-yilda xayolimga bir biznes-g'oya keldi. Bu g'oya o'zimga dohiyona bo'lib ko'rindi. Xullas, og'aynilarim bilan kichkina rieltorlik kompaniyasini ochdik. Men ko'chmas mulk bozoriga ta'sir ko'rsatishga qaror qildim. Buning uchun bizga aktual narxlar va takliflar chop qilinadigan maxsus gazeta kerak bo'ldi. Lekin biz bu gazetani bepul tarqatmoqchi edik. Tadbirkorlar bu gazetaga jon deb reklama bersa kerak deb o'yladim, chunki adadi 30 000 bo'lgan gazetaning keng tarqalishi kafolatlangan edi. Reklamadan tushgan puldan mehnatimiz, gazetani chop qilish va tarqatish xarajatlari ayirib tashlansa, sof daromad kelib chiqardi.

Gazetaning birinchi soni yirik reklama beruvchining puliga nashr etildi. Unda ko'chmas mulk bozorida narxlar, reytinglar va eksklyuziv ma'lumotlar bosilgan edi. Chiroyli model qizlarni jalb qilib, gazetani ko'chalarda, metroda, savdo markazlarida tarqata boshladik. Biz hamma narsani hisobga oldik, deb o'ylagandik. Lekin odamlar tekinga gazeta tarqatib yurganlarni ko'rib, ularni ekstremist deb o'ylab, nari qochishini (o'sha paytlari hizbut-tahrirga o'xshagan taqiqlangan tashkilotlarning varaqalarini tarqatadiganlar chiqib qolardi), mabodo gazetani qo'liga olsa ham, darrov tashlab yuborishini xayolimizga keltirmabmiz. Xullas, gazeta tarqatishni eplolmadik, yana ikkita sonini chiqarib, loyihani to'xtatib qo'ya qoldik.

«Soliq info»dan oldin «Soliq va dunyo» degan gazeta ham chiqarmoqchi bo'lganmiz. Bunisining kuni juda tez va achinarli ahvolda bitdi. Og'zaki, erkakcha kelishuv faqat jiddiy, katta hamkorlar bilan ishonchli bo'lishi mumkinligi isbotini topdi. Gazeta daromad keltira boshlashi bilan hamkorlarim darrov pulni naqdlash, soliqdan qochish yo'llarini o'ylab topishibdi. Keyin daromadni o'zlari o'rtada bo'lishib olishga qaror qilishgan. Men bu vaqtda Xorazmdagi avariya dan keyin gipsda yotgan edim.

Buyam balki yaxshilikka bo'lgandir. Birga ish qilmoqchi bo'lgan odamlaringni diqqat bilan tanlashing kerakligi haqida yaxshigina saboq olganman. Muassislarning ulushi teng bo'lsa ham, har doim hal qiluvchi qarorni qabul qiladigan odam, ya'ni loyiha direktori bo'lishi kerak ekan. Uning javobgarligi ham kattaroq. Boshidanoq kim nima uchun javob berishini belgilab olish shart. Shunda keyinchalik, ish jarayonida kelishmovchiliklar, xafagarchilik bo'lmaydi. Agar sheriklarga ishonch bo'lmasa yoki birovga bo'ysunishni xohlamasang, ishni bir o'zing ochib, qolgan mutaxassislarni yollashing kerak ekan.

Lekin katta ishning tepasida odam yolg'iz o'zi turishi juda qiyin. Do'stlaring ancha orqada qolib ketgani uchun «tenging»ni topib, yangi tanishlar orttirish esa undan ham murakkab. Men atrofimdagilar rivojlangin, g'oyalarni ro'yobga chiqarsin, boyib ketsin deb, doim do'stlarimni o'zim bilan «tortib yurganman». Kimgadir pul ber-

ganman, kimgadir maslahat, kimnidir turtkilab turishga to'g'ri kelgan. Men bilan ishlaydiganlar tashabbus ko'rsatgani yoki yaxshi g'oya bergani uchun har doim mehnat shartnomasida ko'rsatilganidan ko'proq pul topish imkoniga ega. Bunaqa narsalarga hech qachon pul ayamaslik kerak, bo'lmasa bir umr restoranda hamma uchun o'zing to'lab yurishingga to'g'ri keladi.

Atrofingdagilarni boy qilsang, ba'zan seni ham mehmon qilib turishadi.

Sherikchilik bilan qilingan biznesdan ko'pincha odamning hafsalasi pir bo'ladi. Lekin aravani yakka-yolg'iz tortib, ishing o'xshamay qolganda boringni yo'qotish undanam og'ir. Ammo hali yosh bo'lsang, muvaffaqiyatsizliklarni dars o'rnida qabul qilish kerak. O'zim ham haligacha bunaqa vaziyatlardan saboq olaman. Har bitta muvaffaqiyatsizlik odamni toblaydi, tajribasini oshiradi. Hammaning omadi kelyapti-yu, mening nuqul ishim yurishmaydi, deb o'ylaydigan odam biznes bilan shug'ullanmagani yaxshi.

Shu yo'lda eng yaqin do'stlaringdan ham ayrilib ketish mumkin, hamma narsaga tayyor turish kerak ekan. Ba'zan yo'qotishlar mutlaqo senga bog'liq bo'lmaydi, bu borada yagona yo'riqnoma yo'q, har bir «ssenariy» o'ziga xos. Lekin har bir yo'qotishdan keyin yurakda chandiq qolar ekan.

To'qqizinchi sinfdaligimda kallamga to'satdan «ashulachilar zo'r pul topadi» degan fikr kelib qoldi. To'yga chiqib, uch-to'rtta ashula aytilsa, besh yuz, ba'zan ming dollar ishlasa bo'lar ekan. Konsertdan tushadigan daromadni o'ylasa-ku dahshatga tushadi odam. Ajoyib biznes reja tuzdim, o'n to'rt yoshimda men uchun iloji yo'q narsaning o'zi yo'q edi. Ashula aytish uchun iste'dod u yoqda tursin, hech bo'lmasa ozgina musiqiy qobiliyat, ovoz kerak deb o'ylab ham ko'rmabman. Asosiysi — tanilib, gonorar ishlash, debman. Lekin juda unchalik adashmagan ekanman — estradada ko'p narsani mashhurlik va gonorar hal qilarkan.

O'rtoqlarimning hammasi boyvachcha edi, prokuror, amaldorlarning bolalari. Men ularga musiqiy guruh tuzishni taklif qildim. Bir-ikki marta TV-4 kanaliga borib, xit-parad boshlovchiligiga kastingdan o'tib kelganim uchun o'zimni salkam prodyuser his qilib yurgan paytlarim. O'zimcha tayyorlandim, xolavachchamning sviterini olib turdim, skeletning rasmi tushirilgan bandanani peshonamga tang'ib, sochimga gel chaplab, o'zim yozgan ashula matnini olib, televideniyei zabt qilish uchun yo'lga tushdim. Eng zo'ri menman, hammada yaxshi taassurot qoldirdim, deb o'ylandim. Meni chapak chalib qabul qilishlariga ishonchim komil edi. Lekin hech kim orqamdan so'rab kelmadi. Faqat bahonada Aziz Azimov bilan tanishib oldim.

U paytda Aziz MTV mukofotiga oʻxshatib «Navo-98» tanlovini oʻtkazardi va bu loyihaga rejissorlik qilish uchun hozirgi kunda Milliy TVda ishlayotgan Ayub Shahobiddinovni ham taklif qilgandi. Ular koʻzimga shou-biznesning super-professionallari boʻlib koʻringani esimda. Aziz menga pop-guruh uchun kerakli hamma sarf-xarajatlar va undan tushadigan daromadni hisob-kitob qilib berdi. Boshlanishiga «arzimagan» pul — uch ming dollar kerak ekan. Lekin tanilib, mashhur boʻlib ketganimizdan keyin butun respublika boʻylab gastrollarga borib, xit-paradlarda birinchi oʻrinlarni egallab, shu uch mingni bir yil ichida oʻttiz ming dollar qilib chiqarib olarkanmiz.

Men bu gʻoya bilan oʻrtoqlarimning oldiga borib, mana shu pop-guruhga pul tiksak, bizni oldinda porloq kelajak kutayotgani haqida toʻlqinlanib gapirib berdim.

Bobur degan qalin doʻstim boʻlardi. Har kuni tushlikni ham, kechki ovqatni ham oʻrtada boʻlishib yeydigan oʻrtogʻim. Uning oʻzi va ogʻaynilari mendan bir yosh katta edi. Bobur boshqa hech kimda yoʻq uyali telefon tutardi. Doʻstimning puli borligiga ishonchim komil boʻlgani uchun uni «oʻrashga» tushdim.

Bor mahoratimni ishga solib, Boburni shunaqayam ishontiribmanki, u pochchasini — opasining erini «Tiko» mashinasini sotib, pulini unga berishga koʻndiribdi. Men Aziz ikkalasini tanishtirib qoʻydim. Lekin tez orada ular-

ga ortiqchalik qilib qoldim. Shunchalik begona bo'lib qolibmanki, ular guruhni mensiz tuzishdi, allaqanday bachkana, tirnog'i, sochini bo'yab olgan, ovozi beo'xshov yigitlarni yig'ib olishdi. Ichida bittasi bo'lardi, sigaretni ham qiliq qilib, jimjilog'ini tarvaqaylatib chekardi. O'zlaricha nima balo ashula yozishibdi, bir tiyinga qimmat aranjirovka qilishgan, quruq ting'ir-ting'ir.

Meni guruhga qo'shish u yoqda tursin, hatto o'zaro uchrashuvlariga ham chaqirmay qo'yishdi. Bobur «Tiko»ning pulini Aziz Azimovning qo'liga bergan, u esa ertasi-dan telefonini ko'tarmay qo'yan. Tag-tugi bilan yo'qolibdi. Keyin bilsak, o'sha pulga to'y qilib, uylanib olgan ekan.

Kim aybdor? Allamjonov aybdor. Tabiiyki, e'tirozlar mening boshimga yog'ildi.

— Menga qaranglar, meni chetga chiqarib, o'zlaring o'sha Aziz bilan ish qildilaring-ku? Pulni ham qo'liga o'zlaring berdilaring. Men u pulni hatto ko'rganim yo'q! Endi nega menga yopishyapsanlar?

Ularni chuv tushirgan Aziz emas, mening g'oyam emish. To'g'ri-da, kimnidir aybdor qilish kerak-ku! Azimovni hech qanaqasiga ushlab bo'lmadi. O'zi viloyatdan kelgan, ro'yxatdan o'tgan manzili bo'yicha esa yashamas ekan. Xotini Yunusobodda turarkan. Xotini bilan uning dadasi ham do'stlarimga Aziz haqida ancha qiziq gaplarni aytib berishibdi.

Bobur bilan oramizga sovuqchilik tushdi, sekin-sekin uzoqlashib, oxiri yuzko'rmas bo'lib ketdik. U meni hatto to'yiga ham aytmadi. Gaplashib orani ochiq qilib olmoqchi bo'lganimda Boburning javobi qisqa bo'ldi:

— Bilasanmi, Komil, otam seni qamatmoqchi edi, men zo'rg'a to'xtatib qoldim. Lekin «o'sha o'rtog'ing bilan umuman aloqani uzasan», deb talab qo'ydi. Ko'ziga ko'rinib qolsang, tamom bo'ldim deyaver.

Xullas, yana bir dunyo haqorat eshitdim. Uning dadasi prokuror bo'lgani uchun bu gaplar quruq do'q-po'pisa emasligini tushundim. Yomon dilim og'ridi.

O'shanda qachondir shu pulni men o'zim qaytaraman deb ahd qildim.

Shu bilan yo'limiz boshqa-boshqa bo'lib ketdi. Men uning qayerda, qay ahvoldaligini, nimalar bilan band ekanini bilmasdim. Oradan o'n sakkiz yil o'tib, menga «Qalaysan, qayerdasan, bir uchrashaylik» deb yozib qoldi. Uchrashdik. Do'stim hayotda hech nimaga erishmabdi. Kamiga, xotini bilan ajrashibdi, ichkilikka berilib ketibdi. Bor-yo'qligi ham bilinmay yashab yurgan ekan. Ha, yo'l boshida senga qanchalik zo'r sharoit yaratib berishmasin, bu safaring omadli kelishiga kafolat bo'lolmas ekan. Men cho'ntagimdan naqd uch ming dollar chiqarib, Boburning qo'liga berdim.

— To‘qson sakkizinchi yili Aziz Azimovning qilgan ishi esingdami? Sizlarni «uxlatib» ketgani. O‘shanda otang meni firibgar deb, qoziqqa o‘tqazmoqchi bo‘lgandi. Yemagan somsamga pul to‘laganim rosa alam qilgan. O‘sha guruhni birga tuzgan bo‘lsak ham mayli edi. Lekin sizlar meni oraga qo‘shmadilaring ham. Hamma oshni o‘zlaring pishirdilaring. «Kim bo‘pti u?» degansanlar-da, a Bobur? Mana, o‘sha uch mingni qaytaraman deb, o‘zinga so‘z bergan edim. Ma, ol.

U dovdirab qoldi. Indamay pulni oldi, chunki bu o‘sha vaziyatda uning uchun g‘oyibdan kelgan bir mo‘jizadek gap edi. Lekin qaytib u bilan ko‘rishmadim. Nima keragi bor? Har birimiz o‘zimizning yo‘limizdan ketdik. Biz endi butunlay begona odamlarmiz. Mening do‘stlarim — yo‘lni boshidan hozirgacha men bilan birga bosib o‘tayotganlar. Og‘ir kunimda ham yonimda turganlar. Yaxshi kunimda ham yonimda qolganlar. Keyin yana yomon kunlar bo‘ldi, ketidan hammasi yana izga tushdi. Hayotda bunday yaxshi-yomon kunlar hali ko‘p bo‘ladi. Har qanday vaziyatda yonimizda yelkadosh bo‘lib turganlaringina haqiqiy do‘stimiz ekan.

Ota-onam menga hech qachon hech kimga yomonlik qilmagin deb o‘rgatishgan. Yer dumaloq, nimaiki qilsang, o‘zingga albatta qaytadi, deyishgan. Xudoning hisob-kitobi bexato, unda adashish bo‘lmaydi.



Dadam, oyim va men — tinib-tinchimas shumtaka.

Pulni esa ishlatish kerak. Doim shu gapni aytaman: Xudo se-ning pul sarflaganingni ko'rib, «Uning puli tugab qoldi» deb, yana beraveradi. Pulingni ishlatmay bosib o'tirsang, «Puli bor-ku, berib nima qilaman?» deydi. Sarflashdan qo'rqish kerak emas, keyin yana Xudodan so'rashdan ham. Xudo bizni yax-shi ko'radi.

Yana, pul aniq bir g'oya uchun kelishiga ishonish kerak. Boshqa-cha bo'lishi mumkin emas. Oldin pul topay yoki qarz olay, keyin u-bu narsa o'ylab ko'rarman, degan odamning ishi yu-rishmaydi. Oldin kallaga bir fikr kelishi kerak, keyin o'sha fikr

ro'yobga chiqishi uchun hammasi o'z-o'zidan hal bo'lib ketadi. Sababini bilmayman, lekin shunaqa yondashuv biror marta pand bermagan.

Aslida hamma narsaniyam pul bilan o'lchab bo'lmaydi. Ba'zan pulni ayamadan, orqasidan qandaydir foyda ko'raman demasdan ishlatish kerak. Odam o'zini baralla namoyon qilishi kerak bo'lgan vaqtlar keladi. Bu ham katta sarf-xarajat talab qiladi. Agar bu bilan izzat-nafsingni qondiribgina qolmay, yana mamlakatga ham foyda keltirsang, ayni muddao. «Katta Osh» loyihasida xuddi shunday bo'ldi. Bu voqea men yuqorida aytgan gapning eng zo'r isboti: yaxshi bir odamning Orzusi bor edi, uni amalga oshirishga pul ham topildi.





KATTA OSH

2017-yili eng sevimli mualliflik kitoblarimdan biri — «O‘zbekim»ni tugatdim. Bu kitobning g‘oyasi Samarqandga ketishda tug‘ildi. Yigirma yillik haydovchim Sunnat aka doim Sherali Jo‘rayevni eshitadi, mashinasida faqat Sheralining disklari turadi. Shuning uchun yo‘l bo‘yi, bora-borguncha uning qo‘shiqlarini qo‘yib ketdi. «O‘zbekim»ni tinglab, shu so‘zning ma‘nosini butun dunyoga tushuntirgim keldi. Bu iborani to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilib bo‘lmaydi, unda millatning mohiyati, asliyati, fe‘li, orzulari, an‘analari yig‘ilgan. «O‘zbekim» xalqning ruhidir. Katta Osh esa bu iboraga mantiqan va uzviy bog‘liq edi.

Rekord oshini tayyorlash fikri o‘zbekning Jeymi Oliveri⁴² — Bahriddin Chustiydan⁴³ chiqdi. Anchadan beri orzu qilib yurgan ekan. Ajoyib kunlarning birida taklifi ni aytib qoldi. Oddiy biznes doirasidan tashqariga chiqadigan nimaiki bo‘lsa, ertami-kechmi, menga yetib kelaveradi-da.

Bahriddin blogger Xushnudbek⁴⁴ bilan kelib, palovni qanday tayyorlamoqchi bo'lishayotganini aytib berdi.

— Buning uchun nimalar kerak? — so'radim men.

— Pul... Keyin qozon ham kerak!

Pul oldimizda turgan muammolarning eng kichigi ekan. Bundan oldin uch tonnalik palov pishirib, rekordlar kitobiga kirganlar borligini aniqladik. Avvaliga yangi rekord o'rnatish uchun to'rt tonna osh damlamoqchi bo'ldik. G'oyani Otabek Umarov va Bobur Parpiyevga aytdim, uchovimiz loyihani amalga oshirishga kirishdik.

Hamma texnik masalalar, Ginnes va reklama mening zimnamda edi. Bahriddin bilan Xushnudbek masalliq-larning hisob-kitobini olishga, oshpazlarni to'plashga va palovni damlash jarayoniga javob beradigan bo'lishdi. Eng qiyini to'rt tonna osh sig'adigan qozon yasash bo'ldi. Bunaqasini bizgacha hech kim hech qachon qildirmagan ekan. Cho'yan bilan shug'ullanadiganlarning hammasi bu ishdan o'zini tortdi. Shunda meni OTMKga⁴⁵, Aleksandr Farmanovning yoniga yuborishdi. Men unga maqsadimizni tushuntirdim.

OTMK rahbari ham buning iloji yo'qligini aytib, buyurtmadan bosh tortdi. Agar Allamjonov bo'lmaganimda, «Mayli endi, iloji yo'q ekan-da,» — deb jimgina orqamga qaytib ketgan bo'larmidim. Lekin men ikkala oyog'imni bir etikka tiqib turib oldim: mutaxassislar, muhandislar, zarur

bo'lsa, olimlarni jalb qilaylik. Nima qilib bo'lsa ham, qozonni yasashimiz shart! — dedim.

Qozonning chizmasini basseyn loyihalarini tayyorlaydigan mutaxassislariga chizdirdik. Ular besh tonna oshni ko'taradigan qozonning shaklini chiqarib, devorining qalinligi qancha bo'lishini hisoblab berishdi.

Zavodga keldim. Direktor bizni buyurtmamizning tepasiga olib bordi. Besh tonnalik qozonni tayyor qilib yasab qo'yishibdi. Keyin kutilmaganda:

— Komil, yuring. Sizga bitta syurpriz bor. Yana bitta qozon, — deb qoldi.

Qo'shni angarga qarab yurdik. Qarasam, u yerda sakkiz tonnalik qozon turibdi! Yonida maxsus o'sha qozonga mo'ljallab yasalgan dunyoda eng uzun kapgir. Qoyil-e, eplashibdi!

— Qozonni qanday yasashni bilib oldik-ku, shartta bunisiniyam qilib tashladik! — dedi Farmanov.

Xursand bo'ldik, albatta. OTMKdagilar bu qozon uchun kattakon, maxsus o'choq ham tayyorlab qo'yishibdi. Biz qozonni tadbirdan yigirma kun oldin sinab ko'radigan bo'ldik. Zavodning ichida bosh repetitsiyani o'tkazdik — sakkiz tonnaga yaqin osh damladik. Zavod ishchilari uni bir soatda yeb tugatishdi. Osh juda shirin

chiqibdi, retsepti ham sinovdan o'tib oldi. Xullas, asosiy tadbirga tayyor ekanimizga ishonch hosil qildik.

Hamma telekanallarda bosib reklama berdik, kecha-yu kunduz tinmay dekoratsiyalarni yasadik, oshpazlar yeng shimarib shaylanib turishdi. Forumlar saroyi yoniga katta sahna o'rnatildi, Brodvey⁴⁶ yuzlab odam kelishiga bayramona bezatildi. O'rindiq va stullar o'rniga kub shaklidagi presslangan somonlarni qo'yib chiqdik, ajoyib narsa bo'ldi. Chet eldan taklif qilingan mehmonlar Xiyobongacha bemalol yurib kelishi uchun «Hyatt» mehmonxonasidan Forumlar saroyigacha bo'lgan hudud to'sib, o'rab olindi.

Ammo kutilmaganda hamma harakatimiz yo'qqa chiqay deb qoldi. Meni IIV va MXXdan yo'qlab qolishdi. Borsam, O'zbekistonning barcha kuchishlatar idoralari rahbariyatining salkam to'liq tarkibi atrofimni o'rab oldi.

— Allamjonov, sen kimsan o'zi? O'zingcha nima ishlar boshlading? Yig'ishtir hammasini! Brodveyda hech qanaqa osh-posh bo'lmaydi! Anhor-Lokomotivga⁴⁷ ko'chir!

— Iloji yo'q! — tushuntirishga harakat qildim men. — Hamma kanallarda reklama ketib yotibdi. Hamma elchilarga taklifnoma tarqatilgan. Juda ko'p odam keladi, «Ginnes» keladi axir!

— Sen xavfsizlikni o'ylayapsanmi?! Yuz mingta odam oqib keladi-ya! — do'q qilishdi ular.

— Nima qipti, tinch aholi keladi-ku! Sizlarda yuzlab «tinchmas» aholi kelsayam, olomon bilan ishlash usullari, dasturlari bormi? Bahonada o'sha taktikalarni bir sinovdan o'tkazib, takomillashtirib olasiz! Shu tadbirda sinab olinmasa, yana qachon bunday imkon bo'ladi?! Davlatdan bir tiyin so'rayotganim yo'q, hammasini o'zimiz qilyapmiz, Vatanning obro'si uchun, bayrog'imiz sha'ni uchun qilyapmiz, — dedim men. Bunaqa gaplarimdan ularning battar ensasi qotdi. Oxiri ko'nishdi, lekin baribir tashkiliy tomondan hamma xavotirda edi va men ularning holatini juda yaxshi tushunib turardim.

Ishqilib, o'zimcha rosa aqllilik qildim. Menimcha, IIV va MXX-ning «qora ro'yxat»iga o'shanda tushib qolgan bo'lsam kerak.

Baxtimizga, Prezidentimizning bu boradagi fikrlari butunlay boshqacha edi. «Bo'ldi, yetar shuncha taqiqlar. Mamlakatda ommaviy bayramlar madaniyatini ham rivojlantirish kerak. Taqiq bilan hech nimaga erishib bo'lmaydi. Faqat rasmiylar uchun bayram uyushtiravermaylik, xalq ham bir dam olsin. Tashabbuskor yoshlarning yo'lga to'g'anoq bo'laverish yaxshi emas», debdilar. Bosh vazir Abdulla Aripov «Brodvey»ga kelib, organ xodimlariga «Yoshlarga yordam berish kerak, bu rostdan ham davlatga obro' keltiradigan tadbir, haqiqiy milliy bayram bo'ladi», degan gapni aytdi.

Nihoyat, o'sha kun keldi! Oshpaz yigitlar pand berishmadi. Jarayon boshidan oxirigacha to'g'ridan to'g'ri efir-

ga uzatib turildi — o‘zimizning televideniye-dan tashqari, xorijiy telekanallar ham bu ajoyib bayramni tasvirga olib ko‘rsatishdi. Albatta, butun dunyo facebookchilari ham tadbirni kuzatib turdilar.

Masalliq-lar miqdori ham rekordga yarasha edi. Palov-ga ikki tonna qo‘y va mol go‘sh-ti, salkam ikki tonna gu-ruch, uch tonna sabzi bilan piyoz, to‘rt yuz litr yog‘, ikki yuz kilo qo‘y yog‘i ketdi. Osh ham haqiqiy to‘y oshi bo‘l-di — bir dunyo no‘xat, mayiz, zarcho‘va, zira solindi. Rosa shirin osh chiqdi!

Chustiy ham, men ham baxtiyor edik. Niyatimizga yet-dik, eng katta qozonda bittada eng ko‘p osh damlagan mamlakat sifatida bizni Ginnesning Rekordlar kitobiga kiritishdi.

Umuman olganda, bayram yaxshi o‘tdi. Endi, ish bor joyda kamchilik bo‘lishi tabiiy, oz-moz dilxiralik ham yuz berdi. Bahaybat qozonda tayyorlanayotgan oshni yaqin-dan ko‘raman deganlarning hafsalasi pir bo‘ldi. Biror noxushlik yuzaga kelmasligi uchun bunga ruxsat berilma-di. Odamlar to‘siqlar ortidan, uzoqroqdan tomosha qilish bilan kifoyalanishiga to‘g‘ri keldi.

Ba‘zilar alamini ijtimoiy tarmoqlarga to‘kib soldi. Uyi-dan tog‘ora-yu kastyulka ko‘tarib kelib, osh tarqatila-yotganda atrofdagilarni itarib-turtib, odamlarning bo-shiga chiqib ketgudek bo‘lganlar, shallaqilik qilganlar


ayniqsa kayfiyatni buzdi. Ko'pchilik bir chekkada turib, bu ur-surni telefoniga olgan ekan. Shuning uchun xuddi butun Toshkent qo'lida kastryulka bilan yopirilib kelgandek tasavvur hosil bo'ldi.

O'tkazgan tadbirimiz O'zbekistonda birinchi marta Ginnes kitobi uchun tayyorlangan oshning o'zigina emas. Bu shaxsiy fikrni erkin ifodalaydigan davrning boshlanishi edi. Mamlakat uzoq yillik g'aflatdan uyg'onayotgandi. Keyingi paytda festivallar, tadbirlar, xalq sayillari ko'payib, biz uchun oddiy hol bo'lib qoldi, o'tgan kunlarni esdan ham chiqarib yubordik. Atigi bir necha yil oldin esa hech kim odamlarga xursandchilik ulashish haqida o'ylab o'tirmasdi.

Men bu loyihaga ancha pul sarfladim. Yuqorida aytganimdek, pul masalasi muammolarning eng kichigi bo'ldi, pul o'zining ishini bajardi.

Pulni yaxshi ko'rish kerak, shunga arziydi.

Asosiysi — pul deb vijdonni sotib yubormaslik. Bu savdo juda qimmatga tushadi.



PANDEMIYA

Ikki mingyigirmanchi yil hayotimizni ostin-ustun qilib yubordi, hammamiz bu yil nihoyasida butunlay boshqa odamlarga aylandik. Men ham boshqa odam bo'lib qoldim. Oldingi qadriyatlar, istak-xohishlar ancha xira tortgandek. Saida jurnalistlar bilan bir uchrashuvda juda to'g'ri gapni aytdi: «Endi bilsak, biz uchun eng muhimi — yaqin insonlarimizning doim yonimizda bo'lishi ekan».

Mening pandemiyam 2020-yil 15-martda boshlandi. Hammomda.

Oilamiz bilan toqqa chiqqandik. U paytda hech qaysimiz bu virusdan qo'rqmas, vahimasi qayerdadir uzoqlarda tarqalayotgan bu balo bizgacha hech qachon yetib kelmaydigandek edi. Keyin esa birinchi bemor — chet eldan kelib, analiz topshirgan ayol paydo bo'ldi. Uni deb bizning mamlakat ham nihoyat jarayonga kirishib ketdi. Rasmiy

shaxslar ijtimoiy tarmoqlardan, minbarlardan ayolning ustiga rosa mag'zava ag'darishdi. Vaholanki, u epidemiya bo'sag'asini belgilab berdi, xolos.

Biz esa bu paytda oilamiz, do'stlarim bilan tog'da dam olib yurgan, yomonlikni xayolimizga ham keltirmayotgan edik. Aka-ukalarim bilan hammomda o'tirgandik, u yerda telefon yaxshi olmaydi. Dahlizga chiqsam, rosa qo'ng'iroqlar bo'libdi. Orasida Saidaning raqami ham bor. Shu zahoti qaytarib qo'ng'iroq qildim.

— Komil Ismoilovich. Biz ham karantinga yopiladigan-ga o'xshayapmiz. Shu karantin davri axborot siyosatini ishlab chiqsak yaxshi bo'lardi, vahima, tushunmovchiliklar tarqalmasligi uchun. Keling, bir o'ylab ko'raylik.

Men noutbukimni opkeltirib, oldimga telefonlarni taxlab qo'yib, reja tuzishga kirishdim. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asosiy muammo — axborotning yo tarqoqligi, yo umuman yo'qligi. Demak, butun axborot makonini bir-lashtirish zarur. Qanday qilib? Bunday vaziyatda eng birinchi masala odamlarning hali u, hali bu e'tiborga loyiq fikrlar orasida sarson bo'lmasligi, ularga tekshirilgan va muhimi, rasmiy ma'lumotlarni yetkazishdir. Hamma ishlar xalqning foydasini ko'zlab qilinayotganiga odamlarning ishonchi komil bo'lishi kerak. Ularning hayoti uchun javobgarlar uxlamayotgani, sarosimaga tushmagani, hamma o'z vazifasini bilib bajarayotganini his etib turishlari shart. Aks holda, tartibsizliklar bo'lishi aniq.

Feyk-yolgʻon xabarlar muammosini ham hal etish kerak edi. Chunki xalqimiz juda sodda, ishonuvchan, mish-mish bizda ijtimoiy tarmoqdan ham tezroq ish beradi. Bir gap butun shaharga tarqab ketishi uchun bir kun yetarli. Ungacha ham bormaydi. Qarabsiz-ki, vahima boshlanadi.

Jurnalistlar uchun ham, aholiga axborot yetkazish uchun ham yagona format oʻylab topish kerak edi. Chama-lab koʻrsam, bu borada peshqadamlar sakkiz-oʻnta OAV bilan yigirma nafarcha bloger ekan. Undan tashqari alohida matbuot kotiblari guruhi va jurnalistlar bilan amaldorlar oʻrtasidagi vositachilar ham zarur edi.

Men hammaga qoʻngʻiroq qilib, texnik topshiriqlarni yozib, jurnalist va blogerlar bilan gaplashib, baqir-chaqir qilib, hamma ishni joy-joyiga qoʻyib boʻlib qaragam — muzlab qolibman. Telefonlarimning quvvati oʻlgan. Hojatga ham borolmay oʻtiribman.

Kuni bilan oʻsha hammomning dahlizida, bitta choyshabga oʻralib, hech qayoqqa chiqmay, kechgacha ishlab oʻtiraveribman.

Butun tizimni bir kun ichida oʻylab chiqib, joriy qildik. «Insayder.uz» kanalining muallifi Sasha Ivanyujenkoga qoʻngʻiroq qilib, jurnalist va blogerlarni yigʻib berishni iltimos qildim. Shu tarzda yetmish kishidan iborat mediashtab paydo boʻldi. Aytish kerakki, shtabga raqobatchilar ham, bir-birini rosmana yoqtirmaydiganlar ham toʻp-

landi. Bu mavhumlik oldidagi Katta Sulh edi. Ochig'ini aytganda, ularning orasida menga samimiy munosabatda bo'lganlar sanoqli. Lekin hammalari shaxsiy munosabatni bir chetga surib, astoydil yordam berishdi. Buning uchun ularga katta rahmat. Har birlari bilan faxrlanaman. Xavf-xatar vaqtida kelishmovchiliklarni unutib, birlashish — haqiqiy vatanparvarlik. Jurnalistlar amaldorlarning pandemiyaga aloqasi bo'lmagan har qanday kamchiliklariga, gapga no'noqliklari, muomala qila olmasliklariga ko'z yumishdi. Qaytaga, ularni qo'llab-quvvatlab, javoblarni to'g'ri ifodalashga yordam berib turishdi. Bu kabi pandemiya o'tgan asrning boshidan beri endi birinchi marta bo'layotganini, hech qanday tayyor yo'l-yo'riqlar yo'qligini, bo'lishi ham mumkin emasligini to'g'ri tushunishdi. Shundan keyin ham bizning Mass-mediani dushmanga chiqarishga kimning tili borarkin?

To'g'ri, ichki ziddiyatlar, tortishuvlar, hatto baqirchaqirlar ham bo'ldi — bunday jamoani boshqarish juda qiyin edi. Lekin hamma darhol asosiy vazifani bajarishga kirishdi. Jurnalistlar ko'chadagi vaziyatni, odamlarning fikri, ularda qanday savollar tug'ilyotgani haqidagi ma'lumotlarni to'play boshlashdi. Bu borada «Potrebitel.uz»-dagi⁴⁸ Liliya Nikolenkoning⁴⁹ yordami juda katta bo'ldi. O'sha paytda kanalning a'zolari soni 250 mingdan ko'p edi. Liliya har kuni odamlarning kayfiyatini kuzatib turib, media-shtabga savollar ro'yxatini yuborardi. AOKA bu ma'lumotlarni qayta ishlab, jadvallar tuzib, matbuot kotiblariga va amaldorlarga tarqatib berar, keyin biz ulardan javob-

lar yoki choralar kutardik. Asosiy savollar Tashqi ishlar va Sog'liqni saqlash vazirliklariga qaratilgan bo'lardi. Tashqi ishlar vazirligi vakillari vatandoshlarni uyga qaytarish masalasini, shifokorlar esa xalqni qanday qilib davolash va asrashni hal qilishardi.

Viloyat hokimlarining matbuot kotiblaridan iborat alohida guruh tashkil etilgan va biz ulardan dolzarb savollarga tayyor javob olib, tarqatardik. Butun mamlakat bo'ylab axborot yaxlitligini ta'minlash zarur edi.

AOKA va Mass-media fondida feyk xabarlar monitoringi bo'yicha ham guruh tuzdik. Instagramdan tortib Yutubgacha hammasini kuzatib bordik. Ogohlantiruv xati shaklini tayyorlab olib, kim axborot sohasida qonunchilikni buzsa, shaxsan o'ziga xabarnoma yuborib turdik. Ana shunday qilib axborot makonini anchagina yolg'on-yashiqlardan va vahimachilarning konspiologik nazariyalaridan tozaladik.

Aslini olganda, mana shu tizim karantinga vazminlik bilan, ortiqcha sarosimasiz kirib kelishimizga yordam berdi. Karantindan bir-ikki kun oldin «Supermarketlar ham yopilarkan, keyin oziq-ovqatni hech qayerdan topib bo'lmas ekan», degan mish-mish tarqalganida qilayotgan ishimiz qanchalik to'g'riligini anglab yetdik. Undan keyin yana bir gap chiqdi: «Oziq-ovqat kam qolgan emish, ham-maga yetmasmish». Bu feyk xabar birpasda butun shahar-ga yoyildi. Odamlar vahimaga tushib, bozor va do'konlar-

ga yopirilishdi, ko'ziga nima ko'rinsa, qo'liga nima ilinsa, grechkadan tortib, hojatxona qog'ozigacha — hammasini peshtaxtalardan supurib olishdi. Ana shunda markazlashgan axborot tizimi zarurligiga, busiz shahar boshqarib bo'lmaydigan holatga kelishi mumkinligiga ishonch hosil qildim.

Bir-ikki kun ichida banner tayyorlab, AOKAda press-voll o'rnatib qo'ydik. Shunday qilib, amaldorlar va matbuot kotiblari onlayn-brifing ko'rinishida bayonot beradigan maxsus joy — press poynt tashkil etildi.

Hamma uyiga qamalib, ko'chaga chiqishga qo'rqib o'tirgan, aksariyat jurnalistlar masofadan ishlab turgan paytda Gulnoza Husanova va «Uzreport» jamoasi Agentlikda qolib ishladi. O'sha yerdan Dilshod Saidjonov boshchiligidagi AOKA guruhi bilan birga har kungi jonli efirlarni olib borishdi. Bu haqiqiy qahramonlik edi.

Ko'pchilik jurnalistlar karantin hududlaridan, kasalxonalardan reportaj qilmoqchi bo'lishar, lekin ularga stiker — lokdaun sharoitida shahar ichida avtomobilda yurish uchun maxsus ruxsatnoma berilmagan edi.

O'sha paytda AOKA direktori vazifasini bajarayotgan Dilshod Saidjonovga dedim:

— Bizga faqat tekshirilgan rasmiy axborotlar qo'yiladigan, Telegram verifikatsiyasidan o'tgan alohida kanal

kerak. Shu kanal tasdiqlamaguncha, har qanday mish-mish feyk hisoblansin.

Dilshod aka Hikmatilla Ubaydullayev⁵⁰ O'zbekistondagi koronavirus holati haqida kanal ochganini, unga bir necha ming kishi a'zo bo'lishga ulgurganini aytdi. Shunda biz yurtimizdagi koronavirusga bag'ishlangan hamma «uz»li kanallarni yopishni iltimos qildik. Kimdir rozi bo'ldi, kimdir ahamiyat bermadi. Xullas, o'zimizning rasmiy axborot manbaimiz — «Coronavirus Info» paydo bo'ldi. Bu kanalga qisqa muddat ichida bir yarim million odam a'zo bo'lib, Telegramdan maxsus «zangori belgi» oldi.

O'zbekiston 15-martdan karantinga yopildi va 15-iyundagina ochildi. Hozir kimdir karantin befoyda bo'lgani, ehtiyot choralari ortiqchalik qilgani, baribir virus hamмага yuqib, odamlar kasallangani, iqtisodiyot o'tirib qolgani, uni qayta tiklash qiyinligi haqida gapirishi mumkin. Lekin biz bu virus haqida hali hech qanday ma'lumot bo'lmagan, Italiya, Ispaniya, AQSHda minglab odamlar qirilgan bir paytda yoppasiga o'lib ketmaslik uchun vaqtdan yutdik. Faqat yozga kelibgina davolash protokollari chiqarildi, ixtisoslashgan Kovid-klinikalar ishga tushdi, Kovid-klinikalarga aylantirilgan kasalxonalar yana eski holiga qaytarilib, o'z yo'nalishidagi bemorlarni qabul qila boshladi. Kasallikning tabiatini, uni qanday qilib davolash kerakligi-yu nima qilib davolash mutlaqo mumkin emasligini tushundik. Bu virus yozning jazirasida kuyib yo'q bo'lib ketmasligini o'z tajribamizda ko'rdik. Iyul-avgust

oylari juda og'ir keldi. Bundan qochib qutulolmas edik. Lekin har holda, pandemiyaning avjiga chiqqan davrini uyda qolib o'tkazib oldik. Kimdir bu qarorga e'tiroz bildirgan bo'lsa, mening javobim shunday: butun mamlakat uchun javobgar bo'lish — nihoyatda og'ir mas'uliyat. Bu yukni yelkasiga ortib, hech bo'lmasa bir necha qadam yurib ko'rmaganlar hukm chiqarmagani ma'qul.

Kuzatuvlarim bo'yicha o'sha paytda Prezidentimiz ikki yo'ldan birini tanlashdek qiyin vaziyatda edi: yo iqtisodiyotni saqlab qolish kerak, yo odamlarning hayotini. Butun javobgarlik birgina insonning zimmasida edi. Prezident odamlarning hayotini tanladi. Mana endi, oradan vaqt o'tib, bu yagona to'g'ri qaror bo'lganini ko'rib turibmiz. Kovidga chalingan bemorlarning birinchi to'ldiqini bu kasaldan og'ir asoratlar bilan chiqdi, chunki unda hali aniq nima bilan davolashni bilmay, to'g'ri kelgan dori-darmonni beraverishgan. Lokdaun tufayli esa biz vaqtdan yutdik va davolashning to'g'ri mexanizmini ishlab chiqish imkoniga ega bo'ldik.

Bu mavzu o'zimni ham juda qiziqtirib qoldi. Gripp bilan koronavirusning grafiklarini solishtirib ko'rdim, ko'p ilmiy maqolalarni o'qib chiqdim, bu kasalning o'ziga xosligi nimada ekanini tushunishga harakat qildim.

Shaharda vahima ko'tarila boshladi. Nima uchun yop-pasiga uyda o'tirish kerakligini odamlar tushunmasdi. O'sha paytda qaysi bosqichda ekanimizni, bizni qaysi to-

monga yo'naltirishayotganini, davlatning rejaları qanday ekanini, bu karantin yana qancha davom etishini hech kim bilmas edi.

Karantin choralari qay darajada zarurligini tor doiradagi epidemiolog mutaxassislargina tushunardi.

Kechalari uxlamay, kasallikning yuqish zanjirini qanday qilib uzish mumkinligini va eng muhimi, buni odamlarga qanday yetkazishni o'ylab chiqardim. O'zimcha harakatlar algoritmini chizib, hammaga tushunarli usulda, oddiy qilib yetkazish yo'llarini qidirardim. Keyin shu mavzuda videolavha qilib, tarqatdim. Chunki karantin choralari zarurligini hamma ham birdek tushunmayotganini aniq edi.

Majburan uyda o'tirib qolgan odamlarning ko'pida och qolish xavfi tug'ilgani ma'lum bo'ldi. Mamlakatimizning yarim aholisi shartnoma bo'yicha ishlasa, har kunligini kunbay qo'liga olsa, bugun nima topsa, shuni yesa... Ayniqsa, kafe-oshxonalarda idish yuvuvchi, farrosh va ofitsiant bo'lib ishlaydigan yolg'iz ayollar juda og'ir ahvolda qolishdi. Ular ertadan kechgacha ishlab, o'sha kungi tirikchiligini o'tkazishar, birortasining ko'rpacha tagiga tashlab qo'ygan ortiqcha puli yo'q edi. Ustiga ustak deyarli hamma yolg'iz ayollarning farzandlari bor.

Esimda, o'shanda Saida: «Nimadir o'ylab topishimiz kerak!» dedi. Hech bo'lmasa kimgadir yordamimiz tegsa

edi, lekin qanday qilib? Volontyorlar kam ta'minlangan oilalarga oziq-ovqat yetkazib turishdi. Albatta, bu juda savobli ish, lekin bir xalta oziq-ovqat necha kunga yetadi? Bu yordam bilan butun karantin davrida muammoni hal qilib bo'lmaydi-ku! Buning ustiga, uyma-uy yurish ham xavfli edi. Kimdandir virus yuqtirib olish mumkin, kimgadir yuqtirish mumkin.

Shunda men yana Sasha Ivanyujenkoga murojaat qildim. U ikki kun davomida kerakli odamlarga qo'ng'iroq qilib chiqib, zarur ma'lumotni to'pladi. Biz bu loyihani «Xavfsiz yordam» deb atadik. Ijtimoiy himoyalangan ayollarga o'zlarining nomlariga ochilgan bank kartalari tarqatadigan bo'ldik. Ayni o'sha vaqtda Milliy gvardiyaning hozirgi Bosh qo'mondoni, ilgari Toshkent IIBB boshlig'i bo'lgan Rustam Jo'rayev Prezidentning beshta tashabbusidan birini amalga oshirib, ayollar bo'yicha inspeksiya tashkil qilgan va ularda ahvoli eng og'ir ayollarning ro'yxati bor edi. Bu ro'yxatga yolg'iz ayollar, ko'p bolali ayollar, nogiron, qamoqdan yaqinda ozod etilgan, kam haq tolanadigan ishda ishlayotgan va boshqa ayollar kiritilgandi. Kartotekada pasport olishda kerak bo'ladigan «Forma №1» ham bor, shaxsiy karta ochish uchun bankka shuning o'zi yetarli edi. O'sha loyihada «Kapital bank» va «Aloqa bank» ham biz bilan hamkorlik qilishdi. Hamma tashkiliy ishlarni Oybek Tursunov o'z zimmasiga oldi. Inspektorlar ro'yxatlarni topshirishdi, banklar hisob raqamlarini ochishdi.

Biz bu loyihani ikki hafta ichida amalga oshirdik. Keyin banklar o'sha kartalarni butun respublikaga tarqatib chiqishdi. Mass-media fondi har bir kartaga million so'mdan pul o'tkazib berdi. Keyin bizga «Zamin» fondi ham qo'shildi. Ular ekologiyaga ajratilgan pulning ma'lum miqdorini ayollarga sarflash taklifi bilan donorlariga murojaat qilishdi. Xalqaro homiylar ham yo'q demadi, baraka topishsin. Shunday qilib «Zamin» fondi nomidan besh mingta karta chiqarildi. Keyinroq aksiyamizga boshqa homiylar ham qo'shilib, tarqatib yuborilgan kartalarga pul o'tkazib bera boshlashdi. E'tiborlisi, ko'pgina tadbirkorlar ham ro'yxat tuzib, shu bo'yicha kartalar chiqartirishdi. Imkon topgan hamma muhtojlarga yordam ko'rsatdi, ammo ko'pchilik bu ishni o'zini oshkor etmay, yashirincha qildi.

Hamma pul o'z egalariga yetib bordi. IIV va Toshkent IIBB biz uchun to'liq hisobot tayyorlab berdi. Unda yordam topshirish jarayonidagi suratlar, hatto videotasvirlar bor edi. Tasvirlarni oxirigacha ko'rishga yuragim dosh bermadi. Onaizorlar, go'daklarning chehralari shunaqa ma'yus-ki... Ko'mak juda o'rinli bo'lganini, kerakli paytda tarqatilganini his qildik.

Mahallamizda ham yordam tariqasida muhtojlarga ehson tarqatildi. O'shanda bir voqea menga juda qattiq ta'sir qildi. Bir ayolning puli tugab, dorisini ololmay qolgan ekan. Sahar turib, bomdod namozida duoga qo'lini ochib, Allohga iltijo qilibdi. Oradan bir-ikki soat o'tib-

o'tmay, darvozasi taqillabdi. «Uzr, bezovta qildik, mana shu arzimamizni qabul qiling, iltimos» — deb, qo'liga konvert berib ketishgan. Bu voqeani menga o'sha ayolning o'zi keyinroq aytib berdi. «Xavfsiz yordam»-ga bag'ishlab tayyorlangan videorolikka ana shu voqeani asos qilib oldik.

Xayriya ishlari Saida uchun qalb amri, u har doim insonlarga yordam berishga harakat qiladi. Pandemiya yarim yil oldin keng miqyosda Ko'ngil Ko'zi loyihasini boshlagan edi. Loyihaning maqsadi — ko'zi ojiz va ko'rish imkoniyati cheklangan bolalar maxsus internatlariga yordam berish. Uning jamoasi Prezident aytgan beshta muhim tashabbus doirasida ana shunday bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqdi.

Toshkentdagi ko'zi ojiz va ko'rish imkoniyati cheklangan bolalar maktab-internatida ixtisoslashgan kompyuter markazi tashkil qilindi. U yerda ovoz bilan boshqariladigan kompyuterlar o'rnatilgan bo'lib, ko'rishda muammosi bor bolalarning ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirilgan. Bu kompyuterlarga O'zbekiston Milliy kutubxonasi bazasida saqlanayotgan barcha audio-adabiyotlar, jumladan, audioertaklar ham yozib berildi. Bino to'liq kapital ta'mirdan chiqarilib, maxsus mebellar bilan jihozlandi. Muhimi, «O'zbekiston» nashriyoti qoshida yangi bosmaxona tashkil etilib, Brayl yozuvida kitoblar chop qiladigan maxsus uskuna va dastgohlar kelti-

rildi. Bu bosmaxonada sakkizinchi, to'qqizinchi, o'ninchi va o'n birinchi sinflar uchun darsliklar chiqariladi.

Bu loyihada faqat texnik ta'minot nazarda tutilmagan. Saida ko'rish imkoniyati cheklangan bolalar bilan uchrashib, suhbatlashib turardi. Boshqa hamma tengqurlari-dek, ular uchun ham imkonsiz narsa yo'qligiga ishontirishga harakat qilardi. Hadeb kasallik haqida o'ylamasdan, boshni baland ko'tarib, ko'p narsalarga erisha olishlarini aytar, dalda berardi. Samarqand marafonida taqdim qilingan yangi loyiha bu xayrli ishning mantiqiy davomi bo'ldi. Loyiha doirasida teatr va muzeylarda tiflosharh tizimi, ya'ni sahnada bo'layotgan voqeani og'zaki izohlab borish joriy etildi.

Bu loyihalarga «Sovg'alar karvoni» aksiyasi ulanib ketdi. Ko'zi ojiz va ko'rish imkoniyati cheklangan bolalar tarbiyalanayotgan respublikadagi barcha internatlarga orgtexnika, sport jihozlari va musiqa asboblari hadya qilindi. Bularning hech qaysisiga byudjetdan bir so'm ham sarflanmadi.

Sasha Ivanyujenko bilan Milliy TV kreatori Deyl Axmadi «Xavfsiz yordam» loyahasining roligiga ssenariy yozishdi. Lavhada Saida ham qatnashdi. Biz dronda Toshkentning bo'm-bo'sh, kimsasiz, mashinalardan xoli ko'chalarini tasvirga oldik. Noyob, ammo odamning ko'ngliga g'ashlik soladigan kadrlar. Karantindan esdalik bo'lib qoldi.

«Xavfsiz yordam» loyihasi haqida internet-nashrlarda bir ogʻiz xabar berib oʻtildi, xolos. Bizga piarning keragi yoʻq edi. Asosiysi, shu ish qilingani. Oʻshanda Saida jiddiy bir gap aytdi: «Ayollarimiz oʻta xokisor, andishali. Koʻpchiligi oʻzining yordamga haqli ekanini bilmaydi. Kimdir ularga koʻmak berishi, qoʻllab-quvvatlashi mumkinligini xayoliga keltirmaydi. Muammolarini koʻchaga chiqarib, duch kelgan joyda dardini dasturxon qilmaydi. Oʻzi uchun hech narsa talab qilmaydi. Lekin kimdir aynan xokisorligi tufayli umidsizlikka tushib qolishi mumkin. Eng dahshatlisi — shu. Biz oʻzimiz bunday ayollarni qidirib topishimiz kerak».

Saidani eshita turib, «Jurnalistlar-chi, ularning ahvoli qanday kechaypti ekan?» — deb oʻylab qoldim.

Jurnalistlarning ham sandiq tagiga tashlab qoʻygan jamgʻarmasi boʻlmaydi. Ayniqsa karantinda reklama yoʻqligi uchun nashrlar birin-ketin yopila boshlagandi. Nima boʻlganda ham, ularning ahvoli yaxshi emasligi aniq edi. Oʻsha vaqtda Mass-media fondida direktor boʻlib ishlayotgan Xushnubek Xudoyberdiyev bilan «Anhor.uz» bosh muharriri, Fond jamoat kengashi raisi Lola Islomovalar yuz kishilik roʻyxat tuzishdi. Lola roʻyxatdagilarning har biriga qoʻngʻiroq qilib, hol-ahvol soʻrab chiqdi. Keyin oziq-ovqat toʻplamlari tayyorlandi.

Sasha Ivanyujenkoga qoʻngʻiroq qildim:

— Yejkov qalay ekan, bilinglar-chi. Uni ham ro'yxatga qo'shib qo'ying.

— Bog'landik, — dedi Sasha. — Sergey Aleksandro-
vich yordamdan qat'iyon bosh tortdi. O'sha Allamjonov-
dan hech narsa kerakmas menga, — dedi.

«Bo'пти, o'zi biladi, ko'zimiz uchib turgani yo'q», —
dedim ichimda. Bir quti oziq-ovqat evaziga meni og'dirib
olishmoqchi deb o'yladi, shekilli.

Fondimiz avgust oyigacha muhtojlarni qo'llab turdi.
Liliya Nikolenko tuzgan ro'yxatlar bo'yicha o'qituvchilar-
ga va o'quvchilarga ham yordam berildi. Ehtiyojmandlar
ro'yxatini doimiy yangilab turadigan volontyorlarga ham
ko'maklashildi.

Odamlarimizning nihoyatda ko'ngli ochiq-da, hatto
shunchalik qiyin vaziyatda ham o'zbekimning an'anasiga
ko'ra, sovg'a-salomga javoban «tog'ora» qaytarishga hara-
kat qilishardi. Kompot, murabbolargacha berib yubori-
shardi. «Mana, Komil aka, sizga ilindik...»

Biz bu ishlarni reklama yoki o'zimizni ko'rsatish uchun
qilmadik. O'sha payt yurtimizda hukm surgan vaziyat-
ni uzil-kesil anglaganimiz yo'q hali. O'zbek xalqi yana bir
marta o'zligini ko'rsatdi. Vatandoshlarimiz och qolsa ham,
oxirgi burda nonini muhtojlar bilan baham ko'radi. Biz
allaqachon umidimizni uzib qo'ygan fuqarolik jamiyati

shunda namoyon bo'ldi. Odamlar ko'p ishlarni zimmalariga olib, musibatni yengib o'tishda davlatga tirgak bo'lishdi.

Biz pandemiyadan butunlay boshqa odamlar bo'lib chiqdik. Badjahl, asabiyroq, lekin ayni vaqtda atrofdagilarga hamdard, haqiqiy inson bo'lib chiqdik. Volontyorlar vatanni qutqara olishini ko'zimiz bilan ko'rdik.

Afsuski, bu sinovdan o'tolmaganlar ham bo'ldi. Undaylar haqida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va prokuratura har kuni xabar berib turdi. Menimcha, bu kimsalar to'g'ri yo'ldan og'ib ketishdi. Sinovdan o'ta olishmadi. Biz — insonlarning emas, Allohning sinovidan. Buning javobi oldida bizning malomatimiz hech narsa emas.

Karantinning boshidan oxirigacha — martdan avgustgacha odamlarning kayfiyatini kuzatib, yuqoriga tahliiy ma'lumotlar berib turdik. Avvaliga odamlar intizomli bo'lib, uyida o'tirib, jimgina karantinning tugashini kutgan bo'lsa, lokdaunning oxiriga kelib, ko'pchilik o'ziga endi buyog'iga qanday yashaymiz, degan savolni berdi. Agar o'sha paytda karantin bekor qilinmasa, koronavirusga moslashib yashashga o'rganmasak, jamiyatda norozilik kayfiyati tarqalishini to'xtatolmay qolardik.

Bu kasallik hech qayoqqa yo'qolib ketmadi. Biz kasallik bilan kurashib yotgan bir paytda, ko'pgina amaldorlar-

ning layoqatsizligi, saviyasi pastligi ochiq-oydin ko'rinib qoldi. Ba'zan byudjet pulini talon-taroj qilish, shundoq ham o'lay deb turgan biznesning kulini ko'kka sovurish holatlari ham kuzatildi.

Hadeb buyruq berib, do'q-po'pisa qilmasdan, arzi-mas mayda-chuydani ham hijjalab tushuntirish, isbotlash, ishontirish lozim edi. Masalan, jurnalistlar tibbiyot tizimi amaldorlarining nutqlaridagi norozilik, malomat ohangini yo'q qilishni necha martalab iltimos qilishdi, talab qilishdi, hatto janjallashib ham ketishdi. Niqob taqmagani uchun odamlar aybdor, chet eldan qaytib kelgani uchun odamlar aybdor, atrofdagilarga kasal yuqtirgani uchun ham, o'zlariga kasal yuqqani uchun ham faqat odamlarning o'zi aybdor. Bunday munosabat oqibatida kovid qandaydir sharmandali kasallik deb qabul qilinadigan bo'lib qoldi. Xalq karantindan qo'rqa boshladi. Kasalni yashirgan odam tabiiyki, malakali tibbiy yordam olmaydi, natijada o'zi bilganicha davolanishni boshlaydi, uyida bor dorilarni, antibiotiklarni hovuchlab ichadi, duch kelgancha osma ukol olaveradi.

O'zboshimchalik bilan noto'g'ri davolanish oqibatida juda ko'pchilikdan ayrilib qoldik, odamlar o'ladigan ahvolga yetgandagina tez yordam chaqirdi, malakali tibbiy yordam kechikdi.

Bunday ishonchsizlik kayfiyatiga qarshi qo'limizdan kelganicha kurashdik, lekin ba'zi amaldorlar bitta fikrni

uqtirish uchun oylab vaqt ketdi. Shuning uchun har safar kechikaverdik.

O'zim ham koronavirus yuqtirib oldim. Qayerda, qanday yuqtirganimni bilmayman, lekin ofisda hamma ehtiyot choralari ko'rilgan edi. Tuzalganimdan keyin vaziyatni o'nglash uchun bu haqda ochiqchasiga yozishga qaror qildim. Kovid bilan kasallanish uyat emas, sharmandalik emasligini, bu virus har qanday odamga yuqishi mumkinligini, buni yashirish kerak emasligini baralla gapirdim.

Kasallikning qanday o'tishi haqida videolavha tayyorlab, «Insayder.uz». Telegram-kanaliga xabar yubordim. Keyinchalik do'stlarim «O'shanda qo'rqib ketganingdan yig'laganingni bekor gapiribsan, o'jizligingni ko'rsatish shartmas edi», deyishdi. Yo'q, menimcha hammasini ochiq aytish kerak edi. Vahimaga tushmagan, qo'rqmagan odamning o'zi qolmagandi. Buni tan olish, tabiiy holat ekanini ko'rsatish shart edi. Murojaatimni barcha OAVlari nashr qilishdi.

Bunday ochiq chiqishlar odamlar kovidni yashirish kerak emasligini tushunishlariga juda katta yordam berdi, deb o'ylayman. Chunki vahimaga tushmaslikka harakat qilib, vaqtida davolanish muhim edi.

Umuman, O'zbekistondagi pandemiya haqida hali kitoblar, esse va maqolalar yozilsa kerak. Vaqt o'tgach, odamlarimiz uchun nimalar qilinganini-yu odamlarga qarshi nimalar qilinganini eslay boshlaymiz.





SSV BILAN GIDROKSIXLOROXIN TUFAYLI KURASH

O'zim iyulning boshlarida kasal bo'ldim. Agar butun dunyoni COVID-19 vahimasi qamrab olmaganida, balki men ham bu kasalni yuqtirganimni bilmagan bo'larmidim.

Mazam qochayotganini birinchi marta his qilgan kunim ofisda kechasi soat uchgacha ishlagandik. Iyul oyining boshi, havo issiq, lekin ko'chaga chiqqanimda birdan etim junjilib ketdi. G'alati bo'ldim.

Shunchalik muzlab qoldimki, yarim soat issiq suvli vannada yotib ham o'zimga kelolmadim. Isitmam chiqa boshladi. Avvaliga e'tibor bermadim. Shamollagandirman-da, deb qo'ya qoldim. Keyin ichimdan titroq keldi,

konditsioner yoqilmagan bo'lsa ham, yomon sovqotdim. Ertasiga a'zoyi badanim qaqshab og'ridi, kuchli holsizlik paydo bo'ldi.

Yaxshiyam, iyun oyida SES bilan SSV nihoyat odamlarga uyda davolanishga ruxsat bergan ekan. Endi bemorlar kasalxonaga majburan joylanmas, og'ir kasallar uchun zarur o'rinlar bekorga band qilinmayotgan edi. Kovidning yengil shaklini uyda, shifokor nazorati ostida ham bemalol davolash mumkinligi tan olindi.

Menga quyidagi ko'rsatmalar berildi: hech qanday kuchli dori iste'mol qilmaysiz, tez-tez suyuqlik ichasiz, tomoqni chayqab turasiz, ko'proq yotasiz, o'pka uchun nafas mashqlarini bajarasiz. Bu dardga qarshi maxsus davo chorasini yo'q, shuning uchun vahimaga berilmasdan, ortiqcha dorilardan tiyilasiz, organizmni zo'riqtirmaysiz.

Vahimaga tushmaslikka harakat qildim, lekin bu oson emas ekan. Rosmana qo'rqib ketdim, chunki bu dard bilan bog'liq eng katta muammo — mavhumlik edi. Ertaga ahvolim birdaniga qaysi tomonga o'zgarib ketishini bilib bo'lmasdi.

Iyul oyida respublikaning yetakchi shifokorlari Innovatsion sog'liqni saqlash palatasi bilan hamkorlikda yo'riqnoma chiqarishdi. Unda barcha bozori chaqqon «fuf-lomitsin»larning kovidga hech qanday foydasi yo'qligi ochiqchasiga aytilgan edi. Agar virusli pnevmoniya bosh-

langan bo'lsa, tomchi dori olish mumkin emas ekan, chunki o'pka suvga to'lib, shishib ketarkan. Azitromitsin bilan plakvenil qo'shilganda yurakni ishdan chiqararkan. Antibiotiklar bu virusda foyda bermas, aksincha, ahvolni bat-tar og'irlashtirar ekan.

Internetga ulangan har qanday odam bu ma'lumot bilan tanishish imkoniga ega edi. Ammo viloyatlarda, axborot-ning asosiy manbayi faqat turkcha seriallar berilayot-gan televizor bo'lgan hududlarda ahvol ancha murakkab edi. Sal maza qochsa, darrov «osma ukol» olishdek «mil-liy» davolanish usulimiz ko'p odamning yostig'ini quritdi, yana qancha kishining sog'lig'i battar yomonlashdi. Vaho-lanki, kovid davolasa bo'ladigan kasallik ekan.

Har qanday epidemiya har qanday mamlakatdagi far-matsevtlar uchun Susambilday gap. Bizning mamlakat-da ham shunday. Aholi vahimaga tushsa, dorixonachi-lar uchun ayni muddao. Sarosima qancha kuchli bo'lsa, odamlar shuncha ko'p dori sotib oladi. Oxirgi puliga bo'l-sa ham. Kerakmi, kerakmasmi, ko'tarasiga olib tashla-shadi. Ko'ngil xotirjamligi uchun. Vaqt o'tib, bunaqa bilib-bilmay turli-tuman dori iste'mol qilishdan kasallik zo'rayib ketishi ma'lum bo'ldi. Yengil kechayotgan kasal-lik o'rtacha og'ir holatga o'tib, borgan sari avj olishi mum-kin ekan.

Yozning jaziramasi — iyul va avgustda kovid avjiga chiqdi. Bunga qaysidir darajada chet eldan ko'p odamning

qaytib kelgani sabab bo'ldi. Shuningdek, karantin talablarining biroz yumshatilgani ham. Shifokorlar yetishmay qoldi, tez yordam mashinalari, kasalxonalarda joy yetmay qoldi. Undan sal oldin Qozog'istonda vaziyat xuddi shunday bo'lgan edi: odamlar tahlil topshirganida koronavirus chiqmagan bo'lsa ham, pnevmoniya holati ko'payib ketdi. Qozoqlar ham o'zimizga o'xshagan. To'ylarga, azalarga borish odamning hayotidan ham zarur ekan. Oradan ikki hafta o'tgach, epidemiya to'lqini bizga ham yetib keldi.

Iyul oyining o'rtalarida Ziroat Mahmudovna Mirziyoyeva Milliy TVda savol-javob turkum ko'rsatuvlari qilib, odamlarga to'g'ri davolanish yo'llarini ko'rsatish, viloyatlardagi shifokorlarga davolash yo'riqnomasini bittalab, hijjalab tushuntirishni menga taklif qildilar. Milliy TVni viloyatlarda hamma ko'radi, shuning uchun biz ham ko'rsatuv tayyorlasak, ko'plab bemorlar va shifokorlarga foydasi tegar, deb umid qildik.

«Tez yordam» ko'rsatuvining formatini o'ylab qo'ydim. Yetti kun eng tajribali, eng ilmi shifokorlardan Azizaxon Xo'jayeva, Ra'no Qosimova va Dildora Sekler — bir immunolog va ikki virusolog bilan birga ko'rsatuvni olib borib, jonli efirga uzatdik. Ular koronavirus nimaligini, undan qanday saqlanish kerakligini, belgilari qanaqa bo'lishini, bemor odamga nima mumkin-u, nima qat'iy mumkin emasligini erinmay bitta-bittalab tushuntirib berishdi.

Ko'rsatuv konseptini bir kecha-kunduzda yozib tashladik. Esimda, o'sha kuni juma edi, yakshanba kuni esa birinchi ko'rsatuv efirga berildi. Ko'rsatuvni o'zim olib bordim. Birinchidan, tabib tabib emas, boshidan o'tgan tabib — men ancha mavzuning ichiga kirib qolgan edim, shifokorlar bilan ularning tilida so'zlasha olardim, ikkinchidan, ko'rsatuvga boshlovchi tayyorlaymiz desak, vaqtdan yutqizardik.

Men o'sha uch shifokordan, ayniqsa Azizaxon Xo'jayevadan nihoyatda minnatdorman. Aziza opa jur'atli ayol, SSVdan ham, tibbiyot sohasidagi boshqa amaldorlardan ham mutlaqo cho'chimay, hech qayoqqa alanglamay, shifokorning vijdoni nimani talab qilsa, shuni ro'y-rost gapiradi. U immunolog sifatida kovidni davolashda plakvenil ishlatishga qat'iy qarshi edi. Plakvenil immunosupressor, ya'ni immunitetni tushiruvchi dori bo'lib, avvaliga ko'pgina davlatlarda COVID-19ni davolash vositalari orasida birinchi o'rinni egallab turgandi. Keyingi tadqiqotlar kovidni davolashda plakvenilning foydasi yo'qligini, ba'zi holatlarda uni qo'llash hatto xavfli ekanini ko'rsatdi. Ayniqsa azitromitsin antibiotigi bilan birga qo'llanilganda salbiy ta'siri kuchayarkan. Shuning uchun hamma undan voz kecha boshladi.

Lekin SSV uyda davolanish uchun aynan mana shu dorilarni tavsiya qilaverdi. Eng qizig'i, gidroksixloroxin bilan azitromitsin o'zimizda bemorlarni davolashning Beshinchi yo'riqnomasidan chiqarib tashlangandi. Bunda Inno-

vatsion sog'liqni saqlash palatasi bilan uning bo'lim boshlig'i Klara Yodgorovanning xizmati katta bo'ldi. Bu shifokor preparatning samara bermasligi haqidagi JSSTning dastlabki tadqiqotlariga asoslanib, shu qarorga kelgan edi. Yangi, Beshinchi yo'riqnoma joriy qilinib, u Sog'liqni saqlash vaziri Shodmonov tomonidan tasdiqlandi. Biz ko'rsatuvda vazirning imzosi va muhri qo'yilgan aynan shu yo'riqnomaning asl nusxasini ko'rsatib, odamlarga bor gapni tushuntirdik.

Oradan ikki kun o'tib ko'rsatuvga taklif etilgan Klara Yodgorova unga noma'lum shaxslar qo'ng'iroq qilib, gidroksixloroxin mavzusida ehtiyotroq bo'lishni «maslahat» berganini, bu dorini yana klinik yo'riqnomalarga qaytar-moqchi bo'lishayotganini jonli efirda gapirdi.

Katta tajribaga ega immunolog Azizaxon Xo'jayeva stimulyator yoki supressorlardan ko'r-ko'rona foydalanish immunitetga qanchalik jiddiy zarar yetkazishi mumkinligini hijjalab tushuntirib berdi. «Immunitetning ishiga aralashib bo'lmaydi, ayniqsa organizm notanish koronavirusga duch kelgan paytda. Gidroksixloroxin organizmning immun reaksiyasini so'ndirib qo'yadi. Oqibatda juda ko'p odamlar boshqa har qanday virusning hujumi oldida mutlaqo o'z bo'lib qoladi», — dedi Azizaxon Xo'jayeva.

Lekin SSV aholiga gidroksixloroxin tarqatish niyatida qattiq turib oldi. Keyin shu masalaga bag'ishlangan matbuot anjumani o'tkazildi, unda janob Oqilov⁵¹ O'zbekis-

tonda plakvenil yordamida o'n ikki ming odam tuzalganini aytib o'tdi.

O'sha yerda, anjumanning o'zida kutilmaganda «Dori-Darmon» kompaniyasining boshqaruv raisi Umida Salixbayeva so'zga chiqib qoldi.

Uning nutqidan olingan iqtiboslar birpasda butun o'zbek internetiga tarqab ketdi. U gidroksixloroxinni davolash yo'riqnomasidan chiqarib tashlash siyosiy lashtirilgan masala ekanini, bu Donald Tramp bilan JSST o'rtasidagi kurashga bog'liqligini aytdi. Uning so'zlarini eshitib, to'g'risi, o'zim uyali ketdim. Dori-darmon sotadigan farmatsevt rasmiy matbuot anjumanida so'zga chiqib, o'zi sotayotgan dorini zo'r berib himoya qilayotgandi. Farmatsevtika — katta biznes, kimlardir iloji boricha ko'proq tovarini o'tkazishi muhim. Ularni sizning salomatligingiz qiziq tirmaydi, bu oddiy oldi-sotdi, xolos. Masalan, chips ishlab chiqaruvchilarning sizni pankreatit bezovta qilishi bilan ishi yo'q, muzqaymoq sotuvchilarga anginganiz borligining farqi yo'q, xohlang oling, xohlang olmang, o'zingiz uchun o'zingiz jon kuydirasiz. Salixbayeva bizga ham tekkizib gap tashlab qo'ydi: «Amaliyotchi shifokorlarga quloq solish kerak, o'zicha allaqanday saytlar ochib olgan «orakul» (azayimxonlarga) emas...»

Eng qizig'i, gidroksixloroxinga qarshi chiqqan mutaxassislar aynan o'zi aytgandek amaliyotchi shifokorlar, Sog'liqni saqlash Milliy palatasiga a'zo bo'lgan olimlar edi. Bu shifo-

korlar Sog'liqni saqlash vaziri Shodmonov imzolagan hujjatni ilgari surayotgan edilar. Vazir esa unga imzolaganini to'satdan «esidan chiqarib qo'ydi», jon-jahdi bilan bu dorini hech kim yo'riqnomadan chiqarmaganini isbotlashga harakat qildi.

Bemorlar bu doridan voz kechayotgani uchun «Tez yordam» ko'rsatuvini ayblashdi. Chunki endi odamlar klinikalarda «osma ukol» olishdan bosh tortadigan, o'zlariga berilayotgan dorilarning nojo'ya ta'siri yo'qmi, deb doktorlardan so'raydigan, tavsiya etilgan dorilarning yo'riqnomalarini o'qiydigan bo'lib qolishdi. Ilgari bizda bunaqasi bo'lmagan edi. Chunki biz shifokorlarga to'liq ishonib keldik. Nima bo'lganda ham, bu o'zgarishlar sabab ko'pchilikning sog'lig'i, balki hatto hayoti ham saqlab qolindir.

Biz birorta qonunni buzmadik, ko'rsatuvimizda Beshinchi yo'riqnoma ko'rsatmalari haqida gapirdik, odamlarga faqat Milliy innovatsion sog'liqni saqlash palatasi ma'qullagan narsalarnigina tavsiya qildik. Buni qarangki, dorini targ'ib qilayotgan Oqilovning o'zi gidroksixloroxin chiqarib tashlangan Beshinchi yo'riqnomani ishlab chiqqan Palata ishchi guruhining a'zosi edi. Keyin hech qanday tadqiqotsiz, JSST tavsiyalariga zid ravishda bu dorini yana yo'riqnomaga kiritib qo'yishdi. Navbatdagi matbuot anjumanida bir jurnalist: «JSST bu dorini yo'riqnomadan olib tashlagan edi, butun dunyo undan voz kechdi, siz bo'lsangiz uni yana bemalol kirityapsizmi?»

Bu borada respublika miqyosida tadqiqotlar o'tkazildi-mi?» — deb so'radi. Unga javoban Oqilov: «Hozir tadqiqot o'tkazishga vaqtimiz yo'q», — deb javob berdi. Hidroksixloroxin yana aholiga tarqatila boshlandi. Qonunga ko'ra, qator tadqiqotlar o'tkazilmagan dorilar ommaviy davolash uchun qo'llanilishi mumkin emas. Lekin bunga birov boshini qotirarmidi...


Millatning salomatligi degan muhim bir qadriyat bor. Har bir davlatning sog'liqni saqlash tizimi fuqarolarining barcha og'riqli nuqtalarini o'rganadi, sinchiklab statistika yuritadi va bor kuchini salbiy ko'rsatkichlarni kamaytirishga tashlaydi. Sportni targ'ib qiladi, axborot-sog'lomlashtirish dasturlarini olib boradi, odamlarni sog'lom bo'lishga qiziqtiradi. Lekin kimningdir manfaati deb hech qachon aholi ustida tajriba o'tkazmaydi. Tibbiyot sohasida ayniqsa ehtiyot bo'lish kerak, halol bo'lish shart.

Milliy TV va Mass-media fondining yigirma kishilik jamoasi bu ko'rsatuvni yetti kun davomida tayyorlab, efirga uzatib bordi. Yetti kun tayinli uyqusiz, dam nimaligini bilmay, xalq uchun foydali ma'lumotlarni iloji boricha kengroq tarqatish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soldi. Bir kunga qolmay, ko'rsatuvning ramzi, konsepti tayyor bo'ldi, ssenariysi yozildi. Eng muhimi — studiyaga tinmay qo'ng'iroq bo'lib turgan holda, orada kaxsalxonalardan ham jonli reportajlar berib, o'ta murakkab jonli efir olib borildi.

Men esa o'sha yetti kun davomida o'zimni Poznerdek⁵² his qildim. Qizig'i shundaki, deyarli hech kim meni tanqid qilmadi, ko'rsatuvning foydaliligi va dolzarbligi ortiqcha gapga o'rin qoldirmadi, shekilli.

Lekin SSV bilan kelishmovchilik tufayli boshim janjalga qolib ketdi va ko'rsatuvni to'xtatishga majbur bo'ldim. Yana kim aybdor? Allamjonov-da!





SIFATLI TA'LIM NIMADAN BOSHLANADI?

Sifatli ta'lim o'qituvchidan ham, repititorlardan ham boshlanmaydi. Sifatli ta'lim o'quvchining portfelidagi darslikdan boshlanadi.

Har yili «mualliflar guruhi» darsliklarimizga o'zgarish kiritish haqida qarorlar qabul qildirib, ularni boshqatdan chop ettiradi. Lekin yangidan chiqarilgani bilan o'sha darsliklar yaxshiroq bo'lib qolmaydi. Qaytaga eski xatolariga yana yangilari qo'shilib, battar bo'ladi. Men o'sha mualliflar guruhining bir darslikni nima uchun qayta chop qilish kerakligini asoslab yozgan xatini o'qiganman — hujjatning o'zida xatolar tiqilib yotibdi, bildirilgan fikrlar mantiqqa zid.

Darslikning byudjeti mualliflari oladigan million so'mlab gonorarlardan, har yili o'ttiz millionlab nusxada chop

qilishga ketadigan milliardlab so'm xarajatlardan shakllanadi. Bizda darsliklar o'quvchilarga bilim emas, ko'proq uni chop qilganlarga mo'may daromad beradi.

AOKAga rahbar bo'lgach, men bu masalaning tagiga yetmoqchi bo'ldim. Nima uchun matematika darsligi bunchalik tez-tez o'zgaradi? Nima uchun fizika darsligiga har safar yangi kirish so'zi yoziladi? Fizika qonuniyatlariga «yangilik» kiritishmaganiga rahmat. Fundamental fanlar darsliklarini hadeb o'zgartirish shartmi? Bu fanlarda qanday jiddiy o'zgarish bo'lishi mumkin o'zi? Eng yangi tarix darsligini o'zgartirish mumkindir, adabiyot, informatika, boring ana, zamon o'zgarib turgani uchun chet tili darsligiyam o'zgarishi mumkindir, o'quv dasturiga ba'zan yangi darsliklar kiritisa bo'lar, lekin matematikaning nimasini o'zgartirishadi? Geometriyani-chi? Fizikani-chi? Kimyoni-chi? Biologiyani-chi?

Darsliklar nima uchun ko'pga chidamaydi? Chunki yupqa, yumshoq muqovali qilib bosiladi. Har kuni ochib, varaqlanadigan, tinmay o'qiladigan kitobni qanday qilib bunday muqovada chiqarish mumkin?

Darslikning muqovasi qattiq bo'lsa, to'rt yilgacha chidab beradi. Xalq ta'limi vazirligidan: «Darsliklarni qattiq muqovali qilishga nima xalaqit beradi?», — deb so'radim. Bu narsa pulga taqalar ekan. Portfelning vaznini belgilaydigan SanQM (sanitariya qoidalari va me'yorlari)ga ham o'zgarish kiritish kerak bo'larmish. Xo'p, buni hal qilsa

bo'ladi-ku? Maxsus yengil vaznli (g'ovak) qog'ozdan qat-tiq muqova chiqarish mumkin. To'g'ri, sal qimmatroqqa tushar, lekin har yili qayta chop qilishga hojat qolmaydi.

[REDACTED]

Men ishni bir chekkadan, darslik tayyorlash zanjiri-ning boshidan oxirigacha o'rganib chiqdim. Tabiiyki, bu sohada shaffoflik haqida gapirmasa ham bo'ladi, shuning uchun juda ko'p savollar paydo bo'ldi. Men bu chigal vaziyatni tartibga solmoqchi bo'ldim.

Birinchi sentabr kuni darsliklar o'quvchilarning portfelida bo'lishi kerak. Har doimgidek, XTV to'lov mud-datini cho'zib, oxiriga taqaydi, shuning uchun buyurtma bor-u, pul yo'q, natijada bosmaxonalar bankdan 25 foizlik kredit olishga majbur. Keyin bu kreditni to'lash uchun bankning foizini kitobning narxiga qo'shib, byudjet hiso-bidan yopish kerak bo'ladi.

— Axir bu davlatga zarar-ku! — dedim men matbaachilarga.

— Pul berishmasa boshqa nimayam qila olardik? — javob berishdi ular.

Biz jadval ishlab chiqib, darsliklarni kim, qachon tasdiqlashi, kim qachon pul to'lashi, kim qachon chop qilib, maktablarga tarqatishini aniq belgilab berdik.

Moliya vazirligiga taklif bilan chiqdik, ish mexanizmini bosmaxonalar kredit olishga majbur bo'lmaydigan darajada soddalashtiraylik, dedik. Vazir rozi bo'ldi.

Darslik otasining narxida chiqarilgani, ularni chop qilishga hamma, hatto xususiy bosmaxonalar ham jalb qilindi. Yetmagandek, ularni o'quv yili boshlangunicha chiqarib ulgurishmas edi, chunki ishga kech kirishilar ekan.

Keyin esa bozorlarda o'sha darsliklarning qalbaki nusxalari paydo bo'lardi — kinga kitob yetmasa, ularni qo'ldan sotib olish uchun bozorga borardi. Xo'sh, bu qalbaki nusxalar qayerdan kelib chiqishi mumkin? Qayoqdan bo'lardi, o'sha darslikni chop qilgan bosmaxonalardan-da! Bu esa qonunga mutlaqo zid edi. Har bir darslikka «Sotuv uchun emas» deb yozib qo'yilgan. Shunday qilib, har bir darslikning boshi qonun buzilishiga borib taqaladi.

U yog'iga qog'oz yetkazib beruvchilar bilan ochiqchasi gaplashdik. Narx-navoni surishtirdik. «O'zbekiston» nashriyotining yangi direktori qog'oz sotib olishga borib, hammadan «otkat» qancha bo'lishini so'rab chiqdi. Sotuvchilar har doimgidek bexijolat 25 foiz «shapka» taklif qilishdi. Biz hamma qog'ozni kimdan sotib olmoqchi bo'lsak, o'sha korxonaga «tenderda yutgan» hisoblanar ekan.

«Bo'пти, bizga 25 foiz chegirma qilib bering, shunda otkatdan qutulasiz», — dedik.

Keyin darsliklarning mualliflarini chaqirtirdik. O'zimizcha ularga «Bunaqa ko'p yozishni bas qilinglar...» mazmunida ma'ruza tayyorlab qo'ygandim. Qarasam, yig'ilganlar professional mualliflar emas, oddiy o'qituvchilar ekan. Endi tasavvur qiling, o'qituvchi bir kunda qancha vaqtini maktabda o'tkazadi? Uyida ham nazorat ishlari, uyga vazifalarni tekshiradi, o'zi darsga tayyorlanadi. Qarab-sizki, darslik yozishga umuman vaqti ortmaydi. Bechora faqat kirish so'zini boshqatdan yozadi, tamom. Bu darsliklar boshidayoq sovet paytidagi kitoblardan ko'chirilgan, u yer-bu yerga o'zgarish kiritilgan, ba'zi joylari olib tashlangan, nimadir qo'shilgan, kesilgan, ulangan, xullas, rasvosi chiqarilgan. Yana yil sayin battar rasvosi chiqarilaveradi.

Bir misol keltiraman. Ma'lum bo'lishicha, davlat darslik ishlab chiqishga buyurtma berib, buning uchun haq to'lar ekan. Ammo mualliflik huquqi buyurtmachida emas, mualliflarda qolarkan. Boshqa joyda shu ish uslubi to'g'ri bo'lar, lekin davlat buyurtmasida emas-da, baraka topkurlar!

Demak, bironta darslik davlat mulki hisoblanmas ekan! Mualliflarga Xudo berib qolibdi: darslikni chop qilish uchun albatta ulardan ruxsat olinar ekan. Bir darslikning muallifi vafot etibdi, mualliflik huquqi meros bo'yicha

farzandlariga o'tibdi. Farzandlari esa bu merosni bo'lisha olmay, sudlashib yurishganmish. Darslik chop qilinishi kerak, huquq egalari esa o'zaro kelisholmay, bunga ruxsat bermayotgan emish! G'irt ahmoqgarchilik! Bolalar maktabda darslik poylab o'tirishibdi, bu yoqda muallifning bolalari meros talashib yotibdi.

Shuning uchun ko'p darsliklarning sifati tushib ketibdi. Maktablarga deb har qancha muhtasham binolar qurib tashlamaylik, u yerda qanchalik zamonaviy innovatsiyalarni joriy qilmaylik, maktab dasturi, o'quv metodikasi yaxshi bo'lmasa, ta'lim tizimi ijobiy tarafga o'zgarmaydi.

Xalq ta'limi vazirligi maktab formasini joriy qilmoqchi bo'lgani qanchalik asabga teggani esimda. Ayni qat-tiq kirishib, darsliklar bilan shug'ullanayotgan vaqtim edi. Saida bilan o'z fikrimizni bildirdik: hoy baraka topkurlar, tuzukroq darsliklarimiz yo'q, metodikamiz yo'q, o'qituvchilarimiz yetishmaydi, siz bo'lsangiz kiyim haqida qay-g'uryapsizmi? Mayli, Toshkentda yashaydiganlar bir amal-lab bolasiga yangi forma sotib olar. Lekin boshqalar-chi? Oilada bir emas, bir necha o'quvchi-farzand bo'lsa-chi?

Maktab formasi bekor qilingandan keyin, ba'zi to'qi-machilar norozi bo'lib chiqishdi. «Ha, tinchlikmi?» desak, maktab formasini tikish bozori allaqachon taqsimlab qo'yilgan ekan, hatto gazlama-yu furnitura yetkazib beruv-chilar aniq emish. Chunki hammasi bitta qo'ldan o'tar-kan! «Biz maktab formasini allaqachon tikib qo'yganmiz,

endi qayoqqa boramiz, kimga sotamiz?», — deyishyapti. Boradigan «adres»ni chiroyli qilib tushuntirib qoʻydik. Otang bozor, onang bozor! Yurtimiz allaqachon bozor munosabatlariga oʻtib boʻlgan.

Xullas, Vazirlar Mahkamasining qarori qayta koʻrib chiqilib, oʻzgartirildi, maktab formasi bekor qilindi, shunga erishdik. Shuningdek, biz Vazirlar Mahkamasining yana bir ziddiyatli qarori — maʼlum maktablarga oʻquvchilarni pulli qabul qilish haqidagi qarorni bekor qildirishga muvaffaq boʻldik.

Oʻquv dasturlari va metodikalarini, darsliklarni ishlab chiqish jarayoni maʼlum bosqichlardan oʻtishi lozim. Qirq daqiqada pishadigan nonni oʻn daqiqada yopib boʻlmaydi. Undan tashqari, tepasida qirq daqiqa davomida kerakli haroratni ushlab turadigan bitta novvoy ham turi-shi shart.

Taʼlim tizimida ham xuddi shunday. Mening shaxsiy fikrimcha, birinchi sinfdan oʻn birinchi sinfgacha boʻlgan barcha darsliklarni puxta tayyorlash uchun kamida besh yil vaqt va koʻp sonli professional mualliflar jamoasi zarur. Eng muhimi, bu ish mualliflar uchun ikkinchi darajali boʻlmasligi kerak, ular faqat shu darsliklar bilan band boʻlishi lozim. Buning uchun ixtisoslashgan markaz boʻlib, u oʻziga xos ilmiy-tadqiqot laboratoriyasiga aylanishi, barqaror moliyaviy taʼminot va rahbariyatga ega boʻlishi kerak.

Men AOKAdan ketganim uchun darsliklar masalasi- ni oxiriga yetkazolmadim. Lekin shu laboratoriyani tash- kil qildim, faqat darsliklar bilan shug'ullanadigan kishi- larning maxsus guruhini tuzdim. Biz ular bilan birinchi, ikkinchi va uchinchi sinflar uchun darsliklar tayyorladik.

Birinchi sinfdan o'n birinchi sinfgacha bo'lgan Milliy ta'lim tizimini ishlab chiqish rejam bor. Bunga besh yil ke- tadi. Bir yili o'tdi, to'rt yil qoldi. Xudo xohlasa, to'rt yildan keyin men O'zbekiston uchun eng zo'r ta'lim tizimini, zo'r metodikani va multimediali darsliklarni taqdim qilaman.

Ta'lim tizimining sifatini baholovchi xalqaro baholash tizimlari bor. Masalan, PISA — o'quvchilarning ta'lim faoliyatini baholashning xalqaro tizimi.

Bu tashkilot har besh yilda turli davlatlarning ta'lim ti- zimlariga obyektiv baho beradi. PISAning reyting ro'yxatiga 180 mamlakat kiritilgan. Biz bu reytingda nechanchi o'rindamiz, deysizmi? Biz bu reytingga hatto kirmagan- miz ham. Xalqaro ekspertlar nazarida bizda ta'limning o'zi yo'q.

Orzum shuki, bir kun kelib, O'zbekiston nafaqat bu reytingga kiradi, balki unda munosib o'rin ham egallaydi.

Shu joyiga kelganda kitobni diqqat bilan o'qiyotgan odamda: «Xo'sh, Allamjonov bundan qancha pul ish- larkin?» — degan savol tug'ilsa, men uni tabriklayman.

Demak, mening motivatsion fikrlarimni bekorga o'qimayotgan ekan.

Ehtimol, Allamjonov kattagina pul ishlab qolar. Har holda, shunaqa umidim ham bor. Besh yil kichik muddat emas, ungacha hamma narsa bo'lishi mumkin, buni yaxshi tushunib turibman. Bunday loyihalarda doim tavakkal qilishga to'g'ri keladi.

Lekin men oddiy olibsotarlik qilmoqchi emasman. Shunchaki, bir narsani sotib olib, keyin ustiga qo'yib pul-lash niyatim yo'q. Bilaman, oldi-sotdi qilish oson, men bu ishni rosa boplayman, falon joydan bir narsani olib, falon joyda sotaylik, ko'chmas mulklarga, qurilishga, tovarlarga pul tikib, dividend olib o'tiraylik, degan takliflar har uch kunda kelib turadi. Ko'p do'stlarim dunyoning turli nuqtalarida biznes ochib qo'yg'an, ular mustaqil ravishda yurib turibdi, egasiga kafolatlangan daromad keltiryapti. Ha, buning orqasidan katta pul keladi. Lekin men shunchaki pulni ko'paytirish bilan shug'ullanmoqchi emasman.

Bu kitobni o'qiyotganlar va boyib ketish niyatida yurganlar, gapimni eslab qoling. Boylikning emotsional qiymati ham bo'ladi. Boyib ketgandan keyin «Men nimaga erishdim?» deb o'zingizga savol bersangiz-u, atrofingizda arzirli hech narsa ko'rmasangiz, buni «erishish» deyilmaydi. Hashamatli uy, mashina, bankdagi hisob raqami — bular oddiy orzular, xolos. Amalga oshgan bo'lsa, rahmat. Ammo inson doim maqsadlar bilan yashashi shart. Faqat o'ziga

emas, boshqalarga ham, iloji bo'lsa, butun vatanga manfaati tegadigan ishlarni qilishi kerak. O'zidan faxrlansa arziyadigan nimadir qoldirishi lozim.

Atrofga qaraganingizda katta-katta loyihalaringizga ko'zingiz tushsin. Mayli, ba'zilari barbod bo'lsa ham, o'xshamay qolsa ham, dunyoni yaxshi tarafga o'zgartirishga hech bo'lmasa harakat qilgan bo'lasiz-ku. Boylikning quruq o'zi maishiy qulaylik beradi, xolos. Boylik hurmat keltirmaydi. Hech qachon keltirmagan ham. Boylik tufayli odamlar sizga qaram bo'lishi, yoningizda egilib-bukilishi, sizdan qo'rqishi mumkin. Lekin hurmat qilmaydi. Kimdir menga havas qilsin, hasad qilsin deb boyimoqchi bo'lsangiz, katta pul haqida orzu qilmay qo'yavering, bunga arzimaydi. Mabodo maqsadingiz tomingizning balandligi bilan qo'shnilarning og'zini ochirib qo'yish bo'lsa, bemalol, o'madingizni bersin.

Men esa «yuksak texnologiyali» pulni yaxshi ko'raman. Kallani ishlatish kerak bo'ladigan, miyasi butun odamlar jalb qilinadigan loyihalarni. BEM ham, «Avtotest» ham, mening barcha patentli ixtirolarim, tahririyatlarim shu asosga qurilgan. Hammasi faqat kuchli mutaxassislarigina hal qila oladigan murakkab vazifalar, tashkiliy ishlar va g'oyalardir. Kimdir maktab darsliklarini tayyorlay olishimga shubha qilayotgan bo'lsa, marhamat, «Avtotest» maktabini ko'rsin. Biz u yerda eng yuqori saviyadagi o'qitish tizimini tashkil qila olganmiz.

Albatta, maqsadlar ko'p pog'onali bo'lishi kerak. To'g'ri, men Ilon Mask emasman, Marsga uchish niyatim yo'q,

raketa yasamayman. Lekin raketani mening o'g'lim yasaydi. Sizning farzandlaringiz, nabiralaringiz yasaydi. Mening o'g'lim o'zimizdagi ta'lim sifatsiz bo'lgani uchun chet elda o'qishini istamayman. Bolamdan besh yillik muddatga uzilish niyatim yo'q. Uning shundoqqina yonimda, ko'z o'ngimda bo'lishini, hech qayoqqa ketmay, har kuni kechqurun institutdan uyga qaytishini xohlayman. Hamma ota-ona ham shunday, menimcha.

Buning uchun esa men nimadir qilishim kerak. Hammamiz nimadir qilishimiz kerak.





OILA MUQADDAS

Bugun oilada erkaklar o'z mavqeyini saqlab qola olyap-timi-yo'qmi, ayol kishining jamiyatda ham o'rni bo'lishi kerakmi yoki ro'zg'or, bola-chaqasini eplab o'tirsa, shu-ning o'zi yetarlimi degan mazmunda ko'p munozaralar bo'lyapti. Bilmadim. Men o'sgan xonadonda «sen qilasan-mi, men qilamanmi...» kabi tortishuvlar bo'lganini eslol-mayman. Hamma bilib-bilib o'z ishini bajargan, bir-biriga yelkadosh bo'lgan, yaqinlarga mehribon, oqibatli bo'lgan...

Dadam oilada kenja farzand bo'lgani uchun buvim biz bilan yashardilar. Ikki xonali kvartirada olti kishi turar edik. Dadam bilan oyim bir xonada, biz — buvim, ikki singlim va men — ikkinchi xonada. Kechasi xontaxtani bir chetga surib, qalin, guldor ko'rpachalarni to'shab ux-lardik. Men deraza tagida yotardim. Har kuni kechqurun buvim duo qilar, biz buvimning aytganlarini takrorlab, duolarini yodlar edik.

Aynan shu buvim hammaga «Komiljonni urishmang, unga tegmanglar, bu bolam ministr bo'ladi», derdilar. Buvim erta vafot etdilar. Ular haqida xotiramda juda kam, lekin eng iliq va yorqin xotiralar saqlanib qoldi.

Uyimiz tor bo'lsa ham, yurakni keng qilib, juda ahil yashaganmiz. Qo'shnilarimiz ajoyib insonlar edi, umuman, mahalladagi hamma bir-biriga qarindoshdek yaqin, xonadonlarimiz eshiklari hech qachon qulflanmasdi. Bolalar xohlagan paytida xohlagan uyiga kirib, bemalol suv yoki choy ichishi, muzlatkichni ochib, biron narsa olib ye-yishi mumkin edi. Qo'shnilarnikidan hali yog', hali guruch, hali piyoz so'rashga meni yuborishardi. Qo'shni haqi — ilinganlarini ham men orqali chiqarishar edi. Yonimizda Yusuf aka degan kishi turar, ko'chada meni ko'rib qolsa, chaqirib olib, bir kosa qo'lbola vino quyib, dadamga berib yuborardi. Men ehtiyotlab ko'tarib ketardim. Bir safar limmo-lim to'la kosadan to'kilmasligi uchun bir ho'plam ichib ham ko'rganman. Mazasi yoqmagan. Yetti yot begona bo'lsak ham, hamma qo'shnilarni buvi, xola, amaki, kennayi deb chaqirardik. Buvimning dugonalari bir-birlarini opam, singlim degandan keyin, hammalari bizga xola bo'ladi-da!

Bir oyda bir marta buvimning ulfatlari «gap»ga yig'ilardi. Buvimning navbatlari kelganda bir kun oldindan yaxshilab tayyorgarlik ko'rardik. Ota-onamning yo-toqxonalariidagi karavot qo'shnilarnikiga qo'yib turilar

edi. Qo'shnimiz Erkin akanikidan katta xontaxta ko'tarib chiqib, atrofiga ohori to'kilmagan ko'rpachalar solinar- di. O'sha ko'rpachalarda dumalash biram maza ediki... Bir kun oldindan dasturxon tuzab qo'yilar, singillarim «teg- malarim, mehmonga atalgan» degan taqiqqa so'zsiz rioya qilardi. Lekin men bunaqa ogohlantirishlarni o'zimga olmasdim, taqsimchalardagi yong'oq, mayizlardan cho'qi- lab, tagiga yong'oq po'choqlari tiqib, o'rnini to'ldirib qo'- yardim, xuddi tegilmaganday turardi.



*Maxsuma buvimning ulfatlari har oyda «gap»ga yig'ilishardi.
Bolaligimning eng iliq, eng yorqin xotiralari.*

Rahmatli buvim xushchaqchaq ayol edilar, qo'shiq ay- tishni boplardilar, chiroyli raqsga tushardilar. Qayno- na-kelin rosa apoq-chapoq edi, uyda biror marta janjal ko'tarilganini bilmayman. Buvimning nimadandir jahllari chiqsa, eshikni qarsillatib yopib, qo'shnilar- nikiga chiqib ketardilar. Qaytib kelganlarida hech kimga indamas,

onam esa atroflarida parvona bo'lib, ko'ngillarini olishga harakat qilardilar. Oyim tug'ruqxonaga navbatchilikka ketganlarida buvim bizga qarab o'tirar va kelinlari buning uchun ulardan juda minnatdor edi.

O'zi har qancha rahmat aytsalar arzirdi, chunki men juda sho'x bola bo'lganman. Buvimga quloq solmasdim, asablariga tegaverardim, nuqul u-bu g'alva boshlab yurardim. To'g'rirog'i, quloq solardim-u, lekin gaplari bir qulog'imdan kirib, ikkinchisidan chiqib ketar, o'z bilganimdan qolmasdim. Kichik singlimni ko'proq erkalaganlariga qizg'angan bo'lsam kerak. Buvim har oy nafaqa olganlarida o'sha singlimni uyimizning burchagidagi do'konchaga yetaklab chiqib, yurakka yaqin «seyf»dan («eng ishonchli seyf shu» — derdilar) pul chiqarib, unga shirinliklar olib berardilar. Menga esa odatda hech narsa olib bermas edilar, chunki ungacha albatta nimadir ishkal chiqargan bo'lardim va buvim meni shunaqa qilib tarbiyalardilar.

Uncha sirtlariga chiqarmasdilar-u, lekin baribir meni juda yaxshi ko'rganlar. Ko'p dakki bersalar ham, doim hi-moya qilganlar.

Mahallamizda bir qiz yashardi, menga rosa yoqib qol-gandi. Uning e'tiborini qaratish uchun jig'iga tegib, bir balolar deb, jahlini chiqaradigan bo'ldim. Ayol kishi seni sevib qolishi uchun yana nima qilish kerak axir?! Qarab-sizki, bir kuni qizning dadasi meni aynan shunaqa qiliq ustida tutib olib, yoqamdan ko'tarib, yaxshilab tarsaki


tushirdi. Buni ko'rib qolgan buvim burgutdek uchib kelib, uning changalidan meni tortib olganlar.

Faqat qizlarni xafa qilish bilan cheklanib qolmas edim. Qachon qarasa o'zimdan kattaroq bolalar bilan mushtlashib yurar, keyin ularning ota-onalari biznikiga shikoyat qilib kelishardi. Omadimni qarangki, ular doim kunduzi, ota-onam ishda bo'lgan paytda kelib qolishardi, uyda faqat buvim bo'lardilar. Buvim bolalarning dadalari bilan muzokara olib borishga usta edilar.

— O'rgilay sendan, nima qil deysan axir? Ha endi urishib qolishibdi, bola-da! Hozir arazlashib, yana birpasda yarashib ketishadi, endi sen — kap-katta odam shu yosh bolaga qo'l ko'tarasanmi? Qo'yaqol, qoqindiq. Men o'zim ta'zirini berib qo'yaman.

O'zimiz qolganimizda meni rosa urishar, dadangga aytaman deb po'pisa qilardilar, men esa dadamdan o'lgudek qo'rqardim. Lekin yaxshilab kuzatsam, buvim hech qachon o'g'illariga aytib bermas ekanlar. Shundan keyin cho'chimay qo'yganman. Bir safar aytib berganlarida dadam menga yomon baqirib tashladi, buvim shu zahoti yana himoya qilishga tushdilar:

— Voy, muncha baqirasan bolaga? Bir og'iz gap gapirib bo'lmaydimi endi senga?! Kelaqol o'zimga, bolajonim, yig'lama... — buvim shunday deb, meni qanotlari ostiga oldilar. — Bo'ldi, ikkinchi qilmaydi...



*Dadamning ota-onalari. A'lamjon buvam qori bo'lganlar.
Maxsuma buvim meni ministr bo'ladi, derdilar.*

Shundan keyin faqat onamga shikoyat qiladigan bo'lganlar.

Bir safar kutilmaganda qish erta kelib qolib, gupillab qor yog'ib berdi. Ota-onam hali menga qishki oyoq kiyim olib berishmagan ekan. Ertalab maktabga buvimning mahsi-kalishlarini kiyib ketdim. Onam navbatchilikdan kelsalar, buvim: «O'g'lingiz maktabga mening mahsi-kalishimda ketibdi...» — debdilar. Onam oyoq kiyimimni ko'tarib, buvimning mahsi-kalishlarini qaytarib olib kelish uchun maktabga yugurganlar...

Afsuski, oradan ko'p o'tmay, buvimning mazalari qochib qoldi. Alsgeymer kasalligi boshlangan ekan. Endi ularni uyda yolg'iz qoldirib bo'lmasdi. Buvim hech kimni tanimay qo'ydilar, atroflarini begona odamlar o'rab olib, ularni o'ldirish uchun hujum qilayotgandek tuyuladigan

bo'lib qoldi. Bir kuni nimadir bo'lib, uydan chiqib ketibdilar! Zo'rg'a topib kelganmiz. Onam ikki yil hech qayoqqa qimirlamay, buvimga qarab o'tirdilar. Keyin esa buvim yiqilib, qo'llarini sindirib oldilar. Shundan keyin yotib qoldilar. Har kuni ertalab onam ikkimiz buvimning baqir-chaqirlari, qarshilik ko'rsatishlariga qaramay, o'rinlaridan turg'izib, hammomga olib kirib, yuvintirardik. Lekin ba'zan buvim o'zlariga kelib qolar, birdan xotiralari tiklanib, meni, onamni tanib qolardilar, hatto onamning ismlarini aytib, duo qilardilar.

Buvim o'lim to'shagida yotganlarida birgina onamning ismi — Gulnorani eslardilar. Boshqa hech kimni — dadamni ham, ammalarimni ham tanimasdilar. Faqat «Gulnora! Gulnora!» deb oyimni chaqiraverardilar. Omonatlarini topshirgan kuni oyim navbatchilikka ketgandilar, buvim oxirigacha kelinlarining yo'lga ko'z tikib yotib, oyim kelishlari bilan jonlari uzildi.

Bir kuni dadam gapirib qoldilar:

— Onang har qancha injiqlik qilsa ham, men undan hecham xafa bo'lmayman. Nima qilsayam indamayman.

— Nega unaqa deyapsiz, ada?

— Men oyingdan umrimning oxirigacha roziman. Chunki katta oyingga shuncha qaradi, oq yuvib-oq taradi.

Men Maxsuma buvimni «katta oyi» deb chaqirardim. Buvimning sirli sandig'i bo'lardi. Kalitini burasa, ochila-

yotganda ichidan g'aroyib ohang taralardi. Men erta-yu kech o'sha kalitni qo'lg'a kiritish, sandiqni ochish uchun payt poylar edim. Buvim sandiqning tovushini eshitishlari bilan yetib kelardilar.

— Yana sandig'imni tityapsanmi, umring uzoq bo'lgur Komil?! Qachon kalitimni o'mara qolding?

Bir tergab qo'ygan bo'lardilar-u, keyin yonlariga o'tqizib olib, «xazina»larini ko'rsatardilar. Sandiq ichida ming xil mayda-chuyda, eski fotosuratlar, ozroq pul va ikki bo'lak oq surp...

— Bu — o'limligim. Men o'lsam, meni mana shunga o'raysizlar...

— E, unaqa demang, katta oyi! Siz hech qachon o'lmaysiz!

Qaniydi, hozir buvilarim tirik bo'lganida, o'zlari orzu qilgandek Komil nevaralarining kamolini ko'rishganida edi. Oyoqlari tagiga butun dunyoni to'kib tashlagan bo'lardim. Ular menga bergan mehr-muhabbatni oqlardim...

Oyimning onalari ham erta vafot etgan. Bolalik xotiramda bu buvimning uylaridagi o'ziga xos ifor va ertayu kech maqom taralib turadigan radio saqlanib qolgan. Shuning uchun maqom eshitsam, yoshligimga qaytgandek bo'laman.



Oyinning ota-onalari — Asqar dodam va Bashorat buvim.

Bashorat buvim har safar nafaqalaridan men uchun pul ajratib, yashirib qo‘yar edilar: «Muzqaymoq olarsan...» Har doim «Sen mening eng yaxshi ko‘rgan nabiramsan», derdilar. Buvimning ikkinchi erlari — Asqar doda men uchun o‘zimning bobomdan ham yaqinroq edilar. Biz tomon hamma toshkentlik, Asqar dodam esa farg‘onalik edi. Asqar dodam buvimni nikohlariga olgach, qizlariga haqiqiy otalik qilganlar, ularni o‘z farzandlaridek ko‘rib, mehr bilan voyaga yetkazganlar.

Asqar dodam hayitning birinchi kuni vafot etdilar. Ko‘chada oppoq, top-toza, momiq qor yotar, lekin havo iliq, quyosh charaqlab turardi. Dodamning tobutini Hastimom masjidiga ibodatga kelgan minglab odam qabristongacha ko‘tarib borgan. Hayotlari davomida qilgan qaysidir ishlari Xudoga yoqqani uchun u kishiga mana shunday

go'zal xotima nasib qilgan bo'lsa kerak, deb o'ylagandim o'shanda.

Bashorat buvim xokisor, haqiqiy o'zbek ayoli edilar. Asqar dodam ham mehnatkash, soddadil inson sifatida xotiramda qolgan. Allohim ularni rahmatiga olgan bo'lsin.

Dadamning onasi — katta oyim ham yoshligida beva qolgan, buvam vafot etgach, ikkinchi marta turmushga chiqmagan. «Malika» fabrikasida ishlab, ro'zg'or tebratgan. Dadam ham, amakim ham juda erta mehnat qila boshlaganlar.

— «Sotkam»ni beringlar...

Dadam har kuni ertalab ishga ketishdan oldin so'rab oladigan «sotka»si to'rtburchak qilib kaftdek taxlangan qora paket edi. O'sha kuni mashina tuzattiradigan mijoz chiqsa, kechqurun «sotka»-paketda oziq-ovqat kelardi. Mijoz bo'lmasa, «sotka» taxi buzilmay qaytib kelar edi.

Kichkinaligimda uyda menga qarab turadigan odam bo'lmasa, oyimning ishxonasiga borardim. Hech kimning ko'zi tushmasligi uchun bir chekkada jimgina o'tirardim. Bir kuni vitaminlar turgan shkafni ko'rib qoldim! Ana omad-u mana omad! Shkafni ochib, tilim sap-sariq bo'lib ketgunicha askorbinkani uribman o'ziam...

Men baxtli oilada voyaga yetdim. Oilaviy baxt pulga bogʻliq emas, buni aniq bilaman. Lekin shu darajaga yetishda, bugungi poydevorning mustahkam boʻlishida oilamizning ahil-inoqligi, hammamiz bir-birimizni qoʻllab, bir yoqadan bosh chiqarishimiz bizga katta yordam bergan. Bu hayot «teatri»da hammaning oʻz roli bor. Uni yurakdan ijro etish kerak, xolos...





JURNALISTLARGA SO‘Z ERKINLIGI KERAK EMAS

2020-yilning oxiriga kelib, g‘alati gap-so‘zlar aylana boshladi — ko‘pchilik odamlar so‘z erkinligi faqat jurnalistlarga kerak, shunga xuddi o‘zlari uchun bir imtiyoz talab qilgandek olishib yotishibdi, deb hisoblar ekan.

Ishoning, so‘z erkinligi ularga kerak emas. Bu neft yoki oltin bo‘lmasa, dividend, imtiyoz yoki mashhurlik keltirmasa. Qaysi jurnalistdan so‘ramay, shu paytgacha yengil kontent-mavzular bilan ham bemalol yashab kelishganini aytadi. Ko‘ngilochar kanallar, videobloglar reytingining yuqoriligi — buning isboti. Bir kuzating-da, million martalab nimalar ko‘rilyapti? Ko‘ngilochar loyihalar bilan ommaning vaqtini chog‘ qilayotganlarning bozori chaqqon, reklama beruvchilar shularning etagini qattiq tutadi. Jiddiy nashrlar, tahliliy maqolalarning auditoriyasi ulardan bir necha baravar kam. Lekin boshog‘riqlari, asabbuzarliliklari, eshitadigan do‘q-po‘pisalari ortig‘i bilan.

Agar hozir axborot erkinligiga nuqta qo'yadigan bo'lsak, jurnalist-u bloggerlar yana turizm, pazandachilik mavzulariga o'tib ketadi. Ular-ku, kunini ko'rar, ko'chada qolmaydi. Lekin islohotlar natijasida hamma erishganlarimiz yo'qqa chiqadi. Chunki so'z erkinligi — ana shu islohotlarni ilgari surayotganlar uchun qo'shimcha, yordamchi ko'z demakdir. Ishimizni qoyillatyapmiz deb, ko'krak kerib hisobot beradigan, lekin aslida xalqqa tegishli mol-mulkni talon-taroj qiluvchi, buzuvchi, vayron qiluvchi, sotib yuboruvchilar doim topiladi.

So'z erkinligi avvalo jamiyatga, davlatga kerak. So'z erkinligini vatanparvarligidan, yurtiga, xalqiga joni achiqanidan, mamlakatning ravnaqi uchun ilgari surayotgan odamlardan minnatdor bo'lishimiz lozim. Ular amaldorlarning tepsa-tebranmasligini, qarshiligini yengib o'tyapti va evaziga boshlariga bir dunyo muammo va ko'ngilsizliklar orttirib olishmoqda.

Men AOKAga rahbar bo'lib, jurnalistlar, bloggerlar va OAV huquqlarini himoya qilish agentligi ishini yo'lga qo'ygan paytimdayoq bu tashkilot vaqtincha ekanini, o'tish davriga xosligini tushunganman. Jamiyat, davlat va OAVning o'zi ham bu davrda yangi voqelikni — so'z erkinligi hayotimizga chuqur kirib borganligini anglab yetib, yangi muhitga moslashishi kerak edi.

AOKA loyihasi ikki yilga mo'ljallangan bo'lib, aniq vazifalar uchun tashkil qilingan. Birinchisi — matbuot xiz-

matlari ishini yo'lg'a qo'yish. Ular tegishli vazirlik, tashkilotlarning nuqtayi nazarini o'z vaqtida, aniq va lo'nda ifoda etishi, shuningdek, matbuot bilan muloqot o'rnatiishi, jamoatchilik bilan doimiy aloqada bo'lishi kerak edi.

Biz bu vazifani uddaladik. Bugungi kunda mamlakatdagi har bir tashkilot o'zining matbuot xizmatiga ega, bu xizmatning boshlig'i esa rahbar o'rinbosariga tenglashtirilgan. Bu oldinga qo'yilgan katta qadam bo'ldi, uning natijalari ko'zga ko'rina boshladi.

Ikkinchi va eng asosiy vazifa «telefon huquqi»ni yo'qotish, jurnalistlarni islohotlarga ishontirish, ularning miyasida o'rnashib qolgan ichki senzorni siqib chiqarish, faolliklarini oshirish, hamma sohalarda taraqqiyotni ilgari surishlariga erishmoqlik edi. AOKA O'zbekistonning yosh, demokratik jurnalistikasi uchun qalqon bo'ldi, erkin jurnalistlar bilan hukumat o'rtasida vositachi vazifasini bajardi. Biz murosa yo'llarini izladik, kadrlarni o'qitdik, yo'nalish berdik, brifinglar va matbuot anjumanlari amaliyotini joriy qildik, kerak bo'lsa, jurnalistlarning ruhini, kayfiyatini ko'tardik. Blogosferaning rivojlanishi uchun ham barcha shart-sharoitlarni yaratib berdik.

Bu bosqichda, ayniqsa, jurnalist va blogerlar hukumat bilan sudlashish va oshkora muloqot qilish bo'yicha tajriba orttira boshlagan paytda, AOKAning o'rnini hech kim bosolmas edi.

Afsuski, tajribadan ma'lum bo'ldiki, davlat tashkilotining siyosati unga yuklatilgan funktsiya va vazifalarga emas, ko'pincha bevosita rahbariga bog'liq ekan. AOKAda ham shunday holat yuz berdi. Direktor jurnalistlarni himoya qilish o'rniga go'yoki mamlakatda osoyishtalikni saqlash bahonasida haqiqatni ochiq yoritishni taqiqlab qo'ydi.

Xuddi jurnalist muammolarni yoritmasa, yopiqlik qozon yopiqliciga qolib, muammolar haqida hech kim bilmaydigandek.

Xullas, xuddi eski paytlardagidek, yong'inni emas, signalizatsiyani o'chirmoqchi bo'lib ko'rishdi.

Mening nazarimda, shuning uchun ham so'z erkinligi konsepsiyasining keyingi bosqichida bu sohani tartibga soluvchi, nazorat qiluvchi davlat tashkilotidan xoli modelga o'tishimiz kerak. Uning o'rniga o'z-o'zini nazorat qilish mexanizmlari va qonunlar ishlashi zarur. Himoya muayyan bir shaxslarga bog'liq bo'lishi noto'g'ri, har qanday vaziyatda qonun ustuvorligi ta'minlanishi shart. Har bir fuqaro, har bir jurnalist, bloger yoki OAV o'zini himoya qilish imkoniga ega bo'lishi va o'z huquqlariga rioya etilishini talab qilishi kerak.

Xullas, bugungi vaziyatdan kelib chiqadigan bo'lsak, AOKA tizim sifatida o'z vazifasini bajarib bo'ldi, unga ehtiyoj qolmadi, deb hisoblayman. Bizning yangi demokrati-

yamizda OAVning ustidan nazorat qiladigan organga zarurat yo‘q.

Endi ommaviy axborot vositalari haqiqiy to‘rtinchi hokimiyatga aylanib bo‘ldi.



SO'NGSO'Z

Qo'lingizdagi kitobni tahrir qilayotganimizda muharrir va maslahatchilarim menga: «Bunchalik ochiqcha yozish shartmikin? Odamlarga qo'rquvlaringiz, ishonchsizlik, xato va yo'qotishlaringizni ko'rsatish to'g'rimikin? Bu qay darajada motivatsiya bo'la oladi?» — deyishdi. Kito-bimni supermenlar emas, oddiy yoshlar o'qishini aytdim. O'zim ham supermen emasman-ku, hammaga o'xshagan oddiy odamman. Men ham omadsizlikka uchrashdan qo'rqaman, o'ylayman, siqilaman. Bu — hayot, oxiri doim yaxshilik bilan tugaydigan, qahramonlari faqat ijobiy xislatlarga ega Gollivud filmi emas! Unda hammasi silliq kechavermaydi.


Shaxsiy hayotim bilan bog'liq ancha voqea-hodisalarni tilga olmadim, chunki bu borada hali ko'p narsani anglab olishim, o'zim uchun xulosalar chiqarishim kerak. Memuarlar yozishga hali erta. Bu kitobdan maqsad — motivatsiya berish, xolos. Agar uni o'qigan hech bo'lmasa bir insonning hayoti yaxshi tomonga o'zgarsa, vazifasini bajargan bo'ladi.

Men hayotimda to'qnashgan barcha insonlardan minnatdorman. Menga o'z zarbalari bilan kurashuvchan bo'lishni, har qanday vaziyatda qayta o'nglanib, qad rostlashni o'rgatganlarga ham rahmat deyman. Bunday odamlardan ikki karra minnatdorman. Chunki ularning beshafqat turtkisi men uchun katta tajriba bo'lgan, har safar bir pog'ona yuqoriga olib chiqib, olg'a yurishimga majbur qilgan.

Oson kechmagan shu to'rt yil davomida taqdir yo'llarimiz kesishgan barcha jurnalistlarga, hamma-hammaga rahmat aytaman. Hozir unchalik bilinmayotgan bo'lsa-da, lekin sizlar bilan birga rosmana tarixiy ishlar qildik. Buning natijalarini hali albatta ko'ramiz, Xudo xohlasa.

Meni qo'llab-quvvatlagani, tushungani, xolis tanqidlari va kreativ g'oyalari uchun Saida Shavkatovnaga alohida minnatdorchilik bildiraman. AOKA va Fondning barcha yirik loyihalari, katta yutuqlarida bu insonning hissasi beqiyos.

Yaxshi-yomon kunlarimda yonimda turgan ajoyib Jamoam, Hamfikrlarim, Sizlardan behad minnatdorman.

Shuhrat Shoislomov 

Husan Hakimov

Fathiddin Muhiddinov

Sunnat Siddiqov

Tatyana Stepanova

Nazira Salohiddinova

Abror Ismoilov

Sarvar Po'latov

Flyura Xisimatullina

Kamila Sultonova

Rushana Farahova

Yulduz Hoshimova

Olga Nepomnyashaya

Baxtiyor Inog'omov

Bobirbek Usmonov

Dilmurod Abduqodirov

Deyl Axmadi

Kamilla Axmadi

Laziz Hamidov

Abdulaziz Homidjonov

Sardor Yoqubov

Farid Fayzullin

Komil Numanov

Pavel Kim	Ravshaniya Maxmudova
Yuliya Risyukova	Lola Zunnunova
Oksana Tigay	Bahodir Qosimov
Vohid Hamidov	Qahramon Mahkamov
Shahnoza Hoshimova	Sodikjon Mahkamov
Gulzoda Jo'rayeva	Munis Toshmatova
Sardor Komilov	Ayub Shahobiddinov
Komilxo'ja Mahamadxo'- jayev	Sevdo Niyozova
Ikrom Abdulqodirov	Farangiz Jabborova
Sayyora Ibragimova	Islom To'xtasinov
Barno Rahmonova	Mirshakar Fayzulloyev
Kirill Grishin	Sardor Babayev
Mavluda Tojjiyeva	Akram Rizayev
Madina Toshniyazova	Dilshod Saidjonov
Laylo Akramova	Olga Ibragimova
Lyudmila Itolmasova	Gulruxsor Hotamova
Xurshid Azimov	Akbar Rizayev
Sergey Kim	Shirin Shog'ulomova
Anatoliy Rashupkin	Elnora Nosirova
Aleks Pak	Tamila Aliyeva
Ravshan Rajabov	Nozima Fayziboyeva
Mamanbiy Omarov	Ella Jaxangirova
Javohir Rixsiboyev	Nigora Tursunova
Qobil Nazarov	Aleksandra Kolesnichenko
Rafik Axmetvaliyev	Hikmatilla Ubaydullayev
Husan Salixov	Iroda Ismoilova
	Aziz Shigayev

Dilnoza Ziyamammedova	Ulug'bek Qurbonov
Go'zal Is'hoqova	Ilvira Sulaymanova
Baxtiyor Nosirov	Ozodbek Nazarbekov
Sayfutdin Husanov	Aziz Abduhakimov
Shuhrat Jalilov	Ruslan Davletov
Rasul Yuldashev	Alisher Xo'jayev
Saida Davletova	Intizor Ochilova
Aziza Qurbonova	Navbahor Imomova
Yoqub Yusupov	Nargiza Mambayeva
Xushnudbek Xudoyberdiyev	Lera Bars
Shuhrat Rasulov	Iskandar Do'smatov
Jasur Shametov	Obid Asomov
Nikita Makarenko	O'tkir Muhammadxo'jayev
Nargiza Rahimova	Bahriddin Chustiy
Nozim Safari	Ravshan Tursunov
Umid Shermuhammedov	Avaz Xojimetov
Muhrim A'zamxo'jayev	Alisher Rahmatullayev
Qamariddin Shayxov	Otabek Nazirov
Sasha Ivanyujenko	Rislig'oy Hotamova
Feruzxon Yoqubxo'jayev	Komil Saidov
Veniamin Ten	Olim Omonov
Ali Qahhorov	Jahongir Egamberdiyev
Kirill Altman	Sulaymon Husainov
To'rabek To'rayev	Jasur Husanov
Aziz Mag'rupov	Shuhrat Erkaboyev



IZOHLAR

I: *Vazir keldi*

¹ O'zMAA — O'zbekiston matbuot va axborot agentligi. Matbuot va axborot sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlovchi davlat organi.

² Tanzila Kamolovna Norboyeva — O'zbek davlat va jamoat arbobi, 2016-2019-yillari O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasiga rahbarlik qilgan.

³ Ochilboy Jumaniyozovich Ramatov — davlat arbobi, 2016-yil 15-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari etib tayinlangan.

⁴ Laziz Tangriyev — 2017-yil iyuldan 2018-yil noyabrgacha O'zMAA rahbari bo'lgan.

⁵ Dilnoza Ziyamammedova — 2020-yil iyundan O'zbekiston Prezidenti Administratsiyasi rahbarining OAV masalalari bo'yicha o'rinbosari, OAV, televideniye va matbuotni rivojlantirish sektori mudiri.

⁶ Mahmudjon Zaytayev — «O‘zbekiston» nashriyot-poli-grafiya ijodiy uyi direktorining birinchi o‘rinbosari.

II: *Parpiyevning jiyani*

⁷ MTRK — Milliy teleradiokompaniya.

⁸ «DAVR» — MTRK «Yoshlar» telekanalining axborot dasturlari tahririyati.

⁹ FVV — O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi.

¹⁰ Abdusaid Ko‘chimov — o‘zbek jurnalisti, 1997-2005-yillarda O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi raisi.

¹¹ «Beruniy» — Toshkent metropoliteni O‘zbekiston yo‘nalishining oxirgi bekati.

¹² Qoraqamish — Toshkentning Olmazor tumanidagi mavze.

¹³ ToshDU — Toshkent davlat universiteti. 2000-yil yanvardan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti.

¹⁴ Uzmtronom — O‘zbekistondagi mustaqil sayt. 2020-yilning may oyigacha blokda bo‘lgan.

¹⁵ «Jemchug» — Toshkent shahridagi mashhur «Jemchug» (marvarid) doʻkoni joylashgan, koʻpqavatli tajribaviy loyihalangan uy.

¹⁶ «Sharq» — nashriyot-matbaa konserni.

¹⁷ **Shavkat Miromonovich Mirziyoyev** — 2003-yil dekabr-dan 2016-yil dekabrgacha Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri, 2016-yil 14-dekabr-dan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti.

¹⁸ **Akademiya** — Davlat soliq qoʻmitasi huzuridagi Soliq akademiyasi.

III: *Shakar, vanna, press, baklajka*

¹⁹ «Radio Peydj Semurg» — peyjing kompaniyasi.

IV: *Soliq-info*

²⁰ DSI — Davlat soliq inspeksiyasi.

V: *Garvard rejada yoʻq edi*

²¹ «Turon-24» — yangiliklar sayt-agregatori.

VI: *Avtotest report*

²² **Husan Ibragimovich Hakimov** — «Avtotest Report» kompaniyasining loyihalash va dasturiy ta'minot ishlab chiqish bo'limi bosh mutaxassisi.

VII: *AOKA. OAVdagi o'zgarishlar*

²³ **Ali Qahhorov** — jurnalist, blogger, Repost.uz onlayn-resursini boshqargan.

²⁴ **Arlem Dezir** — 2017-iyuldan 2020-yil iyulgacha OAV erkinligi masalalari bo'yicha YXHT vakili bo'lgan.

²⁵ **AOKA** — Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi. O'zbekiston matbuot va axborot agentligi negizida tashkil etilgan.

²⁶ **404 belgisi yoki Not found** — internetda izlanayotgan sayt topilmaganda chiqadigan belgi va uning kod raqami.

VIII: *Aybdor — Allamjonov*

²⁷ **PG** — maxfiy axborot tarqalib ketishining oldini olish maqsadida maxsus joriy etilgan hukumat aloqa tizimi.

²⁸ **Ippodrom** — 90-yillarda Toshkentdagi otchopar maydonida rejalashtirilmagan holda shakllanib qolgan yirik bozor. 2001-yili «Chilonzor buyum bozori» sifatida rasmiylashtirilgan.

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 139-modda — «Tuhmat», 140-modda — «Haqorat». O'zbekiston Oliy Majlisi Senati 19-dekabrda o'tgan 10-plenar majlisida bu jinoyatlar uchun belgilangan ozodlikdan mahrum etish jazo chorasini bekor qiluvchi qonunni tasdiqladi.

x: *Milliy TV*

³⁰ Yulduz Usmonova — estrada qo'shiqchisi, bastakor, qo'shiqnavis shoir, prodyuser. O'zbekiston xalq artisti.

³¹ Obid Asomov — qiziqchi aktyor. «Rossiya-1» kanalining «Krivoye zerkalo» hajviy teleko'rsatuv iştirakchisi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist.

³² Sherali Jo'rayev — mashhur o'zbek qo'shiqchisi, sozanda, shoir, bastakor. O'zbekiston xalq artisti, «Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni sohibi.

³³ Ozoda Saidzoda (Ozoda Nursaidova) — o'zbek qo'shiqchisi, bastakor, prodyuser, turli musiqiy loyihalar muallifi.

³⁴ «Krivoye zerkalo» (qiyshiq oyna) — Rossiya telekanallarida efirga uzatiladigan hajviy ko'rsatuv.

³⁵ «O'zbekim» — O'zbekiston haqidagi sovg'abop kitob.

³⁶ PTS — ko'chma telestudiya.

XI: *Matbuot kotibi*

³⁷ **Jasliq** — Qoraqalog'istondagi qamoqxona, mahbuslarga nisbatan qo'llanilgan shafqatsiz munosabat, ayovsiz qiy-noqlari bilan mashhur.

XIII: *Pul*

³⁸ **BEM (Buxgalterga elektron madad)** — buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish dasturi.

³⁹ **Odil Turdiqulov** — elektron buxgalteriya hisobini yuritadigan dasturiy ilovalar muallifi.

⁴⁰ **Nodira Vohidova** — biznesni rivojlantirish bo'yicha mutaxassis. 2009-yilda «BEM — Buxgalterga elektron madad» loyihasiga rahbarlik qilgan.

⁴¹ **Komissar Kattani** — «Sprut» serialining bosh qahramoni. Mafiyaga qarshi kurash ramzi.

XIV: *Katta Osh*

⁴² **Jeymi Oliver** — inglizlik oshpaz, restorator, teleboshlovchi, sog'lom ovqatlanish va pazandalik targ'ibotchisi. Pazandalik bo'yicha mashhur kitoblar muallifi.

⁴³ **Bahriddin Chustiy** — O‘zbekistondagi mashhur oshpazlardan biri. «Aksu», «Chustiy choyxonasi», «Oshxona.uz» (O‘zbekiston), «Zanjabil» (Qozog‘istonda), «Lagmaniya» (Rossiya) kabi restoranlarning asoschisi va bosh oshpazi.

⁴⁴ **Xushnudbek Xudoyberdiyev** — yurist, mashhur bloger. 2020-yilning yanvar oyidan iyungacha Mass-mediani qo‘l-lab-quvvatlash va rivojlantirish jamoatchilik fondi direktori bo‘lgan. 2020-yil 1-iyulda O‘zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktorining muovini etib tayinlangan.

⁴⁵ **OTMK** — Olmaliq tog‘-metallurgiya kombinati. O‘zbekistondagi eng yirik korxonalaridan biri.

⁴⁶ **Brodvey** — Toshkentdagi Sayilgoh ko‘chasi, xalq orasida «Brodvey» degan nom olgan. Piyodalar uchun mo‘ljallangan.

⁴⁷ «**Anhor Lokomotiv**» — ko‘ngilochar attraksionlar bog‘i.

XV: *Pandemiya*

⁴⁸ «**Potrebitel.uz**» — O‘zbekistondagi iste‘molchilarning ijtimoiy tarmoqlardagi norasmiy guruhi.

⁴⁹ **Liliya Nikolenko** — «Potrebitel.uz» ommabop loyihasi rahbari, bloger.

⁵⁰ Hikmatilla Ubaydullayev — 2019-yil fevraldan 2020-yil fevralgacha AOKA matbuot-kotibi; 2020-yil 26-oktabrdan — Mass-media fondi matbuot-kotibi.

XVI: *SSV bilan Hidroksixloroxin
tufayli kurash*

⁵¹ Habibulla Oqilov — Sogʻliqni saqlash vazirligi huzuridagi Koronavirusga qarshi kurash shtabining aʼzosi.

⁵² Vladimir Pozner — sovet, Rossiya va Amerika jurnalisti, teleboshlovchi, radioboshlovchi, Rossiya televideniye akademiyasining birinchi prezidenti (1994–2008), yozuvchi.



MUNDARIJA

So'zboshi	4
Vazir keldi	7
Parpiyevning jiyani	25
Shakar, vanna, press, baklajka	57
Soliq-info	69
Garvard rejada yo'q edi	79
Avtotest report	89
AOKA. OAVdagi o'zgarishlar	101
Aybdor — Allamjonov	115
Men «forbs» ro'yxatiga qanday kirdim?	139
Milliy TV	151

Matbuot kotibi	167
Yangicha demokratiya	179
Pul	197
Katta osh	223
Pandemiya	231
SSV bilan Gidroksixloroxin tufayli kurash	251
Sifatli ta'lim nimadan boshlanadi?	263
Oila muqaddas	275
Jurnalistlarga so'z erkinligi kerak emas	287
So'ngso'z	292
Izohlar	300

KOMIL ALLAMJONOV

ALLAMJONOV
— AYBDOR —

SIGNALIZATSIYANI EMAS,
YONG'INNI O'CHIRISH
KERAKLIGI HAQIDA KITOB

«Novda Edutainment» MCHJ nashriyoti.
Manzil: 100015, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar,
Said Baraka ko'chasi, 21-uy, 3-4.
Tel.: +998 71 233 17 70
E-mail: info@novda.group

«Mega Basim Yayin Sanayi ve Ticaret A.S.»da bosildi.
Manzil: 34310, Turkiya Respublikasi, Istanbul shahri,
Guverjin ko'chasi, 3/1-uy.
Tel.: +90 212 412 17 00
www.mega.com.tr



9 789943 720701

Ushbu kitob "Zakat" klubining
har bir a'zosi-ga beqarar
taqdim etildi

P.S.

Qo'lingizdagi kitobda mening hali unchalik uzun bo'lmagan hayot yo'lim aks etgan. Bu badiiy asar yoki monografiya emas. Ushbu kitobni o'qigan yoshlarimiz o'zlariga ozgina bo'lsa-da, motivatsiya olsalar, faqat xursand bo'laman. Xato (imlo, stilistik va hokazo), kamchiliklarga duch kelsangiz, aybga buyurmaysiz. 😊

Kitob ustida ishlash jarayonida turli fikrlar bo'ldi. «Kerakmi shu, bunaqa kitoblar chiqmagan, agar chiqsa, ertaga boshingga balo bo'lmaydimi, darrov yomonlikka burishmaydimi...» degan xavotir, shubhalar ham tug'ildi. Biroq shaxsiy fikrimcha, agar ko'ngil toza, maqsad xolis bo'lsa, Allohning O'zi asraydi.

Bunday kitoblar bizning yurtida ham shov-shuvli yangilik emas, odatiy hol sifatida, ko'p bo'lishi kerak. «Kitob o'qi!», deb targ'ib qilsag-u, lekin yangi(cha) kitoblarni chop etishga qo'rqib o'tirsak, o'tiraveramiz. Hayotim davomida ko'p holatda Allohga tavakkal qilib, shu bugungi darajaga yetib keldim. Bu safar ham xuddi shunday qilaman. Nima bo'lsa — peshonadan.

Pandemiya davrida, uyda bekor o'tirganda, shu kitobni yozishni Alloh ko'nglimga soldi. Yaxshilikka bo'lsin ilohim. 🌸

Kitob 2021 yilning 21 mart sanasida to'liq tahrirdan chiqib, nihoyasiga yetkazildi. Allohga shukr!

